

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**A.E. PARMANOV, SH.S. SHARIPOV, G‘.T. DADAYEV**

---

---

# **MEHNAT MUHOFAZASI**

---

---

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

UO‘K: 331.105.44  
KBK 74.200.52ya722  
P-25

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Ushbu o‘quv qo‘llanma 3141601 – «Boshlang‘ich ta’lim-tarbiya ishlari tashkilotchisi» yo‘nalishi o‘quvchilari uchun yozilgan bo‘lib, unda ta’lim tizimiga qarashli muassasalarda mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish sanitariyasi, baxtsiz hodisalarning oldini olish choralari va yong‘inga qarshi tadbirlarni tashkil etish masalalari, mehnat faoliyati jarayonida o‘quvchilarning mehnat xavfsizligini ta’minlaydigan tashkiliy tadbirlar mazmuni, shuningdek, o‘quv ustaxonalari va ish o‘rinlarining sanitariya talablari, sinf va o‘quv xonasidagi mikroiklim va yoritish tizimi kabi masalalar yoritib berilgan.

*Taqrizchi: T. Ochilov — TTYSI dotsenti, t. f. n.*

---

## KIRISH

Mustaqil davlatimizning kelajakdagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti kasb-hunar kollejarimiz oldiga qo'yilgan vazifalarning qanchalik muvaffaqiyat bilan bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki kasb-hunar kolleji o'quvchilarini mehnatga, ijtimoiy hayotga tayyorlashdek ulkan vazifalarni bajarish ularda o'z kasbiga muhabbat uyg'ota borib, bilim olish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uqtirib o'tilganidek, o'quvchilarga zamonaviy texnik ta'lim, mehnat tarbiyasini berish, kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish, ularning bilim va kasbiy mahoratini hosil qilish muhimdir. Maktablarda mehnat darslarini tashkil qilish uchun, avvalo, pedagogika o'quv yurtlarini yaxshi jihozlash, laboratoriya va o'quv ustaxonalarini tashkil etishni va ulardan unumli foydalanishni o'rgatish kerak bo'ladi. Bo'lg'usi mehnat fani o'qituvchilari, o'quv yurtlarida olgan tajribasi, bilim va ko'nikmalariga suyanagan holda dars beradilar.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish;

- mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona talablarni belgilash;

- mehnatning ekologik jihatdan xavfsiz sharoitlari yaratilishini va ish joylarida atrof-muhit holati muntazam nazorat etilishini ta'minlash;

- ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish talablari bajarilishini nazorat qilish.

Mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, joylarda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy

muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari amalga oshiradi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini me'yorlariga rioya qilinishi ustidan nazorat va tekshiruvni quyidagilar amalga oshiradi:

a) maxsus vakolatga ega davlat organlari va ularning inspeksiyalari;

b) kasaba uyushma qo'mitalari yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari.

Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil ish joylaridagi mehnatni muhofaza qilish holatini to'sqinliksiz tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va bunga aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish huquqiga ega. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakilga o'z vazifalarini bajarishi uchun har haftada ish paytida kamida ikki soat vaqt ajratib beriladi va o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanadi.

Xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida O'zbekiston Respublikasining korxonalari va fuqarolari tomonidan ishlar bajarilganda, ularda nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilishga oid talablar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar hamda standartlarga muvofiq qo'llaniladi.

Ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishi uchun rahbar javobgar hisoblanadi.

va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo'yicha ishlash huquqini beradi.

### **III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOY HIMOYA QILISH**

#### **20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish**

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

#### **21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish**

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

#### **22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish**

Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish

davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish**

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

**24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari**

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

#### **IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH**

**25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

— boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

— qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

— davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;

— davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

— davlat grantlari miqdori va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

— davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;

— ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

## **26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi**

Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

— ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

— ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

— davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

— o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

— o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

— ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

— davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

— pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

## **27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

— ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

— ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

— o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;

— ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

## **28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish**

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

## **29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar**

Ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

## **V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR**

### **30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari**

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

### **31-modda. Ta'limni moliyalash**

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy



budjetlar mablagʻlari, shuningdek, budjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan amalga oshiriladi.

### **32-modda. Taʼlimni rivojlantirish fondlari**

Taʼlimni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

### **33-modda. Xalqaro hamkorlik**

Taʼlim muassasalari taʼlim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli oʻquv yurtlari bilan bevosita aloqalar oʻrnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qoʻshma oʻquv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

### **34-modda. Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor boʻlgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar boʻladilar.

Toshkent shahri  
1997-yil 29-avgust  
464-I-son

**Oʻzbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti I. KARIMOV**

## **1.2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mehnatga, taʼlimga, sogʻliqqa tegishli moddalarini oʻrganish**

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, xohish-irodasining amalga oshirilishi, ezgu maqsad-niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Shu kafolat Vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo hamjihatlig-u doʻstligini, mustaqillikning barqarorligini uzoq yillar davomida taʼminlashga shart-sharoit yaratadi. Zikr qilingan kafolat respublikamiz Konstitutsiyasida oʻz ifodasini topdi va shu hujjat orqali boshqa huquqiy qonunlar yuzaga keldi. Boshqacha aytganda, hamma huquqiy hujjatlar Konstitutsiyada koʻrsatilgan qonunlar asosida koʻriladi. Shuning uchun ham «Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri, koʻp jihatdan Konsti-

tutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq», — degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» asarida.

Konstitutsiyani puxta o'rganmagan va bilmagan kishi o'z haq-huquqini bilmaydi. Huquqini bilmagan kishining hayoti va umri qullarning turmush tarziga o'xshaydi. Holbuki, bizning bugungi mustaqil O'zbekiston erkin va ravshan fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir fuqarolarga muhtojdir.

Shu nuqtayi nazardan fuqarolar o'rtasida huquqiy ta'lim va tarbiya berish juda muhim vazifadir. Chunki o'z huquqlarini va burchlarini bilgan kishi xalq xo'jaligining barcha sohalarida ongli ravishda harakat qiladi, mehnat qiladi va faollik ko'rsatadi. Prezidentimiz Konstitutsiya haqida fikr yuritib: «Tabiiyki, har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsulidir», — deydi.

Bizning Konstitutsiyamiz o'zbek xalqining manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan yagona qomusiy majmuadir. Boshqacha aytganda, u o'zbek xalqining tafakkur gavharidir. Prezidentimiz «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» asarida fuqarolar burchlari, ularning jamiyatda tutgan o'rni, shuningdek, haq-huquqlari, shaxsning va shaxs mol-mulkining himoyalaniishi to'g'risida qimmatli fikrlar bildiradi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li Konstitutsiyaga asoslangandir. Bizning konstitutsiyaviy siyosatimiz o'z milliy davlatchiligimizni, iqtisodiyotimizni va ma'naviyatimizni kamolot cho'qqilariga olib chiqishga qaratilgan. Davlatimizning bosh qonuni — Konstitutsiya doirasida harakat qilgan kishi o'zini erkin his qiladi, qo'rqib yashamaydi, g'ururini oyoqosti qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Bu har bir fuqaro uchun zarurdir. Eng asosiysi, insonlar o'z huquqlari doirasida faoliyat ko'rsatishlari lozim.

Prezidentimiz o'z asarlarida «O'zbekistonda davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi xalq bo'lib, davlat xalqning irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi», — degan g'oyani ilgari suradi. Chindan ham xalqqa xizmat qilmagan hokimiyat tez

orada inqirozga yuz tutadi. Davlatning asosiy vazifasi xalq haqida qayg'urishdan iboratdir. Shuning uchun ham davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Prezidentimiz «Huquqiy davlatning asosiy belgisi — barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidadir», — deb ta'kidlaydi. Bu qonun oldida oddiy ishchidan tortib, vazir ham teng javob beradi. Konstitutsiya va boshqa amaldagi qonunlarga bo'ysunmagan yoki ularni buzgan vazirlar va boshqa lavozimdagi amaldorlar ham ishdan chetlatilmoqda. Bu qonun kuchini ko'rsatib turibdi.

Agar qonun amalda tatbiq etilmasa, u xalq oldida hech qanday obro'-e'tiborga ega bo'lmaydi. Qonun hamma uchun, kim bo'lishidan va qaysi amal kursisida o'tirishidan qat'i nazar, teng bo'lsa, u ma'naviy, tarbiyaviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shuning uchun ham «Fuqaro—jamiyat—davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi topilmoqda. Bu yechim qonun va huquqlarning barcha uchun barobarligida yaqqol ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish demokratik huquqiy davlatni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular istagan rahbar yoki idora boshlig'idan o'z haq-huquqini talab qilishga va, ayni chog'da, o'z burchini og'ishmay ado etishga qodir bo'lsalar, ongli ravishda mustaqillikni himoya qiluvchi, qayta qurishga muhtoj bo'lmagan mustahkam davlatni vujudga keltirishga, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga layoqatli kishilar bo'lib yetishadilar.

### **1.3. «Mehnat muhofazasi» fanining insonlar hayotida tutgan o'рни**

Mehnat muhofazasi qonuniy hujjatlar tizimidan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyena va profilaktik davolash tadbirlarini tashkil etish, ish jarayonida ishchi-xizmatchilarning sog'lig'i, ish qobiliyatini saqlash sharoitlarini ta'minlash.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida mehnat muhofazasini yaxshilashga qaratilgan yo'nalishlardan biri ishchi xodimlarning mehnat xavfsizligini yaratish, og'ir mehnat sharoiti tufayli

kasb kasalliklarini keltirib chiqaradigan holatlarni bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishdir. Mehnat qonuniga mos holda, korxona va tashkilotlarda, zamonaviy xavfsizlik texnikasi qonun va qoidalarini joriy qilgan holda, barcha ish o'rinlari kerakli texnika jihozlari bilan ta'minlanishi shart. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida mehnat muhofazasini ta'minlash, mehnat jamoalari faoliyatini tashkil etish va «Mehnat qonuni» ga muvofiq tarzda ishni tashkil qilish korxona rahbarlarining asosiy vazifalaridan biridir.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunga va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilmaydigan mansabdor shaxslar amaldagi qonunlar bo'yicha jazo oladilar. Ish joylarida jarohat va kasb kasalliklarining oldini olish faqat rahbarlarning bilimi, malakasiga bog'liq bo'lmasdan, barcha muhandis-texnik xodimlarning mehnat muhofazasini saqlagan holda, ishni mohirona tashkil etishiga ham bog'liqdir. «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, korxona rahbarlari yil davomida ishchi va xodimlarning mehnat muhofazasi qonun-qoidalariga qay darajada amal qilganliklariga qarab turli xildagi mukofot va taqdirlashlarni qisman yoki butunlay bekor qilish huquqiga ega-dirlar.

### **Xavfsizlik texnikasining ahamiyati**

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish davlat ishidir. Davlatimiz mehnatkashlarning sog'lig'ini muhofaza qilishga va xavfsiz ishlashi uchun sharoitlar yaratib berishga har yili katta mablag' sarf qilmoqda. Sanoatni qayta qurish va xavfsizlik texnikasi sohasida bir qator tadbirlar ko'rilishi natijasida keyingi yillarda O'zbekistonda mashinasozlik sanoatida bo'ladigan baxtsiz hodisalar soni bir necha martaga kamaydi. Xavfsizlik mamlakatimizda mehnatni tashkil qilishning asosiy prinsiplaridan biridir. Xavfsizlik texnikasi shunday tadbirlarni ishlab chiqadiki, bu tadbirlar ishchining ish sharoitida xavfsizligini ta'minlashi kerak, shuningdek, bu tadbirlar ishchiga mehnatning xavfsiz usullarini o'rgatishni o'zining vazifasi qilib qo'yadi. Korxonalarimizda baxtsiz voqealar soni quyidagi tadbirlar natijasida kamayib bormoqda:

1. Mashina, stanok va mexanizmlarning konstruksiyalarini shu mashina, stanok va mexanizmlarda ishlovchi kishini jarohatlanishdan saqlash maqsadida uzluksiz suratda yaxshilab borish;

2. Ihota moslamalarini va ish sharoitlarini uzluksiz suratda takomillashtirib borish (ventilatsiya, so'rib olish moslamalari va boshqalar o'rnatish);

3. Ishga yangi kiruvchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilan tanishtirish;

4. Ishchilarga xavfsizlik texnikasi qoidalarini muntazam o'rgatib borish va ishchilarning xavfsizlik texnikasi qoidalarini yuzasidan olgan bilimlarini tekshirib turish;

5. Ishlovchilarni ichki tartib-qoidalarining va xavfsizlik texnikasiga oid yo'riqnomalarning kompyuterda bosilgan nusxalari bilan, ishning xavfsiz va xavfli usullarini yaqqol ko'rsatuvchi plakat va boshqalar bilan ta'minlash;

6. Korxonaning ma'muriy-texnik xodimlarining xavfsizlik texnikasiga oid tadbirlar ko'rilayotganligini va ishchilarning xavfsizlik texnikasi qoidalariga qanchalik rioya qilayotganliklarini muntazam nazorat qilib borish va boshqalar.

Ammo ayrim korxonalarning rahbarlari va ishchilarning o'zlari xavfsizlik texnikasi qoidalariga befarq qarashi oqibatida baxtsiz voqealar yuz berib turmoqda. Har qaysi ishchi baxtsiz voqeadan saqlanish uchun xavfsizlik texnikasi qoidalarini yaxshi bilib olishi lozim.

### ***Nazorat savollari***

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim qaysi turlarda amalga oshiriladi?

3. Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarga qanday imtiyozlar beriladi?

4. «Mehnat muhofazasi» fanining insonlar hayotida tutgan o'rni.

## **2-BOB. MEHNAT QONUNIYATLARI ASOSLARI**

### **2.1. Mehnat muhofazasiga oid asosiy qonunchilik aktlari**

#### **O'zbekiston Respublikasining Qonuni**

#### **MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RIDA**

Ushbu Qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'i nazar, mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

#### **I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

##### **1-modda. Fuqarolarning mehnatni muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnati muhofaza qilinishi huquqiga egadirlar.

##### **2-modda. Mehnatni muhofaza qilish**

Mehnatni muhofaza qilish — bu tegishli Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

##### **3-modda. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va qonunning qo'llanish sohasi**

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar ushbu Qonun va unga muvofiq chiqariladigan boshqa me'yoriy hujjatlardan iborat bo'ladi.

Ushbu Qonun mulk va xo'jalik yuritish shakli turlicha bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar\* bilan, shu jumladan, ayrim yollovchilar bilan mehnat munosabatlarida turgan barcha ishlovchilar, kooperativlarning a'zolari, ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan oliy o'quv yurtlari talabalari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar texnika bilim yurtlari va umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilari, korxonalarda ishlashga jalb etiladigan harbiy xizmatchilar, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar, sud hukmi

bilan jazoni o'tayotgan shaxslar, axloq tuzatish-mehnat muassasalari korxonalarida yoki hukmlar ijrosini amalga oshiruvchi idoralar belgilaydigan korxonada ishlash davrida, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladigan boshqa turdagi mehnat faoliyati ishtirokchilariga nisbatan amal qiladi.

\* Matnda bundan keyin «korxonalar» deb yuritiladi.

#### **4-modda. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati**

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati:

— korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligi;

— mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirib borish;

— mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona tartib-qoidalar belgilab qo'yish;

— mehnatning ekologiya jihatidan xavfsiz sharoitlar yaratilishini va ish joylarida atrof-muhit holati muntazam nazorat etilishini ta'minlash;

— korxonalarda mehnatni muhofaza qilish talablari hamda joylarda uning bajarilishini nazorat qilish;

— mehnatni muhofaza qilishni mablag' bilan ta'minlashda davlatning ishtirok etishi;

— oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida mehnat muhofazasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash;

— xavfsiz texnika, texnologiyalar va xodimlarni himoyalash vositalari ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish;

— fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vatanimiz va chet el ilg'or tajribasidan keng foydalanish;

— ishlovchilarni maxsus kiyim va poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, parhez ovqatlar bilan bepul ta'minlash;

— korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz shart-sharoitlarini yaratishga ko'maklashuvchi soliq siyosatini yuritish;

— ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisani va har bir kasb kasalligini tekshirib chiqish hamda hisobga olib borishning va shu asosda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar hamda kasb kasalliklariga chalinishlar darajasi haqida aholini xabardor qilishning majburiyligi;

— ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga yo‘liqqan ishlovchilarning manfaatlarini ijtimoiy himoyalash;

— kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari korxonalar va alohida shaxslarning mehnatni muhofaza qilishni ta‘minlashga qaratilgan faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

— mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish chog‘ida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish prinsiplariga asoslanadi.

#### **5-modda. Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish**

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

#### **6-modda. Jamoat birlashmalarining mehnatni muhofaza qilish muammolariga oid qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etishi**

Korxonalar, mutaxassislar, fuqarolar mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq amal qiladigan jamoat birlashmalariga uyushishlari mumkin. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari, nazorat qilish idoralari, shuningdek, korxonalar va birlashmalarga har tomonlama yordam va madad ko‘rsatadilar hamda mehnatni muhofaza qilishni ta‘minlash masalalari bo‘yicha qarorlar tayyorlash va qabul qilishda ular ishlab chiqqan nizomlar va tavsiyalarni hisobga oladilar.

#### **7-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar**

O‘zbekiston Respublikasi korxonalari va fuqarolari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida ishlarni bajarayotganlarida, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ularda ko‘zda tutilgan talablar, agar o‘zgacha shartlashilmagan bo‘lsa, ushbu Qonunga, O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunlariga muvofiq qo‘llanadi.

O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlayotgan chet el fuqarolari uchun mehnatni muhofaza qilish masalalariga doir munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari manfaatdor tomonlarning o‘zaro bitimlari bilan belgilab qo‘yiladi.



## II BO'LIM. MEHNATNING MUHOFAZA QILINISHINI TA'MINLASH

### **8-modda. Mehnat muhofazasini me'yoriy ta'minlash**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi bilan birgalikda mehnatni, atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan standartlari, qoida va me'yorlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan ishlab chiqishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilaydi, shuningdek, kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olishga oid respublikaning aniq maqsadga qaratilgan dasturini ishlab chiqadi va moliyaviy ta'minlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Vazirliklar va idoralar tegishli kasaba uyushmasi idoralari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqadilar va moliyaviy ta'minlaydilar.

Korxona ma'muriyati, yollovchi, mulkdor yoxud ular vakolat bergan boshqaruv idorasi\* korxonada mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlarining talablari, shuningdek, jamoa shartnomasida ko'zda tutilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi.

\* Matnda bundan keyin «ma'muriyat» deb yuritiladi.

Korxonalarning ishlovchilari respublikaning tegishli qonunlari va me'yoriy hujjatlari, jamoa shartnomalari bilan belgilangan mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlari talablariga rioya etishlari shart.

### **9-modda. Korxonalar va obyektlarni loyihalash, qurish va ishlatishda, ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash va ta'mirlashda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash**

Standartlar ergonomika, mehnatni muhofaza qilishga doir qoidalar va me'yorlar talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish binolari va ishootlarini loyihalash, qurish hamda qayta qurish, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqish, tayyorlash, ta'mirlash, texnologiyalarni joriy etishga, shu jumladan, xorijdan sotib olinganlarini joriy etishga yo'l qo'yilmaydi.

Hech bir yangi yoki qayta qurilayotgan korxona, ishlab chiqarish vositalari, agar ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan xavfsizlik shahodat-nomasiga ega bo'lmasa, foydalanishga qabul qilinishi va ishga tushirilishi mumkin emas.

Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan korxonalar O'zbekiston Respublikasining tegishli nazorat idoralari beradigan faoliyatni amalga oshirish huquqini ta'minlovchi ruxsatnomani oldindan taqdim etishlari shart. Korxonaning ko'rsatilgan ruxsatnomani olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va ishlovchilar sog'lig'i hamda hayotiga xavf tug'diruvchi korxonalar faoliyati yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish ular mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan to'xtatib qo'yilishi kerak.

Yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yorlari (konsentratsiyasi) ishlab chiqilmagan va belgilangan tartibda ekspertizadan o'tmagan zararli moddalarni ishlab chiqarishda qo'llash taqiqlanadi.

#### **10-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash**

O'zbekiston Respublikasida davlat va korxonalar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korxonalarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlarida ishlash uchun mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydilar.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalar va o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish kursini, albatta, o'tishlarini tashkil etishlari kerak.

Vazirliklar, idoralar, konsernlar, assotsiatsiyalar va boshqa xo'jalik boshqaruvi idoralari mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlash uchun mutaxassislarning qayta ixtisoslashuvini ta'minlaydilar.

#### **11-modda. Mehnatni muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash**

Mehnatni muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash davlat tomonidan, shuningdek, mulk shaklidan qat'i nazar jamoat birlashmalari, korxonalarning ixtiyoriy badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Mehnatni muhofaza qilish uchun tegishli budjetlardan alohida qayd bilan ajratiladigan budjet mablag'lari (respublika va mahalliy)

boshqaruv hamda nazorat idoralarini saqlash, ilmiy tadqiqot ishlarini moliyaviy ta'minlash, mehnatni muhofaza qilishga oid davlatning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir korxona mehnatni muhofaza qilish uchun zarur mablag'larni jamoa shartnomasida belgilanadigan miqdorda ajratadi. Korxonalarning xodimlari ana shu maqsadlar uchun qandaydir qo'shimcha chiqim qilmaydilar.

Korxonalar o'zining xo'jalik, tijorat, tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyatidan keladigan foyda (daromad, shuningdek, boshqa manbalar) hisobiga mehnatni muhofaza qilishning markazlashtirilgan fondlarini tashkil etish huquqiga ega.

*(11-moddaning to'rtinchi qismidagi ikkinchi jumla O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi 621-I-son Qonuniga muvofiq chiqarilib tashlangan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1998 y., 5—6-son, 102-modda)*

Mehnatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mablag'larni boshqa maqsadlarga ishlatish mumkin emas.

Fondlarni tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi ishtirokida belgilanadi.

**12-modda. Mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarishdan korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash**

Korxonalar foydasining mehnatni muhofaza etishga oid adabiyotlar, plakatlar, boshqa targ'ibot vositalarini nashr etish hisobiga hosil bo'lgan qismiga, shuningdek, ilmiy tadqiqot va loyiha konstruktorlik tashkilotlari foydasining jamoani va ishlovchilarni yakka tartibda himoyalash vositalarining yangilarini yaratish, ishlab chiqarish muhitini nazorat qilish asboblari va dozimetriya vositalarining yangilarini yaratish, ishlab chiqarish va mavjud vositalarni sotish hisobiga hosil bo'lgan qismiga imtiyozli soliq solinadi.

**13-modda. Korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash**

Korxonadagi, har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Korxonada mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta‘minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o‘rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to‘g‘risida mehnat jamoalarini o‘z vaqtida xabardor qilish ma‘muriyat zimmasiga yuklanadi.

Mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlab chiqarishlarda, shuningdek, o‘ta noxush haroratli yoki ifloslanishlar bilan bog‘liq sharoitlarda bajariladigan ishlarda mehnat qiluvchilarga davlat boshqaruvi idoralari belgilagan me‘yorlarda maxsus kiyim, poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari, yuvish va dezinfektsiyalash vositalari, sut yoki unga tenglashadigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, parhez ovqat bepul beriladi.

Korxonada mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta‘minlash yuzasidan ma‘muriyat bilan xodimlarning o‘zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko‘zda tutiladi.

#### **14-modda. Mehnatni muhofaza qilish xizmatlari**

Vazirliklar, idoralar, konsernlar, assotsiatsiyalar boshqa xo‘jalik organlari kasaba uyushmalari Markaziy (respublika) qo‘mitasi bilan kelishib, o‘zlari tasdiqlaydigan nizomga muvofiq mehnat muhofazasi ishlarini muvofiqlashtirib boradilar.

Xodimlar soni 50 nafar va undan oshadigan korxonalarda maxsus tayyorgarlikka ega shaxslar orasidan mehnatni muhofaza qilish xizmatlari tuziladi (lavozimlar joriy etiladi), 50 va undan ziyod transport vositalariga ega bo‘lgan korxonalarda esa, bundan tashqari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tuziladi (lavozimlar joriy etiladi). Xodimlar soni va transport vositalari miqdori kamroq korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalarini bajarish rahbarlardan birining zimmasiga yuklatiladi.

Mehnatni muhofaza qilish va yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari Kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan nizomlar asosida ishlaydi va o‘z maqomiga ko‘ra korxonaning asosiy xizmatlariga tenglashtiriladi hamda uning rahbariga bo‘ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatlarining mutaxassislari barcha xodimlar mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me‘yorlariga rioya etishlarini nazorat qilish, tarmoq bo‘linmalari rahbarlariga aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish haqida bajarilishi shart bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarni buzayotgan shaxslarni javobgarlikka

tortish haqida korxonalarning rahbarlariga taqdimnomalar kiritish huquqiga egadirlar.

Mehnatni muhofaza qilish va yo'l harakati xavfsizligi xizmatlarining mutaxassislari ularning xizmat vazifalariga taalluqli bo'lmagan ishlarni bajarishga jalb etilishlari mumkin emas.

Mehnatni muhofaza qilish va yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari korxona faoliyati to'xtatilgan taqdirdagina tugatiladi.

### **15-modda. Xodimlarni baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ijtimoiy sug'urta qilish**

Korxonalarning xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va shartlar bilan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy sug'urta qilinishlari shart.

## **III BO'LIM. ISHLOVCHILARNING MEHNATNI MUHOFAZA QILISHGA DOIR HUQUQLARINI RO'YOBGA CHIQARISHDAGI KAFOLATLAR**

### **16-modda. Ishga qabul qilishda mehnatni muhofaza qilish huquqi kafolatlari**

Mehnat shartnomasi (bitimi) shartlari mehnatni muhofaza qilishga oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq bo'lishi shart. Fuqarolarni ularning salomatligiga zid bo'lgan ishga qabul qilish man etiladi.

Ma'muriyat xodimni kasb kasalligining paydo bo'lish ehtimoli yuqori darajada ekanligi oldindan ayon bo'lgan ishga qabul qilayotganda uni bu haqda ogohlantirishi shart.

### **17-modda. Majburiy tibbiy ko'riklar**

Korxona sog'liqni saqlash idoralari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq ravishda bir qator kasblar va ishlab chiqarishlarning xodimlarini mehnat shartnomasini imzolash paytida — dastlabki tarzda va mehnat shartnomasi amal qiladigan davrda vaqt-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart. Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bosh tortishga haqli emaslar.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bosh tortsalar yoki o'tkazilgan tekshirishlarning natijalari bo'yicha tibbiy komissiyalar beradigan tavsiyalarni bajarmasalar, ma'muriyat ularni ishga qo'ymaslik huquqiga egadir. Xodim, agar u o'zining salomatligi yomonlashishi mehnat sharoiti bilan bog'liq deb hisoblasa, navbatdan tashqari tibbiy ko'rik o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish paytida xodimning ish joyi (lavozi-mi) va o'rtacha ish haqi saqlanadi.

### **18-modda. Mehnat faoliyati jarayonida mehnatni muhofaza qilish huquqining kafolatlari**

Ma'muriyat mehnatni muhofaza qilishning zamonaviy vositalarini joriy etishi va ishlab chiqarishda jarohatlanish hamda kasb kasalliklarining oldini oladigan sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlashi shart.

Xodimning salomatligi yoki hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lganda, u bu haqda zudlik bilan ma'muriyatga xabar qiladi, bu hol nazorat organlari tomonidan tasdiqlangan taqdirda ma'muriyat ishni to'xtatishi va xavfni bartaraf etish chorasini ko'rishi shart. Ma'muriyat tomonidan zarur choralar ko'rilmagan taqdirda, xodim ishni xavf bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turishga haqlidir va unga hech qanday intizomiy jazo berilmaydi.

Ma'muriyat, agar mehnatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan, xodimning hayoti va salomatligi uchun to'g'ridan to'g'ri jiddiy xavf hamon saqlanib turgan bo'lsa, undan ishni qayta boshlashni talab qilishga haqli emas va xodimga ish to'xtatib turilgan butun davr uchun barcha moddiy ziyonni to'lashi shart.

Ma'muriyat mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzgan va bu nazorat qiluvchi idoralar tomonidan tasdiqlangan taqdirda, mehnat shartnomasi xodimning arizasiga ko'ra, unga ishdan bo'shaganda beriladigan pul to'langani holda istalgan paytda bekor qilinishi mumkin.

Xodimda kasb kasalligi belgilari aniqlangan taqdirda ma'muriyat tibbiy xulosa asosida uning ixtisosini o'zgartirgunga qadar o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda boshqa ishga o'tkazishi lozim.

### **19-modda. Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va ularga yo'l-yo'riqlar berish**

Korxonalarning barcha xodimlari, shu jumladan, rahbarlari o'z kasblari va ish turlari bo'yicha davlat nazorat idoralari belgilagan tartib va muddatlarda o'qishlari, yo'l-yo'riqlar olishlari, bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishlari hamda qayta attestatsiyadan o'tishlari shart.

Ma'muriyat barcha yangi ishga kirayotganlar, shuningdek, boshqa ishga o'tkazilayotganlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz

usullarini o'rgatishni tashkil etishi, mehnatni muhofaza qilish va baxtsiz hodisalarda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishi shart.

O'ta xavfli ishlab chiqarishlarga yoki kasbiy tanlov talab qilinadigan ishga kirayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha imtihonlar topshiriladigan va keyin vaqt-vaqti bilan qayta attestatsiyadan o'tiladigan o'quv o'tkaziladi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan tartibda o'qitish, yo'l-yo'riqlar berish va bilimlarni tekshirishdan o'tmagan shaxslarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

Ma'muriyat xodimlarining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha malakasini muntazam oshirib borilishini ta'minlashi shart.

**20-modda. Mehnat sharoitlari hamda mehnatning muhofaza qilinishi to'g'risida xodimlarning axborot olishga doir huquqlari**

Korxona xodimlari ish joylaridagi mehnat sharoitlarining ahvoli va muhofaza qilinishi, bunda lozim bo'lgan shaxsiy himoya vositalari, imtiyozlar va tovon pullari to'g'risida axborot talab qilish huquqiga egadirlar, ma'muriyat esa ularga bunday axborotni berishi shart.

**21-modda. Xodimlarning ayrim toifalari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Xodimlarning ayrim toifalari (xotin-qizlar, yoshlar, mehnatga qobiliyati cheklangan shaxslar), shuningdek, mehnatning og'ir va zararli sharoitlarida ishlovchi xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

**IV BO'LIM. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHGA DOIR  
QONUNLAR VA BOSHQA ME'YORIY HUJJATLARGA  
RIOYA ETILISHI USTIDAN DAVLAT VA  
JAMOATCHILIK NAZORATI**

**22-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati**

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga hamma joylarda rioya etilishi ustidan davlat

nazoratini bunga maxsus vakolat berilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizom asosida ishlovchi davlat idoralari amalga oshiradilar.

### **23-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati**

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari saylaydigan vakillar amalga oshiradilar. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan vakil ish joylarida mehnat muhofazasining ahvolini moneliksiz tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish huquqiga egadir. Mehnat muhofazasi bo'yicha vakilga o'z vazifalarini bajarishi uchun har haftada ish paytida kamida ikki soat vaqt ajratib beriladi va o'rtacha ish haqi miqdorida haq to'lanadi.

### **24-modda. Kasaba uyushmalarining xodimlarning mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqini himoya etish borasidagi huquqlari**

Kasaba uyushmalari xodimlarning mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqini qonun hujjatlariga muvofiq himoya qiladilar.

Kasaba uyushmalari mehnatni muhofaza qilishga doir normativ hujjatlarni ishlab chiqishda va kelishib olishda belgilangan tartibda ishtirok etadilar.

Kasaba uyushmalari ishlab chiqarish vositalarini sinash va foydalanishga qabul qilish davlat komissiyalari ishida, ishlab chiqarishdagi kasb kasalliklarini tekshirishda, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) majlislarida ishtirok etadilar.

Xodimlarning sog'lig'iga mehnatda mayib bo'lish oqibatida yoki o'z mehnat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yetkazilgan zarar qoplanishi uchun hamda ularning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqlari kamsitilgan boshqa hollarda kasaba uyushmalari o'z tashabbusi bilan yoki xodimlarning arizalariga binoan ularning huquqlarini himoya qilib, da'vo arizalari bilan sudga murojaat etishlari mumkin.



*(24-modda O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrdagi 320-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002-y., 1-son, 20-modda)*

## **V BO'LIM. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDAGI QONUNLAR VA BOSHQA ME'YORIY HUJJATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

### **25-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ta'minlanmagani uchun korxonalarning javobgarligi**

Korxonalar mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ta'minlanmaganligi uchun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ijtimoiy sug'urta qilish maqsadlariga oshirilgan tariflar bo'yicha mablag'lar ajratadilar. Tariflar mehnat sharoiti bajariladigan ishlar xavfliligi, zararliligi va og'irligiga bog'liq holda vaqt-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini muhofaza qilish vazirligining mehnat sharoitlari davlat ekspertizasi bergan xulosa tariflarni qayta ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi.

*(25-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 12-maydagi 220-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 5-son, 89-modda)*

### **26-modda. Mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish ahamiyatidagi mahsulotni tayyorlaganlik va sotganlik uchun korxonalarning iqtisodiy javobgarligi**

Mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish ahamiyatiga molik mahsulot ishlab chiqarayotgan va yetkazib berayotgan korxonalar iste'molchilarga yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va shartlarda qoplaydilar.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha standartlar, qoidalar va me'yorlarning O'zbekiston Respublikasida belgilangan talablarga nomuvofiq ishlab chiqarish vositalarini, yakka tartibdagi va jamoani himoyalash vositalarini, shu jumladan, xorijdan sotib olinganlarini sotish va targ'ib qilish g'ayriqonuniy hisoblanadi. Bunday faoliyat natijasida korxona olgan foyda belgilangan tartibda budjetga musodara qilinishi kerak.

**27-modda. Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik**

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar buzilishida aybdor bo'lgan yoki davlat va jamoatchilik nazorati idoralari vakillarining faoliyatiga monelik qilayotgan mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Korxonalarning boshqa xodimlari mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarning talablarini buzganlik uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

**28-modda. Ishlab chiqarishda jabrlangan xodimlarga ziyon yetkazganlik uchun korxonalarning moddiy javobgarligi**

Ma'muriyatning aybi bilan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan xodimga O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va miqdorda korxona bir marta beriladigan nafaqa to'laydi hamda sog'liqqa yetkazilgan shikast uchun tovon to'laydi.

Bir marta beriladigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasi (bitimi) bilan belgilanadi va jabrlanuvchining bir yillik maoshidan kam bo'lmasligi lozim.

Agar xodim davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga muhtoj bo'lsa, korxona jabrlangan xodimga bu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlarni to'laydi, shuningdek, jabrlanuvchining kasbini o'zgartirib qayta tayyorlanishini va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishini ta'minlaydi yoki ana shu maqsadlar uchun ketadigan xarajatlarni qoplaydi.

**29-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxonaning moddiy javobgarligi**

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxona tegishli huquqqa ega bo'lgan shaxslarga moddiy ziyonni O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartib va miqdorlarda qoplaydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadigan miqdorda bir marta beriladigan nafaqa to'laydi.

Toshkent shahri  
1993-yil 6-may  
839-XII-son

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti I. KARIMOV**

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSIDAN KO‘CHIRMA**

### **XIII BOB. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH**

#### **211-modda. Mehnatni muhofaza qilish talablari**

Barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish talablari ushbu Kodeks, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlar, shuningdek, texnik standartlar bilan belgilanadi.

Ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgar bo‘ladi.

#### **212-modda. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish normalari, qoida va yo‘riqnomalariga rioya etish majburiyati**

Xodim mehnatni muhofaza qilish normalariga, qoida va yo‘riqnomalariga, shuningdek, ma‘muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilishi, olingan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi, insonlar hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf soladigan har qanday holat haqida, shuningdek, ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida o‘zining bevosita rahbarini (brigadiri, ustasi, uchastka boshlig‘i va boshqalarni) darhol xabardor qilishi shart.

#### **213-modda. Xodimning mehnatni muhofaza qilish haqida ma‘lumot olish huquqi**

Ish beruvchi mehnat shartnomasini tuzishda va boshqa ishga o‘tkazishda xodimni mehnat sharoitlari to‘g‘risida, shu jumladan, kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish ehtimoli, shu bilan bog‘liq holda unga beriladigan imtiyoz va kompensatsiyalar, shuningdek, shaxsiy himoya vositalari haqida xabardor qilishi kerak.

Ish beruvchi xodimlarga yoki ularning vakillariga muayyan ish joyidagi va ishlab chiqarishdagi mehnatni muhofaza qilishning holati haqida ham axborot berishi shart.

#### **215-modda. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish va o‘qitish**

Xodimlarga texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong‘in chiqishdan saqlanish va mehnatni muhofaza qilishning

boshqa qoidalari haqida yo‘l-yo‘riqlar berish hamda xodimlarning mehnatni muhofaza qilishning hamma talablariga rioya etishlarini doimiy ravishda tekshirib borish vazifasi ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Ish beruvchi xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qishlarini va ularning bilimlarini tekshirib turishlari shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘quvdan, yo‘l-yo‘riqdan o‘tmagan va bilimlari tekshirilmagan xodimlarni ishga qo‘yish taqiqlanadi.

**216-modda. Mehnatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratiladigan mablag‘**

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish uchun belgilangan tartibda mablag‘lar va zarur materiallar ajratiladi. Bu mablag‘ va materiallarni boshqa maqsadlarga sarflash man etiladi. Mazkur mablag‘ va materiallardan foydalanish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi va Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Mehnat jamoalari, ularning vakillik organlari mehnatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan mablag‘lardan foydalanilishini tekshirib boradilar.

**217-modda. Xodimlarni sut, davolash-profilaktika, oziq-ovqat, gazli, sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta‘minlash**

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo‘lgan xodimlar belgilangan me‘yorlar bo‘yicha:

- sut (shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari);
- davolash-profilaktika oziq-ovqati;
- gazli, sho‘r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun);
- maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, boshqa shaxsiy

himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta‘minlanadilar.

Bunday ishlarning ro‘yxati, beriladigan narsalarning normalari, ta‘minot tartibi va shartlari jamoa shartnomalarida, agar ular tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

**218-modda. Sog‘lig‘i holatiga ko‘ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta‘siridan xoli bo‘lgan ishga o‘tkazish**

Sog‘lig‘i holatiga ko‘ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta‘siridan xoli bo‘lgan ishga o‘tkazishga muhtoj

xodimlarni ish beruvchi, ularning roziligi bilan, tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamay, ana shunday ishlarga o'tkazishi shart.

Sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'tkazilganda shunday ishga o'tkazilgan kundan boshlab ikki hafta mobaynida xodimlarning avvalgi o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Sil kasalligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi sababli kamroq haq to'lanadigan boshqa ishga vaqtincha o'tkazilgan xodimlarga shu ishga o'tgan vaqt uchun, lekin ikki oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida kasallik varaqasi bo'yicha yangi ishda beriladigan ish haqiga qo'shilganda xodimning avvalgi ishidagi to'liq ish haqidan oshib ketmaydigan miqdorda nafaqa to'lanadi. Basharti kasallik varaqasida ko'rsatilgan muddatda ish beruvchi boshqa ish topib berolmagan bo'lsa, u holda shuning oqibatida bekor o'tgan kunlar uchun nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Ish bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'iga boshqa tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan vaqtincha kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan xodimlarga ularning sog'lig'i shikastlanganligi uchun javobgar bo'lgan ish beruvchi avvalgi ish haqi bilan yangi ishda oladigan ish haqi o'rtasidagi farqni to'laydi. Bunday farq mehnat qobiliyati tiklangunga qadar yoki nogironligi belgilangunga qadar to'lanadi.

Qonun hujjatlarida sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini xoli etadigan kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda avvalgi o'rtacha ish haqini saqlab qolishning yoki davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lab turishning boshqacha hollari ham nazarda tutilishi mumkin.

### **219-modda. Xodimning o'z hayoti va sog'lig'iga tahdid solayotgan ishni bajarishni rad etish huquqi**

Xodim ish jarayonida o'zining hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi holatlar yuzaga kelib qolganligi to'g'risida ish beruvchiga darhol xabar qiladi. Mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini tekshirib borish va nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi organlar ana shu holatlarni bartaraf etish choralarini ko'radi. Agar zarur choralar ko'rilmasa, xodim o'zining hayoti yoki sog'lig'iga

tahdid soluvchi holatlar bartaraf etilgunga qadar tegishli ishni bajarishni rad etishga haqlidir. Ana shu davr mobaynida xodimning o'rtacha ish haqi saqlanadi.

**220-modda. Nogironlar mehnatini muhofaza qilishning qo'shimcha choralari**

Ish beruvchi belgilangan kvota hisobidan ish joylariga ishga joylashtirish tartibida mehnat organi tomonidan yo'llangan nogironlarni ishga qabul qilishi shart.

TMEK ning nogironlarga to'liqsiz ish rejimi o'rnatish, ularning vazifasini kamaytirish va mehnatning boshqa shartlari haqidagi tavsiyalarini bajarish ish beruvchi uchun majburiydir.

I va II guruh nogironlariga mehnatga haq to'lash kamaytirilmagan holda ish vaqtining haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi.

I va II guruh nogironlariga 30 kalendar kundan kam bo'lmagan muddat bilan yillik uzaytirilgan ta'til beriladi.

Nogironlarni tungi vaqtdagi ishlarga, shuningdek, ish vaqtdan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bunday ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

**221-modda. Xodimlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolash-profilaktika muassasalariga olib borish**

Ish beruvchi ish joyida kasal bo'lib qolgan xodimlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan choralar ko'rishi shart.

Ish joyida og'rib qolgan xodimlarni davolash-profilaktika muassasalariga olib borish, zarur hollarda, ish beruvchining hisobidan amalga oshiriladi.

**222-modda. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni hisobga olib borish va tekshirish**

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni o'z vaqtida tekshirishi va hisobga olib borishi shart.

Jabrlanuvchining talabiga binoan tekshiruv tugagan kundan e'tiboran uzog'i bilan uch kun ichida ish beruvchi shu baxtsiz hodisa to'g'risida dalolatnoma berishi shart.

**223-modda. Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan nazorat qilish va tekshiruv o'tkazish**

Mehnatni muhofaza qilishning holati ustidan nazorat qilish va tekshiruvni davlat organlari amalga oshiradilar.

Mehnatni muhofaza qilishning norma va qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoat tekshiruvini kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari amalga oshiradilar.

## **2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ishchi va xizmatchilarning huquqlari, dam olish, o‘qish, ijtimoiy ta‘minot huquqlari, ishga olish, ishdan bo‘shatish tartiblari**

Xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar qoidalariga binoan yozma ravishda tuzilgan mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi. Bunda mehnat shartnomasi taraflarining birontasi boshqa tarafning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

### **Ishga qabul qilish, shuningdek:**

a) tanlov asosida (Tanlov to‘g‘risidagi Nizom **Kasaba uyushmasi qo‘mitasi** bilan kelishib tasdiqlanadi);

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 11-yanvardagi 4-son Qarori bilan tasdiqlangan «Ish beruvchining buyurtmasi bo‘yicha kasanachi tomonidan ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun Namunaviy mehnat shartnomasi»ga binoan tuzilgan kasanachi tomonidan ish beruvchining buyurtmasiga binoan ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun mehnat shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mutaxassisligiga, malakasiga va mehnat shartnomasiga muvofiq xodimlar to‘la-to‘kis ish bilan ta‘minlanadilar.

Mehnat shartnomasini **Ish beruvchining** tashabbusi bilan bekor qilinishi faqatgina **Kasaba uyushmasi qo‘mitasining** oldindan roziligini olib amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

### **Mehnat shartnomasi:**

— **tashkilot** rahbari bilan tuzilgan shartnomani Mehnat kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslardan biriga ko‘ra;

— tashkilot rahbari, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter bilan, tashkilotda bosh buxgalter lavozimi bo‘lmagan taqdirda

esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilgan Mehnat shartnomasi mulkdorning almashishi sababli bekor qilingan taqdirda **Kasaba uyushmasi qo'mitasining** roziligini olish talab etilmaydi.

Xodimning vaqtincha boshqa ishga o'tkazish haqidagi iltimosi, agar bu iltimos uzrli sabablar tufayli kelib chiqqan va bunday ish tashkilotda mavjud bo'lsa, **Ish beruvchi** tomonidan qanoatlantirilishi kerak.

Xodimning tashabbusi bilan boshqa ishga o'tkazish muddati xodim va **Ish beruvchi** o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda mehnat haqi amalda bajarilayotgan ishga qarab (yoki avvalgi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda) to'lanadi.

Xodimning tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uchun uzrli sabablar deb quyidagilar hisoblanadi:

- betob oila a'zosini parvarishlash zaruriyati;
- ishning ta'lim bilan qo'shib olib borilishi;
- moliyaviy qiyinchiliklar;
- avvalgi ish joyida xodimning hayoti yoki sog'lig'iga tahdid soluvchi omillar vujudga kelishi.

Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan **Ish beruvchining** tashabbusiga ko'ra xodimni uning rozilgisiz vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

**Ish beruvchining** tashabbusi bilan xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish uchun ishlab chiqarish zaruriyati deb quyidagi holatlarda bajarilishi lozim bo'lgan tezkor va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar hisoblanishi mumkin:

- boshqa xodimning ishda vaqtinchalik hozir bo'lmagan davrida (o'quv sessiyasiga, mehnat ta'tiliga va haq to'lanmaydigan ta'tilga ketishi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi sababli);
- ishlab chiqarish avariylari, baxtsiz hodisa, tabiiy ofat va boshqa favqulodda hodisalarning oldini olish zaruriyati yuzaga kelganda;
- xodimning ishga kelmasligi tashkilotning normal faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holda almashtirish zarurligi.

Xodim **Ish beruvchining** tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrda unga bajarayotgan ishga qarab, lekin avvalgi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda ish haqi to'lanadi.



**Ish beruvchi** qisqartirilayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitish ishlarini tashkil etish majburiyatini zimmasiga oladi. Xodimlar soni qisqartirilayotganda qisqartirish oqibatlarini yumshatishga qaratilgan quyidagi choralar nazarda tutiladi:

a) o'rindoshlikni, vaqtincha ishlaydigan xodimlar sonini cheklash, bir necha kasbda ishlashni taqiqlash, fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha bajariladigan ishlarni jamoaning o'ziga berish;

b) xodimlarning xohishiga ko'ra ularga ish haqi saqlanmagan holda qisqa muddatli ta'tillar berish;

d) qisqartirish to'g'risidagi ogohlantirish amal qilayotgan davrda xodimning o'z xohishi bilan mehnat shartnomasini bekor qilinishini tomonlar kelishuviga binoan ogohlantirish muddatiga muvofiq keladigan pullik kompensatsiya to'lash bilan amalga oshirish;

e) xodimlar soni qisqartirilishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirish olgan xodimga ogohlantirish muddati davomida o'ziga qulay vaqtda boshqa ish qidirish uchun haftada 2 kun shu vaqt uchun ish haqi saqlangan holda ishga chiqmaslik huquqini berish.

Agar xodimlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 103-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq ishda qoldirishda afzallik huquqiga ega bo'lmasalar, u holda xodimlarni ishda qoldirishda afzallik beriladigan quyidagi holatlar inobatga olinadi:

a) nogironlik;

b) nafaqa yoshiga yaqinlashib qolganlik (ayollar 53 yosh, erkaklar 58 yosh);

d) ishlayotgan yolg'iz onaning qaramog'ida 14 yoshga to'lmagan bolalar mavjudligi.

### **Ish vaqti va dam olish vaqti**

Tashkilotda ish haftasining quyidagi muddatlari qabul qilinadi (soat):

a) normal mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun — 40 soatdan ortiq bo'lmagan muddat;

b) 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun — 36 soat;

d) I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar uchun — 36 soat;

e) mehnat sharoitlariga baho berishning O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan uslubiyat asosida shahodatdan o'tkazilgan ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun — 36 soatdan ortiq bo'lmagan muddat;

f) 3 yoshgacha bolasi bor xodimlarga haftalik ish soatlari — 35 soat. Bunda ularning maoshi to'liq vaqt ishlagandagidan kam bo'lmasiligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 229-moddasida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda xodimning iltimosiga ko'ra unga to'liqsiz ish vaqti belgilab qo'yilishi shart:

a) oila a'zolaridan birining betobligi;

b) ishning ta'lim bilan qo'shib olib borilishi;

d) profilaktik davolanish zaruriyati;

e) tashkilotda texnologiyadagi va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar tufayli xodimlar soni qisqarishining oldini olish.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarga qo'shimcha ravishda xodimning iltimosiga binoan ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi haqida ogohlantirilgan xodimlarga **Ish beruvchi** tomonidan (ish haqi to'liq miqdorda saqlab qolingan holda) qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasi o'rnatiladi.

**Ish beruvchi** tomonidan yilning sovuq fasllarida ochiq joylarda yoki isitilmaydigan yopiq xonalarda mehnat qiluvchilar uchun tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalariga asosan maxsus tanaffuslardan foydalanish imkoniyati beriladi. Buning uchun ish bajariladigan joyda maxsus isitiladigan xona ajratiladi. Ushbu tanaffuslar haq to'lanadigan ish vaqtiga kiritiladi.

Ishdan tashqari vaqtlarda ishga jalb etish faqat xodimning roziligi bilan amalga oshiriladi. Ish kech (soat 22.00 dan keyin) tamom bo'lgan hollarda **Ish beruvchi** xodimlarni ishga olib kelish va olib ketish majburiyatini oladi va navbatchi transport vositasi bilan ta'minlaydi. Xodimlarni kechki va tungi vaqtlarda, shuningdek, dam olish va bayram kunlari ishga jalb etish alohida hollar-

dagina hamda qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarni hisobga olgan holda, **Ish beruvchining Kasaba uyushmasi qo‘mitasi** bilan kelishib qabul qilgan yozma farmoyishiga binoan amalga oshirilishi mumkin.

Yillik asosiy ta‘til (qonun hujjatlariga binoan asosiy uzaytirilgan ta‘tillar o‘rnatilgan xodimlardan tashqari) barcha xodimlar uchun 15 ish kunidan iborat etib belgilanadi.

Ish beruvchi quyidagi hollarda xodimning ish haqi saqlanib qolinadigan ta‘til berish haqidagi iltimosini qanoatlantirishni o‘z zimmasiga oladi:

- a) yaqin qarindoshi vafot etganda — 3 kun;
- b) xodim yoki uning farzandining to‘y marosimini o‘tkazishga — 3 kun;
- d) farzandi tug‘ilganda — 1 kun;
- e) yangi uyga ko‘chganda — 2 kun.

Yaqin qarindoshlar deb: xodimning ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, farzandi va uning turmush o‘rtog‘ining ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi hisoblanadilar.

Yillik haq to‘lanadigan mehnat ta‘tilini olish huquqiga ega bo‘lgan mehnat stajiga qo‘shimcha ravishda muddati 2 haftadan 4 haftagacha bo‘lgan ish haqi saqlanmagan holda berilgan ta‘tillar ham kiritiladi. Xodimning arizasiga binoan unga ish haqi saqlanmagan holda ta‘til berilishi mumkin, uning muddati xodim bilan **Ish beruvchi** o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat kodeksining 150-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan xodimlardan tashqari (1941—1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari jihatidan ularga tenglashtirilgan I va II guruh nogironlariga, o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolani tarbiyalayotgan ayollarga), yana quyidagi xodimlarga ularning xohishiga ko‘ra ish haqi saqlanmagan holda muqarrar tartibda 14 kalendar kunga qadar ta‘til beriladi:

- a) betob oila a‘zosini parvarishlayotgan shaxslarga;
- b) 30 yoshgacha bo‘lgan yosh oila a‘zolariga;
- d) ishlayotgan nafaqaxo‘rlarga.

Mehnat shartnomasi bekor qilinganda (shu jumladan, uning muddati tugashi munosabati bilan ham) xodimning xohishiga ko‘ra, yillik asosiy va qo‘shimcha ta‘tillarni berib, undan keyin

mehnat munosabatlarini bekor qilish mumkin. Bu holda ta'til tugagan kun mehnat shartnomasi bekor qilingan kun deb hisoblanadi.

### **Mehnatga haq to'lash** **Kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari**

Mehnat haqi **Ish beruvchi** tomonidan **Kasaba uyushmasi qo'mitasi** bilan kelishib tasdiqlanadigan razryadli tarif setkasi bo'yicha to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan mehnatga haq to'lashning Yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qilinsa, tashkilotning tarif setkasi ham qayta ko'rib chiqilishi lozim. Tarif setkasining nolinchi razryad stavkasi O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan eng kam ish haqining \_\_\_ baravari miqdorida belgilab qo'yiladi.

#### **Xodimga haq to'lash muddatlari kechiktirilganda quyidagi choralar ko'riladi:**

— kechiktirilish xizmat ko'rsatuvchi bankning aybi bilan sodir bo'lganda — **Ish beruvchi** (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-iyundagi 264-sonli Qarori asosida tuzilgan bank va mijoz o'rtasidagi xizmat ko'rsatish shartnomasiga binoan) bank rahbariyatiga jarima undirish to'g'risida talabnoma kiritishni va undirilgan jarimani mehnatga haq to'lashni tartibga solishga yo'naltirishni o'z zimmasiga oladi;

— kechiktirilish muddati o'tgan debitor qarzdorlik mavjudligi sababli sodir bo'lganda — **Ish beruvchi** debitor qarzlarni jarimalar, penalar bilan birga undirishni va undirilgan mablag'ni mehnatga haq to'lashni tartibga solishga yo'naltirishni o'z zimmasiga oladi;

— **Ish beruvchi** mehnatga haq to'lashga va mehnatni me'yorlashtirishga oid lokal hujjatlarni, shuningdek, ularni joriy etish tartibini **Kasabasi uyushmasi qo'mitasi** bilan kelishib oladi. Xodimlarni mukofotlash tashkilotning mukofotlash to'g'risidagi Nizomiga asosan amalga oshiriladi. Tashkilotda oshirilgan miqdordagi mehnat haqi, ustamalar, qo'shimcha to'lovlar va kompensatsiyalarning quyidagi turlari va miqdorlari o'rnatiladi:

— tungi vaqtdagi ish uchun 1,5 baravar miqdorda, kechki smenadagi ish uchun — 1 baravar miqdorda haq to'lanadi;

— ish vaqtidan tashqari ishlar, dam olish va bayram kunlaridagi ish uchun — 2 baravar miqdorda haq to'lanadi;

— ko‘p smenali rejimdagi ish uchun foiz 1,5 baravar miqdorda ustama to‘lanadi;

— O‘zbekiston Respublikasi ichidagi xizmat safarlari uchun to‘laniladigan kompensatsiyalar «O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab xizmat safarlari to‘g‘risidagi yo‘riqnoma»ga (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan 2003-yil 24-iyulda 83 va №7/12-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 29-avgustda 1268-raqam bilan ro‘yxatga olingan) hamda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 171-moddasiga asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) yo‘l kira xarajatlari normativ asosida;
- b) doimiy turar joyidan boshqa joyda yashash, shu jumladan, uy-joy ijarasi bilan bog‘liq xarajatlar;
- d) O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida sutkalik xarajatlar;
- e) xodim tomonidan ish beruvchining ruxsati yoki roziligi bilan qilingan boshqa xarajatlar.

Ish jarayonida zararsizlantirish vositalaridan foydalanganligi uchun hojatxona farroshlarining lavozim maoshlariga 10 foiz miqdorida kompensatsiya qo‘shiladi. **Ish beruvchining** ko‘rsatmasiga binoan **Ish beruvchi** va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish (malaka oshirish, xizmat safarida bo‘lish, tibbiy ko‘rikdan o‘tish, navbatchilik, darslar o‘tkazish va boshqa turli tadbirlarda qatnashish) maqsadida xodim o‘z asosiy ishidan ozod etiladi. Agarda yuqorida ko‘rsatilgan tadbirlar ish vaqtida o‘tkazilsa, bu holda xodimning o‘rtacha ish haqi saqlanib qolinadi — mazkur tadbirlar ishdan tashqari vaqtda o‘tkazilsa, xodimga sarf qilingan vaqtiga mutanosib qo‘shimcha dam olish vaqti beriladi. Mehnatni tashkil etishning progressiv shakllarini qo‘llash, ish sifatini ko‘tarish, kasb mahoratini yuksaltirish ishlaridan jamoaning va alohida xodimlarning moddiy manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida **Ish beruvchi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi** bilan kelishgan holda boshqa turdagi ustamalarni o‘rnatishi mumkin (masalan: yuqori kasb mahorati uchun, ko‘p yillik uzluksiz xizmatlari uchun, mehnatdagi yuqori yutuqlari uchun, bajarayotgan ishining murakkabligi uchun yoki alohida muhim ishlar uchun ularni bajarish vaqtiga). Ustamalar hajmi har bir xodimning bajarayotgan ish

sifatini oshirish uchun qo‘shayotgan hissasiga qarab belgilanadi. Mazkur xodimlar haqidagi ma’lumotlar oshkoraligi ta’minlanadi. Ish sifati susaygan holda barcha ustamalar bekor qilinadi yoki kamaytiriladi.

### **Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi**

**Ish beruvchi** quyidagi hollarda bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘laydi:

a) xodimning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda vafot etishi munosabati bilan uning **olti** yillik o‘rtacha ish haqi miqdorida;

b) xodimning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan uning **bir** yillik o‘rtacha ish haqi miqdorida.

Ish beruvchi zarar yetkazilgan chog‘dagi aniq holatlarni hisobga olib, aybdor xodimdan zararni undirishdan qisman yoki to‘liq voz kechishga haqli. Bunday holda yetkazilgan zarar tashkilot foydasi hisobidan qoplanadi. Bevosita pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilayotgan xodimlar maxsus yozma shartnoma asosida ularga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta’minlamaganligi uchun to‘liq moddiy javobgar bo‘ladilar.

### **Ijtimoiy imtiyoz va kafolatlar**

Tashkilot ma’muriyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan har yili qabul qilinadigan ijtimoiy yo‘nalishdagi Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish va qat’iy bajarilishiga erishish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining quyidagi moddalarida nazarda tutilgan kafolatlariga rioya etish va imtiyozlar berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi:

a) 1941 — 1945-yillardagi urush qatnashchilari va imtiyozlari bo‘yicha ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun (103, 144, 150-moddalar);

b) atom obyektlaridagi falokatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlari qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun (103-modda);

d) I va II guruh nogironlari uchun (68, 135, 143, 144, 150, 214, 220-moddalar).

Ish beruvchi quyidagi miqdorlarda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini to'lab borish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

— Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga, baynalmilalchi jangchilarga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga, qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan uch va undan ortiq farzandi bor xodimlarga, Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan xodimlarga, Chernobil AESdagi halokat natijasida radioaktiv ifloslangan zonadan evakuatsiya qilingan va ko'chirib kelingan xodimlarga (agar ularda qonyaratish organlari (o'tkir lekozlar), qalqonsimon bez (adenomalar, rak) kasalliklari hamda rakni keltirib chiqaruvchi o'simtalar mavjud bo'lsa), yadroviy poligonlar va boshqa radiatsiya-yadroviy obyektlarda harbiy xizmatni o'tagan nafaqa yoshidagi nogiron xodimlarga, shuningdek, mehnatda mayib bo'lishi yoki kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga layoqatsiz xodimlarga — ish haqining to'liq miqdorida;

— ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar bo'yicha ro'yxatda turuvchi xodimlarga ularning davlat ijtimoiy sug'urtasi badallarini to'lagan davri (umumiy ish staji) ga qarab — ish haqining 60 dan 100 foizigacha;

— boshqa hollarda, xodimning umumiy ish stajiga qarab — ish haqining 60 dan 100 foizigacha.

**Ish beruvchi** xodimlarni yilida kamida bir marta epidemiya xavfi mavjud bo'lgan kasalliklardan tashkilot hisobidan emlab borish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

**Ish beruvchi** o'z mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda pensiyalar, kompensatsiyalar va nafaqalarni oyning ikkinchi yarmi uchun to'lanadigan ish haqi bilan bir kunda o'z mablag'lari hisobidan to'lab borish majburiyatini o'z zimmasiga oladi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bankining 2004-yil 25-fevraldagi № 35, № 74, № 2004—24 va № 245-B sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yagona ijtimoiy to'lovni hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risida»gi Nizomning 27-bandiga binoan).

**Kasabasi uyushmasi qo‘mitasi Ish beruvchi** bilan birgalikda xodimning ota-onasidan biri yoki yaqin qarindoshi vafot etganda O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan eng kam ish haqining **ikki** baravari miqdorida moddiy yordam ko‘rsatadilar yoki shu summa doirasida dafn marosimi xizmatlarini ko‘rsatuvchi firma bilan tuzilgan shartnoma uchun pul o‘tkazib beradilar.

### ***Nazorat savollari***

1. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarning mohiyati nimaga qaratilgan?
2. Mehnatni muhofaza qilish qaysi tizimdan iborat?
3. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar qaysi me‘yoriy hujjatlardan iborat?
4. Mehnatni muhofaza qilishning davlat tomonidan boshqarilishi qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?
5. Mehnatni muhofaza qilishni moliyaviy ta‘minlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni buzganlik uchun qanday javobgarlikka tortiladi?
7. Korxonalarda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlar yaratib berish kimning majburiyatiga kiradi?
8. Mehnat shartnomasi kimlar o‘rtasida tuziladi?



### **3-BOB. ISHLAB CHIQUARISH SANITARIYASI ASOSLARI**

#### **3.1. Ta'lim tizimiga qarashli tashkilot va muassasalarda mehnat muhofazasiga oid umumiy masalalar va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash bo'yicha vazifalar**

##### **Ta'lim muassasalarida xodimlar va o'quvchilarning mehnat sharoitlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalar**

Mehnat muhofazasi tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiladigan, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

##### **Xodimlarni kasbiy mahoratiga ko'ra tanlash:**

- mahoratiga ko'ra tanlanishi zarur bo'lgan kasb va mutaxassisliklarni belgilash;

- ishga yangi kirayotganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va kasbga moyilligini baholash;

- kasb mahorati tanlovidan o'tgan kishilarning kasbga ko'nikishi ustidan nazorat qilish;

- ishlovchilarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish: kirish yo'rig'ini o'tkazish;

- ish joyidagi dastlabki, davriy, navbatdan tashqari va joriy yo'riqni o'tkazish;

- har yili o'qitish, xodimlarning bilimlarini tekshirish;

- davlat nazorati organlari nazorati ostidagi obyektlarga xizmat ko'rsatadigan xodimlarning bilimlarini tekshirish;

- o'ta xavfli ishga kirayotgan xodimlarni o'qitish;

- baxtsiz hodisalarda jarohatlangan kishilarga birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish.

##### **Mehnatni muhofaza qilishga oid targ'ibotni ta'minlash:**

- ishlab chiqarish joylarini axborot stendlari yoki xavfsizlik texnikasi burchaklari bilan ta'minlash;

- mehnatni muhofaza qilishga oid ilg'or tajribani o'rganish, targ'ibot qilish va tatbiq etish;

- mehnatni muhofaza qilishga oid ko'rgazmalar tashkil etish;

— mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida kinofilmlar ko‘rsatish, ma’ruzalar o‘qish.

**Texnologik jarayonlar xavfsizligini ta’minlash:**

— texnologik jarayonlar reglamentiga rioya qilinishini ta’minlash;

— portlovchi va yong‘in uchun xavfli bo‘lgan moddalarni, yong‘in xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish me’yor va qoidalari asosida saqlanishini, transportirovkasi hamda foydalanilishini ta’minlash;

— yo‘l qo‘yilgan me’yorlari chegarasi ishlab chiqilmagan va belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tmagan zararli moddalardan ishlab chiqarishda foydalanishni taqiqlash;

— zararli, toksik, ionlangan va boshqa xavfli moddalardan foydalaniladigan texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.

**Binolar va inshootlarning xavfsizligini ta’minlash:**

— binolar va inshootlarning potensial xavfli elementlarini aniqlash hamda bartaraf etish;

— binolar va inshootlarning joriy va kapital ta’mirini o‘tkazish;

— mehnatning sanitariya-gigiyena sharoitlarini me’yorlariga yetkazish: xonalarda sanitariya-gigiyena talablariga javob beruvchi havoning namligi va haroratini yaratish;

— shamollatish moslamalari, konditsionerlar, isitish tizimlarini ushbu texnologik jarayonga qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda saqlash va foydalanish;

— sun’iy yoritgichlarni toza va soz holda saqlash, ishlab chiqarish xonalarini o‘z vaqtida tozalash;

— ish joylari hamda ishlab chiqarish xonalarining joylashishi va rangi estetika va dizayn qoidalariga javob berishi kerak.

**Xodimlarning mehnat qilish va dam olishining eng qulay tartibini ta’minlash:**

— mehnat qilish va dam olishning belgilangan tartiblariga rioya qilinishini ta’minlash;

— mehnat qilish va dam olish tartiblarini oqilona tashkil etish.

**Xodimlarga davolash-profilaktika xizmatini ko‘rsatish: dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish:**

— zararli ishlab chiqarish omillari ta’sir qiladigan ishchilarning salomatligini kuzatib borish;

- kasbiy kasallik belgilari bo'lgan kishilarni tekshirish va davolash;
- davolash-profilaktika tadbirlarini ta'minlash;
- xodimlarni profilaktika va maxsus oziq-ovqat bilan ta'minlash;
- xodimlarni birinchi yordamni ko'rsatishga o'rgatish;
- barcha xonalarni dori to'plamlari (apteчка) va birinchi yordam ko'rsatishning boshqa vositalari bilan ta'minlash;
- xodimlarning sanitariya-maishiy ta'minotini me'yoriga yetkazish: ishchilarni sanitariya-maishiy xonalari, shu jumladan, ayollarni gigiyena xonalari bilan ta'minlash;
- sanitariya-maishiy xonalar va qurilmalarni gigiyenik talablarga muvofiq saqlash;
- ta'lim muassasalarida xodimlarni maxsus ovqatlanish hamda dam olish joylari bilan ta'minlash.

### **O'rta maxsus ta'lim vazirligida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish**

Ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilishga doir ishlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy kengashi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan nizomlarga binoan muvofiqlashtiriladi.

Ta'lim muassasalari tizimida mehnat jarayonida xavfsizlik, salomatlik va ish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va tashkiliy tadbirlarni reja asosida amalga oshirish va ishlab chiqarishda qonun hujjatlariga rioya qilish mehnatni muhofaza qilishni boshqarish bo'yicha asos bo'lib hisoblanadi.

Rahbar o'ziga mazkur Nizom bilan yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mehnatni muhofaza qilish vazifalarini hal qilishga doir majburiyatlarni qo'l ostidagi xodimlarga ularning vazifalari va mas'uliyati doirasini aniq belgilagan holda taqsimlashi kerak.

### **Rahbarning vazifalari**

- mehnatni muhofaza qilish sohasida Davlat siyosati tamoyillariga rioya qilinishi va bajarilishi ustidan ichki muassasaviy nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi;

— ekologik xavfsiz mehnat sharoitlarini va atrof-muhit holati ustidan doimiy nazoratni ta'minlaydi;

— ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish talablari har tomonlama bajarilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi;

— har bir baxtsiz hodisa va har bir kasb kasalligi tekshirilishi hamda hisobga olinishini nazorat qiladi va shuning asosida ishlab chiqarishdagi jarohatlanish hamda kasb kasalliklarining darajasi to'g'risida xodimlarni xabardor etadi;

— baxtsiz hodisa tufayli jarohat olgan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlar manfaati ijtimoiy himoyalanihini ta'minlaydi;

— mehnatni muhofaza qilish masalalariga doir tarmoqning me'yoriy hujjatlari, qoidalari, namunaviy yo'riqnomalari, xodimlarni o'qitish dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

— mehnatni tashkil qilishni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlaydigan fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishini tashkil qiladi va mablag' bilan ta'minlaydi;

— qonun hujjatlari, davlat nazorat organlari, kasaba uyushma tashkilotlarining takliflarini hisobga olgan tarzda mehnat sharoitlarini yaxshilashning umumiy rejalarini ishlab chiqadi, ularning tatbiq etilishi va nazorat qilinishini tashkil etadi, ular bajarilishi uchun moddiy-texnik va moliyaviy manbalarni ko'zda tutadi;

— inshootlarni loyihalash, qurish, foydalanish va ta'mirlashda «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun talablari bajarilishini nazorat qiladi va ta'minlaydi;

— xodimlarni kasb mahoratiga ko'ra tanlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;

— mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlash uchun mutaxassislar o'qitilishini ta'minlaydi;

— mehnatni muhofaza qilish xodimlarining malakasini oshirish tizimini ta'minlaydi;

— mehnatni muhofaza qilish bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar tuzilishi va ishlatilishini nazorat qiladi.

## **Mehnatni muhofaza qilish xizmati ishlarini tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunining 14-moddasiga binoan, xodimlar soni 50 nafar va undan ortiq bo'lgan korxonalarda maxsus tayyor-garlikka ega shaxslar orasidan mehnatni muhofaza qilish xizmati tuziladi (lavozim joriy etiladi).

Mehnatni muhofaza qilish xizmatlari Kasaba uyushma qo'mi-tasi bilan kelishilgan nizomlarga binoan ish yuritadi va o'z maqomi bo'yicha korxonaning asosiy xizmatlariga tenglashtiriladi hamda uning rahbariga bo'ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatlarining mutaxassislari o'z lavozim majburiyatlariga aloqador bo'lmagan ishlarni bajarishga jalb qilinmaydi.

Korxonadagi, har bir ish joyidagi mehnat sharoitlari mehnat-ni muhofaza qilishga oid andozalar, qoida va me'yorlarning talablariga javob berishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish va yo'l harakati xavfsizligi xizmat-lari korxona o'z faoliyatini to'xtatgan holdagina tugatiladi.

## **Mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifasi**

— ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga doir ish shakllari va uslublarini takomillashtirish to'g'risidagi qonunlarga rioya qilish ustidan uslubiy rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi;

— ish jarayonida jarohatlanish va kasb kasalligining holati hamda sabablarini tahlil qiladi, boshqa bo'linmalar bilan hamkor-likda ish jarayonidagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadi, shuningdek, ko'rsatilgan tadbirlarning tatbiq etilishini tashkil qiladi;

— tegishli muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan mehnat xavfsizligi andozalari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlarining loyihalarini ko'rib chiqadi va kelishadi, ular bo'y-cha xulosalar beradi va ularni tatbiq qilish ishlarini tashkil etadi;

— mehnatni muhofaza qilishga oid tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha xulosalar beradi va ularni tatbiq qilish chora-tadbirlarini tashkil etadi;

— zarur hollarda loyihalar ekspertizasi xizmati bilan birgalikda amaldagi inshootlarni qayta qurish va yangilarini qurish loyiha-

larida koʻzda tutilgan mehnat xavfsizligini taʼminlash yechimlarini muhokama qilishda ishtirok etadi;

— rahbar va xodimlarni mehnatni muhofaza qilish boʻyicha oʻqitish va bilimlarini tekshirishni taʼminlaydi;

— mehnatni muhofaza qilish boʻyicha axborot maʼlumotnomalari va oʻquv materiallarini, takliflar, xulosalar va qarorlarning loyihalarini tayyorlaydi;

— korxonalarni mehnatni muhofaza qilish masalalari boʻyicha meʼyoriy va uslubiy hujjatlar bilan taʼminlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

— vakolat doirasiga kiradigan masalalar boʻyicha xodimlardan kelgan xatlar, arizalar va shikoyatlarni oʻrnatilgan tartibda koʻrib chiqadi, ular boʻyicha tegishli choralar qabul qiladi;

— tasdiqlangan ish roʻyxatiga binoan ish yuritishni va mehnatni muhofaza qilish boʻyicha oʻrnatilgan statistik hisobotni olib boradi.

### **Taʼlim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish**

Taʼlim muassasalarida har bir ish joyida ish sharoiti mehnatni muhofaza qilish qonun va meʼyorlariga hamda standart talablariga javob berishi kerak.

Taʼlim muassasalari mehnatni muhofaza qilish uchun jamoa shartnomasida belgilangan miqdorlarda, agar shartnoma tuzilmagan boʻlsa, ish beruvchi va Kasaba uyushmasi qoʻmitasi yoki ishchilarning boshqa vakolatli organi oʻrtasidagi kelishuvga koʻra kerakli mablagʻni ajratib berishi shart.

Taʼlim muassasalari xoʻjalik, tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyatlardan tushadigan daromad (foyda) hisobidan, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan mehnatni muhofaza qilish boʻyicha markazlashtirilgan jamgʻarmalarni tuzishlari mumkin.

Mehnatni muhofaza qilishga ajratilgan mablagʻlar boshqa maqsadga ishlatilishi mumkin emas.

Mehnatni muhofaza qilish talablarini bajarmaganlik uchun korxonalar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan ijtimoiy sugʻurta qilish maqsadlariga yuqori tariflar boʻyicha mablagʻlar ajratiladi, bu tariflar mehnat sharoitlarining

holati, bajarilayotgan ishlarning xavfliligi, zararliligi va og'irligiga qarab vaqt-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

Ta'lim muassasalari xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va talablar asosida baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklaridan sug'urta qilinishlari lozim.

### **Ish beruvchining vazifalari**

Ish jarayonida sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish ishlariga umumiy rahbarlik qiladi va shaxsan javobgar hisoblanadi.

Bino va inshootlardan qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq foydalanish, bir maromda ishlash va maishiy-sanitariya xonalari hamda qurilmalaridan maqsadli foydalanish ishlarini tashkil qiladi.

Yangi va qayta qurilgan inshootlarni faqat maxsus komissiya tomonidan qurilish me'yorlari va qoidalariga binoan qabul qilindan so'ng ishga tushirilishini ta'minlaydi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, xavfsizlik qoidalari va me'yorlariga rioya qilinishini, shuningdek, Hukumat, kasaba uyushma qo'mitalarining yoki boshqa yuqori tashkilot xodimlari va vakillik organlarining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi.

Namunaviy va tarmoq qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan ichki mehnat tartibi qoidalarini kasaba uyushma tashkiloti bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

Xodimlar va ishchilarning xavfsizlik qoidalari hamda ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat intizomi me'yorlariga rioya qilish, mehnat muhofazasi bo'yicha belgilangan tadbirlar va davlat nazorat idoralari hamda kasaba uyushma tashkilotlarining ko'rsatmalari (takliflari) ni o'z vaqtida bajarish uchun mas'uliyatlarini oshirish choralarini ko'radi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish tadbirlari ishlab chiqilishini tashkillashtiradi, shu tadbirlarni o'tkazish rejalarini tasdiqlaydi, belgilangan tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi, tadbirlarni o'tkazish uchun mablag' ajratilishi va shu maqsadlarga ajratilgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish umumiy rejasining bajarilishini ko'rib boradi (yil choragida kamida bir marta).

Mehnatni muhofaza qilish xonasini tashkil qiladi va uni kerakli qo'llanmalar, o'qitish vositalari bilan jihozlanishga doir tadbirlarni amalga oshiradi.

Ta'lim muassasalarining barcha xodimlarini, jumladan, rahbarlarini ham o'qitish, yo'riqdan o'tkazish, bilimlarini tekshirish va shahodatdan o'tkazish ishlarini tashkil qiladi hamda amalga oshiradi.

Xodimlarni kasbiga oid texnik tayyorlash ishlarini tashkil qilish va o'tkazish hamda ishlovchilarni xavfsiz ishlash uslublariga o'qitishga umumiy rahbarlik qiladi.

Sog'liqni saqlash idoralari tomonidan belgilangan tartibga binoan xodimlarni (shartnoma tuzish vaqtida) dastlabki va (shartnomaning amal qilish muddati mobaynida) davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazib turishni tashkillashtiradi.

Xodimlarni kasb kasalligiga chalinishi xavfi yuqori bo'lgan ishga qabul qilayotganda, rahbar uni bu haqda ogohlantirishi kerak.

«Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida»gi Nizom talablariga muvofiq, yuz bergan baxtsiz hodisalarni o'z vaqtida va to'g'ri tekshirilishi hamda ishlab chiqarish jarohatlanishining oldini olish haqida tezkor axborotni ta'minlaydi.

Guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisalar to'g'risida darhol O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga, baxtsiz hodisa yuz bergan hududiy prokuraturasiga, jabrlanuvchining asosiy ish joyiga xabar qiladi.

Guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisalarni tekshirishda va ularning oldini olishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda qatnashadi.

Baxtsiz hodisalar to'g'risidagi N-1 shaklidagi ishchi xodimlar, N-1 shaklidagi o'quvchilar uchun dalolatnomalarni ko'rib chiqadi, tasdiqlaydi va tegishli idoralarga yuborish uchun mehnatni muhofaza qilish xizmatiga topshiradi.



Yuqori turuvchi tashkilotga (birlashmaga) baxtsiz hodisada jabrlanganlar to'g'risidagi hisobotlarni o'rnatilgan shaklda tushuntirish xati bilan birga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

### **Ta'lim muassasalari rahbarlarining xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosarlari**

Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish hamda ta'minlash bo'yicha barcha tashkiliy-texnik ishlarga rahbarlik qiladi.

Yangi ilmiy-texnika yutuqlari va boshqa korxonalarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yangi, xavfsizroq, texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etilishini tashkil etadi.

Kapital qurilish va obyektlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi texnologik jarayonlar va reglamentlarning loyihalarini muhokama qilishda ishtirok etadi. Transport vositalari va obyektlarning rejaviy-ogohlantiruv ta'mirlash jadvallarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha doimiy ishlovchi komissiyaga rahbarlik qiladi, har yil choragida kamida bir marta obyektlardagi mehnat sharoitlarining holati, jihozlar, ehtiyot moslamalarining sozligi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamoa nazoratchilarining takliflari, davlat nazorat idoralarining yozma ko'rsatmalari bajarilishini tekshiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'radi.

Ta'lim muassasalarining barcha xodimlari tomonidan xavfsizlik qoidalari va ishlab chiqarish sanitariyasi me'yorlarining talablariga rioya qilinishi, davlat nazorat idoralarining yozma ko'rsatmalari va kasaba uyushma tashkilotlarining takliflari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ishchi va xodimlarni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya-ning oldini olish, bartaraf etish bo'yicha o'qitish nazoratini amalga oshiradi.

Ishlarni xavfsiz olib borish yo'riqnomalarini ishlab chiqish va tuzishga rahbarlik qiladi hamda Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan kelishilgan yo'riqnomalarni tasdiqlaydi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va sog'lomlashtirish tadbirlarining joriy hamda kelajak rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qiladi,

bu rejalarni ko‘rib chiqadi va tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritadi, ularning bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi.

Nizomlar va yo‘riqnomalar talablariga mos ravishda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar hamda avariyaalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri tekshirilishi, hisobga olinishini ta‘minlaydi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlari bajarilishini nazorat qiladi va o‘tkazilayotgan tadbirlarning samarasini tahlil qiladi.

Bosim ostida ishlaydigan asboblari va idishlar, elektr payvandlash asboblari, atsetilenli, kislorodli va kompressorli qurilmalardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishni ta‘minlaydi.

Shamollatish moslamalari va tizimlarining samarali ishlashini hamda ularning o‘z vaqtida ta‘mirlanishini ta‘minlaydi.

Jihozlar va asbob-uskunalarining kerakli detallari va uzellari-ning defektoskopiyasi o‘z vaqtida o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish holati ustidan uch bosqichli nazoratni olib borishda qatnashadi.

Davlat nazorat idoralari, kasaba uyushmalarining vakillari, mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlarining yozma ko‘rsatmalari, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha buyruq va farmoyishlar bajarilishini tashkil qiladi hamda ta‘minlaydi.

### **Ta‘lim muassasalari rahbarlarining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari**

Mehnatni muhofaza qilish va baxtsiz hodisalarda jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomani ishlab chiqish, laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda xavfsizlik talablariga rioya qilish, uslubiy ko‘rsatmalar berish borasida ishlarni tashkil qiladi.

Tibbiy muassasalar bergan ma‘lumotlar asosida tibbiy ko‘rikdan muntazam ravishda o‘tib turishi lozim bo‘lgan shaxslar-ning ish joyi va tibbiy ko‘rik zaruriyati sababini ko‘rsatgan holda nomma-nom ro‘yxatini tuzadi.

Foydalanadigan o‘quv xonalari xavfsizlik qoidalari va me‘yorlariga javob beradigan darajada bo‘lsa, o‘quvchi va tarbiyalanuvchilar bilan o‘quv-tarbiya ishlarini olib borishga ruxsat beradi.

O'quvchilarning yo'l harakati qoidalarini, suzish havzalarida o'zini tutish va yong'in xavfsizligi bo'yicha o'qishlari hamda usullarini belgilaydi.

Kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda ta'lim muassasasidagi o'quv qurollari, jihozlar va mebellarning saqlanish xavfsizligiga alohida e'tibor bergan holda nazorat qiladi.

### **Ta'lim muassasalari elektriklarining vazifalari**

Elektr va issiqlik-energetika moslamalarini o'rnatish, texnik foydalanish va elektr xavfsizligi qoidalariga to'la javob bergan holda ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlaydi.

Elektr va issiqlik-energetika moslamalari, asboblari hamda tarmoqlarini rejayivi ta'mirlash, profilaktik ko'rikdan va sinovlardan o'tkazish ishlarining tashkil qilinishini ta'minlaydi. Shu moslamalarning holati va ulardan foydalanish ustidan texnik nazoratni hamda tegishli texnik hujjatlarni to'g'ri olib borish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Qoidalar va yo'riqnomalar talablariga binoan elektr va texnologik jihozlarning yerga ulangan himoya qiluvchi simlari sozligini o'z vaqtida tekshirilishini ta'minlaydi hamda statik elektr quvvatini ketkazish bo'yicha kerakli tadbirlarni bajaradi.

Elektrotexnik va issiqlik elektr jihozlari va moslamalarning konstruktiv kamchiliklarini bartaraf etish va eskirgan mexanizmlar hamda mashinalarning qismlarini o'z vaqtida almashtirish choralari ko'radi.

Ish joylari yoritilganligi tekshirilishini ta'minlaydi va uni me'yoriga yetkazish choralari ko'radi.

Jihozlarga xavfsiz xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga oid yo'riqnomalarning o'z vaqtida ishlab chiqilishini tashkillashtiradi, ular bilan ish joylarini ta'minlaydi hamda ishlab chiqarish bo'linmalarining rahbarlariga shu yo'riqnomalarni tuzishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Mehnatni muhofaza qilish holati ustidan uch bosqichli nazoratni o'tkazishda qatnashadi.

Elektr va issiqlik energetika qurilmalarining ishidagi avariya hamda boshqa buzilishlarni o'z vaqtida tekshirish va hisobga olishni amalga oshiradi.

Doimo faoliyat ko'rsatuvchi komissiya tomonidan o'tkaziladigan korxona obyektlarini kompleks va maqsadli tekshirishlarda qatnashadi.

Ish joylari va inshootlarni texnikaviy hujjatlar, ogohlantirish belgilari, yozuvli plakatlar hamda yo'riqnomalar bilan ta'minlash choralari ko'radi.

Davlat nazorat idoralari, kasaba uyushmalarining mehnat texnik nazoratchilari, mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlarining yozma ko'rsatmalari, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha buyruq va farmoyishlar bajarilishini tashkil qiladi hamda ta'minlaydi.

### **Ta'lim muassasalari xodimlarining vazifalari**

Tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar, jamoa shartnomalarida o'rnatilgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qoida va me'yorlar talablariga rioya qilishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha andozalar, qoidalar, me'yor va yo'riqnomalarga muvofiq ish joyini tashkil etadi.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, ichki mehnat tartibi, ishlab chiqarish va mehnat intizomi qoidalari rioya qiladi.

Shaxsiy gigiyena talablariga rioya qiladi.

Uning kasbi va ish turi uchun o'rnatilgan muddatlarda o'qishi, yo'riqdan va bilimlarini tekshirishdan o'tishi shart.

Baxtsiz hodisa yuz berganida birinchi yordamni ko'rsatish qoidalari bilishi va amalda qo'llay olishi kerak.

Ish joyidagi mehnat sharoitlari mehnatni muhofaza qilish bo'yicha andozalar, qoida va me'yorlar talablariga javob berishini ta'lim muassasalari rahbarlaridan talab qilishi kerak.

Ta'lim muassasalari rahbarlaridan, ish joyidagi mehnat sharoiti va mehnatni muhofaza qilish holati to'g'risida axborot berishini talab qilish huquqiga ega.

Agar salomatligi yomonlashishi mehnat sharoitlari bilan bog'liq deb topilsa, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Kishilarning salomatligi va hayotiga xavf solayotgan har qanday vaziyat haqida, shuningdek, ish davomida yoki ish bilan bog'liq holda yuz bergan har qanday baxtsiz hodisa haqida o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

O‘z ish joyida bo‘lishi lozim bo‘lgan shaxsiy himoya vositalarini talab qilish huquqiga ega.

Ushbu ish joyi uchun beriladigan imtiyozlar va kompensatsiyalar to‘g‘risida xabardor bo‘lish huquqiga ega.

Baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan albatta sug‘urta qilinishi lozim.

### **Mehnatni muhofaza qilish holatini nazorat va tahlil qilish**

Nazorat — mehnat muhofazasini boshqarishda muhim vazifa hisoblanadi.

*Quyidagilar nazorat qilinishi kerak:*

a) ish joylarining holati, ularning mehnatni muhofaza qilish talablariga javob berishi;

b) mehnat to‘g‘risidagi qonunlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar, davlat andozalari va qoidalariga rioya qilinishi;

d) mehnat muhofazasini boshqarish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha ishlarning bajarilishi;

e) ish jarayonida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri tekshirilishi;

f) mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, yozma ko‘rsatmalar, kompleks, joriy va tezkor chora-tadbirlar rejalarining amalga oshirilishi;

g) mehnatni muhofaza qilishga ajratilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi.

Ichki nazoratning asosiy turlari:

a) ish rahbari va boshqa mansabdor shaxslarning tezkor nazorati;

b) ma‘muriy-jamoat (uch bosqichli) nazorati;

d) mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

e) bosh mutaxassislar xizmati tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

f) jamoa nazorati.

Nazorat tizimi, ta‘lim muassasalarining xodimlari va muayyan ish bajaruvchilari tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘z vazifalarining bajarishlarini tekshirishga yo‘naltirilishi lozim.

Nazoratning barcha ko‘rinishlari faqat mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha andozalar, qoida va me‘yorlardan chetga chiqilganini aniqlash emas, balki qoidabuzarlikni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilish, shuningdek, ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish holatini tahlil qilish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

- baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to‘g‘risidagi hujjatlar (N-1 shaklidagi dalolatnomalar);

- kasallanish va vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (mehnatga layoqatsizlik varaqalari);

- avariylar, yong‘inlar, vayronalar va shunga o‘xshashlarni tekshirish dalolatnomalari;

- ta‘lim muassasalarining sanitariya-texnik holati pasportlarining ma‘lumotlari;

- mehnat muhofazasi holati ustidan nazoratning 1 va 2-bosqichlarini qayd etish daftarlari, 3- bosqich dalolatnomalari;

- mehnatni muhofaza qilish ishlarining rejaları (kelgusi, joriy, tezkor) va ularni bajarish bo‘yicha hisobotlar;

- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar daftarlari;

- ishchilar va xodimlarning mehnat muhofazasi qoida va me‘yorlari bo‘yicha bilimlarini shahodatdan o‘tkazish bayonnomalari;

- nazoratning 2 va 3- bosqichlarini o‘tkazish jadvallari;

- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘tkazilgan majlislar bayonnomalari;

- jihozlarni rejaviy-ogohlantiruv ta‘mirlash va sinash jadvallari;

- mehnat muhofazasini moddiy ta‘minlash uchun buyurtmalar va boshqa hujjatlar.

Ishlab chiqarish xususiyatlariga, mehnatni muhofaza qilish masalalari bilan shug‘ullanadigan xodimlarning tayyorgarligiga qarab, ta‘lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish holatini baholash uchun ko‘rsatkichlarning turli tizimlari ishlab chiqilishi va ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, ta‘lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish holatini baholash uchun ish joylaridagi mehnat sharoitlarini ta‘riflaydigan ko‘rsatkichlardan, ishlovchilarning mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilishlaridan, ma‘muriyatning mehnat muhofazasi bo‘yicha ijrochilik faoliyatidan foydalanish tavsiya etiladi.

# **Mehnatni muhofaza qilish holati ustidan uch bosqichli nazoratni o'tkazish va tashkil qilish uslubi**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Mehnatni muhofaza qilish boshqaruvi tizimidagi uch bosqichli ma'muriy-jamoat nazorati ta'lim muassasalarining, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitalarining ish joyidagi mehnat sharoitlari va xavfsizligi holati ustidan, shuningdek, barcha xizmatlar, mansabdor shaxslar va ishlovchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonun hujjatlari, mehnat xavfsizligi andozalari, qoidalar, me'yorlar, yo'riqnomalar va boshqa texnik-me'yoriy hujjatlarning talablariga rioya etishlarini nazorat qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

1.2. Uch bosqichli nazorat ta'lim muassasalari rahbarlarining lavozim vazifalariga muvofiq ma'muriy nazoratini, shuningdek, jamoat nazoratini o'tkazishni istisno etmaydi.

1.3. Ishlab chiqarish xususiyatlari, muassasa tuzilmasi va uning bo'linmalari ko'lamiga qarab mehnatni muhofaza qilish holati ustidan quyidagi uch bosqichli nazorat o'tkaziladi:

birinchi bosqichda — maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalarida;

ikkinchi bosqichda — tuman va shahar xalq ta'limi muassasalarida;

uchinchi bosqichda — Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalarida o'tkaziladi.

1.4. Ta'lim muassasalarining uch bosqichli nazorat obyektlariga daxldorligi muassasa ma'muriyati va Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan o'rnatiladi.

1.5. Uch bosqichli nazoratni tashkil qilishga rahbarlikni muassasa rahbari va Kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi amalga oshiradi.

## **2. UCH BOSQICHLI NAZORATNING BIRINCHI BOSQICHI**

2.1. Nazoratning birinchi bosqichi ta'lim muassasa rahbari (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim) va mehnat muhofazasi bo'yicha vakil tomonidan har ish kuni boshlanishida,

zarur bo'lganida esa (yuqori xavfga ega ishlar va hokazo) — ish kuni mobaynida ham amalga oshiriladi.

2.2. Uch bosqichli nazoratning 1-bosqichida quyidagilarni tekshirish tavsiya etiladi:

- oldingi tekshirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarning bajarilishi;

- ish joylarining holati va to'g'ri tashkil qilinishi (kerakli asboblari, moslamalar, yarimtayyor mahsulotlarning joylashishi va mavjudligi);

- o'tish joylari, yo'laklar, transport o'tish yo'llarining holati;

- elektr qurilmalarida va elektr asboblari bilan ishlashda ishlovchilar tomonidan elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi;

- tortuvchi va so'ruvchi havo almashtirish moslamasi, mahalliy chang va gaz tortuvchi uskunalari sozligi;

- zararli va portlash-yonish xavfi bo'lgan moddalar hamda materiallar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;

- mehnatni muhofaza qilishga doir yo'riqnomalarning mavjudligi va ishlovchilar tomonidan ularga rioya qilinishi.

2.3. Tekshiruv natijalari uch bosqichli nazoratning birinchi bosqichi daftariga yoziladi va u ta'lim muassasasi rahbarida saqlanishi kerak.

### ***Izoh:***

1. Tekshirish davomida aniqlangan kamchiliklar va buzilishlarni bartaraf etish tadbirlari, bajarish muddati va mas'ul shaxslar belgilanadi.

2. Aniqlangan kamchiliklar, bevosita ta'lim muassasa rahbarining nazorati ostida darhol bartaraf etilishi kerak. Agar tekshirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ta'lim muassasasining kuchi yetmasa, uning rahbari ko'rikni tugatgandan so'ng tegishli chora ko'rish uchun bu haqda yuqori turuvchi boshliqqa xabar berishi lozim.

3. Mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlari qo'pol ravishda buzilishi ishlovchilarning salomatligiga zarar yetkazishi yoki avariya olib kelishi mumkin bo'lsa, bu buzilish bartaraf etilguncha ish to'xtatiladi.

Muassasa rahbari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakili nazoratning birinchi bosqichidagi tekshiruv natijasida aniqlangan buzilishlar va ko'rilgan chora-tadbirlar haqida o'z jamoalarining yig'ilishlarida axborot berishlari kerak.



### **3. UCH BOSQICHLI NAZORATNING IKKINCHI BOSQICHI**

3.1. Nazoratning ikkinchi bosqichi tuman (shahar) xalq ta'limi mudirlari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha katta vakili rahbarligidagi komissiya tomonidan oyda kamida ikki marta o'tkaziladi. Komissiya tarkibiga muassasaning o'rinbosarlari va ta'lim muassasasiga biriktirilgan tibbiy xodim kiradi.

3.2. Tekshiruv jadvali muassasaning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha katta vakili bilan kelishgan holda muassasa mudiri tomonidan o'rnatiladi va barcha ta'lim muassasa rahbarlariga yetkaziladi.

3.3. Uch bosqichli nazoratning ikkinchi bosqichida quyidagilarni tekshirish tavsiya etiladi:

- nazoratning birinchi bosqichi ishlarining tashkil qilinishi va natijalari;

- nazoratning ikkinchi va uchinchi bosqichlarini o'tkazish natijasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi;

- ta'lim muassasa boshlig'ining buyruq va farmoyishlari, Kasaba uyushmasi qo'mitasi qarorlari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar takliflarining bajarilishi;

- nazorat va tekshiruv organlarining yozma ko'rsatmalari bo'yicha tadbirlarning bajarilishi;

- baxtsiz hodisalarni tekshirish hujjatlari bo'yicha tadbirlarning bajarilishi;

- elektr moslamalari va elektr asboblari bilan ishlaganda ishlovchilar tomonidan elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi;

- o'tish yo'llari va galereyalarning holati;

- xavfsizlik texnikasi burchagining holati, mehnatni muhofaza qilish plakatlari, signal ranglari va xavfsizlik belgilarining mavjudligi hamda holati;

- himoya, signal va yong'inga qarshi vositalar va qurilmalar, nazorat-o'lchov asboblarning mavjudligi hamda holati;

- zararli va portlash-yonish xavfi bo'lgan moddalar hamda materiallar bilan ishlaganda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;

- ishlovchilarni mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomadan o'z vaqtida va sifatli o'tkazish;

- ishlovchilarni davolash-profilaktika ovqati, sut va boshqa profilaktika vositalari bilan ta'minlash;

- maishiy-sanitariya xonalari va qurilmalarining holati;

- ta'lim muassasa mehnat sharoitlarining texnik-sanitariya holati pasportining to'g'ri to'ldirilishi;
- o'rnatilgan dam olish va mehnat intizomi tartibiga rioya qilinishi.

3.4. Tekshiruv natijalari uch bosqichli nazoratning ikkinchi bosqichi daftariga yoziladi va u tashkilot boshlig'ida saqlanishi kerak.

***Izoh:***

a) komissiya chora-tadbirlarni belgilab beradi, muassasa mudiri esa ijrochi va ijro muddatini ta'minlaydi;

b) agar belgilangan tadbirlarni muassasa kuchi bilan bajarishning imkoni bo'lmasa, muassasa mudiri bu haqda komissiya ishini tugatgandan so'ng tegishli chora-tadbirlar qabul qilishi uchun yuqori turuvchi rahbariyatga xabar berishi kerak. Mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlari qo'pol ravishda buzilishi ishlovchilarning salomatligiga zarar yetkazishi yoki avariya olib kelishi mumkin bo'lsa, komissiya bu kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar ishni to'xtatib qo'yadi;

d) ta'lim muassasa rahbari nazoratning ikkinchi bosqichida komissiya tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha aniqlangan kamchilik va buzilishlarni bartaraf etish chora-tadbirlari bajarilishini tashkil qilishi lozim. Bu chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan nazoratni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha katta vakili amalga oshiradi;

e) ta'lim muassasa mudiri va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha katta vakili har oyda muassasadagi mehnatni muhofaza qilish holati hamda uch bosqichli nazoratning ikkinchi va uchinchi bosqichi komissiyalari tomonidan belgilangan chora-tadbirlar bajarilishining borishi to'g'risida o'z jamoalariga axborot berishadi.

#### **4. UCH BOSQICHLI NAZORATNING UCHINCHI BOSQICHI**

4.1. Nazoratning uchinchi bosqichi Xalq ta'limi vazirligi rahbariyati yoki Kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi rahbarligidagi komissiya tomonidan kamida yil choragida bir marta (odatda, bir oyda bir marta) o'tkaziladi.

Komissiya tarkibiga mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari, Kasaba uyushmasi qo'mitasining mehnatni muhofaza qilish komis-

siyasi raisi va binodan foydalanish uchun mas'ul shaxs kiradi. Nazorat qilishga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillarni jalb etish tavsiya etiladi.

Tekshiruv tekshiriladigan ta'lim muassasalarining rahbari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha katta vakili ishtirokida o'tkaziladi.

4.2. Tekshiruv jadvali Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan keli-shilgan holda tasdiqlanadi va barcha ta'lim muassasa rahbarlariga yetkaziladi.

4.3. Uch bosqichli nazoratning uchinchi bosqichida quyida-gilarni tekshirish tavsiya qilinadi:

- nazoratning birinchi va ikkinchi bosqichi tashkil etilganligi va ular ishining natijalari;

- nazoratning uchinchi bosqichi o'tkazilishi natijasida belgi-langan chora-tadbirlarning bajarilishi;

- mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha yuqori tash-kilotlarning buyruq va farmoyishlari, kasaba uyushma organ-larining qarorlari, nazorat va tekshiruv organlarining yozma ko'rsatmalari va ko'rsatmanomalari, ta'lim muassasa rahbari-ning buyruqlari va Kasaba uyushmasi qo'mitasining qarorlari bajarilishi;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kompleks rejalar, jamoa shartnomalari, bitimlar va boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning bajarilishi;

- guruhliy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisalar va avariyalarni tekshirish materiallari bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

- ta'lim muassasa mehnat sharoitlarining sanitariya-texnik holati pasporti mavjudligi va uning to'g'ri yuritilishi;

- mehnat xavfsizligi andozalarini tatbiq etishni tashkil qilish;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-texnik huj-jatlar talablariga muvofiq binolar, inshootlar, sinflar va ular atrofidagi hududlarning texnik holati va saqlanishi, yo'lning piyodalar yuradigan va qatnov qismi, tunnellar, o'tish joylari va galereyalar holati;

- kiritish va tortish-shamollatish tizimi, chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalarning samaradorligi;

— ishlab chiqarish jihozlarini rejaviiy-ogohlantiruv ta'mirlash jadvali bajarilishi, kommunikatsiyalar va energetika asboblari yoqish sxemalarining mavjudligi;

— ishlovchilarning maishiy-sanitariya xonalari va moslamalari bilan ta'minlanganligi;

— ishlovchilarga davolash-profilaktika xizmati tashkil etilganligi;

— mehnatni muhofaza qilish xonalarining holati;

— mehnatni muhofaza qilish bo'yicha stendlarning holati, ularning o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishi;

— mehnat xavfsizligi bo'yicha ishlovchilarni o'qitish va yo'riqdan o'tkazish tashkil etilganligi va sifati;

— o'rnatilgan mehnat va dam olish tartibiga, mehnat intizomiga rioya qilinishi.

4.4. Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi yoki uch bosqichli nazoratning uchinchi bosqichi daftariga yoziladi va bir hafta muddat ichida kasaba uyushma faollari ishtirokida muassasa rahbari huzuridagi yig'ilishda muhokama qilinishi lozim.

4.5. Ta'lim muassasa rahbari huzuridagi yig'ilishda mehnat sharoitlari qoniqarsiz holda deb topilgan muassasa rahbarlarining axboroti tinglanadi. Yig'ilishni aniqlangan kamchilik va buzilishlarni bartaraf etish chora-tadbirlari hamda ijro muddatlari va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan bayonnoma bilan rasmiylashtirgan holda o'tkazish tavsiya etiladi. Zarur hollarda muassasa rahbari tomonidan buyruq chiqariladi.

### **3.2. Inson organizmining tashqi muhitga moslashuvi**

Ish joyi muhitining ob-havo sharoiti insonning mehnat qilish qobiliyatiga, uning sog'lig'iga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Insonning hayot faoliyatida ob-havo omillarining deyarli salbiy yoki ijobiy ta'sirini bilish va uni mo'tadillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash mehnat qilish jarayonida mehnat samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'llangan chora-tadbirlar ba'zi sharoitlarda foydali yoki zararli bo'lishi mumkin. Ish bajarilayotgan

joylarda havo harorati yuqori bo'lgan vaqtda — ijobiy va harorat past bo'lgan vaqtda esa salbiy natija berishi kuzatiladi.

Ob-havo sharoitining o'zgarib turishi tana haroratiga ham ma'lum ma'noda ta'sir qiladi va organizmdagi biokimyoviy jarayonlar faoliyatida aks etadi. Tana harorat darajasining ortib ketishi — *issiqlash*, tushib ketishi esa *sovish* deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi halokatli holatni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvchi fiziologik mexanizm mavjud bo'lib, u markaziy asab tizimining nazorati ostida bo'ladi. Bu fiziologik mexanizmning asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik nisbatini saqlab turadi.

Ish joylaridagi ob-havo sharoitini havoning quyidagi ko'rsatkichlari belgilaydi:

- havoning harorati, «C» bilan o'lchanadi;
- havoning nisbiy namligi, % bilan aniqlanadi;
- havo bosimi, simob ustuni yoki Pa bilan o'lchanadi;
- ish joyidagi havo harakati tezligi, m/s bilan o'lchanadi.

Bulardan tashqari, ob-havo sharoitiga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish omillari ham mavjud. Bular har xil mashina-mexanizmlar materiallari yuzalaridan tarqaladigan issiqlik nurlari bo'lib, havo haroratining oshishiga olib keladi. Yoz paytlarida korxona hovlisida to'xtab turgan mashinalar va boshqa temir-beton hamda asfalt qoplamasi materiallaridan tarqalayotgan issiqlik xuddi alangadan tarqalgan haroratga o'xshaydi. Bular, albatta, korxona hududida havo haroratini oshiruvchi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Bu omillar ta'siridan hosil bo'ladigan harorat korxona havo muhitining *mikroiqlimi* deb yuritiladi.

Ob-havo omillari mehnat qilish qobiliyatiga va insonning sog'lig'iga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sharoitida ob-havo omillarining deyarli hammasi bir vaqtda ta'sir qilishi ba'zan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og'ir sharoitni vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish harorat yuqori bo'lgan vaqtda ijobiy va harorat past bo'lgan vaqtda esa salbiy natija beradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ob-havo omillari ba‘zi hollarda kishiga ijobiy va ba‘zan esa salbiy ta‘sir ko‘rsatib, inson organizmi-ning tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin ekan. Tananing muhitga moslashuvi — bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana haroratini bir xil chegarada ( $36\text{--}37^{\circ}\text{C}$ ) saqlab turish qobiliyati, demakdir.

Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy bo‘lishi mumkin. Tashqi muhitga kimyoviy moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishidir. Organizmning tashqi muhitga issiqlik chiqarishi uch yo‘l bilan o‘tishi mumkin:

- odam tanasining umumiy yuzasida infraqizil nurlanish orqali (radiatsiya orqali havo almashinuvi);
- tanani o‘rab turgan havo muhitini isitish (konveksiya);
- terining terlab bug‘lanishi va nafas olish yo‘llari orqali suyuqliklarning bug‘lanishi natijasida.

Me‘yoriy sharoitda, kuchsiz havo harakati bo‘lgan holatlarda harakatsiz odam tanasi radiatsiya yo‘li bilan organizm ishlab chiqarayotgan issiqlikning 45 foizini, konveksiya natijasida 30 foiz va terlash orqali 25 foizini yo‘qotishi aniqlangan.

Radiatsiya va konveksiya orqali issiqlikni yo‘qotish faqat tashqi muhit harorati tana haroratidan kam bo‘lgan hollarda bo‘lishi mumkin. Shuni aytib o‘tish kerakki, tashqi muhit harorati qancha past bo‘lsa, issiqlik yo‘qotish shuncha kuchli bo‘ladi.

Tashqi muhit harorati tana haroratidan yuqori yoki teng bo‘lsa, u holda issiqlik ajratish terlab bug‘lanish hisobidan bo‘ladi. 1 gramm terni bug‘latish uchun 2,5 kJ (0,6 kkal) issiqlik yo‘qotiladi.

Organizmdan chiqadigan terning miqdori tashqi muhit haroratiga va bajariladigan ish kategoriyasiga bog‘liq. Tashqi muhit harorati  $15^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qilsa harakatsiz organizmda terlash juda kam miqdorni (soatiga 30 ml) tashkil qiladi. Yuqori haroratlarda esa ( $30^{\circ}\text{C}$  va undan yuqori), ayniqsa, og‘ir ishlarni bajarganda organizmning terlashi juda ortib ketadi.

Masalan, issiq paytlarda, og‘ir ishlarni bajarish natijasida terlash miqdori soatiga 1—1,5 litrga yetadi va bu miqdor terning bug‘lanishi uchun 2500—3800 kJ (600—900 kkal) issiqlik sarflanadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, terlash yo'li bilan issiqlik sarflash faqatgina tana yuzasida ter bug'langandagina amalga oshadi. Terning bug'lanishi esa havoning harakatiga va nisbiy namligiga, kiyilgan kiyimning matosiga bog'liq.

Faqat terlash yo'li bilan issiqlik yo'qotilganda havoning nisbiy namligi 75—80 foiz ortiq bo'lsa, terning bug'lanishi qiyinlashadi va organizmning tashqi muhitga moslashuvi buzilishi natijasida issiqlash yuz berishi mumkin. Issiqlashning birinchi belgisi tana haroratining ko'tarilishidir. Kuchsiz issiqlash tana haroratining yengil ko'tarilishi, haddan tashqari ter chiqishi, kuchli chanqash, nafas olish va qon tomirlar urishining tezlashishi bilan chegaralanishi mumkin. Agar kuchli issiqlash yuz bersa, unda nafas olish qiyinlashadi, bosh qattiq og'riydi va aylanadi.

Tashqi muhitga moslashishning bu xildagi buzilishi va tana haroratining keskin ko'tarilishi *issiqlik gipotermiyasi* deb ataladi.

Issiqlashning ikkinchi belgisi terlash natijasida inson organizmining ko'p miqdorda tuz yo'qotishi natijasida kelib chiqadi. Bu holat teri hujayralarida tuzning kamayishi tufayli, terining suvni ushlab qolish qobiliyati susayganligidan kelib chiqadi. Ichilayotgan suv tinmay ter bo'lib chiqib ketganligi sababli, organizm kuchli chanqoqlik sezadi, ichilgan suvning tezda chiqib ketishi chanqoqni yana kuchaytiradi va bu suv bilan zaharlanish holatini vujudga keltirishi mumkin. Bunda paylarda qaltirash paydo bo'ladi, kuchli terlash va qonning quyuqlashishi kuzatiladi. Bu holat qaltirash kasalligi deb yuritiladi. Keyin issiq urish vujudga keladi, tana qarorati 40—41°C ga ko'tarilib, odam hushini yo'qotadi va qon tomirlarining urishi kuchsizlashadi. Bu vaqtda organizmdan ter chiqish butunlay to'xtaydi. Qaltirash kasali va issiq urish o'lim bilan tugashi mumkin.

Tashqi asab tizimlarining sovuq urishi natijasida suyaklarda radikulit, oyoq-qo'l va bel bo'g'inlarida hamda paylarda revmatizm kasalligi, shuningdek, plevrit, bronxit va boshqa shamollash bilan bog'liq bo'lgan yuqumli kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Odam organizmiga sovuqning, ayniqsa, havo harakatining ta'siri kuchli bo'lib, havoning nisbiy namligi yuqori bo'lgan vaqtda bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Chunki sovuq haroratdagi nam havo issiqlikni yaxshi o'tkazadi va havo almashish (konveksiya) orqali issiqlik yo'qotishni kuchaytiradi.

### **Ishlab chiqarish mikroiqlimining gigiyenik me'yorlari**

Ishlab chiqarish mikroiqlimi me'yorlari mehnat xavfsizligi standartlari tizimi — «Ish zonasi mikroiqlimi» ga asosan belgilangan. Ular gigiyenik, texnik va iqtisodiy negizlarga asoslangan. Yil fasllari va ish toifasiga qarab korxonalaridagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan me'yorlari belgilangan.

Ish toifalari quyidagicha belgilanadi: yengil jismoniy ishlar o'tirib, tik turib yoki yurib bajariladigan, biroq muntazam jismoniy zo'riqish yoki yuklarni ko'tarishni talab qilmaydigan ishlarda energiya sarfi soatiga 150 kkal ni tashkil etadi.

O'rtacha og'irlikdagi jismoniy ishlarga soatiga 150—250 kkal energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og'ir bo'lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi.

Og'ir jismoniy ishlarga muntazam jismoniy zo'riqish, xususan, og'ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va ko'tarish bilan bog'liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250 kkal dan yuqori bo'ladi.

*Yilning sovuq va iliq davrida ishlab chiqarish xonalari harorati, nisbiy namligi va havo harakati tezligining yo'l qo'yiladigan me'yorlari.* Harorat, nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdorlar ko'rinishida belgilanadi. Risoladagi miqdorlar deganda, odamga uzoq muddat va muntazam ta'sir qilganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning me'yoriy faoliyatini va issiqlik holatini saqlashni ta'minlaydigan mikroiqlim ko'rsatkichlarining yigindisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo'tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini oshirish uchun shart-sharoit hisoblanadi.

Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mikroiqlim sharoitlari organizmning faoliyatini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga



chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchayishini bartaraf etadigan va tez me'yorga soladigan mikroiklim ko'rsatkichlarining yig'indisidir. Bunda sog'liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomotadil issiqlik sezgilari, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatning pasayishi kuzatilishi mumkin. Qator hollarda, masalan, issiqlik ko'p ajralib chiqadigan yoki isitiladigan xonalarning hajmi katta bo'lgan metallurgiya, mashinasozlik va boshqa zavodlarda mehnat va dam olish holatlariga qo'yiladigan gigiyenik talablarga, organizmning issiqlab ketishi va sovuq qotishining oldini olishga qaratilgan barcha vositalaridan foydalanishga amal qilish zarur.

Xonalarning katta-kichikligi, bir vaqtning o'zida ham issiqlik, ham namlikning ajralishi, doimiy harorat va namlik kabilarni sun'iy usulda tutib turish sharoitlarini hisobga oladigan koeffitsiyentlarni ishlab chiqish lozim bo'ladi. Ish nechog'liq og'ir bo'lsa, harorat shunchalik yuqori va havo harakati shuncha past bo'ladi.

### **3.3. Korxonadagi xonalarning meteosharoiti**

#### **Atmosfera tarkibidagi changlar**

Sanoat, transport vositalarini ishlatish va qishloq xo'jaligida bajariladigan ishlarning deyarli hammasida chang hosil bo'lishi va ajralishi kuzatiladi. Umuman changlar, ularning kelib chiqish manbalarini hisobga olgan holda tabiiy va sun'iy changlarga bo'lib o'rganiladi. Ma'lumki, changlangan havo muhiti insoniyatni qadim zamonlardan beri ta'qib qilib kelgan. *Tabiiy changlar* sirasiga tabiatda inson ta'sirisiz hosil bo'ladigan changlar kiritiladi. Bunday changlarga shamol va qattiq bo'ronlar ta'sirida tuproqning eroziyalangan qatlamlarining uchishi, o'simlik va hayvonot olamida paydo bo'ladigan changlar, vulqonlar otilishi, kosmosdan yer atmosferasi ta'siriga tushib qolgan meteoritlar, kosmik jismlarning yonib ketishidan hosil bo'ladigan changlar va boshqa hollarda hosil bo'ladigan changlarni kiritish mumkin.

Tabiiy changlarning atmosfera muhitidagi miqdori tabiiy sharoit, havoning holati, yilning fasllari va aniqlanayotgan joyning qaysi mintaqada joylashganligiga bog'liq. Masalan, atmosferadagi

chang miqdori shimoliy hududlarga nisbatan janubiy hududlarda, o'rmon mintaqalariga qaraganda cho'l mintaqalarida, shuningdek, qish oylariga nisbatan yoz oylarida ko'proq bo'lishi ma'lum. Aniqlanishicha, har bir kubometr havo tarkibida katta shaharlar hududlarida 6000 atrofida (ba'zi bir manbalarda avtomobil vositalaridan ajralgan tutunlarni ham kiritib 30000) har xil kattalikdagi chang zarralari bo'lishi aniqlangan. Dalalar va bog'larda bu miqdor o'n marta kamayadi, tog'li hududlarda esa undan ham kamroq chang zarralari bo'ladi.

*Sun'iy changlar* sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Masalan, mashinasozlik sanoatida cho'yan ishlab chiqaruvchi domna va marten pechlarida, tosh sexlarida, issiqlik elektrostansiyalarida yoqilgan ko'mirning ma'lum qismi kul va tutun sifatida atmosferaga chiqarib yuboriladi. Qurilish ishlarida yer qazish, portlatish, sement ishlab chiqarish, shuningdek, tog'lardan ma'danlarni qazib olish va boshqa juda ko'p ishlarda ko'plab miqdorda chang ajraladiki, bu changlarni atrof-muhitga chiqarib yuborish tabiatga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sanoatning ba'zi bir tarmoqlarida, masalan, kimyo sanoatida shunday xavfli sanoat changlari ajraladiki, ularni tozalamasdan chiqarib yuborish fojiali holatlarni vujudga keltiradi. Kelib chiqishi bo'yicha organik, mineral va aralashma changlar mavjud. Changning zararli ta'sirining tavsifi, asosan, uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Changni kattaligi (ya'ni, dispers tarkibi) bo'yicha uch guruhga bo'lib qaraladi:

a) kattaligi 10 mkm dan katta bo'lgan changlar yirik changlar deb ataladi. Odatda bunday changlar o'z og'irligi ta'sirida yerga qo'nadi;

b) kattaligi 10 mkm dan 0,25 mkm gacha bo'lgan changlar. Bu changlarni mayda changlar yoki mikroskopik changlar deb yuritiladi. Ular yerga ma'lum sharoitlar bo'lganda, masalan, yomg'ir, qor va shabnam kabi yerga yog'ilayotgan og'ir zarralarga ilashib qo'nishi mumkin;

d) kattaligi 0,25 mkm dan kichik bo'lgan changlar ultra mikroskopik changlar deb yuritiladi va bu changlar hech qachon yerga qo'nmay, betartib harakat qilib, uchib yuradi.

## Ish joyidagi havo muhiti

**Havoning kimyoviy tarkibi va xossalari.** Havoning fizik xususiyatlari va tarkibida har xil moddalarning bo'lishi havodan nafas olib, mehnat qilayotgan kishilar uchun juda muhim. Chunki, havoning tozaligi inson salomatligini saqlovchi muhim omil hisoblanadi.

Yer atmosferasi quruq havo bilan ma'lum miqdorda suv bug'larining aralashmasidan tashkil topgan. Quruq atmosfera havosining tarkibida 78 foiz azot, 20,9 foiz kislorod, 0,3 foiz karbonat angidridi va uncha ko'p bo'lmagan miqdorda geliy, neon, kripton va boshqa gazlar bor. Inson uchun eng mudhishi havo tarkibida kislorodning kam miqdorda bo'lishidir.

Havo holati uning bosimi, zichligi, harorati, mutlaq namligi, namlik sig'imi, nisbiy namligi, issiqlik sig'imi va boshqalar bilan belgilanadi.

Ish joyidagi havo muhitini mo'tadillashtirishda shamollatishning ahamiyati katta. Shu sababdan quyida shamollatish usullarini keltirib o'tamiz.

*Umumiy shamollatish.* Ishlab chiqarish binolarida ajralib chiqayotgan har xil zararli moddalarni shamol yo'naltirish vositasi bilan chiqarib yuborishning imkoniyati bo'lmasa yoki moddalar texnologik jarayon maydonlaridan ajralib chiqayotgan bo'lsa, unda yakka tartibda shamollatish vositalarini qo'llash imkoniyati yo'qoladi. Bunday hollarda umumiy shamollatish usulidan foydalaniladi. Umumiy shamollatish vositasini zararli moddalar yoki issiqlik eng ko'p ajralib chiqayotgan joyga o'rnatish kerak.

Ishlab chiqarish joylarida yig'ilgan havodagi zararli moddalarni havo almashtirish maqsadida o'rnatilgan havo qabul qilish vositalari orqali chiqarib yuborish, sof havoni esa yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalarning biri yordamida hosil qilish mumkin. Xonaga sof havo berish va zararli moddalar yig'ilgan havoni chiqarib yuborish usullari zararli moddaning xona bo'ylab tarqalish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar ish joyida ko'plab issiqlik ajralib chiqishi mumkin bo'lgan mashina va mexanizmlar

o'rnatilgan bo'lsa, ularni ish joyida joylashish holatiga qarab shamollatish usullari qo'llaniladi.

Bundan tashqari, har xil zararli omillarga ega bo'lgan jihozlarni ish joylari bo'ylab joylashtirishning ahamiyati katta. Shuning uchun ham korxona binolari loyihalananayotgan vaqtda iqlim sharoiti, quyosh nurlarining tushish holatlari va ish joyidagi jihozlarni to'g'ri joylashtirish masalalari qoniqarli hal qilingan bo'lsa, shamollatish vositalarini o'rnatish ham shunchalik osonlashadi.

*Tabiiy shamollatish.* Tashqaridan bino ichiga kirgan sovuq havo bino ichidagi issiqlik hisobiga isigandan keyin hajmi kengayganligi sababli binoning yuqori tomoniga qarab harakatlanadi va agar binoning yuqori qismida havoning chiqib ketishi uchun quvur yoki tirqishlar hosil qilinsa, unda havoni tashqariga chiqarib yuborish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bu jarayon korxona binolarida, shuningdek, har qanday binoda, ayniqsa, sovuq faslda davom etadi va mazkur hodisa *aeratsiya* deb yuritiladi.

Ushbu usuldan foydalanishda asosiy e'tiborni havoning kirish yo'nalishlari va chiqish joylarini ta'minlashga qaratish lozim. Ma'lumki, issiq havo yuqoriga qarab ko'tariladi, sovuq havo esa pastga yo'naladi. Shuning uchun ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi ish joylarida sovuq havoni poldan 4 m balandlikdan berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sovuq havo pastga qarab yo'nalayotganda issiq havo bilan aralashadi, isiydi va vujudga kelgan tabiiy oqimlarga qo'shilib uzluksiz harakat hosil qiladi. Bu uzluksiz harakat davomida oqimlarga yangidan yangi miqdorlar qo'shilishi natijasida yuqori to'siqlar tomon yo'naladi va bir qismi tabiiy shamollatish tirqishlaridan tashqariga chiqib ketadi. Bir qismi esa sovib yana pastga qarab yo'naladi va bu bilan havoning xona ichidagi aylanma harakatini kuchaytirishga o'z hissasini qo'shadi. Shunday qilib binolarning ichida havo harakatining tutash oqimlari vujudga keladi. Agar tashqarida havo nihoyatda issiq bo'lsa ( $30-40^{\circ}\text{C}$  atrofida), tabiiy shamollatishga ehtiyoj oshadi.

Tabiiy shamollatishni hisoblashda, asosan, ma'lum darajadagi isish hisobiga yengillashib, binoning yuqori qismlarida yig'ilgan ortiqcha bosimni biron-bir havo chiqarib yuborish joyidan tashqariga yo'naltirish mo'ljallanadi.

### **3.4. Mehnat muhofazasi talablariga rioya qilishda direktor va direktor o‘rinbosarining roli**

Mehnat muhofazasiga oid qonunchilik va boshqa me‘yoriy hujjatlarni buzishda yoki davlat va jamoat organlarining faoliyatiga xalal beruvchi mansabdor shaxslar ma‘muriy intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka, O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish» to‘g‘risidagi Qonunida belgilangan tartibda qonuniy javobgarlikka tortiladilar.

50 va undan ortiq odam ishlaydigan muassasada mehnat muhofazasi bo‘yicha xizmatlar (maxsus lavozim kiritiladi) tashkil etilib, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslar tayinlanadi, undan kam odamlar ishlaganda mehnatni muhofaza qilish xizmatlari bilan shug‘ullanish xo‘jalik rahbarlaridan biriga yuklatiladi.

Bir yoki undan ortiq odamlar ishlaydigan muassasalarda xodimlarning mehnatini muhofaza qilishga oid qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarga rioya qilinishning jamoatchilik nazoratini, jamoaning umumiy yig‘ilishida jamoa ichida saylangan mehnat muhofazasi bo‘yicha vakil amalga oshiradi.

**Mehnat muhofazasi bo‘yicha vakil saylash to‘g‘risidagi Nizom** O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 1995-yil 18-dekabrda 196-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Mehnat odamning shakllanishi va ijtimoiy rivojlanishi, moddiy boyliklar yaratishning asosi hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan mehnat kishining jismoniy, intellektual va ma‘naviy kamol topishiga olib keladi. Jamiyatda u nafaqat moddiy farovonlik, balki odamning tetiklik manbayi hamdir.

Mehnat, avvalo, ijtimoiy tushunchadir. Mehnat jamiyatning xususiyatli belgilarini tahlil qilish, ijtimoiy rejada moddiy boyliklar manbayi va jamiyatni shakllantiradigan negiz ekanligini ko‘rsatadi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- gigiyenik yo‘nalish;
- fiziologik yo‘nalish;
- psixologik yo‘nalish;
- estetik yo‘nalish.

Shartli ravishda mehnat aqliy va jismoniy turlarga ajratiladi. Har qanday mehnat turida quvvat sarf bo'ladi. Jismoniy mehnatda nafas va qon aylanishi tizimlarida birmuncha siljishlar sodir bo'lsa, aqliy mehnatda, asosan, asab tizimi qatnashadi va modda almashinuvi kamroq ro'y beradi.

Biologik jihatdan mehnatning eng muhim faoliyati tana hisoblanadi. Tananing ish qobiliyati birinchi galda markaziy asab tizimining holatiga bog'liq, markaziy asab tizimiga esa ijtimoiy muhit sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatning xoh u jismoniy turi, xoh u aqliy turi bo'lsin, unda odam organizmi ishtirok etadi va organizmda toliqish, zo'riqish holatlari yuz berishi mumkin. Ish kuni va haftasining davomiyligini qisqartirish toliqishning oldini olishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Inson organizmiga ish joyidagi shovqin, titrash, ultratovush, infratovush, yorug'lik, chang, zaharli gazlar va hokazolarning ta'siri kattadir. Shuning uchun mehnatning qanday turida ishlashdan qat'i nazar, xodim uchun xavfsiz mehnat holatini ta'minlash zarur.

Mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Har bir rahbar O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuniga amal qilishi va ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini to'g'ri talqin etishi lozim. Tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini tashkil etish, xizmatchi va ishchilar o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» Qonun qabul qilingan. Bu qonun asoslari mazmun jihatidan juda keng qamrovli bo'lib, o'z tarkibida jamoa shartnomasi, mehnat shartnomasi, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, mehnat intizomi, ayollar va bolalar mehnati, ijtimoiy himoya hamda boshqa masalalarni qamrab olgan.

Barcha vazirliklar, tashkilotlar va korxonalarda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga amal qilinishini nazorat etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuklatilgan.

Muassasa rahbarining eng muhim vazifalaridan biri mehnat muhofazasini hamda ta'lim jarayoni xavfsizligini to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. Bu ishni amalga oshirish uchun:

- xodimlarga mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi masalalarini muntazam ravishda o'rgatib borish va ularning bu boradagi bilimlarini tekshirib turish;

- xavfsizlik texnikasi bo'yicha reja asosida va rejadan tashqari yo'l-yo'riqlar berib borish;

- maktab va kollej binosini doimiy ravishda texnik ko'rikdan o'tkazib turish;

- xodimlar va o'quvchilar bilan texnika xavfsizligi va hayotni muhofaza qilish qoidalari to'g'risida suhbatlar o'tkazib turish lozim.

Muassasalarning xodimlari tibbiy ko'riklardan o'tishi masalasiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Chunki O'zR MKning 214-moddasiga muvofiq, umumta'lim maktablari, maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta'lim yoki tarbiya berish bilan mashg'ul bo'lgan pedagog va boshqa xodimlari vaqt-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi shart.

Muassasada mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish va ular amalga oshirilishini nazorat qilish chog'ida muassasa rahbari quyidagi masalalarga alohida e'tibor berishi tavsiya qilinadi:

- mehnatni muhofaza qilishga oid zarur hujjatlar mavjudligi;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlar bajarilishi;

- xodimlarga mehnatni muhofaza qilish masalalari o'qitilishi, bu boradagi yo'l-yo'riqlar o'z vaqtida berilishi hamda ularning sifati;

- xodimlar texnika xavfsizligi talablariga rioya etishlari;
- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi masalalariga oid ko'rgazmali tashviqot vositalari mavjudligi hamda ularning holati;

- ish joylari va muassasa hududi xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiqligi;

- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar mavjudligi;

- mehnatni muhofaza qilish ishlarining ustidan nazorat olib borish daftarlari mavjudligi va yuritilayotganligi;

- mehnatning sanitariya-gigiyenaga oid shart-sharoiti;

— yoritilganlik darajasi, harorat rejimi, havo almashib turishi va boshqalar;

— belgilangan mehnat va dam olish rejimiga rioya etilishi;

— tibbiyot qutichalari mavjudligi va ular dori-darmonlar bilan oʻz vaqtida toʻldirib turilishi;

— birlamchi oʻt oʻchirish vositalari bilan jihozlanganlik va ular ishga yaroqli holatdaligi;

— evakuatsiya rejasi mavjudligi;

— asosiy va qoʻshimcha chiqish joylari, evakuatsiya yoʻllarining holati;

— mehnatni muhofaza qilish boʻyicha leksiyalar va suhbatlar oʻtkazilishi.

Muassasada mehnatni muhofaza qilish talablariga ogʻishmay rioya etilishi xodimlarning hayoti xavfsizligi hamda salomatligini taʼminlashda, ish jarayoni uchun qulay shart-sharoit yaratishda yordam beradi.

Muassasa rahbariga muassasadagi barcha xodimlar ustidan texnika xavfsizligining barcha talablariga rioya etilishini nazorat qilib borish yuklatiladi.

«Mehnat toʻgʻrisida»gi Qonun va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish va kuzatib borishni quyidagilar amalga oshiradilar:

— Davlat texnik nazorati va uning joylardagi boʻlinmalari;

— maxsus vakolati boʻlgan davlat organlari va ularning nazorat-chilari;

— ishchilarning vakillik organlari.

**Rahbar quyidagilarga majbur:**

— bajariladigan barcha turdagi ishlarda texnika xavfsizligi qoidalarini bilishi va muassasadagi xodimlardan unga rioya etilishini talab qilishi;

— ish joylarida texnika xavfsizligi boʻyicha yoʻl-yoʻriq berishi, yoʻriqnoma oʻtkazishi;

— ish joylariga mast holdagi shaxslarni va, shuningdek, muassasaga kirish huquqlari boʻlmaganlarni va texnika xavfsizligi qoidalar bilan tanishmaganlarni ishga qoʻyishga ruxsat etmasligi;

— xodimlarni xavfsizlik talabiga javob bermaydigan ishga qoʻymasligi;



— xotin-qizlarning mehnatini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarga qat'iy rioya etishi (Mehnat kodeksining 224 — 238-moddalari);

— 15 — 18 yoshli o'smirlarning mehnatidan foydalanishdagi qoidalarga rioya etilishini kuzatishi (Mehnat kodeksining 239 — 247-moddalari);

— muassasadagi ish o'rinlarini tegishli yo'riqnomalar, eslatmalar, plakatlar, ogohlantiruvchi yozuvlar bilan ta'minlashi;

— ma'muriyat muassasada dam olish xonasi, tibbiyot xonasi, ayollar uchun gigiyenik xonalar bo'lishini ta'minlashi lozim;

— baxtsiz hodisalarning tekshirilishida ishtirok etishi, N-1 shakldagi dalolatnomani rasmiylashtirishi va jabrlanishiga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etishi;

— baxtsiz hodisalar chog'ida birinchi yordamni ko'rsatish usullarini bilishi va xodimlariga ham o'rgatishi lozim;

— muassasada sodir bo'lgan baxtsiz hodisani to'g'ri va o'z vaqtida «Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa va xodimning sog'lig'iga ziyon yetganda tekshirish to'g'risidagi Qoida»larga muvofiq tekshirilishiga rahbar javobgardir;

— rahbar xodim texnika xavfsizligi qoidalarini buzayotganini sezib qolsa, u ishni tezlik bilan to'xtatishni talab qilishi va qoida-buzarliklar qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib, ishning xavfsiz yo'llarini o'rgatishi lozim;

— rahbar shuni bilishi kerakki, mehnat muhofazasi qoidalarini buzish qonunan taqiqlanadi.

### **3.5. Dars, ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etish, ekskursiya vaqtida xavfsizlikni ta'minlashda o'qituvchining roli**

#### **Tikuvchilik korxonasiga ekskursiya**

Ekskursiyadan maqsad: tikuvchilik sexi ishini o'rganish; qo'l ishlarini, mashina ishlarini, namlab-isitib ishlov berishni, kiyim detallarini yelimlab yopishtirishni o'rganish; tikuvchilik sexlarida har xil o'rinlarni tashkil etishni, nazorat uyushtirishni, mehnatni rejalashtirishni, operatsiyalarni komplektlashni, ishni hisobga olishni o'rganish; tikilayotgan modellar texnologik hujjatlarini, ularga ishlov berish xususiyatlarini ko'rib chiqish va o'rganish;

o'tgan materialni mustahkamlash va o'tilganlarni amalda ishlatish bilan tanishish.

Ekskursiyadan maqsad o'quvchilarning birinchi kiyim tikishlaridan oldin kiyimning korxonada tikilish jarayoni bilan batafsil tanishib chiqishlaridan iborat. Ekskursiyadan keyin «Tayyorlov davrida olingan bilimlarni kiyim tikish vaqtida ishlatish» mavzusida o'quvchilar bilan ishlab chiqarish kengashi yoki seminar o'tkazilishi shart.

Usta seminar rejasini tuzib chiqadi, quyidagi mavzularda axborot tayyorlashni o'quvchilarga topshiriq qilib beradi: bironta detalga ishlov berish ketma-ketligi, ishlov berishda ishlatiladigan usullar, korxona ishchilarining operatsiyalarni bajarishdagi (topshiriqqa binoan) usullari va h. k.

**Ekskursiyalarga** ta'limning ko'rgazmali usuli deb, shuningdek, mustaqil shakli deb qarasa ham bo'ladi. Tikuvchilik ixtisosidagi kasb-hunar kollejlari ta'limning hamma bosqichlarida ekskursiyalar o'tkazib turiladi.

Kirish davrida o'quvchilarni tanlagan hunarlari bilan, korxona bilan, chiqarilayotgan mahsulot bilan mufassalroq tanishtirish uchun ekskursiyalar o'tkaziladi.

Tayyorlov davrida va ixtisos egallash davrida ekskursiyalar oldiga boshqa vazifalar qo'yilib, ular, masalan, alohida operatsiyalarni tanishtirishdan, kiyim tikishdagi ketma-ketlikni o'rganishdan, mehnat taqsimoti doirasida ishlashni bilib olishdan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon, uskunalar, kiyim tikishning eng oqilona yo'llari bilan tanishtirish ekskursiyalari butun ishlab chiqarish ta'limi kursi davomida o'tkazib turiladi.

Usta dastavval ekskursiya obyekti bilan tanishib chiqishi, reja tuzishi, keyin esa o'quvchilarni ekskursiyaga tayyorlashi, ularga topshiriq berishi kerak. Ekskursiya korxona vakili bilan birgalikda o'tkaziladi. Yakun yasalayotganda o'quvchi o'zi bajargan maxsus topshiriqlar haqida yozma hisobot topshirishi kerak. Ekskursiya maxsus fanlar o'qituvchilari bilan birga o'tkazilgani ma'qul.

#### **O'quvchi ekskursiya vaqtida:**

— ekskursiya dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;

— ekskursiya obyektining ichki mehnat tartib-qoidalarini o‘rganishi;

— mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o‘rganishi va unga qat’iy rioya qilishi;

— bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxona ishchilari qatori javobgarlik olishi;

— daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

— ekskursiya rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi kerak.

### **Ekskursiya vaqtida o‘quvchilar bilimiga qo‘yiladigan talablar**

— ekskursiya mobaynida o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

— muassasa, korxona va tashkilotlar tarixi, ishlab chiqarishdagi mahsulot turlari to‘g‘risida ma’lumot;

— muassasa, korxona va tashkilotlar boshqarish tizimi, ularda ishlab chiqarishni tashkil etish;

— ishlab chiqarish korxonalarining barcha joylarida texnika xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari;

— texnologik hujjatlarni rasmiylashtirish.

### ***Nazorat savollari***

1. Ta’lim muassasalarida xodimlar va o‘quvchilarning mehnat sharoitlari xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalar nimalardan iborat?

2. Ta’lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilishga doir ishlar qaysi nizomlarga binoan muvofiqlashtiriladi?

3. Rahbarning vazifalari nimalardan iborat?

4. Korxonalarda qaysi holatda mehnatni muhofaza qilish xizmati tuziladi?

5. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

6. Ekskursiya uyushtirish davrlarida o‘quvchilarni qanday yo‘riqnoma bilan tanishtirish lozim?

## **4-BOB. BAXTSIZ HODISANI HISOBGA OLISH VA TAHLIL QILISH**

### **4.1. Baxtsiz hodisalarni aniqlash, hisobga olish va uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish**

Normal ish rejimidan chetga chiqish, ishlab chiqarishda zararli muhitning borligi, xavfsizlik qoidalari va mehnat intizomining buzilishi natijasida ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar ro'y berishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarohati (shikastlanish) — ishlab chiqarish sharoitida sog'liqning to'satdan buzilishidir.

Ishlovchilarning qo'qqisidan chiqqan gaz yoki boshqa zararli moddalar (katta konsentratsiyasi) bilan kuchli zaharlanish hollari ham ishlab chiqarish jarohatiga kiradi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishda kasbiy kasallanish hollari (silikozlar, pnevmosklerozlar) ham bo'lishi mumkin, bu kasalliklar ishlovchilarga zararli moddalarning uzoq vaqt ta'sir etishidan yuzaga keladi. Ishlovchilar kasbiy kasalliklar bilan ishlab chiqarish jarayonida ham, shuningdek, uzoq vaqt o'tganidan keyin ham kasallanishi mumkin. Kasbiy kasallanish sabablarini tekshirish va hisobga olish baxtsiz hodisalardan alohida tarzda olib boriladi. Shunday qilib, baxtsiz hodisalarga (shikastlanishlar, jarohatlanishlar, sinish, kuyish va boshqalar) issiqlik urishi, sovuq urishi, kuchli zaharlanishlar kiradi.

Baxtsiz hodisalar ikki guruhga: og'ir va yengil darajadagi turlarga bo'linadi. Baxtsiz hodisalar ishlab chiqarish bilan, ish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan, ishdan tashqari yuz bergan (maishiy) baxtsiz hodisalarga bo'linadi.

Baxtsiz hodisa quyidagi hollarda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan hisoblanadi:

a) tashkilot hududida sodir bo'lsa;

b) tashkilot topshirig'ini bajarayotgan paytda tashkilot hududidan tashqarida (texnologik jarayonni yuritish uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlash va qabul qilishda, moddiy-texnika ta'minot masalalarini hal qilish jarayonida va h. k.), shuningdek, tashkilotlarga tegishli bo'lgan transportda ishchi va xizmatchilarni ish joyiga olib borish paytida va boshqa hollarda sodir bo'lsa;

d) ish vaqti davomida, ish boshlanishidan oldin va tugallanganidan so'ng, asosiy ish vaqtidan tashqari ishlarni bajarishda, dam olish va bayram kunlarida;

e) ish vaqti mobaynida korxona yaqinida yoki boshqa ish o'rnida, bunga ko'zda tutilgan tanaffuslar ham kiradi (agar shu yerda bo'lish ichki mehnat intizomi qoidalariga zid bo'lmasa);

f) davlat va jamoat vazifalarini bajarishda, shuningdek, kasaba uyushma yoki boshqa jamoat tashkilotlarining maxsus topshiriqlarini bajarish paytida (bu topshiriqlar asosiy ish bilan bog'liq bo'lmasa ham), inson hayotini qutqarish, ishga borish yoki ishdan qaytish yo'lida (agar ishga borish yo'lida shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan chalg'ib ketilmasa) va boshqalarda sodir bo'lsa.

Baxtsiz hodisa quyidagi hollarda ishlab chiqarish bilan bog'liq emas deb hisoblanadi:

a) ma'muriyatning ruxsatisiz shaxsiy maqsadlarda qandaydir buyumlar tayyorlashda yoki korxonaga tegishli transport vositalaridan foydalanishda;

b) tashkilot hududida sport o'yinlari vaqtida;

d) material, asbob-uskuna yoki boshqa narsalarni o'g'irlash vaqtida;

e) mast bo'lish natijasida yuz berganda (agar bu hol ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan texnik spirt va boshqa shunga o'xshash moddalar ta'siri natijasi bo'lmasa yoki baxtsiz hodisaning bevosita sababchisi bo'lganda).

Yuqorida sanab o'tilgan toifalarga kirmaydigan barcha boshqa baxtsiz hodisalar maishiy baxtsiz hodisalar hisoblanadi. Ish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisada jabrlangan kishi vaqtinchalik ishga yaroqsizligi uchun nafaqa olish va ishda shikastlanganligi uchun nafaqa olish huquqiga ega bo'lib qoladi. Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisada (ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan) jabrlangan kishi vaqtinchalik ishga yaroqsizligi uchun nafaqa olish va bu holda korxonaning aybi bo'lsa, yetkazilgan zararni korxonadan undirib olish huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, korxona ma'muriyatiga ishlab chiqarish jarohatining oldini olish yuzasidan konkret va amaliy vazifalar (baxtsiz hodisa haqidagi akt bo'yicha ma'lum tadbirlar o'tkazish) yuklanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa barcha hollarda ish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisa hisoblanadi (aksincha emas).

## **Baxtsiz hodisalarni tahlil etish**

Korxona ma'muriyati ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish haqidagi Nizomga binoan mehnat faoliyatini yo'qotishga sabab bo'lgan har bir shikastlanish hollarini tekshirib chiqib, shu haqda N-1 namuna bo'yicha 4 nusxada dalolatnoma tuzadi. Bosh muhandis dalolatnoma va ko'riladigan chora-tadbirlar rejasini tayyorlaydi. Baxtsiz hodisa sababini bartaraf qilish haqida buyruq birinchi rahbar tomonidan tasdiqlanadi va uni bajarish uchun mas'ul kishi tayinlanadi, amalga oshirish muddati belgilanadi.

Guruhiy, og'ir jarohat va o'lim bilan tugagan shikastlanishlarda N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish bilan bir vaqtda baxtsiz hodisalar maxsus jurnalga qayd qilib qo'yiladi. N-1 namunasi bo'yicha tuzilgan dalolatnomalarga asoslanib korxona ma'muriyati hisobot tayyorlaydi va yuqori tashkilotlarga yuboradi, bunda mehnat faoliyati faqat uch kundan ortiq yo'qotilgan hodisalargina inobatga olinadi. N-1 namunali dalolatnomalar idora arxivida 45 yil saqlanishi kerak.

Baxtsiz hodisani o'z vaqtida, to'g'ri o'rganish va hisobga olish, uning sabablarini puxta tahlil qilish hamda bunday hodisalar takrorlanmasligi uchun butun javobgarlik hodisa sodir bo'lgan idora (tashkilot, muassasalar) ning birinchi rahbari zimmasiga yuklanadi. Hisobotlar ishi sanoat tarmoqlarida, xalq xo'jaligidagi ishlab chiqarish va transportda ro'y bergan shikastlanishlar dinamikasini baholash va unga qarshi kurash yo'llarini belgilashga imkon beradi. Shikastlanish ishlash qobiliyati yo'qotilgan yoki yo'qotilmaganligidan qat'i nazar har bir hodisani to'la hisobga olish uchun tibbiyot shoxobchalari va sanitariya qismlarida ro'y-xatga olib boriladi. Bu ma'lumotlarni tahlil etish N-1 namuna hisobotlari asosida aniqlanadi.

Shikastlanishlarning tahlilini mehnat gigiyenasi bo'yicha shifokor va uning yordamchisi mehnat xavfsizligi bo'limi hamda sog'lomlashtirish shoxobchasi tibbiyot-sanitariya qismi shifokorlari bilan birgalikda olib boradi. Shikastlanishlarga qarshi tadbirlar ko'rish rejasini tahlil asosida tuziladi. Tahlil qilish va ma'lumotlarni statistik jihatdan ishlab chiqishda shikastlanishlarning ko'p-ozligi chastota ko'rsatkichlarining og'ir va yengilligiga bog'liq.

Chastota ko'rsatkichi 1000 ishchiga bo'lganda shikastlanishning o'rtacha soni quyidagi formula bo'yicha ifodalanadi:

$$P_{ch} = \frac{N \cdot 1000}{R},$$

bu yerda:  $P_{ch}$  – qaytarish koeffitsiyenti;  $N$  – muayyan davr ichidagi shikastlanishlar soni (oy, chorak, yarim yil, yil);  $R$  – ishlovchilar soni.

Mayib bo'lishlik og'irlik koeffitsiyenti, vaqtinchalik ish kuni yo'qotishni o'rnatilgan o'rtacha davomiylik bir baxtsiz hodisa uchun:

$$P_o = \frac{D}{N},$$

bu yerda:  $P_o$  – og'irlik koeffitsiyenti;  $D$  – yo'qotilgan ish kunlari yig'indisi;  $N$  – shu davr ichida sodir bo'lgan baxtsizlikda shikastlangan shaxslar soni.

Shikastlanish og'irligi ko'rsatkichi ma'lum darajada chastota ko'rsatkichini to'ldirib beradi, yuz bergan shikastlanishlarga bir xilda baho berish mumkin bo'lmaydi, chunki uni shikastlanuvchining:

- a) jarohat xususiyatiga (mexanik, termik va boshqa);
- b) kasbi (tokar, slesar, yuk tashuvchi va boshqa);
- d) mehnat staji;
- e) yoshi;
- f) jinsiga qarab tahlil qilinadi.

Shikastlanishni har tomonlama to'ldiruvchi belgilarini nazarga olgan holda tahlil qilish, unga qarshi kurashning samarador rejasini tuzishga imkon beradi. Bunday rejani mehnat gigiyenasi bo'yicha shifokor, mehnat muhofazasi muhandisi va tibbiyot-sanitariya qismining shifokori birgalikda tuzib, uning muddatida bajarilishini nazoratga oladi.

Shikastlanishning oldini olish ishini tashkil etishda signalizatsiya yo'li bilan hisoblash va tahlil qilishning tezkor shakli mavjud bo'lib, bu juda qisqa muddat ichida (hafta, oy) o'tkaziladi. Unga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- 1) sex;
- 2) asbob-uskunalar turkumi;

3) vaqti.

Shular asosida shikastlanish xavfi bo'lgan joylar aniqlanadi va uning sabablari bartaraf etiladi.

Ishlab chiqarishda *shikastlanish* deb, korxona hududida bo'lgan davrda kishi tanasining biror a'zosi tasodifan shikastlanishi natijasida salomatligiga putur yetishiga aytiladi.

Baxtsiz hodisalar sodir bo'lishining oldini olish, asosan, ma'muriyat rahbarlari javobgarligida bo'lib, nazorat ishlari mehnat muhofazasi bo'limi zimmasida bo'ladi. Shikastlanishning sabablarini o'rganish, muhandis-texnik sohasiga tegishli masalalar, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ishchilar salomatligini mustahkamlashga oid masalalarni hal etishda tibbiyot-sanitariya qismidagi shifokorlar mas'uldirlar.

*Shikastlanishlar turiga qarab:*

- mexanik (yara toshishi, sinish);
- termik (issiqlanish, kuyish, sovuq urish);
- kimyoviy (kuyish, o'tkir zaharlanish);
- elektr quvvatidan shikastlanishlarga bo'linadi.

*Shikastlanish joyiga qarab:*

— oyoq va bosh shikastlanishi (ko'zdan boshqa), gavda, qo'l (barmoqlardan tashqari), shuningdek, ko'p joylarning shikastlanishiga bo'linadi.

*Shikastlanish og'ir-yengilligiga ko'ra* mehnat qobiliyati yo'qolmaydigan yengil shikastlanishga, mehnat qobiliyati bir necha kunlab, haftalab va hatto oylab yo'qotiladigan o'rtacha va og'ir shikastlanishlarga bo'linadi. Shikastlanishning og'ir turi mehnat qilish qobiliyatini mutlaqo yo'qotishga sabab bo'lishi va nogironlikka olib kelishi mumkin. Guruh holida va o'limga olib boradigan turdagi shikastlanishlar alohida ko'riladi.

**Shikastlanishlar kelib chiqishining asosiy sabablari.** Texnik jihozlarning nosozligi natijasida dastgohlarning to'xtab qolishi, tasmalarning uzilib ketishi va shu kabi hodisalar shikastlanishlarga olib keladi. Bunga ularning o'z vaqtida ehtiyot yuzasidan ta'mir qilinmaganligi, uzluksiz ishlashi natijasida ayrim qismlarning ishdan chiqishi sabab bo'lishi mumkin. Shunday hodisalar ro'y bermasligi uchun mehnat xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxslarning doimiy nazorati talab etiladi.



Texnologik jarayonning buzilishi natijasida termik, kimyoviy jarohatlanish va o'tkir zaharlanishlar yuzaga keladi. Buning oldini olish uchun reja asosida ishchilarning bilimini o'z vaqtida tekshirib turish va yo'riqlov o'tkazib turish katta ahamiyatga egadir. Qo'l kuchi bilan boshqariladigan ishlar, transportlarga yuk ortish va tushirish jarayonlarining yetarli darajada mexanizatsiyalashtirilmaganligi mehnat sharoiti yaxshi tashkil qilinmaganligini bildiradi.

Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan korxonalarning kichiklik qilib qolishi, tayyor mahsulotlarni saqlash xonalarining (omborlarining) sharoiti qoniqarli bo'lmashligi, mahsulotning tayyorlov joylaridan o'z vaqtida olib ketilmasligi, yo'llarning tor bo'lishi shikastlanish xavfining ortishiga sabab bo'ladi.

Korxonalarda sanitariya holati qoniqarsiz bo'lishining asosiy sabablariga xonalar sathining sirpanchiligi va tekis bo'lmashligi, korxona hovlisidagi yo'lakning o'ydin-chuqurligi, yoritish qurilmalari quvvatining kamligi, deraza oynalarining chang bosib ketishi, chang va gazlar miqdorining me'yoridan ortiq bo'lishi natijasida diqqat-e'tiborning kuchayishi, shovqin bosimining yuqori bo'lishini misol qilib keltirish mumkin. Shikastlanishning ko'p uchraydigan sabablaridan biri ishchilarning toliqib qolishidir, chunki bunda ishga diqqat-e'tibor pasayibgina qolmay, balki ishchilardagi harakat yo'nalishi ham buziladi. Bunday hollarda shikastlanish mehnat kunining so'nggi soatlarida yoki rejada ko'rsatilgandan ortiqroq mehnat qilish natijasida yuz beradi.

Binobarin, ishlab chiqarish sharoitini sog'lomlashtirish va ishchilarning toliqib qolmasliklariga sharoit yaratish, faqat kasbga aloqador kasalliklarning emas, balki shikastlanishning ham oldini oladi.

«Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyunidagi 286-sonli Qarori bilan qabul qilingan.

**ISHLAB CHIQARISHDAGI BAXTSIZ HODISALARNI VA  
XODIMLAR SALOMATLIGINING BOSHQA XIL  
ZARARLANISHINI TEKSHIRISH VA HISOBGA OLISH  
TO'G'RISIDA  
NIZOM**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom:

ishlab chiqarishda ishlayotgan davrida sud hukmi bo'yicha jazoni o'tayotgan fuqarolarga;

ish beruvchilarga;

pudrat va topshiriqlarga ko'ra fuqarolik-huquqiy kontraktlar bo'yicha ishlarni bajarayotgan shaxslarga;

tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qatnashayotgan fuqarolarga;

agar maxsus davlatlararo bitimda o'zgacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, yollanib ishlayotgan chet el fuqarolariga;

qurilish, qishloq xo'jaligi va harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lmagan o'zga ishlarni bajarish uchun korxonaga yuborilgan harbiy xizmatchilarga, shu jumladan, muqobil xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga;

korxonada ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalar va o'quvchilarga ham tatbiq etiladi.

**Izoh.** O'quvchilar va talabalar bilan o'quv-tarbiya jarayonida yuz bergan baxtsiz hodisalar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan holda, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan belgilangan tartibda tekshiriladi va hisobga olinadi.

(1-banddagi izoh O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

2. Korxona hududida va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek, xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta'siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy ofatlar (zilzilalar, o'pirilishlar, suv toshqinlari, to'fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

o'z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek, avariyaalarning, odamlar halok bo'lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo'lsa ham, korxona manfaatlarini ko'zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;

xodim xizmat safarida bo'lgan yoki o'z funksional vazifalarini bajarish vaqtida — yo'l-transport hodisasidagi, temir yo'l, havo yo'llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;

ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo'ljallangan transportda, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma) ga muvofiq o'zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;

ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug'i mavjud bo'lgandagi;

ish beruvchining topshirig'ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek, mehnat faoliyati xizmat ko'rsatish obyektlari orasida yurish bilan bog'liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;

tadbirlarning o'tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat'i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, ko'ngilli yong'in muhofazasi musobaqalari o'tkazilayotgandagi, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo'yicha korxona tomonidan otaliq yordami ko'rsatilayotgandagi;

ichki ishlar organlarining ma'lumotlari asosida — ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;

smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

3. Tabiiy o'lim, o'zini o'zi o'ldirish, jabrlanuvchining o'z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog'ida shikastlanishi holatlari (sud-tibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma'lumotlariga ko'ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

4. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo'qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o'tishi zarur bo'lsa, N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (1-ilova).

Ish beruvchi tekshirish tugaganidan so'ng 3 sutkadan kechiktirmay jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga davlat tilida yoki boshqa maqbul tilda rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa to'g'risidagi N-1 shaklidagi dalolatnomani berishi kerak.

5. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to'g'ri va o'z vaqtida tekshirish hamda hisobga olish, N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish, baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgardir.

6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to'g'ri va o'z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, shuningdek, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini korxonaning yuqori turuvchi xo'jalik organi, Kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, davlat mehnat texnika nazoratchisi, O'zbekiston Respublikasi

«Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O‘zenergo-nazorat» agentliklari organlari nazoratdagi tegishli obyektlarda nazorat qiladi.

(6-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

7. Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishdan bosh tortsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs N-1 shaklidagi dalolatnoma mazmunidan norozi bo‘lsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs korxona kasaba uyushmasi qo‘mitasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organiga murojaat qiladi.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi 10 kun muddat ichida baxtsiz hodisaning kelib chiqishi sabablarini o‘rganib chiqadi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me‘yorlari, mehnat xavfsizligi andozalari buzilishini aniqlaydi, zarur deb hisoblasa, ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki qayta tuzishni talab qiladi. Ish beruvchi bu talablarni bajarmasa, korxona Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki boshqa vakillik organi, shuningdek, jabrlanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs davlat mehnat texnika nazoratchisiga murojaat qiladi.

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

8. N-1 shaklidagi dalolatnoma tuzilmaganligi yoki noto‘g‘ri tuzilganligi aniqlangan hollarda davlat mehnat texnika nazoratchisi ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki boshqatdan tuzishni talab qilish huquqiga egadir. Ish beruvchi davlat mehnat texnika nazoratchisi xulosasini bajarishga majburdir.

9. Ish beruvchi bilan davlat mehnat texnika nazoratchisi o‘rtasidagi anglashilmovchilikni bosh davlat mehnat texnika nazoratchisi hal qiladi.

## **II. ISHLAB CHIQUARISHDAGI BAXTSIZ HODISANI VA XODIMLAR SALOMATLIGINING BOSHQA XIL ZARARLANISHLARINI TEKSHIRISH VA HISOBGA OLISH TARTIBI**

1. Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo‘linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko‘rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo‘lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo‘lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

darhol hodisa to‘g‘risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilish.

(1-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

2. Korxona tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona, poliklinika) bir sutka ichida yordam so‘rab murojaat qilgan xodimlar, shu jumladan, xizmat safaridagi va korxona ishlab chiqarish obyektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergan har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

3. Ish beruvchining buyrug‘iga ko‘ra ish beruvchi va Kasaba uyushmasi qo‘mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

**Komissiya:**

uch sutka ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo‘l qo‘ygan shaxslarni aniqlab so‘roq qilishi, imkoni bo‘lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

baxtsiz hodisa sabablarini yo‘qotish chora-tadbirlari ko‘rsatilgan N-1 shaklidagi dalolatnomani uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

4. Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko‘radi va tekshirish tamom bo‘lgandan so‘ng uch sutka davomida tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomalarni:

jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga, tekshirish materiallari bilan birga korxona mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi) ga, davlat mehnat texnika nazoratchisiga yuboradi.

N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxona tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi (2-ilova).

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnoma nusxalarini, Kasaba uyushmasi qo‘mitasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organlariga, O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari organi vakiliga, agar baxtsiz hodisa nazoratdagi tegishli korxonalar (obyektlar) da yuz bergan bo‘lsa, yuqori turuvchi xo‘jalik organiga, tegishli vazirlik (xo‘jalik boshqaruvi organlari) ga ham ularning talablariga muvofiq yuborishi shart.

(4-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

Mazkur bo‘limning 7, 10, 11, 12 va 13-bandlarida ko‘rsatilgan hollarda N-1 shaklidagi dalolatnoma to‘rt nusxada tuziladi va tasdiqlanadi. Mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi) ga tekshirish materiallari bilan yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma 45 yil davomida saqlanishi lozim. Boshqa joylarga yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnomalar va uning nusxalari ehtiyoj yo‘qolguncha saqlanadi.

5. Agar korxona qayta tashkil etilsa, N-1 shaklidagi dalolatnoma huquqiy vorisga korxonaning boshqa qimmatli qog‘ozlarini topshirish tartibida beriladi. Agar korxona tugatilsa, N-1 shaklidagi dalolatnoma korxonaning yuqori turuvchi xo‘jalik organiga beriladi. Agar korxonada yuqori turuvchi xo‘jalik organi bo‘lmasa, unda N-1 shaklidagi dalolatnoma, tuman (shahar) O‘zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi.

(II bo'limning 5-bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 24-martdagi 52-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 13-son, 96-modda)

6. Jabrlanuvchi yoki guvohlar ish vaqti davomida ish beruvchiga xabar bermaganligi yoki ish qobiliyati darhol yo'qolmaganligi to'g'risidagi baxtsiz hodisalar jabrlanuvchining yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsning arizasiga, shuningdek, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining talabiga binoan ariza berilgan yoki ko'rsatma olingan kundan boshlab bir oy muddat ichida tekshiriladi. N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish masalasi baxtsiz hodisa to'g'risidagi ariza har tomonlama, barcha shart-sharoitlar, guvohlarning ko'rsatmalari va boshqa dalillar hisobga olingan holda tekshirilganidan so'ng hal etiladi.

7. Boshqa tashkilot tomonidan o'sha tashkilot topshirig'ini bajarish uchun yoki xizmat vazifasini ado etish uchun mazkur korxonaga jo'natilgan xodim bilan yuz bergan baxtsiz hodisa shu baxtsiz hodisa yuz bergan korxona ish beruvchisi tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan jabrlanuvchi ishlaydigan tashkilot vakili ishtirokida tekshiriladi.

N-1 shaklidagi dalolatnomaning 3-bandida xodimni yo'llagan tashkilot nomi ko'rsatiladi. Baxtsiz hodisa jabrlanuvchi qaysi tashkilot xodimi bo'lsa, o'sha tashkilot tomonidan hisobga olinadi.

**Izoh.** O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi organi tizimidagi boshqa korxona xodimi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa, baxtsiz hodisa yuz bergan korxona (obyekt) qaysi organ nazorati ostida bo'lsa, shu organ tomonidan hisobga olinadi.

**(Izoh.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

Baxtsiz hodisa yuz bergan korxona N-1 shaklidagi dalolatnomaning bir nusxasini baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish uchun o'zida olib qoladi, qolgan 3 ta tasdiqlangan nusxasini jabrlanuvchi xodimi bo'lgan tashkilotga, hisobga olish, saqlash va 4-bandda ko'rsatib o'tilgan manzillarga jo'natish uchun yuboradi.

8. Ish beruvchining yozma farmoyishi bilan vaqtincha boshqa tashkilotga ishga o'tkazilgan yoxud o'rindoshlik bo'yicha ishla-



yotgan xodim bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan tashkilot tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

9. Boshqa korxonaning ajratilgan uchastkasida ish olib bora-yotgan korxona xodimi bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, u ish olib borayotgan korxona tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

10. Harbiy qism bilan korxona o'rtasidagi shartnoma, bitim bo'yicha xalq xo'jaligi obyektlariga ishga jalb qilingan va uning ma'muriy-texnik xodimi boshchiligida ish olib borayotgan harbiy qurilish otradi (qismi) shaxsiy sostavi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa ish beruvchi tomonidan harbiy qurilish otradi (qismi) qo'mondonligi ishtirokida tekshiriladi. Baxtsiz hodisa korxona tomonidan hisobga olinadi.

Harbiylashtirilgan kon va gaz qutqaruvchilari qismlari shaxsiy sostavi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa ish beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O'zenergonazorat» agentliklari organi vakili ishtirokida tekshiriladi.

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

11. Korxonadagi mehnatga jalb qilinib, ishni uning ma'muriy-texnik xodimi boshchiligida bajarayotgan axloq tuzatish-mehnat muassasi (ATMM) da, davolash-mehnat va tarbiya-mehnat profilaktoriyalari (DMP va TMP) da saqlanayotgan shaxslar bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, u ATMM, DMP va TMP vakili ishtirokida ish beruvchi tomonidan tekshiriladi. Baxtsiz hodisa korxona tomonidan hisobga olinadi.

ATMM, DMP va TMP larda xo'jalik ishlarini bajarayotgan shaxs bilan, shuningdek, o'zining ishlab chiqarishida baxtsiz hodisa yuz bersa, u Ichki ishlar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tekshiriladi va hisobga olinadi.

12. Avtokorxona yoki boshqa korxona tomonidan tuzilgan yig'ma avtokolonna tarkibida qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan avtomobil haydovchisi bilan yuz bergan baxtsiz hodisa shu korxona

tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi. Tekshirishda xodimni yuborgan korxona vakili qatnashadi.

13. Korxona xodimi rahbarligida ishlab chiqarish amaliyoti o'tayotgan yoki ish bajarayotgan o'quvchilar, talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisa korxona tomonidan ta'lim muassasasi vakili bilan birgalikda tekshiriladi va korxona tomonidan hisobga olinadi.

Korxona tomonidan ishlab chiqarish amaliyoti uchun ajratilgan uchastkada o'qituvchilari rahbarligida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan yoki ish bajarayotgan o'quvchilar, talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalar ta'lim muassasalari tomonidan korxona vakili bilan birgalikda tekshiriladi va ta'lim muassasasi tomonidan hisobga olinadi.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

14. Mazkur bo'limning 10, 11, 12 va 13-bandlarida ko'rsatilgan hollarda, tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomaning bir nusxasi jabrlanuvchining doimiy ish, xizmat yoki o'qish joyiga yuboriladi.

### **III. BAXTSIZ HODISALARNI MAXSUS TEKSHIRISH**

1. Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

— bir vaqtning o'zida ikki va undan ziyod xodimlar bilan salomatlikka yetkazilgan zararning og'irligi darajasidan qat'i nazar, yuz bergan guruhiy baxtsiz hodisalar;

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

— o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar;

— oqibati og'ir baxtsiz hodisalar.

**Izoh.** Salomatlikka yetkazilgan zararning og'irligi darajasi to'g'risidagi tibbiy xulosani davolash muassasasi beradi.

(1-bandning izohi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

2. Guruhiy o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisa to'g'risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan (3-ilova) quyidagilarga xabar berishi kerak:

davlat mehnat texnika nazoratchisiga;  
yuqori turuvchi xo'jalik organiga;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga;

(III bo'lim 2-bandining to'rtinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-apreldagi 162-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2001-y., 7-son, 36-modda)

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga;

(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

baxtsiz hodisaga uchragan xodimni yuborgan tashkilotga;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;

(III bo'lim 2-bandining yettinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-apreldagi 162-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2001-y., 7-son, 36-modda)

O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasining mahalliy organiga va «O'zenergonazorat» agentligining hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxona (obyekt) da yuz bergan bo'lsa;

(2-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga.

(2-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

3. Guruhiy, o'lim bilan tugagan va oqibati og'ir baxtsiz hodisani Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi buyrug'iga asosan, quyidagi tarkibdagi komissiya maxsus tekshiradi:

rais — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat (Toshkent shahar) (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi yoki

O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi vakili yoxud «O‘zenergonazorat» agentligi vakili nazorati ostidagi korxona (obyekt);

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrdagi 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

a‘zolar — yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili, ish beruvchi, II bo‘limning 7, 10, 11, 12 va 13-kichik bandlarida ko‘zda tutilgan hollarda jabrlanuvchining asosiy ish joyi Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi raisi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchining vakili.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari organi nazorati ostidagi korxona (obyekt) larda yuz bergan guruhiiy o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisani tegishli Davlat mehnat texnika nazorati bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari respublika yoki mahalliy organlari buyrug‘i asosida tuzilgan komissiya, yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili ishtirokida tekshiradi. Komissiya raisi qilib shu organ vakili tayinlanadi. Komissiya tarkibiga (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi kiradi.

(3-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrdagi 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

Guruhiiy, o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisalar yuz berganida ish beruvchi va Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari tarkibida ish beruvchining buyrug‘i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan N-1 shaklidagi dalolatnoma komissiya tomonidan maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan so‘ng bir sutka ichida komissiya xulosalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

(3-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

Ikki — to‘rt kishining o‘limi bilan tugagan baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi buyrug‘iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya tomonidan olib boriladi:

rais — O‘zbekiston Respublikasi (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi;

a‘zolar — yuqori turuvchi xo‘jalik organi rahbarlaridan biri, ish beruvchi, Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi raisi.

O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari organi nazorati ostida bo‘lgan korxona (obyekt) dagi shunga o‘xshash baxtsiz hodisa O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari organining buyrug‘i asosida tuzilgan komissiya tomonidan yuqori turuvchi xo‘jalik organi rahbari ishtirokida tekshiriladi. Komissiya raisi qilib, O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki «O‘zenergonazorat» agentliklari organining rahbarlaridan biri tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasi (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi komissiya tarkibiga kiradi.

(3-bandning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

(3-bandning o‘ninchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qaroriga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 7-son, 213-modda)

Besh va undan ziyod kishi o‘lgan baxtsiz hodisalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.

(III bo‘lim 3-bandning birinchi, oltinchi va to‘qqizinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-aprelda 162-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2001-y., 7-son, 36-modda)

4. Maxsus tekshirish komissiyasi 15 kun mobaynida baxtsiz hodisani tekshirib chiqadi, korxona (bo‘linma, sex) dagi mehnatni

muhofaza qilish ahvolini, agar zarur bo'lsa, tarmoqning boshqa korxonalarida ham tekshirishni tashkil etadi, maxsus tekshirish dalolatnomasini tuzadi (4-ilova) hamda III bo'limning 7-bandida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Komissiya a'zolari jabrlanuvchilar yoki ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil etadilar, zarur bo'lsa tegishli organlarga takliflar kiritadilar yoki ijtimoiy tushdagi yordam masalalarini joyida hal qiladilar, jabrlanuvchiga yoki o'lganning oila a'zolariga ularning huquqlarini tushuntiradilar.

(4-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qaroriga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

5. (Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi maxsus tekshirish komissiyasi chiqargan xulosalardan norozi bo'lsa, shuningdek, u zarur deb hisoblagan boshqa hollarda o'z xulosasini chiqaradi (5-ilova).

Komissiya a'zosi maxsus tekshirish o'tkazayotgan komissiya xulosasidan norozi bo'lganda o'zining alohida fikrini bildirishi mumkin.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

6. Maxsus tekshirish komissiyasi talabiga ko'ra ish beruvchi: baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etish uchun o'zlarining oralaridan ekspert guruhi tuzish mumkin bo'lgan ekspert-mutaxassislarni taklif qilishi;

texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari, sinovdan o'tkazish va boshqa ishlarni amalga oshirishi;

baxtsiz hodisa yuz bergan joyni suratga olishi va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etishi;

tekshirish uchun zarur bo'lgan transport va aloqa vositalari, maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi;

komissiya a'zolari ishlashi uchun ularga jihozlangan alohida xona ajratib berishi;

baxtsiz hodisani maxsus tekshirish materiallarini mashinkada yozishni va yetarli miqdorda ko'paytirishni ta'minlashi shartdir.

Texnik hisoblashlar, laboratoriya tadqiqotlari sinovdan o'tkazish va taklif qilingan mutaxassislar amalga oshirayotgan boshqa ishlar, shuningdek, transport va aloqa vositalari xarajatlarini baxtsiz hodisa yuz bergan korxona to'laydi.

Komissiya a'zolari tekshirish davomida ish beruvchidan, korxona va uning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari, guvohlar va boshqa shaxslardan yozma va og'zaki tushuntirishlar olishga haqlidirlar.

**Izoh.** Ekspert guruhi tekshirish komissiyasi raisining farmoyishiga muvofiq tuziladi. Ekspert xulosasini talab qiluvchi masalalar va ekspert guruhi xulosasi bo'lgan materiallar yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

7. Maxsus tekshirish materiallariga quyidagilar kiradi:

maxsus tekshirish dalolatnomasi;

har bir jabrlanuvchiga alohida tuzilgan N-1 shaklidagi dalolatnoma;

rejarlar, sxemalar, tekshirish protokoli va baxtsiz hodisa yuz bergan joyning fotosuratlari;

yo'l-transport hodisasi yuz bergan joy sxemasi;

so'roqlar protokoli, jabrlanuvchining va baxtsiz hodisani ko'rgan guvohlar va boshqa aloqador shaxslarning, shuningdek, GOST, SSBT standartlari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga rioya qilinishiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning tushuntirishlari, ekspert guruhi tuzish to'g'risidagi farmoyish va boshqalar;

jabrlanuvchilarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitilganligi va yo'riqnomalar olganligi haqidagi qayd daftarlaridan ko'chirmalar;

jabrlanuvchiga yetkazilgan jarohatning xususiyati va og'irligi, o'limi sabablari to'g'risidagi tibbiy xulosa;

ekspert guruhining (zarur bo'lganda) baxtsiz hodisa sabablari haqidagi xulosasi, laboratoriya va boshqa tadqiqotlar, tajribalar, tahlillar va hokozolarning natijalari;

avariya tufayli ko'rilgan moddiy zarar haqidagi ma'lumotnoma;

maxsus tekshirish komissiyasi tuzish haqidagi buyruq yoki qaror;

yo'riqnomalar, nizomlar, buyruqlardan va mehnat xavfsizligi me'yorlarini va unga mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilovchi boshqa dalolatnomalardan ko'chirmalar;



korxona (bo‘linma, sex) da mehnatni muhofaza qilish holatini tekshirish to‘g‘risidagi maxsus tekshirish komissiyasining dalolatnomasi;

zarur bo‘lgan hollarda (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining xulosasi;

o‘rtacha oylik ish haqi to‘g‘risida ma’lumotnoma — yetkazilgan zararni qoplash summasini hisoblab chiqish uchun;

boquvchisini yo‘qotganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi buyruq nusxasi — o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuz berganda.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qaroriga asosan xatboshilar bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

8. Maxsus tekshirish tugaganidan so‘ng 15 kun mobaynida (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi organi (yoki «O‘zenergonazorat» organi nazoratchisi) tekshirish materiallarini:

(8-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrdagi 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

guruhiy, o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga yuboradi;

maxsus tekshirishning barcha materiallari nusxalarini viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, shuningdek, tegishli vazirlikka (xo‘jalik boshqaruvi organiga), korxonaga va uning yuqori turuvchi xo‘jalik organiga, jabrlangan xodimni yuborgan tashkilotga yuboradi.

Maxsus tekshirish materiallari nusxalari O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi organiga yoki «O‘zenergonazorat» organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxona (obyekt) da yuz bergan bo‘lsa yuboriladi.

(8-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrdagi 301-sonli Qarori tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)



(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

9. Baxtsiz hodisa yuz bergan korxona ish beruvchisi (yuqori turuvchi xo'jalik organi rahbari) maxsus tekshirish materiallarini zudlik bilan ko'rib chiqishga, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etish to'g'risida komissiya taklif qilgan chora-tadbirlarni bajarish haqida, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha lavozimi va kasbiga oid vazifalarning bajarilmasligi (buzilishi) ga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish haqida buyruq chiqarishga majburdir.

Ish beruvchi maxsus tekshirish komissiyasi taklif qilgan chora-tadbirlarning bajarilganligi haqida maxsus tekshirish o'tkazishni boshqargan (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontekxnazorat» yoki «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi davlat inspeksiyasining obyektlar nazorati ostida bo'lgan mahalliy organlariga yozma ravishda axborot beradi.

(9-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrdagi 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

10. Agar jabrlanuvchi baxtsiz hodisa oqibatida vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotgan davrda shu baxtsiz hodisa sababli o'lib qolsa, ish beruvchi bu haqda darhol davlat mehnat texnika nazoratchisiga va ushbu Nizomning III bo'limi 2-bandida ko'rsatilgan tashkilotlarga xabar berishga majburdir.

Ushbu baxtsiz hodisa o'lim sodir bo'lgan vaqtdan boshlab o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa sifatida hisobga olinishi kerak.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

#### **IV. BAXTSIZ HODISALAR TO'G'RISIDA HISOBOT VA ULARNING KELIB CHIQISHI SABABLARI TAHLILI**

1. N-1 shaklidagi dalolatnoma bo'yicha rasmiylashtirilgan barcha baxtsiz hodisalar hisobotga kiritiladi.

2. N-1 shaklidagi dalolatnomalar asosida ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar chog'ida jabrlanuvchilar to'g'risida

statistika organi tasdiqlagan shakllarda hisobot tayyorlaydi va uni tegishli tashkilotlarga belgilangan tartibda taqdim etadi.

3. Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishi, ularning mehnat jamoasida ko'rib chiqilishini ta'minlashi va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartdir.

4. Vazirlik, korporatsiya, uyushma, konsern barcha baxtsiz hodisalarning hisobini va tahlilini olib boradi, uni o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotlarga ma'lumot uchun yuboradi. Tegishli kasaba uyushmasi yoki boshqa vakillik organi bilan kelishilgan holda baxtsiz hodisalarning oldini olishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

5. O'lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuqori turuvchi kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan birgalikda yuqori turuvchi xo'jalik organlarida va O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontekstnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi hay'atida (agar baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi obyektida yuz bergan bo'lsa) (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida muhokama qilinadi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

6. Ikki va undan ziyod kishi halok bo'lgan baxtsiz hodisa Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay'atida, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashida va O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontekstnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi hay'atida, baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi korxona (obyekt) da yuz bergan bo'lsa, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay'ati, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashi chiqargan qaror bajarilishi shartdir.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — O'R QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

7. Baxtsiz hodisa yuzasidan maxsus tekshirish olib borayotgan (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi talabiga binoan hududiy ichki ishlar organlari, sogʻliqni saqlash organlari (sud-tibbiy ekspertiza), yoʻl harakati xavfsizligi davlat xizmati, yongʻin xavfsizligi davlat xizmati 3 sutkadan kechiktirmay, baxtsiz hodisaga taalluqli hujjatlar va materiallar nusxalarini taqdim etishlari shartdir.

(7-band Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 5-iyuldagi 134-son Qarori tahririda — OʻR QHT, 2010-y., 26 — 27-son, 213-modda)

8. Hududiy ichki ishlar organlari Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiyasiga, Oʻzbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «Oʻzenergonazorat» agentligi organiga ishning borishi toʻgʻrisida axborot berib turadilar.

(8-band Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 17-dekabrda 301-sonli Qarori tahririda — OʻR QHT, 2010-y., 51-son, 486-modda)

9. Ushbu Nizomni buzishda ayblanuvchilar mavjud qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

### ***Nazorat savollari***

1. Baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini ayting.
2. Ishlab chiqarish jarohati (shikastlanish) deb nimaga aytiladi?
3. Baxtsiz hodisalar necha guruhga boʻlinadi?
4. Baxtsiz hodisalarni tekshirish qaysi nizomga muvofiq amalga oshiriladi?
5. Baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish deb nimaga aytiladi?
6. N-1 shaklidagi dalolatnoma qaysi hollarda tuziladi?

## **5-BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA ULARNING OLDINI OLISH**

### **5.1. Ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va o'qituvchi nazoratida ishlash**

#### **Tasviriy san'at xonalari faoliyatini faollashtirish**


Hozirgi kunda maktabda «Tasviriy san'at xonasi» tizimida dars o'tishning mohiyatini inkor etadigan shaxs topilmasa kerak. Ayniqsa, uning kattadan katta amaliy-tashkiliy mohiyati tasviriy san'at o'quv fanida aniq va ravshan ko'rinadi. Chunki tasviriy san'at fanida o'quv ko'rgazmali va metodik jihozlar shunchalik ko'pki, mashg'ulotlarni «Tasviriy san'at xonasi»da olib bormaslik o'qituvchiga katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Tasviriy san'atdan olib boriladigan ishlarning hajmi va turlari ham nihoyatda xilma-xildir.

«Tasviriy san'at xonasi» faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarning asosiy qismi quyidagilardan iborat: tasviriy san'at va chizmachilik darslari; tasviriy va amaliy san'atdan to'garak va fakultativ mashg'ulotlar, tasviriy va amaliy san'at, chizmachilikdan konkurs, viktorina va olimpiadalar o'tkazish; tasviriy va amaliy san'at ustalari bilan uchrashuvlar o'tkazish; tasviriy va amaliy san'atdan, bolalar rasmlaridan ko'rgazmalar tashkil etish; san'atga oid suhbat, leksiya va dokladlar o'tkazish; o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtdagi mustaqil ishlari, dars va darsdan tashqari ishlar yuzasidan konsultatsiyalar o'tkazish; jamoa bo'lib televideniye orqali beriladigan maxsus ko'rsatuvlarni tomosha va tahlil qilish; o'quvchilarning darsga tayyorlanishi va o'z ustida mustaqil ishlashi va hokazolar.

Bu ishlarni tasviriy san'at xonasisiz o'tkazishni tasavvur qilish qiyin.

Ayniqsa, san'at asarlari, tabiat manzaralari, rangshunoslik, yorug'-soya qonunlari, rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishni tasviriy san'at xonasisiz tashkil etish qiyindir. Tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar hisoblangan gipsli geometrik shakllar, rozetkalar, uy-ro'zg'or buyumlari (lagan, choynak, piyola, vaza, kapgir, bidon, qumg'on, patnis, sabzi taxta va b.), musiqa asboblari (rubob, dutor, nay, childirma, surnay, skripka va b.), meva va sabzavotlar (olma,




**1-rasm. Tasviriy san'at xonasi**

nok, behi, qovun, tarvuz, qovoq, sabzi, piyoz, baqlajon, uzum, anor va b.) ning modellari, qush va hayvonlarning (quyon, chumchuq, qaldirg'och, kaptar, qarg'a, bulbul, to'ti, tipratikan, laylak, turna va b.) tulumlarini saqlash va ulardan foydalanishni «Tasviriy san'at xonasi»siz amalga oshirib bo'lmaydi (1-rasm).

Ma'lumki, tasviriy san'at mashg'ulotlarini dastur talablari darajasida o'tkazish, rasm chizish uchun molbert yoki moslamali parta, natura qo'yish uchun taglik, naturani sun'iy ravishda yorug'lantiruvchi asboblari kerak bo'ladi (2 a, b-rasmlar).

O'qituvchilar «Tasviriy san'at xonasi»ni tashkil etishda otanolalar, faol o'quvchilar, jamoatchilik, ma'muriyatning yordamiga tayanadilar, mehnat o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlaydilar.

Ma'lumki, «Tasviriy san'at xonasi» faoliyatida tasviriy san'at darslari, to'garak va fakultativ mashg'ulotlar asosiy o'rinni egallaydi. Shunga qaramasdan, ba'zi bir o'qituvchilar mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda, uning effektivligini oshirishda «Tasviriy san'at xonasi»ning katta imkoniyatlaridan yaxshi foydalana olmaydilar. Masalan, o'quvchilar darsga kirganlarida chiziladigan natura, texnika vositalari orqali ko'rsatiladigan ko'rgazmalar, reproduksiya tayyor holga keltirib qo'yilmaydi, sinfni qorong'ilashtiruvchi pardalar texnika vositalari orqali avtomatik ravishda emas, qo'l bilan boshqariladi.



**2-rasm. Tasviriy san'at mashg'ulotlari uchun moslamalar:**

*a* — natura uchun taglik; *b* — moslamali parta

Tajribali o'qituvchilar ko'rgazmalar uchun darsning turiga qarab (narsaga qarab, dekorativ, mavzu asosida rasm chizish va san'at haqida suhbat) shkaf va stol ostilarida alohida-alohida o'rinlar ajratadilar, ulardan maqsadga muvofiq foydalanadilar. Ko'rgazmalar «Tasviriy san'at xonasi»da shunday joylashtiriladiki, o'qituvchi ishlatish lozim bo'lgan har qanday sharoitda xohlagan narsasini hech qiynalmasdan topa oladi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu ko'rgazmali qurollarning doimo toza va bejirim bo'lishiga harakat qiladilar. Ishdan chiqqan yoki shikastlangan ko'rgazmalar bolalar yordamida yaroqli holga keltirib qo'yiladi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarining qiziqarli va sermazmun bo'lishi uchun «Tasviriy san'at xonasi»ning maxsus shkaflarida guash, akvarel bo'yoqlar, flomaster, pastel, ugol (ko'mir), rangli tushlar, plastilin, rangli qog'ozlar, gazlama parchalari, sabzavot va meva urug'lari, haykaltaroshlik uchun maxsus loy, tabiiy materiallarni saqlaydilar. Ko'rgazmali qurollarni yig'ishda (reproduksiyalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, uy-ro'zg'or buyumlari, musiqa asboblari va b.) bolalar kuchidan unumli foydalanadilar.

«Tasviriy san'at xonasi»da to'garak ishlari va fakultativ mashg'ulotlarni oddiy stol yoki partada olib borish mumkin emas. Tasviriy san'at darslari uchun maxsus stol, stullar, planshet va tagliklar, yorug'lantiruvchi asboblari, shkaf va boshqa shu kabi o'quv qurollari maktablarimizni to'la ta'minlaydigan darajada ishlab chiqilishi lozim.

«Tasviriy san'at xonasi»da ish joyini shunday tashkil etish kerakki, darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda rasm ishlash

uchun xonaga kirgan har bir o'quvchi normal sharoitni his etsin.

«Tasviriy san'at xonasi»ni tashkil etish, avvalo, kattaroq va oftob nuri tushmaydigan xonani belgilashdan boshlanadi. Yuqorida sanab o'tganimizdek, tasviriy san'at mashg'ulotlari uchun kerak bo'ladigan o'quv qurollari va jihozlar yetarli bo'lishiga va u yerda olib boriladigan ishlarning turli-tumanligiga erishish zarur. Masalan, texnika vositalaridan foydalanish, natura o'rnatish va rasm chizish uchun maxsus moslama, bo'yoqlar bilan ishlangan ishlarni quritish uchun maxsus javonlar, stol va partalar, naturani yorug'lantiruvchi asboblardan foydalanish, rasmni bo'yoq bilan ishlash uchun suvga bo'lgan zaruriyat va ifloslangan suvni tez-tez tozalab turish kabilar.

«Tasviriy san'at xonasi» uchun xona tanlash yoki ajratish haqida gap borganda, natura va metodik fond uchun uning yonida kichik bir xona bo'lishiga e'tibor bermoq lozim. Shuningdek, «Tasviriy san'at xonasi» da suv jo'mragi bo'lishi ham shart, chunki bolalar bo'yoq bilan ishlash darslarida ifloslangan suvni tez-tez tozalab turishlari kerak bo'ladi. Aks holda har bir bola suv uchun tashqariga chiqaverishi natijasida sinfning tinchligi buziladi, o'quvchilarning tasviriy faoliyatlariga xalaqit beriladi.

Xonaning jihozlari haqida gap borganda shuni ham qayd qilish lozimki, derazalarga albatta oq pardalar tutilishi va ular derazaning butun yuzasini egallashi lozim. Pardalar sinf derazalaridan tushadigan yorug'lik yo'nalishini va kuchini bir xil saqlaydi. Buning esa, narsaga qarab rasm chizish darslarida ahamiyati katta.

«Tasviriy san'at xonasi»da texnika vositalari bor-yo'qligidan qat'i nazar, katta to'q rangdagi pardalarning bo'lishi ham shart. U naturaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida juda zarur bo'ladi. Chunki darsda naturaga yorug'lik faqat birgina manbadan tushishi talab etiladi. Yorug'lik ikki va undan ortiq manbadan tushgan taqdirda soyalar soni ham shuncha bo'ladi. Natijada birinchi manba yorug'ligiga qarashli soyani ikkinchi manba yorug'ligi yo'qotib, yorug'lantirib yuboradi va soyalar butunlay ko'rinmay qoladi.

Naturaning o'ziga qarab chizishda (bo'yoq bilan ishlashda) iloji boricha, uni tabiiy, kunduzgi yorug'likda ishlash lozim. Kechki

payt chizish lozim bo'lib qolgan taqdirda natura luminessentli lampalar orqali yorug'lantiriladi.

Oddiy lampochkalar orqali yorug'lantirilganda u natura ranglariga ta'sir ko'rsatib, ularni o'zgartirib yuboradi, ya'ni naturaning haqiqiy rangini buzib ko'rsatadi.

Naturaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida sinfni normal yorug'lantirish imkoni bo'lmagan taqdirda (ayniqsa, havo bulut paytlari yoki kechqurunlari), naturani yorug'lantirish maqsadida maxsus yorug'lantiruvchi asboblardan foydalaniladi. Ular safit deb yuritiladi. Naturani to'g'ri yorug'lantirish orqali undagi yorug', soya, yarimsoya, refleks, blik kabilar bolalarga aniq va ravshan ko'rinadi. Bunday yorug'lantiruvchi asboblarni lampochka, yorug'lik qaytaruvchi moslama va oyoqlardan tashkil topgan bo'lib, ularning oyog'ini yog'ochdan, shuningdek, metallidan oson tayyorlash mumkin. Yorug'lantiruvchi asboblardan namuna 3-rasmda ko'rsatilgan.

Bunday asboblarni usta yoki o'qituvchi o'zi tayyorlashi lozim bo'lgan taqdirda uning lampochka o'rnatiladigan qismining rasmda ko'rsatilganidek, vertikal va gorizontal bo'yicha bemalol harakat qilishiga e'tibor berish lozim.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish uchun tagliklar, asosan, naturani o'rnatish va uning hamma o'quvchilarga aniq ko'rinishi uchun xizmat qiladi. Odatda, ularning bir necha xillari ishlatiladi. Ularning ko'p tarqalgani oyoqli va devorga osiladigan tagliklardir. Tuzilishi va tayyorlanishi jihatidan devorga osiladigan tagliklar eng qulay hisoblanadi. U ikki gorizontal va vertikal holatdagi planshetlardan iborat bo'lib, ular o'zaro oshiq-moshiq bilan mahkamlanadi.

Bunday tagliklar, asosan, doska oldiga natura qo'yish uchun mo'ljallangan. Bunday tagliklarning gorizontal qismi naturani qo'yish, vertikal qismi esa fon uchun qo'yiladigan drapirovkalarga xizmat qiladi. Ma'lumki, naturani bir yerga qo'yish yetarli emas. Natura o'quvchilarning ufq chizig'idan pastga o'rnatilganligi sababli hammaga bir xil ko'rinmaydi. Shuning uchun natura partalar orasiga kam qo'yiladi. Shunda oyoqli tagliklarni ishlatish lozim bo'ladi. Oyoqli tagliklar polga qo'yish uchun mo'ljallab yasaladi. Yasalish jihatidan juda sodda bo'lgan oyoqli taglik oddiy taburetkaning oyog'ini 20 — 25 sm ga uzaytirish va fon uchun vertikal



planshetni taburetkaning ustki tomoniga mahkamlash orqali hosil qilinadi. Bunday tagliklardan faqat «Tasviriy sanʼat xonasi» dagina foydalaniladi. Darslar «Tasviriy sanʼat xonasi» tizimida oʻtkazilmaydigan maktablarda bunday tagliklardan foydalanib boʻlmaydi. Ikkala turdagi tagliklarni ham yogʻochdan, shuningdek, metallardan maktab ustaxonasida osonlik bilan yasash mumkin.

«Tasviriy sanʼat xonasi»ni maqsadga muvofiq tashkil etishda uning badiiy bezagi alohida ahamiyat kasb etadi. «Tasviriy sanʼat xonasi»ning badiiy bezagi deganda, avvalo, xona jihozlarini joy-joyiga qoʻyish, buyumlarni, xona devorlarini tegishli ranglarga boʻyash nazarda tutiladi, shuningdek, xonaning badiiy bezagi uning toʻgʻri yorugʻlantirilishi bilan ham bogʻliqdir.

Badiiy jihatdan toʻgʻri bezalgan xona oʻquvchilarning psixikasiga taʼsir etib, ularda iliq kayfiyat hosil qiladi, tez toliqtirmaydi, tasviriy faoliyatlariga samarali taʼsir koʻrsatadi.

Baʼzi oʻqituvchilar «Tasviriy sanʼat xonasi»ni jihozlashda unga ortiqcha eʼtibor berib yuboradilar. Hattoki, oʻquvchilar chizmachilikdan chizmalarni, bolalar rasmlarining koʻrgazmalarini, turli koʻrgazmali qurollarni, sanʼat asarlari reproduksiyalarining koʻrgazmalarini devorlarga osib qoʻyishadi. Geometrik va gipsli shakllar, qush tulumlari va meva-sabzavotlarning modellarini ochiq saqlashadi, turli shior va chaqiriqlar ham osib qoʻyiladi. «Tasviriy sanʼat xonasi»ning yuqori qismini buyuk rassomlarning portretlari bilan toʻlgʻizib tashlash hollari ham tez-tez uchraydi. Hattoki, shunday hollar ham boʻladiki, «Tasviriy sanʼat xonasi» devorlarida boʻsh joy qolmaydi.

Bu yoʻsinda bezatishning zarari shundaki, xonada turli-tuman qurollar, koʻrgazma va materiallarning koʻpligi, ularning ranglari xonaga kirgan oʻquvchiga psixik taʼsir koʻrsatadi. Natijada oʻquvchi oʻzini sinfda siqilib qolayotgandek his qiladi va xonadan tezroq chiqib ketishga harakat qiladi. Baʼzi shunday tasviriy sanʼat xonalarida uning jihozi va badiiy bezagi yillab oʻzgarmay turaveradi. Natijada ular oʻquvchilarni mutlaqo qiziqitirmay qoʻyadi, ulardan yangi maʼlumot va yangi taassurot ololmaydilar.



**3-rasm.**  
**Yorugʻlan-**  
**tiruvchi asbob**

«Tasviriy san'at xonasi»ning devorlarini tinch, sokin ranglar bilan bo'yash maqsadga muvofiqdir. Chunki keskin va yorqin ranglar bolalarni tez toliqtiradi. Shuningdek, «Tasviriy san'at xonasi»dagi eshik, deraza, pol, shift, doska kabilarning ranglarini ham «Tasviriy san'at xonasi»ning umumiy rang gammasiga bo'ysundirish lozim. Ular bir-biridan och-to'qligi, rang tusi, to'yimliliigi jihatdan keskin farq qilmagani ma'qul.

«Tasviriy san'at xonasi» devorlarida turli-tuman, umuman, rang-barang ko'rgazmalarning bo'lishi dars jarayonida ba'zi bolalarning e'tiborini o'ziga tortadi. Natijada bola o'qituvchining nutqini eshitmaydi. Bularning hammasi xonada olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham «Tasviriy san'at xonasi»da ortiqcha narsalarning bo'lmasligi, sinfda faqat buyuk shaxslarning ibratli so'zlari yoki mashhur rassomlardan birontasining portreti, texnika vositalari (u ham usti yopiq holda), tuvakli gullar, sinf burchagining bo'lishi yetarlidir. Ko'rgazmali qurollar esa maxsus javonlarda (o'quvchilarning ko'zi tushmaydigan tarzda) saqlanishi lozim, turli xil ko'rgazma, fotostend va e'lonlar, diplom va faxriy yorliqlarni koridorga («Tasviriy san'at xonasi»ga yaqin joyga) o'rnatish maqsadga muvofiq.

Maktabda «Tasviriy san'at xonasi» mashg'ulotlar uchun ko'rgazmali qurol, texnik vositalar va boshqa jihozlar saqlanadigan joy emas, avvalo, u tasviriy san'at vositasida olib boriladigan eng muhim ta'lim-tarbiya o'chog'idir. Shuning uchun «Tasviriy san'at xonasi»ning faqat jihozlariga e'tibor beribgina qolmay, balki uning yuksak badiiy saviyada bezatilishiga ham erishmoq zarur.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, «Tasviriy san'at xonasi»ning tashkiliy, o'quv-metodik, tarbiyaviy ishlari shunchalik ko'p va turli-tumanki, ularni faqat reja asosida olib borgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Bu rejalashtirishda tadbirning mazmuni, o'tkaziladigan vaqti, unga javobgar shaxslar, tadbirning o'tkazilganligi yoki o'tkazilmaganligi haqidagi belgi aks ettirilgan bo'ladi.

Mana shunday rejalashtirishning yo'qligi tasviriy san'at o'qituvchisining «Tasviriy san'at xonasi»da olib boradigan ishlari jarayonida bir qator xatolarning sodir bo'lishiga olib keladi. Hattoki, ba'zi muhim ishlar o'qituvchining e'tiboridan butunlay tushib qolishi ham mumkin. Ayniqsa, rejalashtirishning bo'lmasligi tadbirlarning epizodik xarakterda bo'lishiga olib keladi. Tadbirlar

shosha-pisha, chala-chulpa o‘tkaziladi. Chunki uni o‘tkazishga ajratilgan vaqt nihoyatda chegaralangan bo‘ladi va natijada ish sifati past bo‘ladi, ular bolalarda yaxshi taassurot qoldirmaydi.

Quyida «Tasviriy san’at xonasi»da olib boriladigan ishlar rejasining namunasi berilgan. Uni bajarishda o‘qituvchi o‘quvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, maktab rahbarlarini jalb qilganidagina yaxshi natijalarga erishiladi.

*1-jadval*

**«Tasviriy san’at xonasi» ish rejasining namunasi**

| №  | Ish mazmuni                                                                                             | O‘tkaziladigan vaqti | Javobgar shaxslar                                                                                  | Tadbirning o‘tkazilganligi yoki o‘tkazilmaganligi haqida ma’lumot |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 1. | «Tasviriy san’at xonasi»ni jihozlash (stol, stul, taglik, planshet, shtor, gul, texnik vositalar va b.) | may, iyul, avgust    | Xo‘jalik ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tasviriy san’at o‘qituvchisi, mehnat o‘qituvchisi  |                                                                   |
| 2. | «Tasviriy san’at xonasi»ni badiiy bezash                                                                | avgust               | Tasviriy san’at o‘qituvchisi, «Tasviriy san’at xonasi» faollari                                    |                                                                   |
| 3. | Ko‘rgazmali qurollar yig‘ish                                                                            | yil davomida         | Hamma o‘quvchilar, tasviriy san’at o‘qituvchisi                                                    |                                                                   |
| 4. | O‘zbekiston xalq rassomi O‘.Tansiqboyev hayoti va ijodi haqida kecha o‘tkazish                          | dekabr               | Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, adabiyot, musiqa o‘qituvchilari, faol o‘quvchilar |                                                                   |

**O‘qituvchilar faoliyatidagi tipik xatolar va ularning sabablari**

Ma’lumki, hozirgi vaqtda dars mazmuni va metodikasini takomillashtirish o‘qituvchining ilmiy va metodik saviyasi bilan, darslarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish bilan bevosita bog‘liqdir.

Bularni hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarmasdan turib masalani muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi.

O'qituvchining ilmiy-metodik saviyasi darajasini ko'rsatuvchi omillar uning bilim hajmi va metodik tayyorgarligi hisoblanadi. Bu narsa ko'proq olib borilayotgan darslarning natijalarida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Bu borada so'nggi yillarda o'qituvchilar faoliyatida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bu esa bolalarda tasviriy faoliyatlarning faollashuvi, bilim, malaka va ko'nikmalarning oshib borishiga olib kelmoqda.

Bu yutuqlarga ular maktabda tasviriy san'at darslarining maqsadi va vazifalarini to'g'ri tushunish, darsda didaktik prinsiplarga qat'iy rioya qilish, o'z ustilarida tinimsiz ishlash, mashg'ulotlarni ilmiy va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish va «Tasviriy san'at xonasi» tizimida ish olib borish, texnik vositalardan va ko'rgazmalilikdan unumli foydalanish, fanlararo aloqaga rioya qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini uzluksiz oshirib borish orqali erishmoqdalar.

O'quvchilarning ijobiy qobiliyatlarini o'stirish masalasi har bir darsda amalga oshirilishi lozim. San'at haqida suhbat darslarida esa rassomning ishga ijobiy yondashuvi haqida fikr yuritilishi yuqoridagi masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi.

Mavzu asosida rasm chizish darslari, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, ijodiy xarakterga ega bo'lishi lozim. Bunday darslar borliqni estetik idrok etish bilan bog'liqdir. Lekin ba'zi darslarda o'quvchilar ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi sababli erkin mavzuda rasm chizish bilan chegaralanib qolmoqdalar.

Hozirgi kunda darsga puxta tayyorlanmasdan kirib yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki vaqt o'tishi bilan fanda yangiliklar, o'qitishning yangi, samarali usullari paydo bo'ladi. O'qituvchi o'z tajribasidagi ba'zi bir materiallarni ko'rib chiqib, qayta yodiga tushirishi kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtda tasviriy san'at o'qituvchisi o'zi ustida uzluksiz ishlashi, milliy va jahon san'atida ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar bilan yangi paydo bo'lgan oqim, ko'zga ko'rina boshlagan iste'dodli rassom, haykaltarosh, amaliy san'at ustalariga oid materiallarni o'qib, yig'ib borishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, u o'qituvchilarning ish tajribalaridagi ilg'or metod va

usullarni o'rganishi va o'zlashtirishi, o'quvchilarga yangi bilim berishi va o'tilgan mavzuni takrorlashning samaraliroq yo'llarini izlab topishga harakat qilishi lozim.

Tasviriy san'at fani o'qituvchisidan faol tashabbuskorlik, topqirlik, ijodkorlik ko'rsatish talab etiladi. Chunki bu darslar bevosita o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, estetik didi va ijodiy qobiliyatini, fantaziyasini o'stirish bilan bog'liqdir.

Dars jarayonida har bir o'quvchi ustidan jiddiy nazorat o'tkazib turish muhim. Iloji boricha, o'qituvchi har bir o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalar hajmi, saviyasini bilishi kerak bo'ladi. Ular bilan lozim bo'lgan taqdirda individual ishlar olib borib, kutilgan natijalarga erishiladi.

Dars jarayoni haqida gap borganda shuni qayd qilish lozimki, darsda bolalar o'zlarini nihoyatda erkin tutishlari lozim. Ba'zan dars jarayonida bolalarni bo'lar-bo'lmasga urishish yoki asabiga tegish, dakki berish kabi hollar o'qituvchilarimiz faoliyatida uchrab turadi. Bu narsa bolalarning ijodini bo'g'adi, bu faqat sinfda dakki yegan bola faoliyatiga ta'sir etibgina qolmasdan, butun sinf o'quvchilarining faoliyatiga ham keskin salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki o'quvchilarning, umuman, kishilarning ijodiy faoliyatlari maxsus sharoit bo'lishini talab etadi.

O'qituvchi bolalarga vazifa berib qo'yib, o'zi bolalarning uyida chizgan rasmlarini tekshirib o'tirishi o'qituvchining yana bir katta xatosidir. O'qituvchining xatosi shundaki, u mustaqil ishlar jarayonida bolalar faoliyatini nazorat qilib turmadi va ularga yordam ko'rsatmadi. O'quvchilar vazifani bajara oladilarmi yoki yo'qmi, bu uni sira qiziqitirmadi.

### ***Nazorat savollari***

1. «Tasviriy san'at xonasi»ni tashkil etishda kimlar bilan hamkorlikda ish olib boriladi?

2. «Tasviriy san'at xonasi»ning maxsus shkaflarida qanday materiallar saqlanadi?

3. «Tasviriy san'at xonasi»da ish joyini qaysi me'yorlarga muvofiq tashkil etish kerak?

4. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida foydalaniladigan asboblarning haqida gapirib bering.

## **6-BOB. O'QUV USTAXONASIDA SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA ULARNING OLDINI OLISH**

### **6.1. O'quv ustaxonasi ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, o'quvchilarga yo'riqnoma berish va o'qituvchi rahbarligida ishlash**

#### **O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va maydonchalari**

Maktab, korxona, o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, ulardagi jihoz va uskunalarning joylashtirilishi ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash talablariga, Respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalariga javob berishi lozim. O'quv ustaxonalari hududidan chiqish yo'lagi yaqinida, havoni almashtirib turish uchun qulay sharoitda joylashtiriladi. Ular korxona ichki qismida joylashgan holda binodan chiqib ketish uchun yuk tashish yo'llari bilan kesishmaydigan maxsus yo'laklarga ega bo'lishi kerak. Yo'lak asfalt yoki beton qoplamaga ega bo'lishi zarur.

Texnologik jarayon, ish jarayonida qo'llaniladigan jihozlar hajmi va og'irligini e'tiborga olgan holda o'quv-ishlab chiqarish xonalari binoning yerto'lasidan tashqari har qanday qavatida joylashtirilishi mumkin. Shuningdek, qavatlararo shovqin izolatsiyasining me'yoriy talablariga javob berishi lozim.

O'quv sexlari tashkil qilishda korxonaning boshqa sexlaridan keladigan turli zararli ta'sirlardan himoyalaniş lozim.

Korxonaning yuqori shovqin (75 db dan yuqori) va vibratsiyaga, havosida turli zaharli moddalarga ega sexlarida o'quv maydonchalarini tashkil qilish taqiqlanadi.

Maktab binosiga tutash holda qurilgan o'quv ustaxonalari sinf xonalari, boshqa qavatlardan tovush yutuvchi kapital devor va izolatsiyalash vositalari bilan himoyalaniş lozim. O'quv ustaxonalari xonalari yorug', issiq va quruq bo'lishi kerak. Ustaxonalarni yerto'la yoki yarimyerto'la sharoitda joylashtirish taqiqlanadi.

O'quv ustaxonalari umumiy sahni va foydali maydoni bino, maktab, o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari o'id amaldagi loyiha talablariga javob berishi lozim.

Pedagogik jarayon, mehnat mashg'ulotlari jarayonidagi o'quvchilarning yuqori faolligini e'tiborga olgan holda har bir o'quvchiga ajratiladigan ish maydoni katta yoshdagi ishchilarnikiga nisbatan 25 — 40 foizga orttirilishi lozim. Tokarlik ishiga o'rgatishda har bir ish o'rni 6 m kvadrat, frezerchi va pardozlovchi 9 — 12 m kvadrat, elektr payvandchiniki 7,5 m kvadrat, uskunachi-slesar, yig'uvchi va ta'mirlovchi kabilar 4 m kvadrat bo'lishi lozim. Asbob va xomashyolar saqlanadigan o'quv-ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish, tashib keltirish uchun qulaylikni e'tiborga olgan holda joylashtirilishi kerak. Uzun o'lchamdagi yog'och material, temir va boshqalarni saqlash xonasi tegishli sexlar yonida, bitta eshigi tashqariga va ikkinchisi sexga chiqadigan qilib joylashtirilishi lozim. Saqlash xonasi maydoni tegishli talab asosida, materiallarni me'yor darajasida saqlash imkonini berishi lozim. Ishlab chiqarish xonasining poli issiq, silliq, tozalash uchun qulay bo'lishi, changimasligi, tiyg'anoq bo'lmasligi, shuningdek, mazkur xonada tashkil qilingan ishlab chiqarish talablariga javob berishi lozim. Beton pol bo'lgan hollarda har bir o'quvchi ishchi o'rni yog'och to'shama bilan jihozlanadi.

Yilning sovuq paytlarida o'quv ustaxonasidagi namlik va havo harorati tegishli ishlab chiqarish turiga qo'yiladigan talablar darajasida bo'lishi lozim. Eshik, zinapoya va yo'laklar qurilish hamda yong'indan saqlanish qoidalariga binoan joylashtirilishi kerak. Ustaxonaning ichki qismidagi o'tish joylari aniq chegaralangan bo'lishi, oq chiziq yoki ularni almashtiruvchi belgilar bilan ko'rsatilishi lozim. Yo'lak va zinapoyalarni turli buyumlar bilan to'sib qo'yishga ruxsat etilmaydi. Devorlar silliq bo'lishi, bo'yoq bilan qoplanishi, ularni namlab tozalash imkonini berishi lozim.

Barcha sanitariya-maishiy xonalar va ulardagi jihozlar soz, ishchi holatda bo'lishi, ozoda holatda saqlanishi lozim. Chang qoplanishining oldini olish uchun pol har bir mashg'ulot so'ngida namlab yoki boshqa usulda tozalab turilishi lozim. Ustaxona yuqori sifatli (sanitariya talablariga javob beruvchi) ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur materiallar (apteчка) bilan ta'minlanadi. O'quvchilar uchun ustki va maxsus ishchi kiyimlarni saqlash uchun alohida shkaf ajratiladi.

## Ish o'rne

O'quvchi ish o'rne har qanday baxtsiz hodisaning oldini olishga qaratilgan holda tashkil qilinishi kerak. Har bir ish o'rne o'rindiqlar bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Ish o'rne maxsus moslamalar: tumbochka, suriluvchi quti, shkaf, asbob uchun stellaj, himoya ko'zoynagi, chizmalar va h.k. bilan jihozlanishi, ularning ish o'rnidan tashqariga chiqib turmasligi ta'minlanishi kerak. Ish o'rne va yo'laklarni material, namuna, buyum yoki chiqitlar bilan to'sib qo'yishga ruxsat etilmaydi. O'quv yurti rahbari, ustaxona mudiri, mehnat ta'limi o'qituvchilari, shuningdek, amaliyot o'tash joyidagi ishlab chiqarish bo'linmasi rahbarlari o'quvchilarning soz ishchi holatidagi asboblardan ta'minlanishi, ish usullarini to'g'ri bajarishi uchun mas'uldir. Asboblardan uskuna yonidagi saqlanishi mumkin bo'lgan quti, shkaf, mashina konstruksiyasida ko'zda tutilgan holda uning ichki qismida maxsus joyda saqlanishi kerak. Verstaklarda joylashtirilgan iskana o'qlari o'zaro masofasi bir metrni tashkil qilgan holda o'rnatiladi. Verstek eni 0,75 m dan kichik bo'lmasligi, o'quvchilarni turli uchqunlardan saqlash uchun boshqalardan to'sib turuvchi sim to'rdan to'siqlar o'rnatilishi kerak. Iskanalar buyumni ishonchli tutib tura olishi, ularning siqib turuvchi qismi deformatsiyanmagan bo'lishi talab qilinadi. Bolg'a, kuvalda va boshqalar muhrasi tekis bo'lishi, chuqurcha yoki yorilgan joylari bo'lmasligi, mustahkam tutqichga ega bo'lishi kerak. Bolg'a va kuvalda tutqichlari qattiq, qayishqoq yog'och turlaridan ishlanadi. Yumshoq, mo'rt yog'ochdan ishlangan tutqichlardan foydalanish taqiqlanadi. Bolg'a va kuvalda silliq, oval kesimli, tutib turiladigan tomoni yo'g'onlashib boradigan shaklda bo'lishi kerak. Tutqich yuzasi silliq, tekis bo'lishi, yorig' va payraxalari bo'lmasligi kerak.

Egov, iskana, arra va boshqa shu kabi asboblardan keyingi qismiga yorilib ketishning oldini oluvchi metallar, halqali tutqichlar o'rnatiladi. Tutqich uzunligi asbob o'lchamiga mos kelishi ta'minlanadi. Asbob og'irligi va o'lchami unda ishlovchi o'quvchining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Qayd etilgan asboblardan tutqichi bo'lmagan, nosoz bo'lgan holda foydalanish taqiqlanadi. Metallga ishlov berishda uchqundan saqlanish uchun himoya ko'zoynaklari taqiladi. Ishlab chiqarish ustalari himoya ko'zoynaklaridan foydalanishni nazorat qilishlari kerak. Arralar to'g'ri



kerilgan va charxlangan bo'lishi kerak. Arra tutqichlari mustahkam o'rnatilgan, silliqlab tozalangan bo'lishi kerak. Randalash asboblari tekis, silliqlab tozalangan kolodkalarga ega bo'lishi kerak. Kolodkaning keyingi qismi to'mtoqlangan tutqichi silliqlangan bo'lishi kerak. Randalash asbobi yo'nish qismi to'g'ri charxlangan, yog'och kolodkaga mustahkam va zich o'rnatilgan bo'lishi, yorilgan joylari va chuqurchalari bo'lmasligi kerak. Gayka kalitlari gayka va bolt kallaklari o'lchamiga to'g'ri kelishi, yorilgan joylari va chuqurchalari bo'lmasligi kerak. Kalitlarni turli moslamalar bilan uzaytirish mumkin emas.

### **Chilangarning ish o'rni**


Sexda yoki ustaxonada muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan va mashinalar, asbob-uskunalar, zarur asbob hamda kerak-yaroqlar bilan ta'minlangan joy ish o'rni deb ataladi.

Chilangarning ish o'rnidagi asosiy uskuna — tiskilar o'rnatilgan verstadir (4-rasm).

Verstak — chilangarlik ishlari bajariladigan maxsus stoldir. Verstak taxtasi ustiga tunuka yoki linoleum yoxud fanera qoplanadi; asbob va mayda buyumlar tushib ketmasligi uchun verstadning oldiga va yon tomonlariga yog'och plankalar, ya'ni bortiklar qoqiladi.

Asboblarni solib qo'yish uchun verstadning tortmalari bo'ladi. Verstadning balandligi — 800—900 mm, uzunligi (bo'yi) — 1000—1200 mm, eni — 700—800 mm. Verstaklar bir joyli (ya'ni bitta chilangar uchun) va ko'p joyli bo'lishi mumkin. Ko'p joyli verstadning o'lchamini belgilaganda bir joyli verstadning o'lchami asos qilib olinadi. Ko'p joyli verstadda tiskilar orasi — 1000—1200 mm bo'ladi.

Verstadka tiskining qanchalik to'g'ri o'rnatilganligi unda ishlovchi har bir ishchining bo'yiga qarab aniqlanadi. Parallel tiskini o'rnatganda ishchi tiski oldida engashmasdan to'g'ri turib oladi, qo'lini tirsakdan bukib, tirsak bilan tiski lablariga tayanadi va barmoqlarni yozib yuboradi, bunda qo'l ko'krakka qisilgan bo'lishi kerak. Agar tiski to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, yozib yuborilgan barmoqlar iyakka tegib turishi lozim (5-rasm, *a*). Stul tiskining to'g'ri o'rnatilganligi ham xuddi shu tariqa tekshiriladi, biroq bunda yozib yuborilgan barmoqlar emas, balki mushtum iyakka tegib turishi lozim (5-rasm, *b*).



**4-rasm. Chilangarlik verstaklari:**

*a* – bir o‘rinli verstak: 1 – verstak oyoqchasi; 2 – verstak stoli (verstak tax-tasi); 3 – himoya to‘ri; 4 – chizma; 5 – nazorat-o‘lchash asboblari turadigan tokcha; 6 – elektr lampa; 7 – tiski; 8 – asboblarni turadigan tortma;  
*9* – o‘rindiq; *b* – bir o‘rinli verstak balandligini sozlovchi oyoqcha; *d* – ikki o‘rinli verstak: 1 – verstak stoli; 2 – tiski; 3 – elektr lampa; 4 – chizma; 5 – himoya to‘ri; 6 – asboblarni turadigan tortma



**5-rasm. Ishchining bo‘yiga qarab parallel va stul tiskilarning verstakka o‘rnatilishini tekshirish**

## **Yoritish, isitish va havoni almashtirishga qo'yiladigan talablar**

O'quv ustaxonalarining tabiiy va sun'iy yoritilish darajasi maktab va maktab-internatlar uchun belgilangan talabga javob berishi lozim. O'quv xonalarida yorug'lik chap tomondan tushishi, o'quv-ishlab chiqarish xona ish o'rinlari esa texnologik talab asosida tashkil qilinishi lozim.

Yog'och va metallga ishlov berish ustaxonasida gorizontal yuzalarning poldan 0,8 m balandlikdagi sathda yoritilganlik luminessent lampa uchun — 300 lk, cho'g'lanma lampa uchun — 150 lk, tikuv ustaxonasida luminessent lampa uchun — 400 lk, cho'g'lanma lampa uchun — 200 lk, o'quv ustaxona yo'laklarida (polda) 100 lk va 50 lk bo'lishi lozim. Eshik va boshqa yorug'lik o'tkazuvchi tuynuklarni buyum, uskuna, material va boshqalar bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi.

Deraza yonida buyum va materiallarning joylashtirilishi ustaxonaning tabiiy yoritilishiga xalaqit bermasligi kerak. Ustaxonadagi uskunalar ish o'rnini yorug'likdan to'sib qo'ymaydigan qilib o'rnatiladi. Deraza oynalari yilda kamida ikki marta tozalab turilishi, tutun, dud va chang ko'proq chiqadigan xonalarda ularning ifloslanishiga qarab yiliga kamida 4 marta tozalanishi lozim. Ustaxona binoning qaysi qavatida joylashishidan qat'i nazar deraza oynalarini yuvishga o'quvchilarni jalb qilish taqiqlanadi. Oynalar deraza romida mustahkam o'rnatilgan bo'lishi va tushib ketishning oldi olingan bo'lishi kerak.

Daraxtlarning o'sib ketgan shoxlari oynani to'sib qo'ymasligi uchun ular o'quv binosidan kamida 10 m masofada o'tqaziladi. Bino yaqinida o'sayotgan daraxtlar har yili bahor faslida butab turiladi. Sun'iy yoritish umumiy yoki kombinatsiyalashgan (umumiy va mahalliy) bo'lishi mumkin. Faqat mahalliy yoritish bilan cheklanishga yo'l qo'yilmaydi.

Umumiy yoritish lampalari poldan kamida 3 m balandlikda joylashtiriladi.

Mahalliy yoritish uskunalari quvvati 1000 vattdan oshmasligi va 36 voltdan yuqori bo'lmagan kuchlanishda ishlashi lozim.

Ishdan chiqqan yoritgich yoki o'tkazgichlar shu vaqtning o'zida almashtirilishi yoki sozlanishi lozim. Lampa, o'tkazgich,

saqlagichlarni almashtirish elektromontyor tomonidan bajariladi. Bu ishlarni bajarish o'quvchilarga topshirilmaydi.

Yoritish uskunalarining elektr qismi elektr uskunalarni o'rnatish qoidalariga javob berishi talab qilinadi.

O'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi va yordamchi xonalar havo almashtirish va isitish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Havo almashtirish tabiiy, mexanik yoki aralash bo'lishi mumkin, u sanitariya me'yorida ko'zda tutilgan havo almashinuvi, harorat va havo tarkibini ta'minlab berishi lozim. Metall va yog'ochga ishlov berish ustaxonalarida havo almashinuvi 1 kishiga 20 m<sup>3</sup>/soatni tashkil qilishi kerak. Chang ajralib chiqishi bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonlari (elektr charx, pardozlash dastgohi) uning chiqib ketishi yoki tutib qolinishini ta'minlovchi moslamalar bilan ta'minlanadi. Havo almashtirish uskunalari hamma vaqt ishchi holatda bo'lishi, ularni ishlatish uchun javobgar shaxslarning doimiy nazoratida bo'lishi lozim. Havo almashtirish uskunalari rejali ravishda ta'mirlab, rostlab turiladi, davriy sanitariya va texnik sinovdan o'tkazilib, ishlarning barchasi maxsus daftarda qayd etib boriladi.

O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida metall radiatorli markaziy isitish tarmog'idan foydalanish tavsiya etiladi. Isitish haroratining bir me'yorda bo'lishi, rostlab turish imkoniyatining bo'lishi, umumiy tarmoqqa ulash yoki uzish uskunalarining ishchi holatda bo'lishi talab qilinadi. O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarini isitish maqsadida vaqtinchalik cho'yan pechlar yoki texnik talablarga javob bermaydigan boshqa uskunalardan foydalanish taqiqlanadi. Metallga ishlov berish ustaxonasida optimal temperatura 15—16° C, yog'ochga ishlov berish ustaxonasida 14—15° C bo'lishi lozim. Eshiklar majburiy yopilishni ta'minlovchi moslama (prujina, pnevmatik qurilma va b.) ga ega bo'lishi kerak.

### **O'quv ustaxonalarida jihozlar va moslamalarga qo'yiladigan talablar**

O'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi derazalari havo almashtiradigan qurilmalar mavjud bo'lishidan qat'i nazar alohida ochiladigan darcha yoki boshqa shamollatish qurilmasiga ega bo'lishi kerak. Jihoz va materiallar o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasida ishlatiladigan barcha jihozlar to'la ishchi holatda va

ishonchli oʻrnatilgan boʻlishi lozim. Qavatlararo toʻsinlarda jihozlarni oʻrnatish ishonchliligi tegishli hisob-kitoblar asosida tasdiqlangan boʻlishi kerak. Jihoz va mexanizmlar oʻz joyiga oʻrnatilishi, barcha zaruriy himoya vositalariga ega boʻlishi lozim. Jihoz (stanok, mashina, mexanizm, dastgoh) larning joylashtirilishi oʻquv-ishlab chiqarish jarayoni, ularni oʻzaro oʻrnatish meʼyorlari va ish sharoiti talablariga javob berishi kerak. Detal va materiallar maxsus ajratilgan joylarda, oʻtish joylarini toʻsmaydigan va xizmat koʻrsatishga xalaqit bermaydigan qilib joylashtiriladi. Material va buyum namunalarini joylashtirish balandligi bir metr dan ortmasligi, taxlash turgʻunligi saqlanishi va qulab tushishning oldi olinishi lozim. Shu maqsadda maxsus toʻsin, taglik, tirgak va moslamalardan foydalaniladi. Uskunalarining yangidan ishga tushirilishi faqat texnik inspeksiya va xalq taʼlimi boʻlimi ruxsatnomasi hamda belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtirilgach amalga oshiriladi. Uzatmalar (tasmali, arqonli, zanjirli, tishli va h.k.) ishonchli va qulay saqlovchi toʻsiqlar bilan taʼminlangan boʻlishi lozim. Uskuna va agregatning ichki qismidagi uzatmalar barcha tomondan yechib olinuvchi emas, balki ochilib-yopiluvchi (eshikchalar) toʻsiqlar bilan yopilgan boʻlishi kerak. Uzatuvchi valik va shunga oʻxshash qurilmalar ishchi kiyimi yoki tarmoqlarni tortib ketishning oldini oluvchi moslamalar bilan jihozlanishi kerak. Oʻquv ustaxonalaridagi jihoz va mexanizmlar faqat alohida uzatmalar hisobiga harakat olishi lozim. Oʻquv ustaxonalaridagi uskunalariga transmissiya orqali harakat uzatish taqiqlanadi. Ishlov beruvchi harakatlanadigan yoki aylanadigan buyumlarning uskunadan chiqib turuvchi qismi toʻsilishi va mustahkam tutib turuvchi moslamaga ega boʻlishi kerak. Moʻrt metallga ishlov berishga moʻljallangan barcha stanoklar unda ishlovchini uchib chiqayotgan qirindilardan himoya qiluvchi moslamaga ega boʻlishi kerak. Yaxlit qirindi beruvchi metall bilan ishlashda qirindi boʻluvchi moslama bilan jihozlanadi. Frezalash stanoklari qirindilardan himoyalaniş uchun mustahkam taʼsirga ega boʻlishi kerak. Randalash stanoklari qirindi toʻplovchi bilan jihozlanadi. Jihozlar yorqin ranglarga (yashil) boʻyaladi. Toʻsib qoʻyilishi kerak boʻlgan joy yaqqol koʻzga tashlanuvchi qizil rangda boʻlishi kerak. Jihozlar sozligi mashgʻulot boshlangunga qadar usta yoki oʻqituvchi tomonidan tekshirib koʻrilishi kerak. Nosoz uskunada ishlashga ruxsat etilmaydi. Jihozlarni

ishga tushirish va to'xtatish mexanizmi xavfsiz va ishlatilishi qulay bo'lishi kerak. Ishga tushirish moslamalari ish o'rnidan turib ravon boshqarilishi va o'z-o'zidan ishlab ketishning oldi olingan bo'lishi kerak. Bir nechta ishga tushirish o'rnining mavjud bo'lishi taqiqlanadi.

O'qituvchi ish o'rnining yaqinida o'quv ustaxonasidagi barcha jihozlarni ishdan to'xtatuvchi rubilnik («Stop») tugmasi bo'lishi kerak. Boshqarish organlari (maxovik, richag, tugmacha)ning joylashishi unda ishlovchilar uchun qulay va xavfsiz bo'lishi kerak. Har qanday jihozni ishga tushirish tugmachasi 3—5 mm ga chuqurroq o'rnatilishi, ishni to'xtatish tugmachasi 3 mm chiqib turishi va yaxshi ko'rinib turadigan qizil rangdagi «Stop» yozuviga ega bo'lishi kerak. Bu joylar ish davomida yuzaga keladigan chang, qirindi, moylardan himoyalangan bo'lishi kerak. Ishga tushiruvchi tepki (pedal) qurilmasi mavjud bo'lgan hollarda ixtiyorsiz ravishda (pedalga buyumning tushib ketishi, pedalni ixtiyorsiz bosib yuborish) ishga tushib ketishning oldini oluvchi to'siqqa ega bo'lishi kerak. Qirindi, chang va chiqitlarni tozalash faqat ilgak, cho'tka va boshqa yordamchi vositalar bilan amalga oshiriladi. Qayd etilgan moslamalarsiz tozalash ishlari bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jihozda mavjud moylanadigan qismlarga qarov o'tkazish tizimli ravishda mavjud yo'riqnomaga amal qilgan holda, uskuna elektr tarmog'idan uzib qo'yilgan holda amalga oshiriladi. Moylash tizimi moslamalari sachrash va oqib ketishning oldini olishni ta'minlaydigan qilib o'rnatiladi va ularga xizmat ko'rsatish xavfsizligi ta'minlanadi. Sovituvchi suyuqlik qo'llaniladigan uskunada ishlayotgan o'quvchilar zaruriy ehtiyot choralari to'g'risida ogohlantirilgan bo'lishi kerak. Jihoz yoki uskunalarni ishlab turgan paytda ta'mirlash taqiqlanadi. Ta'mirlashdan oldin jihoz yoki uskuna tarmoqdan uziladi va hech bir qismi o'zi harakatlanib ketmaydigan holatga keltiriladi. Uzatma tasmalari shkivlardan yechilishi, pedallarga tagliklar qo'yilishi kerak.

Ishga tushiruvchi moslama va rubilnik yoniga ishga tushirish mumkin emasligi haqida ogohlantiruvchi yozuv osib qo'yiladi. Yechib olinadigan qismlar oldindan tayyorlangan joyda mustahkam va turg'un holatda taglik bilan jihozlangan holda qo'yilishi kerak.

Ta'mirlash ishlarini bajarishda yechib olinayotgan va ta'mirlanayotgan jihoz o'rtasida ochiq yo'lak qolishi kerak. Ta'mirlash yoki rostlashdan keyin ishga tushirishda barcha saqlagich va to'sqichlar o'z o'rniga qo'yiladi. Yaqin masofada ishlayotganlar jihoz ishga tushirilayotganligi to'g'risida ogohlantiriladi.

Ishlab chiqarish joyini yoritish to'g'ri loyihalansa va amalga oshirilsa, ishlovchilar kamroq charchaydi, kayfiyati yaxshi bo'ladi, mehnat xavfsizligi yaxshilanadi, mehnat unumdorligi va mahsulot sifati yuqori bo'ladi.

## **6.2. Ish jarayonida ish va o'quv qurollaridan foydalanish qoidalari**

### **O'quvchilarga texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma berish**

Barcha mehnat ta'limi o'qituvchilari va ustalar o'quv ustaxonalari va korxonalarda o'quvchilarga o'rgatilishi lozim bo'lgan texnika hamda mehnat sohalariga oid texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini bilishlari kerak. Xalq ta'limi bo'limi malaka komissiyasi tomonidan xavfsizlik texnikasi bo'yicha bilimlar sinab ko'rib, ruxsat etilgan ma'muriy-pedagogik xodimlargagina o'quvchilarning mehnat ta'limi bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi. Korxonalarda amaliyot o'tayotgan o'quvchilar korxona ishchilariga o'rnatilgan tartib asosida mehnat xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiriladi. Korxona ma'muriyati o'quvchilarning o'z vaqtida va to'liq yo'riqnoma olishiga mas'ul. O'qituvchi yoki usta o'quvchiga qandaydir vazifani topshirishda uni texnologik jarayon, mashina yoki stanok tuzilishi va ish sharoitiga oid boshqa ma'lumotlarni berish bilan birga mazkur ishni bajarish uchun kerak bo'ladigan xavfsizlik qoidalari bilan ham tanishtirishi kerak. Shuningdek, o'quvchi saqlovchi moslamalar vazifasi, xavfsiz ishlash qoidalari, ish o'rnini yig'ishtirish va tozalash, shaxsiy gigiyena to'g'risida ma'lumot olishi kerak. Bu borada o'quvchi bilimi vaqt-vaqti bilan tekshirilib, to'ldirib turiladi.

#### **Ish boshlashdan oldin:**

— maxsus ish kiyimining hamma tugmalarini taqib, bog'ichlarini bog'lab oling. Sochlaringizni bosh kiyim ostiga yig'ishtirib oling. Maxsus ish kiyimiga to'g'nag'ich taqish, cho'ntaklariga sinadigan va o'tkir buyumlar solish mumkin emas;

— asbob-uskunalarining yerga ulangan simlari mustahkamligini koʻzdan kechiring (mashina korpusi, elektr dvigateli va yerga ulangan birikma oʻrtasidagi kontaktning mustahkamligini tekshiring). Yerga ulangan boʻlmasa, ish boshlamang;

— mashinaning maxsus poydevorga yoki mustahkam taglikka oʻrnatilganligini tekshiring;

— saqlagich (predoxranitel) klapanlarini va oʻlchov asboblari koʻzdan kechiring (plombalar, tekshirish muddati va strelkali asboblarning «0» turishini hamda ularning himoyalovchi oynalarining butunligini nazardan oʻtkazing);

— jihozlarning ichi va yon atrofida ortiqcha buyumlar boʻlmasin;

— oyoq tagida yogʻoch panjara boʻlishi kerak;

— bochka va bidonlarni tashiydigan aravachalarda ularni ushlab turadigan tutqich halqalari boʻlishi zarur;

— asboblarning ishga yaroqli boʻlsin, ularning yogʻoch tutqichlari tekis va yorilmagan boʻlsin;

— mexanik koʻtaruvchi-tashuvchi jihozlarning apparat va asboblarning ish faoliyatini salt (yuksiz) ishlash holatida tekshiring;

— elektr simlarining toʻla himoyalangan boʻlishi va ularning ochiq joylari mixlarga tegib turmasligini koʻzdan kechiring;

— jihozlarda va elektr oʻtkazgichlarda nosozlik boʻlsa, bu haqda oʻz rahbaringizga maʼlum qiling. Ishni kamchiliklar bartaraf qilingandan keyin boshlang.

### **Ish joyida:**

— faqat oʻzingizga topshirilgan ishni bajaring;

— maxsus bilim olmagan begona kishilarni ishga qoʻymang;

— oʻzingizning asosiy vazifangizdan chetga chiqmang. Asbob-uskunalariga suyanmang va ularga oʻtirmang;

— mashina korpusi, apparat yoki qoplamadan tok oʻtayotganini sezsangiz, albatta, korxona maʼmuriyatiga maʼlum qiling. Mashinaning tok oʻtayotgan ochiq qismlariga, ochiq, yomon himoyalangan simlarga tegmang. Singan tok oʻchirgich, rozetka va patronlardan foydalanmang. Yoritgichlarni tozalash, kuygan chiroqlarni almashtirish va elektr tizimining qismlarini tuzatish faqat elektr montajchi tomonidan bajarilishi kerak;

— mashinaning almashtiriladigan qismlarini elektr dvigatelni oʻchirib va butunlay harakatdan toʻxtatib qolgan holatda bajarib. Ishni bajarayotganda qoʻlingizga ehtiyot boʻling;



— elektr o'tkazgichlarning almashtiriladigan qismlarini yaxshilab o'rganing;

— elektr dvigatel qismlarini ushlab turgan holatda almashtirmang;

— mashina ishlab turganida himoya panjarasini olish va o'rnatish, harakatni uzatuvchi kamarni va o'tkazgich zanjirini to'g'rilash man etiladi;

— ishlab turgan mashinani qarovsiz qoldirmang;

— mashinani ishga tushirayotganingiz haqida yoningizdagilarni ogohlantiring;

— mashinani elektr tarmog'iga ulayotganingizda qo'lingiz ho'l bo'lmasin. Elektr dvigatelini ishlatishda «Pusk», «Stop» tugmachalaridan foydalaning;

— mashinani zavodni ishga tushirish mumkinligi haqidagi hujjat talablariga binoan ishlating. Mashinada faqat yo'riqnomada ko'zda tutilgan ishlarni bajaring;

— mahsulotni mashinaga joylashdan avval, uning aylanuvchi (harakatlanuvchi) qismi korpusda ko'rsatilgan yo'nalishda aylana-yotganiga (harakatlanayotganiga) ishonch hosil qiling;

— mashinada biror nosozlik sezilsa, («Pusk», «Stop» tugmachalari) ishlamay qolsa, ortiqcha shovqin, tutun yoki to'satdan tarmoqda tok bo'lmay qolsa, mashinani elektr tarmog'idan o'chirib, rahbarlarga xabar bering;

— mashinalar ustiga yoki yuk tashuvchi uskunalar ustiga turli ish qurollarini qo'ymang, elektr suv qaynatgich jo'mraklariga idishlarni osmang;

— suv kranlari, ventillarni asta-sekin oching, ularni ochishda boshqa massiv jismlardan foydalanmang;

— mashinaning ish kamerasiga mahsulotni faqat ko'rsatilgan miqdorda soling, uning harakatlanuvchi qismlari tezligi me'yordan oshmasligi lozim;

— ish joyingizni keraksiz jismlar bilan band qilmang;

— elektr va gaz plitalar ustiga qo'yib ishlatiladigan qozon va shu kabi buyumlarning tagi tekis, tutqichlari mahkam bo'lishi kerak. Tutqichsiz idishlardan foydalanmang;

— kesuvchi asboblarning tutqichlari silliq, ishlatishda qulay va mustahkam bo'lishi lozim. Pichoqni tozalanayotgan va to'g'raylayotgan mahsulotlar ustida qoldirmang. Pichoq va shu kabi ish

qurollarini bir joydan ikkinchi joyga g'ilofda yoki uchlarini pastga qaratib olib boring;

— issiq quvurlar va asbob-uskunalarda issiqlikdan himoya qilish vositalarining sozligini kuzatib boring;

— mashinani tozalash va tekshirishdan oldin elektr manbayidan uzib, unga «Ulanmasin! Odamlar ishlayapti» degan yozuv osib qo'ying;

— ish joyingizni ozoda tuting, yerga to'kilgan mahsulot va chiqindilarni tezda yig'ishtirib oling. Ish joyida ortiqcha mahsulot bo'lmasin;

— transport yo'llari, mashinalar oldiga, boshqaruv pultlariga boradigan yo'llarni turli narsalar bilan band qilmang;

— nosoz, siniq estakadalarda, siniq narvonlarda ishlamang;

— ish joyi yetarli darajada yoritilgan bo'lishi, yoritgichlar toza bo'lishi zarur;

— maxsus berilgan sanitariya yoki ish kiyimida va poyabzalda ishlang;

— maxsus himoya vositalari: rezina gilamcha, himoya ko'zoynagi va qo'lqopdan foydalaning;

— to'g'ri kelgan joyga (quti, bochka va boshqalarga) o'tirmang;

— ish stolining usti silliq, tekis va burchaklari yumaloq bo'lsin;

— ishlatiladigan asboblarning (belkurak, pichoq va h.k.larning) tutqichlari ushlashga qulay va silliq bo'lsin;

— belgilangan me'yordan ortiq yukni ko'tarmang;

— mahsulotni nosoz idishlarda tashimang;

— biror shikastlanish ro'y berganda tibbiyot punktiga murojaat eting;

— aravacha va ko'chma stellajlarni itarib (sudrab emas) harakatlantiring;

— baxtsiz hodisa ro'y berganda, tezda birinchi yordam ko'rsating va bu haqda korxona ma'muriyatiga ma'lum qiling.

### **Ishni tugatgach:**

— asbob-uskunalarni elektr tarmog'idan o'chiring;

— asbob-uskunalarni elektr tarmog'idan rubilnik yoki uning o'rnini bosuvchi qurilma yordamida o'chiring, yuvish, tozalash ishlarini bajaring. Ularning tok o'tkazuvchi qismlariga tegmang;

- asboblarni maxsus saqlanadigan joyga olib borib qo‘ying;
- mahsulot chiqindilarini qo‘l bilan yig‘ishtirmang, maxsus va shu cho‘tkalar, belkurak va h.k.lardan foydalaning.

### **Buyumlarga qo‘yiladigan talablar**

O‘quv ustaxonasida o‘tkaziladigan amaliyotlarda o‘quvchilar tayyorlaydigan buyumlar juda xilma-xildir. Bu yerda qo‘lda yasalgan o‘quv asboblari va shu kabi turli moslama qurollar mavjud. Amaliyot o‘qituvchisi biror buyumni tayyorlashga kirishishi bilan muayyan buyumni qanoatlantiradigan talablarga aniq va ravshan rioya etishi lozim.

O‘quvchilarning o‘quv ustaxonasida o‘tkaziladigan amaliyot ishlarida tayyorlaydigan buyumlari quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Tayyorlanadigan buyumlar konstruksiyasi jihatidan ham, tayyorlangan materiali jihatidan ham va detallarni biriktirish jihatidan ham to‘g‘ri bajarilgan bo‘lishi kerak. Harakatlanuvchi buyumlar, masalan, harakatlanuvchi model mexanizmlari, harakatlanuvchi asboblari osongina o‘rnatilishi, moslanishi va ishda uzluksiz ishlashi lozim. Amaliyot o‘qituvchisi o‘qituvchilarning tayyorlanadigan buyumlarga nisbatan estetik didlarini oshirish maqsadida chizmachilik va boshqa texnika fanlari o‘qituvchilari bilan doimo aloqa bog‘lab, o‘quvchilardan buyumning eng go‘zal va maqsadga muvofiq shakllarini tanlashga va buyumlarning mustahkamligini, ixchamligini oshirish uchun pardoqlashning eng yaxshi usullarini topishga intilishlarini talab etadi.

Buyumlar yaxshigina bezalgan va tashqi ko‘rinishi sifatli bo‘lishini, buyum tayyorlashda uning o‘lchamlarini, qismlarning mutanosibligini, tegishli materiallar (qaysi materialdan detallar tayyorlanganligi) ni hisobga olish kerak. Buyumlardagi detallarni boshqacha bezash shart emas. Buyumlar konstruksiyasiga ko‘ra oddiy bo‘lishi, nimaga xizmat qilishi aniq ifodalanishi kerak. Barcha asboblari, shuningdek, turli ostqo‘yma va tayanchlar to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Material va undan buyum uchun foydalanish usuli, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Harakatlanuvchi modellarning yaxshi ishlashi model konstruksiyasining texnik jihatdan aniq bajarilishiga bog‘liq.

Harakatlanuvchi asbob yoki modelda ish sharoitlari hisobga olinishi va shunga mos ravishda konstruksiya tanlanishi zarur. Harakatlanuvchi asbobning har bir qismi va detali toza hamda yaxshi bajarilishi lozim. Chunki harakatlanuvchi qismlar kam ishqalanishni talab etadi. Barcha buyumlar va ularning qismlari konstruksiyaning texnik chizmalari yoki eskizi bo'yicha tayyorlanadi. Bu esa har qanday ishlab chiqarishda asosiy talab hisoblanadi.

O'quvchilar yasagan barcha buyumlardan maktabda amaliy foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun ham ularning mustahkam va ishonchli bajarilishi talab etiladi. Buning uchun barcha asboblarning shisha qismlari sinib qolishdan himoya qilinishi kerak. Metall qismli detallarni, shuningdek, simlarni yaxshi kavsharlab biriktirish lozim.

Bu talab, ayniqsa, umumiy foydalaniladigan buyumlar uchun juda ham zarur. Chunki bu asboblardan o'quvchilar ishlaydilar. Har bir buyumni toza va sifatli qilib ishlash kerak. Detalda yoriqlar, past-chuqurlar va boshqa nuqsonlar bo'lmasligi lozim. Buyum yaxshilab tekislanishi va silliqatlanishi kerak. Buyumni namlik, korroziyadan saqlash uchun uni loklash yoki bo'yash kerak.

### ***Nazorat savollari***

1. O'quv oshlab chiqarish ustaxonalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari.
2. Ish o'rni deb nimaga aytiladi?
3. Chilangarning ish o'rnida qanday asbob va jihozlar joylashgan?
4. O'quv ustaxonalarida o'rtacha harorat necha gradus bo'lishi lozim?
5. Tibbiy yoritish deb nimaga aytiladi?
6. Umumiy yoritish lampalari poldan kamida necha metr balandlikda joylashtiriladi?
7. O'quv ustaxonalarida jihozlar va moslamalarga qo'yiladigan talablar.
8. Qanday shaxsiy himoya vositalarini bilasiz?
9. O'quvchilarning o'quv ustaxonasida o'tkaziladigan amaliyotlarida tayyorlaydigan buyumlari qanday talablarga javob berishi kerak?

## **7-BOB. SINFDAN TASHQARI MAKTAB ATROFIDA SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA ULARNING OLDINI OLISH**

### **7.1. Maktab ichki tartib-qoidalarlari hamda o'quvchilarning burch va vazifalari**

**Idoraviy mansubligi, mulkchilik va xo'jalik yuritish  
shakllaridan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilot ichki  
mehnat tartibining namunaviy qoidalarlari**

#### **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ichki mehnat tartibining ushbu qoidalarlari\* Mehnat kodeksiga, mehnat to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni, ish vaqti va dam olish vaqtidan foydalanishni, mehnat intizomini hamda ish beruvchi bilan xodim o'rtasida yuzaga keladigan boshqa huquqiy munosabatlar masalalarini tartibga soladigan asosiy qat'iy me'yoriy hujjat hisoblanadi.

1.2. Qoidalar korxonaning kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishib tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va korxonada qo'llaniladi.

1.3. Qoidalarlarga rioya qilish ish beruvchilar va xodimlar uchun majburiy hisoblanadi, uni bajarmaslik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1.4. Ish beruvchining majburiyatlari:

1.4.1. Xodimlarning mehnatini tashkil etish;

1.4.2. Qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda, mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan mehnat shart-sharoitlarini yaratish;

1.4.3. Xodimga u bajargan ish uchun korxonada belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda haq to'lash;

---

\* Keyingi o'rinlarda — qoidalar.

1.4.4. Mehnat va ishlab chiqarish intizomini, mehnatni muhofaza qilish shart-sharoitini ta'minlash;

1.4.5. Qonunchilikka, jamoa va mehnat shartnomasiga muvofiq xodimlar tomonidan dam olish huquqini amalga oshirishni, ularga kafolatli va badal to'lovlari to'lanishini ta'minlash;

1.4.6. Mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan unga yetkazilgan zarar uchun xodimga haq to'lash;

1.4.7. Xodimlarning vakolatli organlari huquqlariga rioya qilish, ularning faoliyatiga ko'maklashish, mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha muzokaralar olib borish;

1.4.8. Mehnat kodeksiga muvofiq jamoa shartnomalarini tuzish.

1.5. Xodimning majburiyatlari:

1.5.1. O'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish;

1.5.2. Mehnat intizomiga rioya qilish, ish beruvchining qonunga muvofiq keladigan farmoyishlari va ko'rsatmalarini o'z vaqtida hamda aniq bajarish;

1.5.3. Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalarga rioya qilish;

1.5.4. Korxonaning mol-mulkiga avaylab munosabatda bo'lish;

1.5.5. Mehnat jamoasining a'zolari, korxona mijozlari va ish jarayonida aloqa qiladigan boshqa shaxslar bilan xushfe'l munosabatda bo'lish.

## **2. Mehnat shartnomasini (kontraktini) tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi\***

2.1. Ishga qabul qilish ish beruvchiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish yoki mehnat bo'yicha organlarning bepul vositachiligi orqali amalga oshiriladi.

2.2. Ishga kirish huquqidan 16 yoshga to'lgan shaxslar foydalanadilar. 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan ishga qabul qilinishlari mumkin. Umumiy ta'lim maktablarining, hunar texnika bilim yurtlarining, o'rta o'quv yurtlarining o'quvchilari 14 yoshga yetganlarida ota-onalarining birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ularning sog'lig'iga va o'sib rivoj-

---

\* Keyingi o'rinlarda — Mehnat shartnomasi.

lanishiga zarar yetkazmaydigan ishga, o'qishdan bo'sh vaqtda ishlash uchun qabul qilinishlari mumkin.

2.3. Ishga qabul qilinayotganda ishga kiruvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

2.3.1. Pasport (yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat), o'n olti yoshga yetmagan shaxslar esa — tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma va yashash joyidan ma'lumotnoma.

Chet el fuqarolari, pasportdan tashqari, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini taqdim etishlari shart. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa fuqaroligi yo'q shaxsning guvohnomasi va O'zbekiston Respublikasida yashash uchun guvohnomani taqdim etadilar;

2.3.2. Ishga birinchi marta kirayotgan shaxslardan boshqalar mehnat daftarchasini taqdim etadilar.

O'rindoshlik yo'li bilan ishga kirayotgan shaxs mehnat daftarchasining o'rniga asosiy ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etishi kerak;

2.3.3. Harbiy bilek (harbiy xizmatchilar uchun) yoki qayd guvohnomasi (armiyaga chaqiriluvchilar uchun);

2.3.4. Bajarish uchun qonunchilikka muvofiq faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslargina qo'yilishi mumkin bo'lgan ishga kirish paytida ma'lumot to'g'risida davlat namunasidagi hujjat;

2.3.5. 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxs ishga kirayotganida ota-onasidan birining (yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi.

Ish beruvchi ishga kirayotgan shaxsdan boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli emas.

2.4. Quyidagi hollarda ishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi:

2.4.1. Mazkur qoidalarning 2.3-bandida ko'rsatilgan hujjatlar bo'lmaganda;

2.4.2. 14 yoshga to'lmagan shaxslar;

2.4.3. Tibbiy ko'rikdan o'tish qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslar, shuningdek, tibbiy xulosaga muvofiq mazkur ishni bajarishga sog'lig'ining holati yo'l qo'ymaydigan xodimlar;

2.4.4. Sud hukmiga ko'ra muayyan lavozimni egallash yoki uning bajarishi taqiqlangan ishda muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxslar;

2.4.5. Agar ularning ishi bevosita bo'ysunish yoki birining ikkinchisi nazorati ostida bo'lish bilan bog'langan bo'lsa, o'zaro yaqin qarindosh bo'lgan shaxslar (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) (mazkur talab faqat davlat korxonalari uchun qo'llaniladi);

2.4.6. Qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

2.5. Ishga kiruvchining ishga qabul qilish to'g'risidagi murojaati maxsus hisob daftarida ro'yxatga olinishi, raqamlanishi, tiqilishi va korxonaning muhri bilan tasdiqlanishi kerak, u kadrlar bo'limida, devonxonada, rahbarning qabulxonasida, ish beruvchi tomonidan belgilangan boshqa joyda saqlanadi.

Kadrlar bo'limining xodimlari (murojaatni ro'yxatga olgan boshqa shaxslar) ishga kiruvchini bo'lajak mehnat shartnomasi to'g'risida ish beruvchi vakolat bergan tegishli mansabdor shaxslar bilan muzokaralar yuritish uchun shart-sharoitni ta'minlashlari shart.

2.6. Mehnat shartnomasi tomonlarining kelishuvlar bo'yicha muzokaralarida belgilab olinadi:

- ish joyi;
- ishga kiruvchining mehnat majburiyatlari, u ishlaydigan ixtisoslik, malaka, lavozim;
- mehnatga haq to'lashning miqdori va shartlari;
- mehnat shartnomasini muayyan muddatga tuzish vaqtida uning amal qilish muddati;
- ishni boshlash kuni;
- o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilish paytida har kungi ishning davomiyligi.

Mehnat shartnomasini tuzish paytida mehnatga doir boshqa shartlar ham tilga olinishi mumkin (ishga qabul qilish paytida oldindan sinash, ish rejimi, mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish holatida jarima to'lash, to'liq ish vaqtida ishlash, kasblar (lavozimlar) ni o'rindoshlik asosida olib borish, xizmat ko'rsatish hududini kengaytirish, bajarilayotgan ish hajmini uzaytirish, ta'tilning davom etish muddatini ko'paytirish va h.k.)

2.7. Mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan mehnat shartlari darajasi qonunchilikda, jamoa kelishuvida, shuningdek, jamoa shartnomasida, korxonada qabul qilingan boshqa qat'iy hujjatlarda (ichki mehnat tartibi qoidalari, mehnatga haq to'lash to'g'risidagi



nizom, mukofotlash to'g'risidagi nizom va boshqalar) belgilangan darajadan past bo'lishi mumkin emas.

2.8. Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, u nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

2.9. Faqat quyidagi hollarda muddatli mehnat shartnomalari tuzilishi mumkin:

- bo'lajak ish muddatli xarakterda bo'lganligi sababli shartnomani noaniq muddatga tuzish mumkin emas;

- ishni bajarish shartlari ayni muddatli mehnat shartnomasini tuzishni talab qilsa (kasalligi, malakasini oshirish uchun yuborilganligi, ta'tilda, shu jumladan, bolaga qarash bo'yicha ta'tilda bo'lgan vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan boshqa xodimning o'rniga ishga qabul qilish va h.k.);

- xodim ana shunday shartnoma tuzishdan manfaatdor bo'lsa va uning yozma arizasi mavjud bo'lsa;

- muddatli shartnomani tuzish qonunda ko'zda tutilgan bo'lsa.

2.10. Tomonlar o'rtasida mehnat shartnomasini tuzish to'g'risida kelishib olinganida xodimga ruxsatnomani rasmiylashtirish (agar korxonaga kirish ruxsatnoma bilan amalga oshiriladigan bo'lsa) va harbiy hisobga olish stoli uchun (harbiy xizmatga majburlar uchun) zarur miqdordagi suratlarni taqdim etish taklif etiladi.

2.11. Ishga qabul qilinayotgan har bir xodim (shu jumladan, o'rindoshlik yo'li bilan kiruvchilar) bilan mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan, kamida ikki nusxada yozma shaklda tuziladi, ular tomonlarning har biriga saqlash uchun topshiriladi.

Mehnat shartnomasi xodim va korxona rahbarining imzolari bilan tasdiqlanadi. Rahbarning imzosi korxonaning muhri bilan tasdiqlanadi.

Xodimning talabiga ko'ra mehnat shartnomasi u bilgan tilda tuziladi va davlat tilida tuzilgan shartnoma nusxasi bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

2.12. Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Xodim mehnat shartnomasida ko'rsatilgan kundan boshlab mehnat majburiyatlarini bajarishga kirishadi. Agar unda ishning boshlanish sanasi

ko'rsatilmagan bo'lsa, xodim shartnoma imzolangan kundan keyingi ish kunidan (smenadan) kechiktirmay ishga tushishi kerak.

Korxona rahbari tomonidan yoki uning ruxsati bilan ishga qabul qilishni tegishlicha rasmiylashtirmasdan turib ishga qo'yilgan shaxs ishga tushgan birinchi kundan boshlab ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

2.13. Mehnat shartnomasi tuzilganidan keyin ish beruvchi mehnat shartnomasining mazmuniga aniq muvofiqlikda ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi va xodimga imzo qo'ydirgan holda bundan xabardor qiladi.

2.14. Ish beruvchi quyidagi hollarda ishga qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas:

- agar rad etish xodimning amaliy xislatlari bilan bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa;

- ish beruvchining o'zi tomonidan ishga qabul qilingan shaxslarni;

- nogironlarni, 18 yoshdan yosh bo'lgan shaxslarni va joylardagi davlat hokimiyati organi tomonidan korxonaga belgilangan eng kam miqdordagi ish o'rnlari hisobiga ishga mahalliy mehnat organlari yuborgan boshqa shaxslarni, shuningdek, muqobil xizmatdagi xizmatchilarni va h.k.;

- homilador ayollarni va 3 yoshdagi bolalari bo'lgan ayollarni;

- qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

2.15. Xodim ish beruvchidan ishga qabul qilish rad etilganligining sabablarini yozma ravishda asoslashni talab qilishga haqlidir. Ish beruvchi uch kun ichida unga yozma asos ko'rsatishi shart. Homilador ayollarga va uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga ish beruvchi, agar ular shunday talab bilan murojaat etmaganlari taqdirda ham, ishga qabul qilishni rad etish sababini yozma shaklda xabar qiladi.

Ishga qabul qilish g'ayriqonuniy ravishda rad etilganda xodim nazorat qiluvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqlidir.

2.16. Ishga qabul qilish paytida mehnat shartnomasida dastlabki sinov to'g'risidagi shart ta'kidlanishi mumkin. Bunday ta'kid bo'lganida sinov sharti ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqda aks ettiriladi. Biroq dastlabki sinov bilan ishga qabul qilingan xodimning mehnat daftarchasida dastlabki sinov to'g'risidagi

shartlar ko'rsatilmagan holda ishga qabul qilish to'g'risida buyruq yoziladi.

Dastlabki sinov muddati uch oydan oshmaydigan muddatga belgilanishi mumkin. Dastlabki sinov muddatining aniq davomiyligi (uch oy doirasida) mehnat shartnomasi tomonlarining kelishuvi bo'yicha belgilanadi. Tomonlar tomonidan sinov muddati belgilangan davrda ish beruvchi ham, xodim ham mehnat shartnomasini bekor qilib, bu haqda boshqa tomonni uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirishga haqlidir. Bunda ish beruvchi sinovning qoniqarsiz natijasi xususida ishonchli isbotlarga ega bo'lishi kerak. Xodim esa ishni davom ettirishdan bosh tortish sababini ish beruvchiga tushuntirishga majbur emas.

Agar tomonlar tarafidan belgilangan sinov muddati tugaguniga qadar tomonlarning birortasi mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida bayonot bermasa, shartnomaning amal qilishi davom etadi.

Xodim uzrli sabablar bilan (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, harbiy yig'inlarda qatnashish, donorlik vazifalarini bajarish, sud maslahatchisi sifatida sudga qatnashish va h.k.) ishda bo'lmagan davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Dastlabki sinov sharti bilan ishga qabul qilingan xodim boshqa xodimlar bilan baravar mehnat qonunchiligida belgilangan barcha huquqlardan foydalanadi va javobgar bo'ladi.

Quyidagilarga nisbatan ishga qabul qilish paytida sinov muddatini belgilashga yo'l qo'yilmaydi:

- homilador ayollar, shuningdek, uch yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarga;

- korxona uchun belgilangan ish joylarining eng kam miqdori hisobiga mahalliy mehnat organlari tomonidan ishga yuborilgan shaxslarga;

- ular bilan mehnat shartnomasi 6 oygacha muddatga tuziladigan xodimlarga.

Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganida dastlabki sinov belgilanmaydi.

2.17. Ishga birinchi marta tushgan va korxonada besh kundan ortiq ishlagan shaxslarga ish beruvchi mehnat daftarchalarini yuritishi shart, o'rindoshlar bundan mustasno.

Kadrlar bo'limining xodimlari yetti kunlik muddatdan kechiktirmay xodimning mehnat daftarchasiga tegishli yozuvni kiritishlari va u kiritilishi kerak bo'lgan shaxsiy varaqa — T-2 shakliga imzo qo'ydirgan holda yozuvning mehnat daftarchasidagi yozuv bilan aniq muvofiqligini tanishtirishlari shart.

Xodimning xohishiga qarab mehnat daftarchasiga korxona ichida o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq yoki boshqa korxonada o'rindoshlik bo'yicha ishlash to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida o'rindoshlik bo'yicha ishlash davrlari to'g'risidagi yozuv kiritiladi.

2.18. Ish beruvchi va uning manfaatlarini himoya qiladigan boshqa mansabdor shaxslar xodimdan uning mehnat majburiyatlari kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga zid harakatlarni sodir etishni, shuningdek, xodimning yoki boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, or-nomusi va sha'nini kamsitadigan harakatlar sodir etishni talab qilishga haqli emaslar.

2.19. Quyidagi hollarda va tartibda ish beruvchining yoki xodimning talabiga ko'ra mehnat shartlarini o'zgartirishga yo'l qo'yiladi:

2.19.1. Ish beruvchi, agar mehnat shartlarini saqlashning imkoni bo'lmasa yoki bunday o'zgarishlarni texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi, xodimlar sonini yoki ish tarzini o'zgartirishga olib kelgan ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmini qisqartirishdagi o'zgarishlar belgilangan bo'lsa, ularni o'zgartirishga haqlidir. Mehnat shartlarini keyingi o'zgartirish to'g'risida xodim kamida ikki oy oldin yozma ravishda, tilxat bergan holda ogohlantirilishi kerak. Bu muddatni qisqartirishga faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Bu holda mehnat shartnomasini bekor qilishga quyidagi majburiy shartlar mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladi:

— agar xodim mehnatning yangi shart-sharoitida ishlashni davom ettirishga rozi bo'lmasa;

— agar korxonada mehnatning ilgarigi shart-sharoitini saqlab qolish mumkin bo'lmasa;

2.19.2. Xodim qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda mehnat shartlarini o'zgartirishni yozma ravishda talab qilishga haqlidir (homilador ayol yoki 14 yoshgacha bolasi bo'lgan (16 yoshgacha nogiron bolasi bo'lgan) ayollar iltimosiga ko'ra to'liq bo'lmagan ish

kunini yoki to'liq bo'lmagan ish haftasini belgilash, tibbiy xulosaga ko'ra homilador ayollarga, VTEK tavsiyalariga ko'ra nogironlarga mahsulot ishlab chiqarish me'yorlarini kamaytirish va h.k.).

Ish beruvchi xodimning talabini u berilganidan keyin uch kun ichida ko'rib chiqishi shart. Talabni qondirishdan bosh tortilgan holda ish beruvchi xodimga bosh tortish sababini ma'lum qilishi shart.

2.20. Xodim ish beruvchi tomonidan mehnat shartlari o'zgartirilishi, shuningdek, uning xodim talabiga ko'ra mehnat shartlarini o'zgartirishni rad etishi xususida sudga shikoyat qilishga haqlidir.

2.21. Ish beruvchi xodimni faqat uning roziligi bilan boshqa doimiy yoki vaqtinchalik ishga o'tkazishi mumkin.

2.22. Tomonlarning kelishuviga binoan ishga qabul qilish paytida ham, undan keyin ham xodim tomonidan asosiy ish bo'yicha vazifalardan tashqari kasblar (lavozimlar) ni o'rindoshlik asosida olib borish, xizmat ko'rsatish hududini kengaytirish, bajariladigan ishlar hajmini ko'paytirish (bundan keyin — kasblarni o'rindoshlik asosida olib borish) tartibida qo'shimcha majburiyatlarni bajarishi kelishib olinishi mumkin.

Ko'rsatilgan ishlarni xodim asosiy ish uchun ajratilgan vaqtda bajaradi. Ularni bajarish tartibi va mehnatga haq to'lash miqdori tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Kasblarni birga olib borish tartibida ishlarni bajarishning qancha davom etishi muayyan muddatga ham, uni cheklamasdan ham shartlab qo'yilishi mumkin.

Shartlangan muddat tugaganidan so'ng kasblarni birga olib borish xususida mazkur xodim bilan belgilangan shartlar bekor qilinadi.

Kasblarni o'rindoshlik asosida olib borish va uni bekor qilish mehnat shartnomasida aks ettiriladi va ish beruvchi korxonasining tegishli buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

2.23. Xodim mazkur qoidalarining 2.24-bandida belgilangan tartibda mehnat shartnomasini istalgan vaqtda bekor qilishga haqlidir.

2.24. O'zining mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi niyati xususida xodim tegishli arizani kadrlar bo'limiga (ish beruvchi tomonidan belgilangan boshqa joyga) topshirish yo'li bilan

ikki hafta oldin ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirishga majburdir. Hatto tomonlar kelishilgan taqdirda ham bu muddatni uzaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunday arizani korxonada belgilangan tartibda topshirish mumkin bo‘lmagan holda xodim o‘zi ishda bevosita bo‘ysungan mansabdor shaxsga (brigada boshlig‘iga, sex, uchastka boshlig‘iga va h.k.) topshirishga haqlidir.

2.25. Xodimning bergan arizasi ro‘yxatga olinishi shart. Ariza ro‘yxatga olinishidan qat‘i nazar, u berilgan kundan keyingi kundan boshlab ogohlantirish muddati boshlanadi.

2.26. Xodim tomonidan berilgan ariza u berilgan kundan keyingi kundan kechiktirmay korxona rahbariga (mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxsga) topshiriladi.

Xodimning arizasi uzrli sabablar bo‘yicha ishni davom ettirish mumkin emasligi bilan shartlangan holda u ish beruvchiga uni topshirish kunida beriladi va ish beruvchi mehnat shartnomasini arizada ko‘rsatilgan muddatda bekor qilishga majburdir.

Uzrli sabablarga quyidagilar kiradi:

- o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilinish;
- pensiyaga chiqish;
- saylanadigan lavozimga saylanish;
- xodim yoki uning yaqin qarindoshlarining tibbiy xulosaga ko‘ra parvarishga muhtoj bo‘lgan salomatligi, bu xulosani VTEK, VKK beradi;
- mazkur ishni davom ettirish mumkin emasligini belgilaydigan boshqa uzrli sabablar.

Qonun bilan belgilangan ogohlantirish muddati xodim bilan korxona rahbari (mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxs) o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra qisqartirilishi mumkin, bu esa xodimning arizasida mehnat shartnomasini bekor qilishning aniq sanasini ko‘rsatgan va mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning tegishli ruxsati ko‘rinishida aks ettirilishi kerak.

Mazkur bandeda ko‘rsatilgan shaxslardan tashqari boshqa mansabdor shaxslar, shu jumladan, mazkur xodim mehnat qiladigan tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari ham ogohlantirish muddatini qisqartirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emaslar.

2.27. Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi arizani xodim istalgan vaqtda, shu jumladan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, ta'tilda, xizmat safarida bo'lgan davrda va hokazolarda topshirishga haqlidir. Ko'rsatilgan davrlarning hammasi mehnat shartnomasining bekor qilish to'g'risida belgilangan ogohlantirish muddatiga hisoblanadi.

2.28. Ogohlantirish muddati mobaynida mehnat shartnomasining shartlarini tomonlar odatdagi tartibda bajarishda davom etadilar.

Xodimning ogohlantirish muddati mobaynida arizani qaytarib olish huquqi saqlanadi.

Agar mazkur qoidalarining 2.24- va 2.26-bandlarida ko'rsatilgan muddatlar tugaganidan so'ng mehnat shartnomasi bekor qilinmasa, mehnat munosabatlari davom ettiriladi.

2.29. Muayyan muddatga yoki muayyan ishni bajarish vaqtiga tuzilgan shartnomaning muddati tugaganda tomonlarning istalgani mehnat munosabatlarini shartnoma bo'yicha ishlash muddati tugagan kunda ham, u tugagandan so'ng yetti kalendar kun mobaynida ham bekor qilishga haqlidir.

Yetti kunlik muddat shartnoma muddati tugagandan keyingi kundan boshlanadi. Agar yetti kunlik muddatning tugashi ishlanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, uning tugashi keyingi ishlanadigan kunga ko'chiriladi.

Ish joyi saqlanib turadigan xodimning yo'qligi vaqtida tuzilgan mehnat shartnomasining muddati ana shu xodim ishga qaytib kelgan kundan boshlab tugaydi.

2.30. Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek, muddatli mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra uning muddati tugashidan oldin bekor qilishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

- texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtatlari) o'zgarishiga yoki ishlar tarzlarining o'zgarishiga yoxud korxonani tugatishga olib kelgan ish hajmlarining qisqarishi;

- malakasi yetarli emasligi yoki sog'lig'ining yomonligi oqibatida xodimning bajarilayotgan ishga muvofiq emasligi;

- xodimning aybli xatti-harakatlari.

Ish beruvchining tashabbusiga ko'ra o'rindoshlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga, ko'rsatilgan hollardan tashqari, shuningdek, o'rindosh bo'lmagan boshqa xodimni ishga qabul qilish munosabati bilan yoki mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik bo'yicha ishlarni cheklash natijasida yo'l qo'yiladi.

2.31. Mehnat shartnomasini mazkur qoidalarining 2.30-bandida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilishga, korxonani tugatish va korxona rahbari bilan mehnat shartnomasini bekor qilish holatidan tashqari, Kasaba uyushma qo'mitasining oldindan roziligini olmasdan turib yo'l qo'yilmaydi. Ish beruvchi mehnat shartnomasini Kasaba uyushma qo'mitasining roziligini olgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay, aybli xatti-harakatlar uchun esa, bundan tashqari, intizomiy jazoni belgilash uchun ko'rsatilgan muddatlardan kechiktirmay bekor qilishga haqlidir.

2.32. Ish beruvchining tashabbusiga ko'ra quyidagi hollarda mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi:

- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davrida yoki xodimning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan ta'tilda bo'lgan vaqtida. Bu qoida korxonani to'liq tugatish holatiga tatbiq etilmaydi;

- korxona to'liq tugatilib, xodimlarni majburiyatli ravishda ishga joylashtirish bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollardan tashqari homilador ayollar va uch yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarga nisbatan, mehnat shartnomasi bekor qilinmaydi.

2.33. Umumiy tartibga rioya qilishdan tashqari ish beruvchi quyidagi xodimlar bilan mehnat shartnomasini o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilayotganida mahalliy mehnat organining roziligini olishi shart:

- 18 yoshga yetmagan shaxslar;

- vakillik organlari tarkibiga saylangan va ishlab chiqarishdagi faoliyatdan ozod etilmagan shaxslar;

- vakillik organlari tarkibiga saylangan shaxslar saylab qo'yilgan vakolatlari tugaganidan keyin ikki yil mobaynida.

2.34. Ish beruvchi xodimni mehnat shartnomasini bekor qilish niyati to'g'risida yozma ravishda (tilxat olib) quyidagi muddatlarda ogohlantirishi shart:

- texnologiyaning o'zgarishi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ish hajmlarining qisqarishi, xodimlar



soni (shtati) o'zgarishi yoki ishlar tarzining o'zgarishi yoxud korxonani tugatish munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilayotganda, kamida ikki oy oldin;

— xodimning malakasi yetarli emasligi yoki sog'lig'ining yomonlashgani oqibatida bajarayotgan ishiga muvofiq kelmasligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinayotganida, kamida ikki hafta oldin.

Xodimni ogohlantirish muddatiga vaqtinchalik layoqatsizlik davrlari, shuningdek, uning davlat yoki jamoat vazifalarini bajargan vaqti kiritilmaydi.

2.35. Agar tibbiy xulosaga ko'ra xodimning o'z zimmasiga yuklangan ishni bajarishni davom ettirishi mumkin bo'lmasa, ish beruvchi mehnat shartnomasini ogohlantirishsiz bekor qilishi va xodimga uning ikki haftalik ish haqi hajmida badal to'lashi shart.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra ushbu qoidalarining 2.34-bandida ko'zda tutilgan ogohlantirish muddatlari ham ularning davom etish muddati bilan o'lchanadigan pulli badal bilan almashtirilishi mumkin.

2.36. Xodimning aybli harakatlari oqibatida mehnat shartnomasini bekor qilish holatida ish beruvchi kamida uch kun oldin xodimni mehnat munosabatlarining bekor qilinishi to'g'risida xabardor qilishi yoki buning o'rniga kerakli hajmda badal to'lashi kerak.

2.37. Ish beruvchi xodim aybli xatti-harakatlar qilgan taqdirda u bilan mehnat shartnomasini quyidagi asoslar bo'yicha bekor qilishga haqlidir:

— xodim o'zining mehnat majburiyatlarini muntazam buzib kelgan bo'lsa;

— xodim o'zining mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol buzsa.

2.38. Bir marta buzganlik uchun mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin bo'lgan qo'pol buzishlarga quyidagilar kiritiladi:

— ijro intizomini buzish (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va topshiriqlarida, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari va Farmoyishlarida, yuqori organ, hokimlik va ish beruvchining qarorlarida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishni o'z vaqtida va to'liq hajmda ta'minlamaganlik);

— ishga uzrsiz sabablar bilan chiqmaslik (ishda uzrsiz sabablar bilan ish kuni mobaynida uzluksiz yoki vaqt-vaqti bilan jami \_\_ soatdan ko‘proq bo‘lmaganlik);

— ishga alkogolli ichimliklar, giyohvandlik yoki zaharvandlik vositalarini iste’mol qilib kelish, buni guvohlarning ko‘rsatmalari yoki tibbiy xulosa tasdiqlagan bo‘lsa;

— ish joyida korxonaning mol-mulkini o‘g‘irlashni sodir etish, buni guvohlar tasdiqlagan bo‘lsa;

— tarbiyachilik vazifalarini bajarayotgan xodimning mazkur ishda ishlashni davom ettirish mumkin bo‘lmagan g‘ayriaxloqiy ish-harakatni sodir etishi;

— korxona xodimlarining, shu jumladan, tartibbuzarning ham hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan tarzda xavfsizlik texnikasini, ishlab chiqarish texnologiyasini qo‘pol ravishda buzishi;

— xodim tomonidan mehnat majburiyatlari buzilib, O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining \_\_\_\_ baravar hajmida moddiy zarar yetkazilishi;

— maxfiyligi mehnat shartnomasida shart qilib qo‘yilgan tijorat sirining xodim tomonidan oshkor qilinishi;

— bevosita pul yoki tovar boyliklariga xizmat ko‘rsatadigan xodim tomonidan aybli xatti-harakatlar sodir etilishi, agar bu xatti-harakatlar ish beruvchi tomonidan unga nisbatan ishonchning yo‘qolishi uchun asos bo‘lsa.

2.39. Mehnat shartnomasi quyidagi hollarda ham bekor qilinishi mumkin:

— xodim harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilganda;

— ilgari shu ishni bajargan xodim ishga qayta tiklanganda;

— xodim ilgarigi ishini davom ettirishiga imkon bermaydigan jazoga hukm qilingan sud hukmi qonuniy kuchga kirganda, shuningdek, sudning qaroriga ko‘ra xodim ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yuborilganda;

— ishga qabul qilishning belgilangan qoidalari buzilganda, agar yo‘l qo‘yilgan buzilishni bartaraf etish mumkin bo‘lmasa va ishni davom ettirishga to‘sqinlik qilsa;

— xodim vafot etganida;

— agar ishni davom ettirish ularning sog‘lig‘iga xavf solsa yoki ular uchun boshqa zarar keltirish bilan bog‘liq bo‘lsa ota-

onalarning, vasiylar (homiylar), mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qilish organlari, 18 yoshdan yosh bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha komissiyalar talabiga ko'ra.

2.40. Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqda Mehnat kodeksi yoki boshqa me'yoriy hujjatlarning tegishli bandi va moddasini havola qilgan holda mehnat shartnomasini bekor qilishning asosi ko'rsatiladi.

Mehnati shartnomasi xodimning tashabbusiga ko'ra mazkur qoidalarining 2.26-bandida ko'zda tutilgan uzrli sabablarga ko'ra va qonunchilikda muayyan imtiyozlar va afzalliklarni berish bilan bog'liq boshqa sabablarga ko'ra bekor qilinganida mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqda ushbu sabablar ko'rsatiladi.

2.41. Muddatli mehnat shartnomasida uni muddatidan oldin bekor qilish paytida jarima to'lash to'g'risida taraflarning o'zaro majburiyati ko'zda tutilgan taqdirda:

— ish beruvchi mazkur qoidalarining 2.30-bandida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish paytida xodimga jarima to'lashi shart, bundan mehnat munosabatlarini xodimning aybli xatti-harakatlari uchun bekor qilish holatlari mustasno;

— agar mehnat shartnomasi uning muddati tugashiga qadar xodimning tashabbusiga ko'ra, shuningdek, uning aybli xatti-harakatlari bilan bog'liq asoslar bo'yicha bekor qilingan bo'lsa, xodim ish beruvchiga jarima to'lashi shart.

Agar mehnat shartnomasida jarimaning hajmi belgilanmagan bo'lsa, tomonlar uni to'lashdan ozod etiladi.

### **3. Mehnat intizomini ta'minlash va javobgarlik**

3.1. Korxonada mehnat intizomi mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga, jamoa shartnomasi shartlariga, ushbu qoidalariga va texnologiya intizomini, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha talablar, shuningdek, har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlarini ko'zda tutadigan korxonaning boshqa lokal hujjatlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

3.2. Mehnat majburiyatlarini tegishli ravishda bajarish, mehnatda yuqori natijalarga erishish, korxonada uzoq muddat namu-

nali ishlash va ishdagi boshqa yutuqlari uchun korxona xodimlariga nisbatan quyidagi ragʻbatlantirishlar qoʻllanishi mumkin:

- minnatdorchilik;
- pul mukofoti bilan taqdirlash;
- qimmatbaho sovgʻa bilan mukofotlash.

Jamiyat va davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun xodimlar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

3.3. Taqdirlashlar, odatda, mazkur xodim ishlayotgan tarkibiy boʻlinma rahbarining yoki mehnat jamoasining iltimosnomasiga koʻra korxona rahbari tomonidan chiqariladigan buyruqqa binoan eʼlon qilinadi.

3.4. Mehnat intizomini buzganlik uchun ish beruvchi xodimga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralarini qoʻllashga haqlidir:

- hayfsan;
- oʻrtacha oylik ish haqining koʻpi bilan 20 foizi hajmida jarima. Mehnat intizomini muntazam buzganlik uchun, shuningdek, ushbu qoidalarining 2.38-bandida koʻzda tutilgan harakatlarni bir marta sodir etganlik uchun xodim oʻrtacha oylik ish haqining koʻpi bilan 40 foizi hajmida jarima toʻlashi mumkin;
- mehnat shartnomasini bekor qilish.

3.5. Jazo chorasi qoʻllanishiga qadar xodimga yoʻl qoʻyilgan qonunbuzarlik sabablari va holatini yozma ravishda tushuntirish imkoniyati beriladi. Tushuntirish berishdan bosh tortish unga nisbatan sodir etilgan harakat uchun chora koʻrishga toʻsqinlik qilishi mumkin emas. Xodimning tushuntirish berishdan bosh tortishi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

3.6. Ish beruvchi har bir harakat uchun ushbu qoidalarining 3.4-bandida koʻrsatilgan intizomiy jazoning faqat bittasini qoʻllashga haqlidir.

3.7. Intizomiy jazoning amal qilish muddati uni qoʻllash kunidan boshlab bir yildan oshishi mumkin emas. Agar ana shu muddat davomida xodim yangi intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi. Bunday holda intizomiy jazoni bekor qilish toʻgʻrisida buyruq chiqarilmaydi. Intizomiy jazoni qoʻllagan ish beruvchi uni bir yil tugashiga qadar oʻzining tashabbusiga koʻra, xodimning iltimosiga koʻra, mehnat jamoasi

yoki xodimning bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra bekor qilishga haqlidir. Xodimdan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

3.8. Intizomiy jazo ustidan xodim ushbu qoidalarining 5.1—5.6-bandlarida ko'zda tutilgan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

3.9. Ish beruvchiga xodim bevosita to'g'ridan to'g'ri zarar yetkazgan holda intizomiy jazo va ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini qo'llashdan qat'i nazar, xodim, bundan tashqari, qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin.

3.10. Mehnat intizomini buzganlik uchun xodimlarga nisbatan, intizomiy javobgarlikdan tashqari, lokal hujjatlar bilan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari ham qo'llanishi mumkin (mukofotdan, ish yakunlari bo'yicha yil uchun mukofotdan to'liq yoki qisman mahrum qilish va h.k.).

3.11. Korxonaning mansabdor shaxslari mehnat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qonunga binoan ko'zda tutilgan hollarda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Bunday javobgarlik quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ekanligini bilib turib bekor qilish yoki ishga tiklash to'g'risidagi sud qarorini bajar-maslik, shuningdek, homiladorligi yoki bolaga qarashi kerakligini vaj qilib ayollarni ishga qabul qilishdan bilib turib g'ayriqonuniy tarzda bosh tortish;

- ishga qabul qilishning belgilangan tartibini buzish (mahalliy mehnat organlari tomonidan yuborilgan shaxslarni);

- muqobil xizmat xizmatchilari, harbiy xizmatga majburlarni hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'lmagan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bilan qabul qilish, qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan muay-yan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlangan shaxslarni ishga qabul qilish;

- yong'inga qarshi qoidalar va xavfsizlik texnikasini, ishlab chiqarish sanitariyasi yoki xodimga zarar keltirishga sabab bo'lgan boshqa mehnat qoidalarini buzganlik uchun;

- xodimning murojaatini ko'rib chiqishdan bosh tortish yoki uni o'z vaqtida ko'rib chiqmaslik yoxud ular bo'yicha asossiz zid qaror qabul qilish va hokazolar uchun.

## **4. Ish vaqti va dam olish vaqti**

4.1. Xodim ushbu qoidalarga, navbatlilik jadvallariga va mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'zining mehnat majburiyatlarini bajarishi kerak bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi.

4.2. Korxonalarda har kungi ish vaqti 8 soatni tashkil etadigan besh kunlik ish haftasi belgilangan.

Barcha xodimlar uchun ushbu qoidalarining 4.8-bandida ko'rsatilgan har haftalik dam olish vaqti ikki dam olish kunini (shanba va yakshanba) tashkil etadi. Barcha xodimlar uchun umumiy dam olish kuni yakshanba hisoblanadi.

4.3. Korxonaning quyidagi xodimlari uchun ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi:

- 16 yoshgacha bo'lgan shaxslarga — haftada 24 soat;
- 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga — haftada 36 soat;
- I va II guruh nogironlariga — haftada 36 soat.

O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlarga — jamoa shartnomasiga \_\_\_\_\_ sonli ilovaga muvofiq.

(Agar ular korxonada mavjud bo'lsa, ish vaqtining qisqartirilgan muddatidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan boshqa xodimlar ham ko'rsatiladi.)

4.4. Har kungi ishning davomiylik vaqti quyidagi hollarda bir soatga qisqartiriladi:

- bayram (ishlanmaydigan) kunlari arafasida;
- tungi vaqtda ishlarni bajarganda (soat 22.00 dan to 6.00 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt hisoblanadi).

Tungi ishlash muddati ishlab chiqarish sharoitiga ko'ra zarur bo'lgan hollarda, xususan, uzluksiz ishlanadigan korxonalarda, shuningdek, bitta dam olish kuni bo'lgan 6 kunlik ish haftasida navbatli ishlarda kunduzgi ish bilan tenglashtiriladi.

4.5. Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha ishga qabul qilish paytida ham, keyinchalik ham to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilanishi mumkin.

Ish beruvchi quyidagi hollarda to'liqsiz ish vaqtini belgilashi mumkin:

- homilador ayollar, 14 yoshgacha bolasi (16 yoshgacha nogiron bolasi) bo'lgan ayollar, shu jumladan, uning homiyligida

yoki tibbiy xulosaga muvofiq oilaning kasal a'zosini boqayotgan shaxsning iltimosiga ko'ra, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda.

To'liqsiz ish vaqti sharoitida ishlash xodim uchun har yilgi ta'til muddatini mehnat stajini hisoblash va boshqa mehnat huquqlarini biror-bir tarzda cheklashlarga sabab bo'lmaydi va ishlangan vaqtga mutanosib ravishda yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga bog'liq holda haq to'lanadi.

4.6. Har kungi ishning boshlanish va tugash hamda dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus vaqti quyidagicha belgilanadi:

| Bo'linmalar<br>(xodimlar<br>toifalari)                                   | Ish vaq-<br>tining<br>boshla-<br>nishi | Tushlik<br>vaqti                   | Ish<br>vaqtining<br>tugashi | Eslatma                                             |
|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------------------------|
| 1. Korxona<br>uchun umumiy                                               | 8 <sup>00</sup>                        | 12 <sup>00</sup> —13 <sup>00</sup> | 17 <sup>00</sup>            |                                                     |
| 2. 1-sex                                                                 | alohida                                | jadval<br>bo'yicha                 |                             |                                                     |
| 3. 18 yoshgacha<br>bo'lgan shaxs-<br>lar, 1- va 2-gu-<br>ruh nogironlari | 9 <sup>00</sup>                        | 12 <sup>00</sup> —13 <sup>00</sup> | 17 <sup>00</sup>            | haftada bir kun<br>ish kuni davo-<br>miyligi 8 soat |
| 4. 16 yoshgacha<br>bo'lgan shaxslar                                      | 9 <sup>00</sup>                        | 12 <sup>00</sup> —13 <sup>00</sup> | 15 <sup>00</sup>            | juma kuni<br>14 <sup>00</sup> gacha                 |

4.7. Ish sharoitlariga ko'ra tushki tanaffus vaqtini belgilash mumkin bo'lmagan xodimlarga ovqatlanish uchun ish vaqtida kamida 30 daqiqa beriladi. Bunday ishlar ro'yxati, ovqatlanishning boshlanish va tugash vaqti hamda joyini ish beruvchi Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydigan navbatlilik jadvaliga binoan belgilanadi.

4.8. Navbat bilan ishlaydigan bo'linmalarda (uchastkalarda) ish navbatining vaqti, ularning navbatlanish tartibi, tushki tanaffus vaqti yoki ovqatlanish vaqti, dam olish kunlarini berish korxona rahbari Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlagan navbatlilik jadvaliga ko'ra belgilanadi.

Xodimni ishga ikki navbat davomida ketma-ket jalb etish taqiqlanadi.

Navbatlilik jadvaliga binoan har bir xodimga belgilangan ish vaqtining davom etishi tegishli davr uchun ish vaqtining bir me'yorli davom etishidan oshib ketmasligi kerak.

Navbatlilik jadvali bilan manfaatdor xodimlar u kuchga kirishiga qadar \_\_\_\_ kundan kechiktirmay tilxat berib tanishishlari kerak.

Ishning tugashi bilan uning keyingi kunda boshlanishi (navbatda) o'rtasidagi har kungi dam olish vaqti 12 soatdan kam bo'lmasligi kerak.

4.9. Har kungi ish vaqti (navbat) dan ortiqcha belgilangan ish xodim uchun ish kunidan tashqari mehnat vaqti hisoblanadi.

Ish kunidan tashqari mehnat qilishga faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ish kunidan tashqari ishlashning vaqti ikki kunda har bir xodim uchun to'rt soatdan (zararli va og'ir mehnat sharoitlarida ishlashda — kuniga ikki soatdan) va bir yilda 120 soatdan oshmasligi kerak.

Ish vaqtidan tashqari ishlashga quyidagilarga ruxsat berilmaydi:

- ish navbatining vaqti 12 soatni tashkil etadigan xodimlar;
- 18 yoshgacha bo'lgan xodimlar.

4.10. Xodimlarning ayrim toifalarini dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishga jalb etishga faqat favqulodda hollarda ish beruvchining yozma farmoyishi bilan jamoa shartnomasining \_\_\_\_ bandida ko'zda tutilgan asosda va tartibda yo'l qo'yiladi.

4.11. 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarni tungi ishlarga hamda dam olish va bayram kunlarida ishlashga jalb etish taqiqlanadi. Nogironlar, homilador ayollar va 14 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollar ko'rsatilgan ishlarga faqat ularning roziligi bilan jalb etilishi mumkin.

Bunda nogironlar bunday ishlar tibbiy tavsiyalar bilan ularga taqiqlanmasligi sharti bilan jalb etiladi. Shunga o'xshash tibbiy tavsiyasi bo'lgan va o'zi rozilik bildirgan homilador ayollar va uch yoshgacha bolalari bo'lgan ayollar tungi ishlarga jalb etilishi mumkin.

4.12. Ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlaridagi mehnatga haq to'lash va badal jamoa shartnomasining \_\_\_\_ bandiga muvofiq amalga oshiriladi.



4.13. Barcha xodimlarga, shu jumladan, o'rindoshlarga ham ish joyi hamda o'rtacha ish haqini saqlab qolgan holda har yilgi mehnat ta'tillari beriladi.

4.14. Har yilgi ta'tillar (asosiy va qo'shimcha) vaqti, ularga haq to'lash va hisoblash tartibi, shuningdek, ta'til olishga huquq beradigan ish stajini hisoblash qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi (jamoa shartnomasining \_\_\_\_ bandi).

4.15. Xodimning arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmagan holda ta'til berilishi mumkin, uning qancha davom etishi tomonlarining kelishuvi bilan belgilanadi.

Ish beruvchi ko'rsatilgan ta'tilni xodimning iltimosiga ko'ra jamoa shartnomasining \_\_\_\_ bandida ko'zda tutilgan hollarda va muddatda berishga majbur.

4.16. Har yilgi asosiy ta'til quyidagicha beriladi:

- ishlangan birinchi yil uchun — olti oy ishlagandan keyin;
- ikkinchi va keyingi yillardagi ish uchun — ta'tillar jadvaliga muvofiq ish yilining istalgan vaqtida.

4.17. Ta'til har yili u beriladigan ish yili tugashiga qadar berilishi kerak. Ta'til xodimning yozma arizasiga ko'ra qismlarga bo'linishi mumkin. Ta'til qismlaridan biri kamida 12 ish kunini tashkil etishi kerak.

Faqat xodimning roziligi bilan ta'tildan chaqirib olish mumkin. Ta'tilning foydalanilmagan qismi joriy yilda beriladi yoki keyingi yilga ko'chiriladi.

4.18. Xodimning xohishiga qarab ish vaqtida eng kam muddatdan (15 ish kunidan) ortiqcha yillik ta'til uchun pul badali to'lanadi.

Ijtimoiy ta'tillarning barcha turlari, shuningdek, noqulay ish sharoitlarida ishlash, ishning alohida tarzi, og'ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun qo'shimcha ta'tillarning barcha turlaridan albatta foydalanilishi kerak, ularni pul badali bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.19. Har yilgi ta'tillarni berishdagi rag'batlar kalendar yili boshlanishiga qadar korxona rahbari Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib tasdiqlaydigan jadvalga binoan belgilanadi. Ana shu tartibda jadval yarim yil tugaganidan keyin ana shu davrda ishga yangi qabul qilingan xodimlarni hisobga olib to'ldiriladi. Xodim

ta'tilni berish vaqti to'g'risida uning boshlanishidan ko'pi bilan 15 kun oldin xabardor qilinishi kerak.

4.20. Ta'til uchun haq ta'til boshlanadigan kundan oldingi kunda to'lanishi kerak.

Xodimning arizasiga ko'ra ta'til boshqa muddatga ko'chirilishi mumkin, agar u bu haqda o'z vaqtida xabardor qilingan yoki unga ta'til boshlanishiga qadar ta'til vaqti uchun haq to'lanmagan bo'lsa.

4.21. Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda (shu jumladan, uning muddati tugashi munosabati bilan ham), xodimning xohishiga ko'ra mehnat munosabatlarini keyin tugatgan holda har yilgi asosiy va qo'shimcha ta'tillar berilishi ko'zda tutilishi mumkin.

Mazkur holda ta'tilning tugash kuni mehnat shartnomasini bekor qilish sanasi deb hisoblanadi.

Keyin ishdan bo'shatish sharti bilan ta'tilga chiqqan vaqtda xodim, qonunchilikda belgilangan yoki tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilangan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ogohlantirish muddati tugagan bo'lsa, mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi arizani qaytarib olishga haqli bo'lmaydi.

## **5. Mehnat shartnomasi tomonlari o'rtasidagi ixtiloflarni hal etish**

5.1. Har bir xodim qonunchiliklarda, mazkur qoidalarda, korxonaning boshqa lokal hujjatlarida va mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sudda himoya qilish, shuningdek, malakali yuridik yordam olish huquqiga egadir.

5.2. O'zining huquqlarini buzilgan deb hisoblovchi xodim mustaqil ravishda yoki Kasaba uyushmasi qo'mitasi orqali ish beruvchiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat qilishga haqlidir. Xodimning murojaati mazkur qoidalarining 2.5-bandida ko'zda tutilgan tartibda ro'yxatga olinishi kerak.

5.3. Yozma javob xodimga uning murojaati mohiyatiga ko'ra, bevosita ko'rib chiqilgandan keyin yuboriladi.

Mehnat sharoitlarini o'zgartirish to'g'risidagi murojaatga javob xodimga bunday o'zgarishga bo'lgan huquq qonunda ko'zda tutilganday uch kundan kechiktirmay jo'natilishi kerak.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtasida ko'rsatilgan holdagi ixtilof paytida yoki ish beruvchining javobidan qoniqmaganda xodim o'zining tanlashiga ko'ra mehnat nizosini hal etish uchun mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga (bundan keyin — MNK) yoki bevosita sudga, shuningdek, vakolatiga korxona xodimlarini himoya qilish kiradigan boshqa organlarga murojaat qilishga haqlidir.

5.4. Xodim tomonidan berilgan ariza MNKda ro'yxatga olinadi va ariza bergan xodim ishtirokida u berilgan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Xodimning arizani ko'rib chiqishda ishtirok etmasligiga faqat uning yozma arizasiga ko'ra yo'l qo'yiladi. Komissiyaning majlisiga xodim uzrli sabablarsiz kelmagan taqdirda, mazkur arizani ko'rib chiqmaslik to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin, bu esa xodimni qaytadan ariza topshirish huquqidan mahrum qilmaydi.

5.5. MNK qarori ustidan manfaatdor xodim yoki ish beruvchi MNKning ko'chirma nusxasini olgandan keyin 10 kun ichida sudga murojaat qilishi mumkin.

5.6. Xodim sudga yoki MNKga quyidagi muddatlarda murojaat qilishga haqlidir:

- ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha xodimga u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqning ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan boshlab ko'pi bilan bir oy ichida;

- boshqa nizolar bo'yicha — xodim o'z huquqining buzilgani to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan boshlab uch oydan kechiktirmay;

- xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish muddati belgilanmaydi.

Mazkur bandeda ko'rsatilgan muddatlar uzrli sabablar bilan o'tkazib yuborilgan taqdirda ular sud yoki MNK tomonidan tiklanishi mumkin.

(Ichki mehnat tartibi qoidalari ko'zga ko'rinarli joyga osib qo'yiladi.)

Mazkur qoidalarda ko'rsatilgan me'yorlar (tomonlarning majburiyatlari, ish vaqti, dam olish vaqti va boshqalar) namunaviy xarakterga ega. Har bir ish beruvchi Kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishgan holda ushbu qoidalar asosida va Mehnat kodeksi, Mehnat to'g'risidagi

qonunchilik hujjatlari, jamoa shartnomasi va korxonaning boshqa lokal hujjatlari talablarini hisobga olib o'zining Ichki mehnat tartibi qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

## **7.2. Baxtsiz hodisa ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish chora-tadbirlari**

### **Jarohatlanganda va baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidolari**

**Qon ketishi.** O'tkir buyum, masalan, pichoq yoki singan suyak terini teshsa yoki boshqa organlarga jarohat yetkazsa, tashqi qon oqishiga olib kelishi mumkin. Jarohatlanuvchi o'tmas buyumga qattiq urilishi, masalan, avtomobil halokatida rulga urilishi yoki balandlikdan yiqilishi natijasida yetgan zarbadan shikastlanganda ichki qon ketishi sodir bo'lishi mumkin.

Qon ketishini to'xtatishda jarohatga infeksiya tushish xavfini kamaytirish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim: jarohatga ochiq qo'l bilan tegmang; qo'lingiz bilan jarohat orasiga doka, salfetka yoki boshqa biror toza va quruq mato qo'ying; muhofaza vositasi sifatida selofan o'ramidan, rezina yoki bir marta ishlatiladigan qo'lqopdan, shuningdek, bir necha qatlam qilib buklangan toza materialdan ham foydalanish mumkin.

Terining ustki qatlami jarohatlanganda organizmga infeksiya tushishining oldini olish uchun shikastlangan joyni yuvish eng yaxshi dastlabki choradir. Agar ozgina qon ketayotgan bo'lsa, jarohatni suv bilan sovunlab yuving. Sovun ko'p hollarda kasallikni keltirib chiqaruvchi bakteriyalarni bartaraf etadi.

Qon tomirlari jarohatlanib, qon teri ustki qatlamiga chiqqan holatlar tashqi qon ketishini keltirib chiqaradi. Biroz kesib olgandagi kabi ozgina qon oqishi, qonning ivishiga qarab, 10 daqiqa ichida o'z-o'zidan to'xtaydi. Lekin yirik qon tomirlari jarohatlanib, qon tez oqib chiqib, ivishga ulgurmagan hollarda qon oqishi, ayniqsa, kattalarga qaraganda bolalar va go'daklar hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Tashqi qon ketishida birinchi yordam ko'rsatish uchun shikastlangan qo'l yoki oyoqni balandroq ko'taring.

Jabrlanuvchini orqasi bilan yotqizib, jarohatni bosib turuvchi bog'lamni qo'yish lozim.

Jarohatning xavfli turlaridan biri arteriyadan qon ketishidir. Bunda qon kuchli oqim bo'lib oqadi, och qizil rangli bo'ladi. Qo'l-oyoqdagi nazorat qilib bo'lmaydigan qon ketishida bog'lam (jgut) qo'yish arterial qon ketishini to'la to'xtatishning samarali usulidir. Bog'lam qo'yishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

— bog'lam jarohatlangan joydan taxminan 5 sm yuqoriga qo'yilishi kerak;


— shikastlangan qo'l yoki oyoq bilan bog'lam orasiga qatlam qo'yish lozim;

— bog'lam sifatida bir necha bor taxlangan uchburchak bog'ichga o'xshash gazlamaning enli bo'lagidan foydalanish mumkin, u qo'l yoki oyoq atrofiga ikki marta o'raladi. Arqon yoki chilvirdan foydalanish mumkin emas, chunki ular quyida joylashgan to'qimani zararlantirishi mumkin;

— bog'lamni bir bor bog'lang, bironta narsa (ruchka, qaychi, taxtacha) ni ustiga qo'ying, uning ustidan yana bir bor bog'lab qo'ying, so'ng qon oqishi to'xtamagunicha aylantiring. Uchini ikki marta tugib mahkamlab qo'ying;

— bog'lam qo'ygan vaqtingizni eslab qoling, u 1 soatdan ortiq vaqtga qo'yilishi mumkin emas (6-rasm).

Kapillar qon oqishida qon kichkina jarohatdan oqayotgandek bo'ladi va tez quyuladi. Birinchi yordam ko'rsatish uchun jarohatni suv bilan sovunlab yuving. Ifloslangan jarohatni tozalash uchun toza salfetka yoki sterillangan tampondan foydalaning, tozalashni doim jarohatning o'rtasidan boshlab, chetiga qarab tozalab boring. Keyingi har ishda salfetkani almashtiring.



**6-rasm. Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish**

Ichki qon ketishini aniqlash tashqi qon ketishini aniqlashga qaraganda qiyinroqdir. Chunki uning belgi va alomatlari aniq ko‘rinmaydi va ma‘lum vaqt o‘tgandan keyingina bilinishi mumkin. Ichki qon ketishini aniqlashning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: shikastlangan joyda teri qontalashib qoladi, yumshoq to‘qimalarda og‘riq paydo bo‘lib, shishadi yoki qo‘l tekkizganda qattiq tuyuladi, jabrlanuvchi hayajonlanadi yoki bezovtalanadi, nafas olish tezlashadi, ko‘ngil aynib, qayt qilish mumkin, qondirib bo‘lmaydigan tashnalik his qilinadi va organizmning tabiiy teshiklaridan (og‘iz, burun va h.k.) qon oqadi. Bunday sharoitlarda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha asosiy qoidalarga amal qiling. Sovuq kompress og‘riqni kamaytirib, shishni qaytaradi. Shikastlangan joyga muz qo‘yadigan bo‘lsangiz, avval uni dokaga, sochiqqa yoki matoga o‘rang. Har soatda 15 daqiqadan sovuq kompress qiling. Zudlik bilan qo‘ng‘iroq qilib, tez yordam mashinasini chaqiring.

Qorin bo‘shlig‘ida hayotiy muhim organlar joylashganligi bois, bu sohadagi shikastlanish o‘limga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishning asosiy belgi va alomatlari quyidagilardan iborat: kuchli og‘riq, qorinning og‘rishi yoki unda ezilishni his etish, qontalashning yuzaga chiqishi, ko‘ngil aynishi, qayt qilish (ba‘zan qon yoki qora qusish), behollik, axlat (najas) da qon asorati ko‘rinishi (axlatning qora rangda bo‘lishi).

Qorin bo‘shlig‘i organlaridan qon ketganda зудlik bilan tez yordam chaqirish hamda qo‘shimcha yordam ko‘rsatish lozim:

1. Jabrlanuvchini ehtiyotlik bilan chalqanchasiga (orqasi bilan) yotqizing.

2. Jarohat atrofidagi kiyimni yeching.

3. Ochiq jarohatga namlangan toza tampon-bog‘lam qo‘ying.

4. Qon oqishini to‘xtatish uchun jarohatni barmoq bilan bosmang.

5. Ichki organlar jarohat orqali tashqariga chiqib qolgan hollarda ularni qorin bo‘shlig‘iga qaytarib solmang.

Burun, odatda, zarbadan shikastlanadi. Natijada qon oqadi. Qon burun kataklaridan oqsa-da, lekin nafas olganda nafas yo‘liga tushib, bo‘g‘ilishga yoki qayt qilishga olib kelishi mumkin. Yuqori qon bosimi yoki dengiz sathidan balandlikning keskin o‘zgarishi ham burun qonashiga olib kelishi mumkin. Burun qonaganda quyidagicha birinchi yordam ko‘rsatilishi lozim:

1. Jabrlanuvchidan o'tirib, boshini biroz oldinga egishni va ayni mahalda burun kataklarini 10—15 daqiqa siqib turishini iltimos qiling.

2. Qon oqishi to'xtashi bilan, jabrlanuvchiga qayta qonamasligi uchun burnini ishqalamaslikni, kavlamaslikni va qoqmaslikni tayinlang.

3. Sanab o'tilgan choralar yordam bermasa, qon oqishi qaytalasa yoki u yuqori qon bosimining oqibati bo'lsa, shifokorga murojaat qiling.

4. Jabrlanuvchi hushdan keta boshlasa, qon erkin oqib chiqishi uchun uni yonboshlatib yotqizish va zudlik bilan tez yordamni chaqirish zarur.

5. Burunga yot jism kirib qolgan, deb hisoblasangiz, burun kataklariga ko'z tashlang. Iloji bo'lsa, chiqarib olishga harakat qiling. Lekin hech mahal yot jismni qo'l bilan ushlab ko'rmang, chunki uni yanada ichkariga tiqib yuborishingiz, natijada ko'proq qon oqishi mumkin. Boz ustiga bu bilan uni chiqarib olishni qiyinlashtirib qo'yasiz. Yot jismni burundan chiqarib olish imkonini yo'qdek ko'rinsa, jabrlanuvchi shifokorga yordam so'rab murojaat qilishi lozim.


Suzishni yaxshi bilmaydigan, jismoniy jihatdan quvvatsiz yoki charchagan, kasal yoki jarohatlangan, shuningdek, sovuq suvda turgan yoki tasodifan suvga tushib ketgan odam cho'kishi mumkin. Suvda halokatga uchragan odamga yordamga kelinmasa, u cho'kib ketishi ehtimoldan xoli emas.

**Cho'kish.** Cho'kayotgan odamga yordam berishga harakat qilinar ekan, hech qachon unga darhol yaqin suzib borish kerak emas. Chunki u qattiq yopishib olib, qutqaruvchini ham suv ostiga tortib ketishi mumkin.

Cho'kayotgan odamga yordam ko'rsatishning turli usullari bor. Masalan, so'z bilan yordam ko'rsatish, narsa irg'itish, tortib chiqarish, sayoz joyda suvga tushish, qayiqdan foydalanish, suzib borib qutqarish, jabrlanuvchini shatakka olish usullari mavjud.

Jabrlanuvchini suvdan chiqarib olgach, uni qattiq joyga yotqizish hamda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

- yuqori nafas yo'llarini tozalang;
- nafas olayotgan-olmayotganini 5 soniya ichida aniqlang, nafas olmayotgan bo'lsa, sun'iy nafas oldirishni amalga oshiring;



**7-rasm. Cho'kkan odamga birinchi yordam**

— uyqu arteriyasidan tomir urishini tekshiring, tomir urmayotgan bo'lsa, yurak-o'pka faoliyatini tiklash choralarini ko'ring.

Sun'iy nafas oldirish nafas olmayotgan, biroq tomiri urib turgan jabrlanuvchilarda o'tkaziladi. «Og'izdan og'izga» va «og'izdan burunga» — sun'iy nafas oldirishning eng ko'p qo'llaniladigan usullaridir (7-rasm).

«Og'izdan og'izga» nafas oldirish usulida yordam berayotgan kishi jabrlanuvchining bosh tomonidan cho'kkalab, o'ng qo'li bilan uning boshini peshanasidan tutishi, chap qo'li bilan pastki jag'ini engagidan ushlab, oldinga tortib turishi lozim. Shu holatda jabrlanuvchining burun kataklarini qisib, lablari bilan jabrlanuvchining og'zini zich tutishi va 2 marta to'la puflashi kerak. Bunda havo o'pkasiga yetayotganiga ishonch hosil qilish uchun ko'krak qafasi ko'tarilishini kuzatib turish lozim. Jabrlangan kishining tabiiy nafasi tiklanguncha har daqiqada 16—18 martadan havo puflab, kiritib turiladi.

Agar jabrlanuvchining og'zi qattiq yumilib, jag'lari bir-biriga yopishib qolgan bo'lsa, «Og'izdan burunga» nafas oldirish usuli qo'llaniladi. Bunda yordam berayotgan kishi yuqoridagi holatda bo'ladi va jabrlanuvchi burnining bir katagini qisib turib, ikkinchisiga puflab havo kiritadi.

Agar jabrlanuvchining tomiri urib turgan bo'lsa-yu, avvalgidek nafas olmayotgan bo'lsa, tez yordam yetib kelgunicha sun'iy nafas oldirishni davom ettirish lozim. Agar jabrlanuvchining tomiri urmayotgan, o'zi nafas olmayotgan bo'lsa, yurak-o'pka faoliyatini tiklash ishini o'tkazishni boshlash kerak. Jabrlanuvchining tomiri urayotgani va u nafas olayotgani sezilsa, u holda jabrlanuvchini hushiga keltiruvchi holatda yotqizish va nafas yo'llarini havo o'tadi-



gan holatda tutib turish lozim. Hali tez yordam chaqirilmagan bo'lsa, qo'ng'iroq qilib, tez yordamning yetib kelishini kutish zarur.

**Kuyish.** Inson tanasining yuqori harorat ostida jarohat olishi kuyish deb ataladi. Yong'in vaqtida, issiq suyuqlikdan, kimyoviy moddalardan, gaz alangasidan, quyosh nurlari ta'siridan kuyish mumkin.

Terining jarohat olgan qismiga qarab kuyish to'rt darajaga ajratiladi:

*I daraja* — jarohatlangan teri qismining qizarishi, og'riq paydo bo'lishi va terining shishishi. Bu kuyishning eng yengil darajasi. Bunday holda og'riq bir necha soat davom etadi. Qizarish ham tezda o'tib ketadi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatganda kuygan joyni sovuq suv oqimi ostida 20 — 25 daqiqa davomida og'riq to'xtatguncha ushlab turish lozim. Kaliy permanganat (margan-sovka) ning kuchsiz eritmasi shimdirilgan doka, so'ngra steril bog'lam qo'yish zarur. Kuygan joyga spirt, atir, krem, yog' surtish yaramaydi.

*II darajali* kuyishda teri qizarib, pufakchalar bilan qoplanadi. Bu pufakchalar yorilishi mumkin. Pufakchalardan tiniq suyuqlik oqib chiqib, terini ho'llaydi. Bunday kuyish og'riqli bo'lib, kuygan joy shishib ketadi. Odatda, kuygan joy 3 — 4 haftada tuzaladi.

Pufakchalarni yormaslik lozim, chunki terining butunligi infeksiya tushishidan saqlaydi. Pufakchalar o'zi yorilgan bo'lsa, zararlangan joyni jarohatlangandagi kabi, sovunlab yuvib, steril-langan bog'lam bilan bog'lash kerak.

Juda yuqori harorat, alanga, shuningdek, elektr toki ta'sirida *III darajali* kuyish ro'y berishi mumkin. *III darajali* kuyishda terigina emas, balki chuqurroq joylashgan to'qimalar ham kuyadi. Bunday kuyishda teri ko'mirlanib (qorayib) yoki mumsimon oqarib ko'rinadi. Bu darajadagi kuyishda og'riq kamroq bo'ladi, chunki teri qatlami nerv uchlari zararlanadi. Bunday kuyish natijasida badanda dag'al chandiqlar paydo bo'lib, ko'pincha, yangi teri ko'chirib o'tqazishga to'g'ri keladi.

*IV darajali* kuyishda esa to'qimalar kuyib ko'mir bo'lib qoladi. II, III, IV darajali kuyishda kuygan joyga steril bog'lam qo'yish va tezlikda shifokorga murojaat qilish kerak.

Kuyganda birinchi yordam ko'rsatish uchun tezlikda tez yordamni chaqirish va kuygan joyga ho'llangan sochiq yoki boshqa bironta matoni bosish lozim. Bu kompress ustiga suv quyib, uni doim sovuq tutib turing. Aks holda darrov isib, qurib qoladi. Jabrlanuvchidan uzuk, soat kabi buyumlarni imkoni boricha tezroq, shish paydo bo'lgunga qadar yechib olish kerak.

Agar kuygan joy katta bo'lsa, butun jarohatlangan joyni birvarakay sovitishga urinmang, bu hol jabrlanuvchining tana harorati pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Kuygan joyning bir qismini sovitib, qolgan joyiga toza mato yopib qo'yish mumkin. Kuyganda ko'pchiligimiz xonadonda sevib o'stiradigan aloe o'simligi ham yordam berishi mumkin. Agar bu o'simlik bo'lmasa, u holda qirg'ichdan o'tkazilgan kartoshkani kuygan joyga qo'yish ham yordam beradi. Har 3—4 daqiqada kartoshka qatlamini o'zgartirib turish lozim bo'ladi.

Uy sharoitida va ishlab chiqarishda kimyoviy moddalardan kuyish hodisasi ro'y berishi mumkin. Bunday kuyish oqartiruvchi moddalar, suv oqib chiqib ketadigan quvurlar, vanna, hojat-xonani tozalash vositalari, bo'yoqni yuvib ketkazuvchi moddalar yoki bog'dorchilikda ishlatiladigan kimyoviy moddalar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Kimyoviy vositalardan kuyishda:

— kislotadan kuyganda zararlangan joyni avval 20 daqiqa davomida sovuq suv oqimida tutib turish, keyin sovun eritmasi bilan yuvish kerak;

— ishqor bilan zararlanganda sovuq suv oqimida yuvib, toza mato bilan yopish kerak;

— so'ndirilmagan ohak bilan zarar ko'rgan joyga yog', moy surish kerak.

**Sovuq urishi.** Kishi sovuqda uzoq vaqt bo'lib, uning organizmi tana haroratini boshqara olmaydigan holatga kelganda sovuq urishi yuz beradi. Bu shunday holatki, tana o'z issiqligini sekin-asta, yurak to'xtab qolguncha yo'qotib boradi. Sog'lom tana o'z ichki haroratini taxminan 37°C gacha ushlab turadi. Harorat 35°C gacha pasayganda organizm xavfga ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Sovuq urishining to'rt darajasi bor. *I darajali* sovuq urishida teri yuza qavati shikastlanadi. *II darajalida* teri yuqori qoplamining quyi qavati shikastlanadi, pufakchalar paydo bo'ladi. *III darajali* sovuq urishiga teri va teri osti hujayralarining nobud bo'lishi xos.

Zararlangan maydon terisi sovuqligicha qoladi, ko'kimtir rang oladi. Tovon (yoki bilak) da tomir urishi sekinlashadi yoki umuman yo'qoladi. *IV darajali* sovuq urishida faqat yumshoq to'qimalargina emas, balki suyaklar ham o'ladi. Sovuq urishi natijasida kishi qo'l-oyoq barmoqlaridan, panjalaridan mahrum bo'lishi mumkin.

O'z-o'zidan ma'lumki, issiq yo'qotilishini kiyim sekinlashtiradi. Kiyimni to'g'ri tanlash o'ta muhimdir. Sovuq urishining oldini olish uchun tana bilan kiyim o'rtasida iliq havo qatlamini hosil qiluvchi boshqa kiyim hamda jun mato yoki mo'ynadan tayyorlangan kiyim kiyib yurish, tez sovuq urishi mumkin bo'lgan tana qismlari: qo'l-oyoq barmoqlari, burun, quloqni berkitib yurish kerak. Kiyim o'zi bilan tana o'rtasida qo'zg'almas havo qatlami hosil qiladi. U o'ziga issiqlikni olib, atrofga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Demak, bir-birining ustidan kiyilgan ikki qavat kiyim, bitta qalin kiyimdan afzalroqdir.

Tanani tashqi ta'sir bilan isitish deyarli mumkin emas. Bunga faqat ichkaridan — issiq ichimlik va kuchli ovqat iste'mol qilish bilan erishish mumkin. Ular qon aylanishini tezlashtiradi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun, birinchi navbatda, odamning issiqlik yo'qotishini tezlashtiradigan harakatlarini to'xtatish lozim. Tezlik bilan uni issiq xonaga olib kirish kerak. Agar kiyimi ho'l bo'lsa, qurug'iga almashtiring. Unga issiq choy va ovqat bering. Tananing sovuq urgan joyini keskin isitib yubormang va qo'l bilan yoki tananing boshqa qismi bilan isiting. Sovuq urgan joy o'z rangiga kelmasa, uni 38—42°C iliq suvga tiqing hamda shu joy qizarib, qo'l bilan ushlab ko'rganda iliq tuyulmaguncha iliq suvda ushlab turing. Zararlangan joyni sterillangan quruq bog'lam bilan bog'lang. Qo'l yoki oyoq barmoqlarini sovuq urganda ular orasiga paxta yoki doka qo'ying. Jabrlanuvchini «isinib olish» uchun harakat qilishga undamang. Umuman spirtli ichimlik ichirmang. Vujudga kelgan pufakchalarni yormang. Jabrlanuvchini iloji boricha tezroq shifokorga olib borish lozim.

Odam organizmining o'zi tana haroratini yaxshi boshqaradi. Organizmga juda yuqori harorat ta'sir qilganda u tana haroratini boshqara olmay qoladi, natijada muammoli vaziyat yuzaga keladi. Oftob urishi va issiq elitishi organizmning qizib ketishi natijasida vujudga keladigan og'ir holatdir.

**Issiq elitishi**, ko‘pincha, shamolsiz issiq kunlarda, ayniqsa, issiqni ko‘tara olmaydigan yoki og‘ir jismoniy mehnat qilayotgan kishilarda kuzatiladi.

**Oftob urishi** quyosh nurlari organizmga tik tushayotganda, ayniqsa, boshni qizdirib yuborganda kuzatiladi.

Issiq elitishi yoki oftob urishining yengil shaklida kishi bo‘shashib, boshi og‘riydi, tomir urishi va nafasi tezlashib, terisi namiqib turadi, ko‘z qorachiqslari kengayadi, harorati, odatda, me’yorda bo‘ladi.

O‘rtacha darajadagi oftob urganda esa kishining boshi qattiq og‘rib, ko‘ngli aynib, qusadi, harakatlari poyma-poy bo‘lib, ba‘zan hushidan ketadi, ko‘p terlab, harorati 39 — 40°C gacha ko‘tariladi. Og‘ir hollarda kishi o‘zini bilmay qoladi, ruhiy qo‘zg‘alish ro‘y beradi, besaranjomlashib, ko‘ziga yo‘q narsalar ko‘rinishi, qulog‘iga yo‘q tovushlar eshitilishi, alahsirashi mumkin. Nafasi yuza, tez-tez bo‘lib, tomiri har daqiqada 120 — 140 martagacha uradi. Harorati 41 — 42°C gacha ko‘tariladi, agar vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatilmasa, shikastlangan kishi nobud bo‘lishi ham mumkin.

Oftob urgan yoki issiq elitgan kishini darhol toza havoga olib chiqib, soyaga o‘tqazib qo‘yish, tanasini siqib turgan kiyimlarini yechib, yelpig‘ich yoki choyshab bilan yelpish, badanini sovitish, boshini sovuq suv bilan namlash kerak. Unga ko‘p suyuqlik — tuz qo‘shilgan sovuq suv, sovuq choy va kofe ichirish tavsiya etiladi.

Nafas olishni qo‘zg‘atish uchun shikastlangan kishining yuzi sovuq suvga ho‘llangan sochiq yoki dastro‘mol bilan shapatiladi, novshadil hidlatiladi, badani uqalanadi. Bemorning nafasi qiyinlashib yoki to‘xtab qolgan bo‘lsa, sun‘iy nafas oldirish kerak.

Issiq elitishi va oftob urishining oldini olish uchun havo issiq kunlarda harakatlarga qulay, ochiq rangli yengil kiyim, boshga esa poxol shlyapa, panama kiyish, oq ro‘mol o‘rash kerak. Chanqoqni qondirish uchun, yaxshisi, sovuq choy olib yurish kerak.

**Is gazi** rangsiz va hidsiz gaz bo‘lib, asosiy xavfli tomoni shundaki, u o‘pka orqali qon hujayralariga tez kirib olib, qonda mavjud bo‘lgan kislorod o‘rnini egallaydi. Buning natijasida organizmda kislorod tanqisligi kelib chiqadi.

Zaharlanish benzinli dvigatellar ishlashi (ishlangan gazlar) dan, tabiiy gaz yonishidan, yong'in paytida hamda ba'zi sanoat obyektlarida ro'y berishi mumkin. Yaxshi shamollatilmaydigan yopiq xonalarda, masalan, garajlarda is gazi bilan zaharlanish ko'p sodir bo'ladi.


Is gazi bilan zaharlanishda bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, nafas qisishi, miya chalg'ishi, teri olcha rangiga kirishi kabi alomatlar bo'lishi mumkin. Is gazining uzoq vaqt va bevosita ta'siri o'limga olib kelishi mumkin.

Is gazi bilan zaharlanganda shoshilinch tibbiy yordam xizmatini zudlik bilan chaqirish va jabrlanuvchini zaharlanish zonasidan toza havoga olib chiqish lozim.

Elektr asboblardan noto'g'ri foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida **elektr toki urishi** hodisasi sodir bo'lishi mumkin.

Elektr toki urgan kishiga yordam berishda, dastavval, uni elektr toki ta'siridan qutqarish kerak, chunki tok urgan kishi hushidan ketgan bo'lishi yoki yuqori kuchlanishli elektr simidan o'zini uzib olishga majoli yetmasligi mumkin. Bunday hollarda elektr manbayini o'chirish, buning iloji bo'lmasa quruq yog'och tayoq bilan simni yoki quruq arqon bilan shikastlangan kishini tortib olish kerak.

Qutqaruvchi kishi hech qachon tok urgan kishining ochiq badaniga qo'l tekkizmasligi zarur, u qo'lga quruq gazlama o'rab olishi, oyog'ini quruq taxta ustiga qo'yishi, oyog'iga rezina poyabzal kiyishi lozim (8-rasm).



**8-rasm. Kishini elektr toki ta'siridan qutqarish**

Agar tok urgan odam hushidan ketgan bo'lsa, tezlikda «og'izdan og'izga» usulida sun'iy nafas oldirish va yuragini uqalash kerak. Shikastlangan odam o'z holicha nafas olguncha yoki haqiqiy o'lim alomatleri sodir bo'lgunga qadar sun'iy nafas oldirishni davom ettirish kerak.

Badanning tok tegib yaralangan joyiga quruq sterillangan bog'lam qo'yish lozim. Agar tok urgan odam hushidan ketmagan bo'lsa, osmonga qaratib, oyoqlarini yerdan 30 sm ko'tarib yoki yonboshi bilan boshini biroz ko'tarib yotqiziladi. Elektr tokidan kuyganda sovuq suvdan foydalanmang va tezlikda tez tibbiy yordam xizmatini chaqiring. Tok urgan kishini yerga ko'mish aslo yaramaydi. Tok urgan kishida tabiiy nafas paydo bo'lganida, tuproq siqib turganligi tufayli u ko'kragini kerolmaydi va oqibatda nobud bo'ladi.

**Yashin tushishi** mavsumiy hodisa bo'lib, erta bahor oylarida ob-havoning keskin o'zgarishi, qattiq momaqaldiroq bilan chaqmoq chaqishi vaqtida paydo bo'ladi. Bu ob-havodagi elektromagnit xususiyat bo'lib, asosan, bu vaqtda qisqa to'qnashuv orqali tabiiy yong'in sodir bo'lishi mumkin.

Yashin urishining oldini olish uchun momaqaldiroq paytida derazalarni yopish, antennali radiopriyomniklarni o'chirib qo'yish kerak. Dalada yolg'iz turgan yoki boshqa daraxtlardan baland bo'lgan daraxt tagiga yashirinmaslik kerak.

### **Jarohatlanganda va baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari**

Tayanch-harakat tizimi suyak, muskul, pay va bo'g'inlardan iborat bo'lib, ularning barchasi birgalikda bir qancha funksiyalarni bajaradi. Jumladan, tanaga tayanch bo'lib xizmat qiladi, ichki organlarni himoyalaydi, mineral moddalar saqlanadigan joy bo'lib xizmat qiladi hamda qon to'qimalarini, issiqlikni hosil qiladi, harakatlantirishda qatnashadi.

Tayanch-harakat apparatining shikastlanishi keng tarqalgan holdir. Ular odatdagi ko'karishdan tortib, og'ir azob beruvchi sinish va chiqishgacha bo'lgan noxush holatlarni o'z ichiga oladi.


Skelet turli shakl va katta-kichiklikdagi 206 ta suyakdan iborat bo'lib, tana shakllanadigan qovurg'ani tashkil qiladi. Skelet hayotiy muhim ichki organlar va yumshoq to'qimalarni ehtiyot qiladi.

Shikastlangan odamni suvdan, vayronalar ostidan olib chiqishda umurtqa pog‘onasining shikastlanishidan ehtiyot bo‘lish kerak. Umurtqa pog‘onasi shikastlangan bo‘lsa, shikastlanuvchini qo‘zg‘atmaslik va boshini egmaslik kerak. Doimo nafas olish yo‘llarining o‘tkazuvchanligini tekshirib turish va reanimatsiya tadbirlarini o‘tkazishga tayyor turish kerak.

Shikastlanuvchida sinish alomatlarini (a‘zolarining deformatsiyasi, ular harakatchanligining keskin chegaralanishi, deformatsiyalangan joyda kasallikning namoyon bo‘lishi, suyak siniqlarining yaraga kirib qolishi) aniqlagan bo‘lsangiz, og‘riqni qoldirish, qo‘l ostidagi materiallardan taxtakachlash tadbirlarini amalga oshirish lozim.

**Suyak sinishi** — qattiq zarb tegishi, yiqilish, o‘q tegishi va hokazolar natijasida biror suyak butunligining buzilishidir. Shikastlangan suyakning ma‘lum nuqtasida og‘riq paydo bo‘lib, atrofidagi yumshoq to‘qimalarga qon quyiladi va shishadi, shikastlangan qo‘l yoki oyoq shakli va harakatlari o‘zgaradi, ba‘zan singan suyak bo‘laktari qisirlaydi. Qovurg‘a sinishining tavsifli belgisi esa chuqur nafas olganda va yo‘talganda og‘riq turishidir.

Suyak sinishi yopiq va ochiq bo‘ladi. Singan suyakni o‘rniga qo‘yishga urinish, ya‘ni suyak yopiq singanda o‘zgargan oyoq yoki qo‘l shaklini to‘g‘rilashga, ochiq singanda esa chiqib turgan suyakni o‘rniga solib qo‘yishga harakat qilish mutlaqo yaramaydi. Shikastlangan odamni iloji boricha tezroq davolash muassasasiga yetkazib borish zarur. Qanday suyak sinmasin, birinchi galda uni qimirlamaydigan qilib bog‘lab qo‘yish kerak, chunki uning ozgina surilishi ham qattiq og‘riqqa sabab bo‘lishi, singan suyak bo‘lagi terini teshib chiqishi, qon tomirlarini shikastlab, qon ketishiga olib kelishi mumkin (9-rasm).



**9-rasm. Suyak singanda birinchi tibbiy yordam**

Suyak singan joyga har qanday qattiq narsa (yog‘och, metall, plastmassa) dan darrov taxtakach qo‘yish lozim. Hassa, soyabon, tayoq, taxta, chizg‘ich va boshqalar taxtakach bo‘lishi mumkin. Taxtakach singan qo‘l yoki oyoqqa bir necha joyidan, yaxshisi bint bilan, bint bo‘lmasa kamar, gazlama, tizimcha va boshqalar bilan bog‘lab qo‘yiladi. Taxtakach singan joyning yuqori va pastidagi ikkita bo‘g‘im ustidan oshib turadigan uzunlikda bo‘lishi lozim. Masalan, son suyagi singan bo‘lsa, chanoq-son bo‘g‘imlaridan oshib turishi kerak. Taxtakach qilishga hech narsa bo‘lmasa, shikastlangan oyoqni sog‘ oyoqqa bog‘lab qo‘yish mumkin. Yelka suyagi singanda shikastlangan qo‘lni uzatilgan holicha gavgavda bog‘lab qo‘ysa bo‘ladi.

Suyak ochiq sinib, suyak singan joyda jarohat ham bo‘lsa, uning atrofidagi teriga yod nastoykasi surtib, jarohatga toza paxta-doka bog‘lamidan qo‘yib bog‘lash lozim. Buning uchun kiyimni yechish kerak bo‘lsa, uni avval sog‘ qo‘l yoki oyoqdan, keyin esa shikastlanganidan yechib olinadi.

### ***Nazorat savollari***

1. Ichki mehnat tartib-qoidalari deganda nimani tushunasiz?
2. Ichki mehnat tartibining qoidalari qaysi me‘yoriy hujjatlar asosida tuziladi?
3. Ishga kirish huquqidan necha yoshga to‘lgan shaxslar foydalanadilar?
4. Qaysi hollarda ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi?
5. Qaysi hollarda muddatli mehnat shartnomalari tuzilishi mumkin?
6. Qon ketishini to‘xtatishda qanday choralarni ko‘rish lozim?
7. Cho‘kayotgan odamga yordam ko‘rsatishning qanday usullari bor?
8. Terining jarohat olgan qismiga qarab kuyish nechta darajaga ajratiladi?
9. Sovuq urishining nechta darajasi bor?



## **8-BOB. YONG‘IN VA ELEKTR XAVFSIZLIGI QOIDALARI**

### **8.1. Yong‘in va elektr xavfsizligi qoidalarini bilan tanishtirish, ular sodir bo‘lganda bartaraf etish choralarini ko‘rish**

#### **Muassasada yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish ishlari**

##### **Yonish quyidagi turlarga bo‘linadi:**

1. Yonuvchi aralashmaning bir lahzada yonib, o‘chishi.
2. Qizdirish natijasida yonishning vujudga kelishi.
3. Uchqunlanish natijasida alangaga aylanishi.
4. Organik moddalar ichida ro‘y beradigan ekzotermik reaksiyalar natijasida, yonuvchi aralashmaning tashqaridan qizdirishsiz o‘z-o‘zidan yonib ketishi.
5. O‘z-o‘zidan alangalanish, o‘z-o‘zidan yonishning alanga bilan davom etishi.
6. Portlash — kimyoviy jarayonning bosim va quvvat hosil qilish bilan o‘tishi.

Har bir tashkilot uchun mo‘ljallangan bino loyihalanayotgan vaqtda kishilarni u yerdan o‘z vaqtida chiqarib yuborish — evakuatsiya yo‘llari bilan ta‘minlanadi.

Har qanday yong‘inni o‘chirganda uning kuchayishiga olib kelmaydigan omillarni va sharoitni aniqlash muhimdir. Yonishning davom etishini to‘xtatuvchi sharoit yaratish katta ahamiyatga ega.

##### **O‘t o‘chirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:**

1. Yonayotgan joyni ko‘p miqdorda issiqlik yutuvchi materiallar yordamida sovitish.
2. Yonayotgan materialni atmosfera havosidan ajratib qo‘yish.
3. Yonayotgan joyga kirayotgan havo tarkibidagi kislorod miqdorini kamaytirish.
4. Maxsus kimyoviy vositalarni qo‘llash.

O‘t o‘chirish vositalari sifatida suv, suv bug‘lari, kimyoviy va mexanik ko‘piklar, inert va yonmaydigan gazlar, qattiq yoki kukunsimon materiallar, maxsus kimyoviy moddalar va aralashmalardan foydalaniladi.



**10-rasm. O‘t o‘chirish vositalari**

### **O‘t o‘chirish vositalari**

Suv, suv bug‘i, inert gazlar, karbonat angidrid, ko‘pik, yopqich (namat) va qum asosiy o‘t o‘chirish vositalari hisoblanadi. Qurilishda asosiy ishlar boshlanishidan oldin yo‘llar bo‘ylab 100 mm oraliqda va bino devorlaridan ko‘pi bilan 5 m uzoqlikda yopiq quduqlarga yong‘in gidrantlari o‘rnatiladi. Ikkitadan lom, bolta, belkurak, changak, chelak, o‘t o‘chirgich joylashtiriladi (10-rasm). Yong‘in shchitlari o‘rnatilib, yoniga qumli yashik, gidropult-chelak qo‘yiladi va ular qizil rangga bo‘yab qo‘yiladi. Bularning hammasi birlamchi o‘t o‘chirish vositalari hisoblanadi. Agar suv quvuri bo‘lmasa, quriladigan inshootlardan ko‘pi bilan 200 m masofada muvaqqat yong‘in suv havzalari quriladi. O‘t o‘chirish jihozlari benuqson holatda bo‘lishi, ularga kelinadigan yo‘llar esa bo‘sh qoldirilishi kerak. Yong‘inni o‘chirishda OBP-5, OXBP-10, OP-1, OY-2, OY-6, OY-8 o‘t o‘chirgichlardan foydalaniladi. Oson alanganadigan va yonuvchi suyuqliklarni o‘chirish uchun ЖБП-600, 2000, ЖПЦ-600 va ЖПЦ-2000 ko‘pik generatorlari bilan hosil qilinadigan kimyoviy va havo-mexanik o‘t o‘chirish ko‘piklari ishlatiladi. Ko‘pik generatorlari daqiqaga 1200 / ko‘pik hosil qiladi. Har qaysi qavatga 250 l suv ketadigan bochka, ikkita chelak, qumli yashik va belkurak qo‘yiladi.

O‘t o‘chiruvchi qismlarda mashinalar: avtosisternalar va suvni 150 — 200 m gacha otadigan avtonasoslar bo‘ladi.

### **Yong‘inning oldini olish**

Yong‘in maxsus manbadan tashqarida bo‘ladigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish bo‘lib, juda katta moddiy zarar yetkazadi.

Yong'in chiqishiga, asosan, olovdan noto'g'ri foydalanish; elektr uskunalarini, pechlarni, tutun quvurlarini montaj qilish va ishlatish qoidalarining buzilishi; xalq xo'jaligi obyektlarini loyihalash va qurishda yong'in xavfsizligi me'yorlari talablarining buzilishi; yong'in jihatidan xavfli jihozlarni ishlatishda va oson alangalanadigan materiallardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik; bolalarning olov bilan o'ynashi; momaqaldiroq razryadlari sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonlari shunday tuzilishi kerakki, yong'in-portlash jihatidan xavfli har qanday uchastkada yil davomida yong'in chiqish ehtimoli bir kishi hisobiga 0,000001 yildan oshmaydigan bo'lsin. Obyektlarda yong'in xavfsizligi yong'indan saqlash tizimi, yong'in va portlashlarning oldini olish tizimi bilan ta'minlanadi. Bu tizimlar kapital ajratmalar va joriy xarajatlardan iborat bo'ladi. Yong'inning oldini olish va yong'indan saqlash tizimlari yong'inning ochiq alanga va uchqunlar, havo, buyumlarning yuqori harorati, zaharli yonish mahsullari, tutun, kislorodning kamayib ketishi, bino hamda inshootlarning qulashi va shikastlanishi, portlash kabi omillarning odamlarga ta'sirining oldini olishi kerak. Bu vazifalarni hal etish uchun yong'in-portlash jihatidan xavfli modda va materiallar o'rniga yonmaydigan hamda qiyin yonadigan material va moddalardan iloji boricha ko'p foydalanish, yonuvchi muhitni izolatsiyalash (texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, germetiklash va hokazo), yong'inning yonish manbayidan atrofga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, o't o'chirish vositalari, jamoa hamda individual himoya vositalari, signalizatsiya va yong'in haqida xabar berish vositalaridan foydalanish, yong'in chiqqanda odamlarni evakuatsiya qilish tizimini to'g'ri tashkil etish, obyektlarni yong'indan qo'riqlash zarur.

### **Binolarda yong'in chiqishining oldini olish**

Bino yoki inshootning o'tga chidamliligi ularning quyidagi asosiy qismlari: yong'inga qarshi devorlar (brandmauerlar), ko'tarib turuvchi va o'zini o'zi ko'tarib turuvchi devorlar, zina kataklari devorlari, o'rnatma panel devorlari, karkas devorlar, ko'taruvchi pardevorlar, qavatlararo va chordoq yopmalari hamda tomlarning o'tga chidamliligi bilan belgilanadi. Turar joylarda chiqadigan yong'inlar katta moddiy zarar yetkazadi va umumiy yong'inlar

miqdorining 50% ini tashkil etadi. Uylarda (binolarda) yong'in chiqishiga, asosan, elektr va gaz jihozlaridan, sanoat hamda uy-ro'zg'or uskunalaridan foydalanish qoidalarining buzilishi va boshqalar sabab bo'ladi.

Turar joy binolarining o'tga chidamlilik darajasi bino qavatlarining soni va maydoniga bog'liq. Ko'p qavatli ancha uzun binolarda binoni bo'limlarga ajratadigan yong'inga qarshi devor sifatida ko'ndalang devorlar va seksiyalararo devorlardan foydalaniladi. Odam yashamaydigan xonalar o'tga chidamlilik chegarasi 0,75 soat bo'lgan devor va orayopmalar bilan ajratiladi. Yerto'la va sokol qavatlariga odam yashaydigan xonalar joylashtirilmaydi, u yerga bitta xonadon (kvartira) hisobiga ko'pi bilan 3 m<sup>2</sup> dan xo'jalik ombori hamda o'tinxona joylashtirilishi mumkin. O'tga chidamliligi III darajada bo'lgan binolarning yerto'la va sokol qavatlari ustiga yonmaydigan (o'tga chidamlilik chegarasi kamida 1 soat), bir va ikki qavatli uylarda esa qiyin yonadigan (o'tga chidamlilik chegarasi kamida 0,75 soat) orayopmalar o'rnatiladi. Yerto'ladan chiqish joylari tashqaridan yoki alohida bo'ladi.

Yerto'la qavatining balandligi 1,6 — 1,9 m bo'lganida, ulardan muhandislik kommunikatsiyalarini joylashtirish uchun foydalaniladi. Axlal tashlanadigan kameralar birinchi qavatga yoki sokol qavatiga yonmaydigan qilib quriladi (o'tga chidamlilik chegarasi kamida 1 soat). Ularga kirish joyi, umumiy kirish joylari ajratilgan bo'ladi. Keyingi vaqtlarda chordoqsiz yopmalar keng tarqalmoqda. Bunda yong'in xavfi kamayadi. Chordoqlarning yog'och konstruksiyalariga o'tdan himoyalovchi tarkiblar bilan ishlov berilishi, dudbo'ronlar esa oqlab qo'yilishi kerak. Barcha dudbo'ron va ventilatsiya kanallari tomdan yuqoriga chiqariladi. Kvartallar orasidagi mashinalar yuradigan yo'llar va binolarga kelish yo'llari biri-biridan ko'pi bilan 300 m (erkin rejalashtirishda) va 180 m (perimetral qurishda) oraliqda quriladi. Yong'inga qarshi ichki suv quvuri tarmoqlari 12 qavatli va undan baland kvartira tipidagi uylarga hamda 4 qavatli va undan baland yotoqxona va mehmonxona binolariga quriladi. Binolarda zina kataklari orqali kamida 90 m oralatib ikkala tomoni ochiq yo'llar qilinadi.

### **Bilib qo'ygani yaxshi**

1. Muassasaning har bir xodimi yong'in xavfsizligi qoidalarini bilishi shart va unga qat'iy amal qilishi kerak.

2. Muassasada yong‘inga qarshi tartibga amal qilish mas‘uliyati buyruq asosida yong‘inning oldini olish ishlari bo‘yicha mas‘ul shaxs zimmasiga yuklatiladi.

3. Yong‘inga qarshi yo‘riqnoma bilan tanishtirilmagan xodimlar ishga qo‘yilmaydi.

4. Yong‘inni o‘chirish vositalari toza va yaroqli holda saqlanishi kerak.

5. Yong‘inni o‘chirish vositalaridan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish man etiladi.

6. Ma‘muriyat yong‘inni o‘chirish vositalari bilan ta‘minlash ishlariga mas‘ul.

7. Muassasa hududi va binolarda barcha axlat va chiqindilar o‘z vaqtida olib ketilishi, binolarga doimo erkin kirib borilishi ta‘minlanishi kerak.

8. O‘quv yili boshlanishidan oldini yong‘in xavfsizligi tashkilotidan ruxsatnoma olinishi kerak.

9. Evakuatsiya vaqtida binodan chiqishda hamma eshiklarning qulflari oson ochilishi kerak.

10. Bino chordoqlari toza saqlanishi va qulflanishi kerak.

11. Elektr isitgich asboblardan foydalanish bo‘yicha mas‘ul shaxs tayinlanishi kerak.

12. Elektr isitgich, ulagichlar, rozetkalar, elektr simlari yaroqliligini har kuni tekshirib turish kerak.

13. Elektr asboblarni tarmoqqa ulangan holda qoldirish man etiladi.

14. Tungi navbatchilar (qorovullar) navbatchilikka kirishganda yong‘inni o‘chiruvchi asboblarning borligini, telefon aloqaning butunligini, chiqiladigan eshiklarning oson ochilishini, binoni tekshirib chiqib qabul qilib olishlari kerak.

15. Navbatchi xodimning uxlashi, shuningdek, muassasani tark etishi man etiladi.

16. Navbatchi binoning qanday joylashganini bilishi, yong‘in chiqqan holda evakuatsiya rejasiga ko‘ra ish ko‘ra olishi kerak.

17. Muassasadagi barcha xavfsizlik ishiga rahbar birinchi javobgar shaxsdir.

## **Elektr xavfsizligi**

Sanoatda elektr energiyasidan keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yilganligi sababli elektr toki ta‘sirida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalar va ulardan saqlanish muhim masalalar qatoriga kirib bormoqda. Elektr toki ta‘sirining eng xavfli tomoni shundaki, bu xavfni oldinroq sezish imkoniyati yo‘q.

Shuning uchun ham elektr toki xavfiga qarshi tashkiliy va texnik chora-tadbirlar belgilash, to‘siq vositalari bilan ta‘minlash, shaxsiy va jamoa muhofaza tizimlarini o‘rnatish nihoyatda muhim.

Umuman elektr toki ta‘siri faqat birgina biologik ta‘sir bilan chegaralanib qolmasdan, balki elektr yoyi ta‘siri, magnit maydoni ta‘siri va statik elektr ta‘siriga bo‘linadiki, ularni bilish har bir kishi uchun kerakli va zaruriy ma‘lumotlar jumlasiga kiradi.

### **Elektr tokining inson organizmiga ta‘siri**

Elektr tokidan inson organizmida termik (ya‘ni issiqlik), elektrolitik va biologik ta‘sir kuzatiladi.

Elektr tokining termik ta‘siri inson tanasining ba‘zi joylarida kuyish, qon tomirlari, nerv va hujayralarning qizishi sifatida kuzatiladi. Elektrolitik ta‘sir deganda, qon tarkibidagi yoki hujayralar tarkibidagi tuzlarning parchalanishi natijasida qonning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladigan holat tushuniladi. Bunda elektr toki markaziy asab tizimi va yurak-qon tizimini kesib o‘tmasdan, tananing ba‘zi bir qismlarigagina ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Elektr tokining biologik ta‘siri tirik organizm uchun xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi. Bu ta‘sir natijasida muskullarning keskin qisqarishi tufayli inson organizmidagi tirik hujayralar to‘lqinlanadi, bunda, asosan, organizmdagi bioelektrik jarayonlar buziladi. Ya‘ni inson organizmi, asosan, bioelektrik toklar yordamida boshqariladi. Bunda tashqi muhitdan yuqori kuchlanishdagi elektr tokining ta‘siri natijasida biotoklar rejimi buziladi va oqibatda inson organizmida tok urish holati vujudga keladi. Ya‘ni boshqarilmay qolgan organizmda hayot faoliyatining ba‘zi bir funksiyalari bajarilmay qoladi, nafas olishning yomonlashuvi, qon aylanish tizimining ishlamay qolishi va h.k. kuzatiladi.

Elektr tokining inson organizmiga ta'sirining xilma-xilligidan kelib chiqib, uni ikki guruhga bo'lib qarash mumkin: mahalliy elektr ta'siri va tok urishi.

Mahalliy elektr ta'siri natijasida kuyib qolish, elektr belgilari hosil bo'lishi, terining metallashib qolishi hollarini ko'rsatish mumkin. Elektr ta'siridan kuyish, asosan, organizm bilan elektr o'tkazgichi o'rtasida volta yoyi hosil bo'lganda sodir bo'ladi. Elektr o'tkazgichdagi kuchlanishning ta'siriga qarab bunday kuyish turlicha bo'lishi mumkin. Yengil kuyish faqat yallig'lanish bilan chegaralanadi, o'rtacha og'irlikdagi kuyishda pufakchalar hosil bo'ladi va og'ir kuyish — hujayra va terilar ko'mirga aylanib, og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Elektr belgilari — bu terining ustki qismida aniq kulrang yoki och-sarg'ish rangli 1 — 5 mm diametrdagi belgi paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Bunday belgilar, odatda, xavfli emas. Terining metallashib qolishida, odatda, erib mayda zarrachalarga parchalanib ketgan metall teri ichiga kirib qoladi. Bu holat ham elektr yoyi hosil bo'lganda ro'y beradi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin bu teri ko'chib tushib ketadi va hech qanday asorat qoldirmaydi.

Elektr urishi (yoki tok urishi deb ham yuritiladi) to'rt darajaga bo'lib qaraladi:

*I daraja* — muskullar keskin qisqarishi natijasida odam tok ta'siridan chiqib ketadi va hushini yo'qotmaydi.

*II daraja* — muskullar keskin qisqarishi natijasida odam hushini yo'qotadi, ammo yurak va nafas olish faoliyati ishlab turadi.

*III daraja* — hushini yo'qotib, nafas olish tizimi yoki yurak urishi to'xtab qoladi.

*IV daraja* — klinik o'lim holati, bunda insonda hech qanday hayot alomatlari ko'rinmay qoladi.

Klinik o'lim holati bu hayot bilan o'lim oralig'i bo'lib, ma'lum vaqtgacha inson ichki imkoniyatlar hisobiga yashab turadi. Bu vaqtda unda hayot belgilari: ya'ni nafas olish, qon aylanish bo'lmaydi, tashqi ta'sirlarga farqsiz bo'ladi, og'riq sezmaydi, ko'z qorachig'i kengayadi va yorug'likni sezmaydi. Ammo bu davrda hali undagi hayot butunlay so'nmagan, hujayralarda ma'lum modda almashinuvi jarayonlari davom etadi va bu organizmning minimal hayot faoliyatini davom ettirishiga yetarli bo'ladi. Buning uchun tashqi ta'sir natijasida hayot faoliyatini yo'qotgan organizmning ba'zi bir

qismlarini tiklash natijasida, uni hayotga qaytarish imkoniyati bor. Klinik o'lim holati 5 — 8 daqiqa davom etadi. Hech qanday yordam bo'lmagan taqdirda avval bosh miya qobig'idagi hujayralar parchalanadi va klinik o'lim holati biologik o'lim holatiga o'tadi.

Biologik o'lim qaytarib bo'lmaydigan jarayon bo'lib, organizmdagi biologik jarayonlar butunlay to'xtashi bilan xarakterlanadi, shuningdek, organizmdagi oqsil parchalanadi. Bu klinik o'lim vaqti tugagandan keyin ro'y beradi. Tokning inson organizmiga ta'siri bir necha omillarga bog'liq. Asosiy omillardan biri insonga tok ta'sirining davomligi, ya'ni odam tok ta'sirida qancha ko'p qolib ketsa, u shuncha ko'p zararlanadi. Ikkinchi omil sifatida odam organizmining shaxsiy xususiyatlari va, shuningdek, tokning turi va chastotasi katta rol o'ynaydi.

Inson organizmining tok ta'siriga ma'lum qarshiligi, shuningdek, tokning kuchlanishi ma'lum ta'sir darajasini belgilaydi, chunki inson organizmining qarshiligi o'zgarmagan holda, kuchlanish ko'payishi natijasida organizmdan oqib o'tgan tok miqdori oshib ketadi.

Inson organizmining qarshiligi teri qarshiligi va ichki organlar qarshiliklari yig'indisi sifatida olinadi.

Teri, asosan, quruq va o'lik hujayralarning qattiq qatlamlaridan tashkil topganligi sababli katta qarshilikka ega va u umuman inson organizmining qarshiligini ifodalaydi.

Organizm ichki organlarining qarshiligi uncha katta emas. Odamning quruq, zararlanmagan terisi 2000 dan 20000 Om gacha va undan yuqori qarshilikka ega bo'lgani holda, namlangan, zararlangan teri qarshiligi 40 — 5000 Om qarshilikka ega bo'ladi va bu qarshilik inson ichki a'zolari qarshiligiga teng hisoblanadi. Aytilganlarni hisobga olgan holda, umuman, texnik hisoblar uchun inson organizmi qarshiligi 1000 Om deb qabul qilingan.

Inson organizmi orqali oqib o'tgan tokning miqdori uning asoratini belgilaydi, ya'ni oqib o'tgan tok qancha katta bo'lsa, uning asorati ham shuncha katta bo'ladi.

Inson organizmi orqali 50 Hz li sanoat elektr tokining 0,6 — 1,5 mA oqib o'tsa, buni u sezadi va bu miqdordagi tok sezish chegarasidagi elektr toki deb ataladi.

Agar inson organizmidan oqib o'tgan tokning miqdori 10 — 15 mA ga yetsa, unda organizmdagi muskullar tartibsiz qisqarib,



inson o'z organizmi qismlarini boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'ladi, ya'ni elektr toki bo'lgan simni ushlab turgan bo'lsa, panjalarini ocha olmaydi, shuningdek, unga ta'sir ko'rsatayotgan elektr simini olib tashlay olmaydi. Bunday tok chegara miqdordagi ushlab qoluvchi tok deyiladi. Tok miqdori 25 — 50 mA ga yetsa, unda tok ta'siri ko'krak qafasiga ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida nafas olish qiyinlashadi. Tok ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ya'ni bir necha daqiqaga cho'zilsa, unda nafas olishning to'xtab qolishi natijasida odam o'lishi mumkin. Tok miqdori 100 mA va undan ortiq bo'lsa, bunday tok yurak muskullariga ta'sir ko'rsatadi va yurakning ishlash ritmi buziladi, natijada qon aylanish tizimi butunlay ishdan chiqadi va bu holat ham o'limga olib keladi. Inson organizmi orqali oqib o'tgan tokning davomlilik ham alohida ahamiyatga ega, chunki tok ta'siri uzoq davom etsa, unda inson organizmining tok o'tkazuvchanligi orta boradi va tokning zararli ta'siri organizmda yig'ila borishi natijasida asorat og'irlasha boradi. Tokning turi va chastotasi ham zararli ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Eng zararli tok 20 — 100 Hz atrofidagi elektr toki hisoblanadi. Chastotasi 20 Hz dan kichik va 100 Hz dan katta toklarning ta'sir darajasi kamayadi. Katta chastotadagi elektr toklarida tok urish bo'lmaydi, lekin kuydirishi mumkin. Agar tok o'zgaras bo'lsa, unda tokning sezish chegarasidagi miqdori 6 — 7 mA, ushlab qoluvchi chegara miqdori 50 — 70 mA, 0,5 soniya davomida yurak faoliyatini ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan miqdori 300 mA gacha ortadi.


### **Odamlarning elektr tokidan shikastlanishining asosiy sabablari**

Odamlarning elektr tokidan shikastlanishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Kuchlanish ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismlarga tasodifan tegib ketish tok o'tkazuvchi qismlarda kuchlanish borligini bilmay qolganda yuz berishi mumkin.

2. Elektr qurilmasining odatdagi sharoitda kuchlanish ostida bo'lmaydigan, ammo tasodifan kuchlanish ostida qolgan metall qismlariga tegib ketganda.

3. Odam turgan yer qadam kuchlanishining paydo bo'lishi. Bu hol simning yerga tutashib qolishi, potensial chiqib ketishi, himoyalovchi yerga ulash uskunasining, nollash simining buzilganligi va boshqa sabablar tufayli yuz beradi.



**11-rasm. Elektr simiga ikki fazada tegib ketish**

Odamning tok zanjiriga ulanib qolish sxemasi turlicha bo‘lishi mumkin. Birinchi sxema, odatda, ikki fazaga tegib ketish; ikkinchi sxema esa bir fazaga tegib ketish. Ikki fazaga tegib ketish (11-rasm), odatda, xavfliroqdir, chunki bunda odam tanasiga ushbu tarmoqdagi eng katta kuchlanish — liniya kuchlanishi ta’sir qiladi va shu sababli odam orqali eng katta qiymatli tok o’tadi.

### **Elektr toki ta’siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko’rsatish**

Elektr toki ta’siriga tushgan kishiga tibbiyot xodimi kelgunga qadar ko’rsatiladigan yordam ikki qismga bo‘lib qaraladi: tok ta’siridan qutqarish va birinchi yordam ko’rsatish. Tok ta’siridan qutqarish, o‘z navbatida, bir necha xil bo‘lishi mumkin. Eng oson va qulay usuli bu elektr qurilmasining o’sha qismiga kelayotgan tokni o’chirishdir. Agar buning iloji bo‘lmasa (masalan, o’chirish qurilmasi uzoqda bo‘lsa), unda tok kuchlanishi 1000 V dan ko‘p bo‘lmagan elektr qurilmalarida elektr simlarini sopi yog‘ochdan bo‘lgan boltalar bilan kesish yoki zararlangan kishining kiyimi quruq bo‘lsa, uning kiyimidan tortib tok ta’siridan qutqarib qolish mumkin. Agar elektr tokining kuchlanishi 1000 V dan ortiq bo‘lsa, unda dielektrik qo‘lqop va elektr izolatsiyasi mustahkam bo‘lgan elektr asboblardan foydalanish kerak. Elektr ta’siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko’rsatish

uning holatiga qarab belgilanadi. Agar ta'sirlangan kishi hushini yo'qotmagan bo'lsa, uning tinchligini ta'minlab, shifokor kelishini kutish yoki uni tezda davolash muassasasiga olib borish zarur.

Agar tok ta'sirida hushini yo'qotgan, ammo nafas olishi va yurak tizimi ishlayotgan bo'lsa, unda uni quruq va qulay joyga yotqizish, kamari va yoqasini bo'shatish va sof havo kelishini ta'minlash zarur. Novshadil spirti hidlatish, yuziga suv purkash, tanasini va qo'llarini ishqalash yaxshi natija beradi.


Agar jarohatlangan kishining nafas olishi qiyinlashsa, qaltirash holati bo'lsa, ammo yurak urish ritmi nisbatan yaxshi bo'lsa, unda bu kishiga sun'iy nafas oldirish ishlarini bajarish zarur.

Klinik o'lim holati yuz bergan taqdirda sun'iy nafas oldirish bilan bir qatorda yurakni ustki tomondan massaj qilish kerak.

Sun'iy nafas oldirish jarohatlangan kishini tok ta'siridan qutqarib olish, uning holatini aniqlash bilanoq boshlanishi kerak. «Og'izdan og'izga» usuli bilan sun'iy nafas oldirish uchun yordam ko'rsatuvchi kishi o'z o'pkasini havoga to'ldirib, jarohatlangan kishi og'zi orqali uning o'pkasiga havoni haydaydi. Odam o'pkasidan chiqqan havo, ikkinchi odam o'pkasi ishlashi uchun yetarli miqdorda kislorodga ega bo'lishi aniqlangan. Bu usulda jarohatlangan kishi chalqancha yotqiziladi, og'zini ochib begona narsalardan tozalanadi. Havo o'tish yo'lini ochish uchun boshini bir qo'li bilan peshana aralash ko'tariladi, ikkinchi qo'l bilan dahanidan tortib, dahanini bo'yni bilan taxminan bir chiziqqa keltiriladi (12-rasm). Shundan keyin ko'krak qafasini to'ldirib nafas olib, kuch bilan bu havoni jarohatlangan kishi og'zi orqali puflanadi. Bunda yordam ko'rsatayotgan kishi og'zi bilan jarohatlangan kishining og'zini butunlay berkitishi va yuzi yoki panjalari yordamida uning burnini berkitish kerak.

Shundan keyin yordam ko'rsatuvchi boshini ko'tarib yana o'pkasini havoga to'ldiradi. Bu vaqtda jarohatlangan kishi passiv ravishda nafas chiqaradi.

Bir daqiqada taxminan 10 – 12 marta puflashni doka, dastro'mol va trubka orqali ham bajarish mumkin. Jarohatlangan kishi mustaqil nafas olishini tiklagan taqdirda ham, sun'iy nafas oldirishni jarohatlangan kishi o'ziga kelguncha davom ettiriladi.



**12-rasm. Elektr toki ta'siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko'rsatish**

Yurakni tashqaridan massaj qilish jarohatlangan kishi organizmidagi qon aylanishni sun'iy ravishda tiklab turish maqsadida amalga oshiriladi.

Qorin bo'shlig'idan ko'krak qafasiga o'tgandan keyin 2 barmoq yuqoridan massaj qilinadigan joyni belgilab, qo'lni bir-biri ustiga to'g'ri burchak shaklida qo'yib, jarohatlangan kishi ko'krak qafasi tana og'irligi bilan 15 — 25 kg miqdordagi kuch bilan bosiladi.

Bosish sekundiga 1 marta keskin kuch bilan bo'lishi kerak. Bunda ko'krak qafasi ichkariga qarab 3 — 4 sm pasayishi kerak va bu yurak urishi ritmiga moslab davom ettiriladi.

Massaj qilish sun'iy nafas oldirish bilan birgalikda olib borilishi kerak. Agar yordam ko'rsatayotgan kishi bir o'zi bo'lsa, har ikki marta puflagandan keyin 15 marta ko'krak qafasini bosishi kerak. Jarohatlangan kishining yurak urishi mustaqil bo'lganligini uning pulsi tekshirib bilinadi. Buning uchun yuqoridagi vazifalarni 2 — 3 soniyaga to'xtatib, tomir urishi sinab ko'riladi.

### **Elektr tokidan jarohatlanishning oldini olishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar**

1. Kuchlanish ostida bo'lgan o'tkazgichlarni qo'l yetmaydigan qilib o'tkazish.
2. Elektr tarmoqlarini alohida joylashtirish.

3. Elektr qurilmalari korpusida elektr tokining hosil bo'lishiga qarshi xavfsizlik chora-tadbirlarini belgilash:

- a) kam kuchlanishga ega bo'lgan elektrlardan foydalanish;
- b) ikki qavatli muhofaza qobiqlari bilan ta'minlanish;
- d) potentsiallarini tenglashtirish;
- e) yerga ulab muhofazalash;
- f) nol simga ulab muhofazalash;
- g) muhofaza o'tish qurilmalaridan foydalanish.

4. Maxsus elektr muhofazalash tizimlaridan foydalanish.

5. Elektr qurilmalarini xavfsiz ishlatishning tashkiliy choralarini ko'rish.

### **Bilib qo'ygan yaxshi**

1. Ishlab chiqarish xodimlari, texnika xavfsizligi bo'yicha o'qitilishi va maxsus attestatsiyadan o'tkazilishi va elektr qurilmalar hamda elektr uskunalari bilan ishlashda, ulardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha tegishli yo'riqnomani muassasa rahbariyatidan olishi kerak.

2. Bolalar muassasalari binolari, suvoqlari, shiplarini muntazam texnik ko'rikdan o'tkazib turish, to'siq, pol, zinapoya, deraza romlari, elektr armatura, sanitariya-texnik qurilmalarning pishiq-mustahkamligini tekshirish, suv quvurlar, kanalizatsiya, o't o'chirish asboblarning yaroqliligini, ularning ishlash muddatini kuzatib, nosozliklarning oldini olish, muassasa rahbariyati xavfsizlik choralarini ko'rish shart.

3. Bolalar muassasalarida texnika xavfsizligi ishlariga birinchi mas'ul shaxs muassasa rahbaridir. Har bir bolaning sog'lig'iga ziyon yetmasligi uchun shu bolalar bilan ishlaydigan xodimlar muassasa rahbariyati tomonidan o'qitilishi va attestatsiyadan o'tkazilib turilishlari lozim.

4. Har kuni ish boshlashdan oldin elektr plita korpusi himoya simining ulanganligini va butunligini tekshirish kerak. Agar ulangan sim buzuq bo'lsa, bundan xo'jalik mudirini xabardor qilish va tuzatilmaguncha elektr asboblarni ishlatmaslik kerak.

5. Ma'muriyatning ruxsatisiz o'z holicha biror-bir ta'mirlash ishlarini bajarish man etiladi.

6. Elektr plita va boshqa elektr asboblarni mutaxassis elektrik ulaydi.

7. Elektr uskunalari bilan ishlashda, ulardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha tegishli yo'riqnomadan o'tmagan va attestatsiya qilinmaganlar ishga qo'yilmaydi.

8. Xodim boshqa ishga garchi vaqtincha o'tkazilsa ham yoki qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilsa yoki shanbalik va hasharlarda ishtirok etsa ham ma'muriyat tomonidan texnika xavfsizligi to'g'risida yo'riqnoma o'tkazilishi shart.

9. Muassasadagi har bir xodim texnika xavfsizligi qoidalarini buzgan odamga nisbatan beparvo bo'lmasligi, bunday holat bo'lgan taqdirda rahbariyatni ogohlantirishga majbur.

10. Dezinfeksiya suyuqligi va yuvish vositalaridan foydalanganda «Sanepidrejim qoidalari»ga amal qilish kerak.

11. Bolalar muassasalarida mexanik asbob-uskunalarini ishlatish bo'yicha oshpazlar va oshxona xodimlari, yig'ishtiruvchilar, ovqat tashuvchilar va idish yuvuvchilar, omborchi, xo'jalik mudiri, tarbiyachilar, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, to'garak rahbarlari, musiqa xodimlari, kutubxonachi, mehnat ta'limi xodimi, jismoniy tarbiya xodimlari, qorovullar maxsus texnika xavfsizligi yo'riqnomasi bilan ma'muriyat tomonidan tanishtiriladi va ish joylariga kerakli plakatlar, ko'rgazmalar, yo'riqnomalar bilan ma'muriyat tomonidan ta'minlanadilar. Avariya olib kelishi mumkin bo'lgan barcha yaroqsizliklar ma'muriyat tomonidan bartaraf etilishi kerak.

12. Muassasada texnika xavfsizligining bajarilishini nazorat qilib borishni muassasa rahbari buyruq asosida xo'jalik ishlari mudiri zimmasiga yuklatishi mumkin.

13. Xodim ma'muriyat tomonidan texnika xavfsizligi bo'yicha o'qitilganligi, yo'riqnomalar bilan tanishtirilganligi maxsus qayd-noma kitobida ro'yxatdan o'tkazib boriladi. Xodim texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomani bajarmaganligi uchun amaldagi qonunlarga muvofiq javob beradi.

### **Mehnat ta'limi darsida amaliy mashg'ulot bajarish bo'yicha metodik ishlanma**

**Dars mavzusi.** Elektr lampa, shtepsel rozetkasi, patron va vilkaning tuzilishi hamda ularni montaj qilish.

**Darsning maqsadi:** 1) elektr lampa, shtepsel rozetkasi, patron va vilkaning tuzilishini hamda montaj qilinishini o'quvchilarga o'rgatish;

2) o'quvchilar bilan amaliy ish o'tkazish.

**Darsni o'tish joyi.** O'quv ustaxonasi yoki elektrotexnika xonasi.

**Darsning turi.** Yangi bilim berish, amaliy ish.

**Darsga kerakli asboblari va moslamalar:** shtetsel rozetkasi, vilka, patron, otvyortka, shuruplar, simlar, izolatsion tasma, indikator va shularga o'xshashlar.

### Darsning tuzilishi

1. Tashkiliy qism — 5 daqiqa.
  2. Yangi mavzuning mazmunini tushuntirish — 25 daqiqa.
  3. Amaliy ish bajarish (montaj qilish) — 35 daqiqa.
  4. Uyga vazifa topshirish — 5 daqiqa.
  5. O'quvchilarni baholash, ustaxonani yig'ishtirish — 10 daqiqa.
- Jami: 80 daqiqa.

### Darsning mazmuni

Elektr lampa va uning tuzilishini o'rganish. Elektr lampa odamlar yashaydigan va mehnat qiladigan joylarni yoritadi.


Elektr lampaning volfram simi orqali tok o'tganida u cho'g'lanadi. Natijada sim yorug'lik nurlari socha boshlaydi va kerakli joylarni yoritishga xizmat qiladi. Elektr lampaning tuzilishi va uning qismlari 13-rasmda ko'rsatilgan.

Shishali ballon 1 da volfram sim 2 va tok o'tkazgich 3 joylashtirilgan. Volfram sim o'tkazgichlarning uchlariga mahkamlangan. Shisha ballonga oyoqcha 4 kavsharlanib, u sokolga mahkamlangan. Sokol 5 rezba chiqarilgan qismdan iborat, unda izolator 6 va markaziy kontakt 7 bor. Tok o'tkazgichning bittasi sokolning rezbali qismiga, ikkinchisi markaziy kontakt 7 ga ulangan.

Yoritish maqsadida 14-rasmda ko'rsatilgan luminessent lampalardan ham foydalaniladi. Bular kunduzgi yoritgichlar deb ham ataladi.

Elektr lampalar 110, 127 va 220 volt kuchlanish bilan ishlaydi. Quvvati esa 15 vatt dan to 1000 vattgacha bo'ladi.


Luminessent lampalar 127 volt bilan ishlaydigan bo'lsa, 15 va 20 vatt qilib, 220 volt bilan ishlaydigan bo'lsa, 30, 80, 125 vattli qilib chiqariladi.



**13-rasm. Elektr lampa va uning tuzilishi**




**14-rasm. Luminessent lampa**




**15-rasm. Elektr patron lampasi bilan:**


1 — vint; 2 — kontakt;  
3 — ichki vint; 4 — kontakt



**16-rasm. Shtepsel rozetkasi**



**17-rasm. Elektr vilkasining tuzilishi**



**18-rasm. Patronni yig'ish:**

1, 3 — kontaktlar; 2 — korpus

Lampani o'rnatishga elektr patroni xizmat qiladi (15-rasm). Manbaga energiya iste'molchisini ulash uchun rozetka va vilka xizmat qiladi. Shtepsel rozetkasining tuzilishi 16-rasmda ko'rsatilgan.

17-rasmda vilkaning tuzilishi ko'rsatilgan. Kontaktlar 3 ga vintlar 4 yordamida iste'molchidan keladigan ikkita o'tkazgich 5



ulanadi. Bu kontaktlar qopqoq 2 ga kirib turadi. Qopqoq korpus 6 ga qo'yiladi va vintlar 1 bilan mahkamlanadi.

### **Amaliy ish**

*Asbob va materiallar:* otvyortka, yassi jag'li ombur, 36 voltli tok manbayi, elektr yorituvchi asboblari to'plami (patron, lam-pa, simlar).

### **Patronni yig'ish**

1. Uzunligi 110 mm li 2 ta o'tkazgich olib, uni 1 va 3 kontaktlarga vintlar yordamida ulash, so'ngra patronning qalpog'ini korpusga burab mahkamlash (18-rasm).

### **Nazorat savollari**

1. Yonish yopiq hajmlarda yoki idishlarda bo'lsa qanday hodisa ro'y beradi?

2. Eng ko'p tarqalgan oson topiladigan, qulay ishlatiladigan o't o'chiruvchi modda nima?

3. Qattiq va suyuq yonuvchi materiallarni o'chirishda suvning samarasi kam bo'lganda nima qo'llaniladi?

4. O't o'chiruvchi vositalarga nimalar kiradi?

5. Odamlarning elektr tokidan shikastlanishining asosiy sabablariga nimalar kiradi?

6. Ta'lim tizimida ishlayotgan har bir xodim elektr asboblari ishlatishda texnika xavfsizligi yo'riqnomasi bilan tanishtirilishi shartmi?

7. Ta'lim muassasalarida texnika xavfsizligi ishlariga birinchi mas'ul shaxs kim?

8. Elektr urishi (yoki tok urishi) nechta darajaga bo'linadi?

## **9-BOB. YO‘L HARAKATI QOIDALARI BILAN TANISHTIRISH**

### **9.1. Ko‘cha harakati qoidalarini va yo‘l belgilari**

#### **UMUMIY QOIDALAR**

1. Yo‘llarda harakatlanish Qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yo‘llarda harakatlanishning yagona tartibini belgilovchi me‘yoriy hujjatdir. Yo‘llardagi harakatlanishga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan barcha me‘yoriy hujjatlar ushbu Qoidalarining talablariga asoslanishi shart.

2. O‘zbekistonda transport vositalarining o‘ng tomonlama harakatlanish tartibi amalda bo‘ladi.

3. Yo‘llarda harakatlanish ishtirokchilari ushbu qoidalarini bilishlari, YPX (yo‘l patrul xizmati) xodimlari, yo‘l kommunal xo‘jaliklari, temir yo‘l kesishmalari, yo‘l kesuvda xizmat vazifasini bajarayotgan xodimlar, svetofor ishoralari, yo‘l belgilari, qatnov qismidagi chiziqlar talablarini bajarishlari shart. Harakatlanishni tartibga solishga vakil shaxslar berilgan vakolat doirasida harakat qilishlari, ularda tegishli guvohnoma va taniqli belgilari (qo‘lbog‘ich, jezl, qizil nur qaytargichli doiracha, bayroqcha) bo‘lishi lozim.

4. Ushbu qoidalariga amal qilayotgan har bir harakat ishtirokchisi, boshqa shaxslar ham qoida talablarini bajaradi, deb hisoblashga haqli.

5. Yo‘llarda harakatlanish ishtirokchilari va boshqa shaxslar harakatga xavf yoki to‘sqinlik tug‘dirmasligi, yo‘l va inshootlari, davlat, jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarga zarar yetkazmasliklari kerak.

6. Fuqarolar, tashkilotlar va shirkatlar tomonidan o‘zboshimchalik bilan yo‘l belgilarini o‘rnatish taqiqlanadi.

7. Respublika hududidagi joriy standart talablariga javob bermaydigan transport vositalaridan foydalanish man etiladi.

8. Yo‘llarda harakatlanish qoidalarini barcha o‘rta maktablarda, kasb-hunar kollejlari, maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalarida o‘qitilishi lozim.

9. Yo‘llarda harakatlanish ishtirokchilari o‘zaro xushmuomala bo‘lishlari lozim.

10. Mazkur qoidalarini buzgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

## Asosiy tushuncha va atamalar

«Yo'llarda harakatlanish ishtirokchisi» haydovchi, piyoda, yo'lovchi, chorva mollarini boshqaruvchi, yo'lni ta'mirlovchilar, harakatni tartibga soluvchi shaxslar.

«**Haydovchi**» — transport vositasini boshqarayotgan shaxs.

«**Piyoda**» — transport vositasidan tashqarida bo'lgan, yo'lda ish bilan band bo'lmagan holda harakatlanayotgan shaxs.

«**Yo'lovchi**» — transport vositasida ketayotgan shaxs (haydovchidan tashqari).

«**Imtiyoz**» — harakatning barcha ishtirokchilaridan oldin harakatlanish huquqi.

«**Yo'l berish**» — yo'llarda harakatlanish ishtirokchisining boshqa ishtirokchiga xavfsiz harakatlanish uchun imkon yaratib berishi.

«**To'xtash**» — transport vositasining 10 daqiqadan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtashi.

«**To'xtab turish**» — transport vositasining 10 daqiqadan ortiq muddatga to'xtab turishi.

«**Majburiy to'xtash**» — yo'l patrul xizmati xodimining talabiga ko'ra, texnik nuqson, tashilayotgan yuk xavf tug'dirganda, temir yo'l kesishmalarida nosozliklar paydo bo'lganda haydovchi va yo'lovchining holatiga, ob-havo sharoitiga bog'liq holda transport vositasi harakatining to'xtatilishi.

«**Quvib o'tish**» — yo'lning qarama-qarshi qatnov qismiga chiqib, bir yoki bir necha transport vositasidan o'zib ketishi va yana qatnov qismiga qaytib o'tish.

«**Yetarli ko'rinmaslik**» — qattiq shamol, dovul, chang-to'zon, tuman, yomg'ir va qor yog'ishi tufayli va qorong'ilikda ko'rish masofasining 300 metrdan kam bo'lgan holati.

«**Trotuar**» — qatnov qismiga tutashgan yoki undan maysazor, ariq va maxsus qurilmalar (panjara, bordyur) bilan ajratilib, piyodalarning harakati uchun mo'ljallangan yo'lning bir qismi.

«**Yo'l**» — harakatlanishda foydalaniladigan ko'cha, shox ko'cha, tor ko'chaning butun eni, qatnov qismi bilan bir sathdagi tramvay yo'li, yo'l yoqasi, ajratuvchi bo'laklar va trotuar.

«**Asosiy yo'l**» — tuproqli yo'lga nisbatan qoplamasi bo'lgan, kesishayotgan yo'lga nisbatan imtiyozli yo'l belgilari bilan belgilangan yo'l ikkinchi darajali yo'lning qoplamali bo'lishi uchun asosiy yo'l bilan teng huquqli bo'lmaydi.

«**Sun'iy inshootlar**» — yo'llarning qatnov qismidagi ko'priklar, yerosti yo'llari.

«**Qatnov qismi**» — yo'lning transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan qismi. Qatnov qismi bir nechta bo'lishi mumkin. Ajratuvchi bo'lak uning chegarasi bo'ladi. Tramvay yo'li relssiz transport vositalarining harakatlanishi uchun mo'ljallangan qatnov qismining chegarasi hisoblanadi.

«**Ajratuvchi bo'lak**» — yo'lning yonma-yon qatnov qismlarini maxsus baland qurilma va uning ikki yonidagi yotiq chiziqli hamda ko'kalamzorlashtirish uchun mo'ljallangan joy bilan ajratuvchi, transport vositalarining to'xtashi uchun mo'ljallanmagan qismi.

«**Harakatlanish bo'lagi**» — transport vositalarining bir qatorda harakatlanishi uchun yetarli kenglikka ega bo'lgan, chiziqlar va yo'l belgilari bilan belgilangan yoki belgilanmagan qatnov qismining bo'ylama bo'lagi.

«**Chorraha**» — yo'llarning o'zaro bir sathda kesishishidan hosil bo'lgan maydon.

«**Piyodalar yo'lkasi**» — yo'lning piyodalar harakatlanishi uchun mo'ljallangan, transport harakati taqiqlangan qismi.

«**Piyodalar o'tish joyi**» — yo'lning piyodalar harakati uchun mo'ljallangan maxsus chiziqlar, belgilar bilan ajratilgan qismi.

«**Temir yo'l kesishmasi**» — yo'lning temir yo'l bilan bir sathda kesishgan joyi.

«**Aholi yashaydigan joy**» — aholi doimiy istiqomat qilayotgan kirish-chiqish yo'llari.

«**Transport vositasi**» — odamlar yoki yuklarni tashishga mo'ljallangan moslama.

«**Mexanik transport vositasi**» — dvigatel bilan jihozlangan transport vositasi.

«**Mototsikl**», «**Motoroller**» — kajavali yoki kajavasiz ikki yoki uch g'ildirakli mexanik transport vositasi.

«**Moped**» — dvigatelining ish hajmi 50 sm/kub, tezligi soatiga 50 km dan oshmaydigan transport vositasi.

«**Velosiped**» — odamning kuchi bilan harakatlantiriladigan transport vositasi.

«**Umum foydalanadigan transport vositasi**» — belgilangan yo'nalishda yo'lovchi tashish uchun harakatlanadigan avtobus, trolleybus, tramvay va marshrut taksilar.

«**Tirkama**» — mexanik transport vositasi tarkibida harakatlanuvchi moslama. Yarim tirkama va uzaytirilgan tirkamalarni ham o'z ichiga oladi.


«**To'la vazn**» — ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan, aslahalangan transport vositasining haydovchi, yo'lovchi, yuk bilan birga ruxsat etilgan eng yuqori vazni.

### **Yo'l belgilari**

Butun eni bo'yicha harakat uchun foydalanadigan yo'l, ko'cha, tor ko'cha va boshqalar yo'l deb ataladi. Yo'l haydovchining ish o'rni bo'lgani uchun yo'lning tuzilishini yaxshi bilishi va undan to'g'ri foydalanishi kerak. Hozirgi ko'p qatorli avtomobil yo'llari transport oqimining katta tezlik bilan harakatlanishiga imkon beradi, bu esa haydovchilardan harakat rejimiga qat'iy rioya qilishni talab qiladi.

Yo'llarda eng xavfli joylar — qiyalikli, burilishli va qayrilishli joylardir. Qiyaliklarning tikligi graduslarda o'lchanadigan burchak kattaliklarda yoki foizlarda ifodalanadi. Ko'p hollarda qiyalik kattaligi yaxlit foizlar o'rniga «minglik» deb ataladigan o'nlik ulushlarida ifodalanadi. Yo'l egriligining xarakteri uning radiusi va shu uchastkadan yo'lning ko'rinuvchanligi bilan aniqlanadi. Bu ikkala ko'rsatkich ham metrlarda ifodalanadi. Yo'llar kesishgan joylar ham xavfli hisoblanadi. Bu joylarda xavfsizlikka erishish uchun kesishadigan yo'llar turli sathda quriladi, shunda transport oqimining yo'li kesishmay qo'shiladi. Shahar yo'llarida harakatlanish vaqtida transport vositasini to'g'ri joylashtirish uchun haydovchi yo'lning harakatlanish qismi kengligini va chegaralarini aniq bilishi kerak. Yo'l elementlarini bilish, shuningdek, to'xtash va to'xtab turish va boshqa hollarda joyni to'g'ri tanlash uchun ham muhimdir. Avtomobil yo'li murakkab muhandislik inshooti bo'lib, joyning tarmoq qismi deb ataladi. Bu qismga yo'l joylashadi, shag'alga ishlov beriladi, ko'kalamlashtiriladi, yordamchi inshootlar joylashtiriladi. Yo'lning chetlariga suv oqib tushadigan ariqlar qaziladi. Ariqning yuqori qismi qirg'oq deb ataladi (19-rasm).

Nishon va yo'l belgilari harakatni boshqarish vositalari hisoblanadi. Ular shahar ko'chalarida, yo'llarda qo'llanilib, harakat



**19-rasm. Avtomobil yo‘lining tuzilishi:**

$a$  — joyning tarmoq qismi;  $b$  — asosiy qism;  $d$  — qirg‘oq (obrez);  $e$  — ariq (kyuvet);  $f$  — yo‘l polotnosi;  $g$  — yo‘l chekkasi

xavfsizligini va transport oqimlarini tartibga solib turishni ta‘minlaydi. Avtomobil yo‘llarida ko‘proq ogohlantiruvchi va ko‘rsatkich belgilar, shaharlarda taqiqllovchi va buyuruvchi belgilar va nishonlar qo‘llaniladi. Davlat standartlari me‘yorlari bo‘yicha tayyorlangan nishon va yo‘l belgilari harakatni tartibga solishning ma‘lum talablarini ta‘minlaydigan shartli belgilar hisoblanadi. Haydovchilar yo‘l belgilari hamda nishon chiziqlarining vazifasini bilishlari shart. Ba‘zi hollarda yo‘l belgilari (bir necha soatga, kunga) vaqtincha ko‘chma tirgaklarga o‘rnatilishi mumkin. Agar har qanday yo‘l belgisi osilgan joyda boshqa vaqtincha o‘rnatilgan belgi bo‘lib, ular bir-biriga to‘g‘ri kelmasa, haydovchilar vaqtincha belgi ko‘rsatmalarini bajarishlari lozim.

### **Svetofor**

Yo‘lda harakatlanishni tartibga solish uchun yashil, sariq va qizil rangli signallar beradigan svetoforlar tatbiq etiladi. Signal chiroqlari, odatda, doira shaklida bo‘ladi, svetoforlar vertikal tik yoki gorizontal holatda joylashtiriladi. Vertikal svetoforlar signal-larida signallar yuqoridan pastga qarab (qizil, sariq, yashil), gori-zontal svetoforlarda esa chapdan o‘ngga qarab (qizil, sariq, yashil) chiroqlar joylashadi.

Tik (vertikal) svetoforlarning yashil strelka shaklida signal beradigan bitta yoki ikkita qo'shimcha seksiyasi bo'lishi mumkin. Seksiyalar yashil chiroq sathida joylashadi.

Qo'shimcha seksiyalari yo'q svetoforlarning signallari strelkalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Strelkalar shu svetoforning ruxsat etuvchi signalidagi harakat yo'nalishini ko'rsatadi. Bu yo'nalishlar svetofor tagiga osib qo'yilgan oq rangda kvadrat tablichkada qora rang bilan ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Svetofor signallari quyidagi ma'noni bildiradi:

**Yashil chiroq** — transport vositalarining va piyodalarning kirishi ruxsat etiladi. Yashil chiroqning miltillashi uning amal qilish vaqti tugayotganini va tezda sariq chiroq yonishini ogohlantiradi.

**Sariq chiroq** — svetofor signallarining rangi almashajagi haqida ogohlantiradi va transport vositalarining hamda piyodalar yurishini taqiqlaydi. Sariq chiroq yonganda ushbu qoidalarning talablarini hisobga olib, chorraha oldida yoki piyodalarning o'tish joyi oldida to'xtab ulgurmagan haydovchilarga harakatni davom ettirishga ruxsat etiladi. Sariq chiroq yonganda yo'lning qatnov qismida bo'lgan piyodalar yo'ldan o'tib bo'lishlari yoki «Xavfsizlik orolchasi»da to'xtab turishlari, bunday orolchalar bo'lmaganda esa qatnov qismining o'rtasida to'xtashlari kerak.

**Miltillovchi sariq chiroq** — transport vositalarining va piyodalarning kirishiga ruxsat beradi va xavf-xatar haqida ogohlantiradi.

**Qizil chiroq** — transport vositalarining va piyodalarning yurishini taqiqlaydi. Qizil chiroq bilan bir vaqtda yongan sariq chiroq qizil signalning taqiqlovchi ma'nosini o'zgartirmaydi va tezda yashil chiroq yonishi haqida ogohlantiradi.

Svetoforning strelkali qo'shimcha seksiyasi bo'lsa, strelka yonib turgandagina transport vositalarining shu strelka ko'rsatgan yo'nalishda harakatlanishi ruxsat etiladi. Chapga harakatlanish tomonini ko'rsatadigan strelka qayrilib olishga ham ruxsat beradi. Qizil yoki sariq chiroq bilan bir vaqtda yorishib turgan strelka yo'nalishida harakat qiladigan haydovchilar boshqa yo'nalishlarda kelayotgan transport vositalariga yo'l berishlari shart.

**Piyodalarning yurishini tartibga solish uchun** ikki rangli signal beradigan svetoforlar tatbiq etiladi, bunday svetoforlarning yuqorisida qizil va pastida yashil signallar bo'lib, ular piyodalar surati shaklida yoki «To'xtang!», «Yuring!» degan yozuvlar ko'rinishidadir. Shunday svetoforlar o'rnatilgan joylarda uning yashil

signali paytidagina piyodalarga yo'lning qatnov qismidan o'tishga ruxsat etiladi. Yashil signalning miltillashi tezda qizil signal yonishi haqida ogohlantiradi.

### **Transport svetoforlari**

Transport svetoforlarining quyidagi turlari mavjud: tik joylashgan, yotiq joylashgan, qo'shimcha belgilangan yo'nalishda harakatlanishni tartibga soluvchi, reversiv, tramvay va boshqa umum foydalanish transport vositalarining, temiryo'l kesishmalari orqali harakatlanishini tartibga soluvchi, tartibga solinmagan chorrahalarini va piyodalarning o'tish joylarini belgilovchi, korxona, tashkilot hududida va qatnov qismining toraygan joyida harakatlanishni tartibga soluvchi piyodalar svetofori. Tramvay, trolleybus, marshrutli avtobuslar harakatini tartibga solish uchun «T» harfi shaklida joylashgan oq rangli to'rtta doiraviy signali bo'lgan svetoforlar qo'llaniladi. Bunday svetoforlarning signallari quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) to'rt signalning hammasi yoqilgan — to'g'riga harakatlanish, o'ngga va chapga burilish, qayrilib olish ruxsat etiladi;

b) ikkita signal — pastki signal bilan o'rtadagi yuqorigi signal yoqilgan — to'g'riga harakatlanish ruxsat etiladi;

d) ikkita signal — pastki signal bilan yuqorigi chap signal yoqilgan — chapga burilish va qayrilish uchun ruxsat etiladi;

g) ikkita signal — pastki signal bilan yuqorigi o'ngga signal yoqilgan — o'ngga burilish ruxsat etiladi;

f) uchta signal — pastki signal, ustki tomondagi o'rta va chap signal yoqilgan — to'g'riga harakatlanish, chapga burilish va qayrilib olish ruxsat etiladi;

g) uchta signal — pastki signal, ustki tomondagi o'rta va o'ng signallar yoqilgan — to'g'riga harakatlanish va o'ngga burilish ruxsat etiladi;

h) uchta signal — pastki signal, ustki o'ng va chap signallar yoqilgan — o'ngga va chapga burilish, qayrilib olishga ruxsat etiladi;

i) ustki uchta signal yoqilgan — harakat taqiqlanadi.

Svetoforning ruxsat etuvchi yoritgichlari yonganda chorrahaga kirgan haydovchi, undan chiqish paytida to'xtash chizig'i bo'lmasa, svetoforning boshqa yoritgichlari yonishidan qat'i nazar, ko'zda tutilgan yo'nalishda chiqib ketishi kerak. Biroq chorrahada



haydovchining yo'lida joylashgan svetoforlar oldida to'xtash chizig'i bo'lsa, u har bir svetofor yoritgichi ishorasiga amal qilishi kerak. Haydovchi svetoforning ruxsat etuvchi yoritgichi yonganda harakatlanishni boshlarkan, burilishni yoki qayrilishni tugatayotgan transport vositasiga yo'l berishi kerak.

Svetoforning sariq yoki qizil chirog'i qo'shimcha qismi bilan yonganda, yo'naltirgich ko'rsatib turgan yo'nalishda harakatlanayotgan haydovchi boshqa yo'nalishdagi transport vositasiga yo'l berishi kerak. «T» simon chorrahalarda to'g'riga harakatlanishni ko'rsatib turgan qo'shimcha qismli svetofor yonib turgan bo'lsa, yo'lning qaysi bo'lagida to'xtash chizig'i bo'lmasa, transport vositalariga shu bo'lakdan to'g'riga harakatlanishiga ruxsat etiladi.

Harakatlanish qo'shimcha qismli svetofor bilan tartibga solingan chorrahada, burilish imkonini beradigan bo'lakda harakatlanayotgan haydovchining to'xtashi orqadagi transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik qilsa, u yo'naltirgich ko'rsatayotgan yo'nalishda harakatni davom ettirishi lozim.

Agar tartibga solingan chorrahada svetofor o'chirilgan yoki miltillovchi sariq chiroq ishlayotgan bo'lsa, haydovchi o'rnatilgan imtiyoz belgilarga amal qilishi kerak.

### **Tartibga solinmagan chorralardan o'tish**

Teng ahamiyatga ega bo'lmagan yo'llar chorrahasida, asosiy yo'l bo'ylab harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l beriladi. Teng ahamiyatli yo'llar chorrahasida haydovchi o'ngdan kelayotgan transport vositasiga yo'l berishi kerak. Asosiy yo'lning yo'nalishi chorrahada o'zgarganda, asosiy yo'lda harakatlanayotgan haydovchilar o'zaro teng ahamiyatli yo'llar chorrahasidan o'tish qoidasiga rioya qilishlari kerak. Ikkinchi darajali yo'lda harakatlanayotgan haydovchilar ham o'zaro shu qoidaga amal qilishlari lozim.

Agar haydovchi o'zi harakatlanayotgan yo'lning qoplamasi bor-yo'qligini aniqlay olmasa, imtiyoz belgilari esa bo'lmasa, unda bu yo'lni ikkinchi darajali deb hisoblash kerak.

*Harakatni tartibga soluvchi (yo'lda harakatni tartibga solib turuvchi shaxs) ning signallari.* Harakatni tartibga soluvchi gavdasining vaziyati, uning qo'l va tayoqcha bilan qiladigan imoishorasi haydovchilar uchun signal bo'lib hisoblanadi.

Harakatni tartibga soluvchi haydovchilarga va piyodalarga nisbatan yoni bilan turib, qo'llarini yon tomonga uzatganda yoki pastga tushirganda:

a) relssiz transport vositalarining to'g'riga harakatlanishi va o'ngga burilishiga ruxsat etiladi;

b) tramvaylarning faqat to'g'riga yurishi uchun ruxsat etiladi;

d) piyodalarga yo'lining qatnov qismidan o'tishga ruxsat etiladi.

Harakatni tartibga soluvchi o'ng qo'lini oldiga uzatganda:

a) uning orqasidagi va yonidagi barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Piyodalarga esa harakatni tartibga soluvchining orqasida o'ng yonidan yo'lni kesib o'tishga ruxsat etiladi;

b) harakatni tartibga soluvchi haydovchiga ko'kragini o'girib turganda transport vositalarining o'ngga burilishi ruxsat etiladi, piyodalarga esa yo'lining qatnov qismidan o'tish taqiqlanadi;

d) harakatni tartibga soluvchi haydovchiga nisbatan chap yoni bilan turganda relssiz transport vositalarining hamma yo'nalishida harakatlanishiga, tramvaylarning faqat chapga burilishiga ruxsat etiladi.

Harakatni tartibga soluvchi haydovchilarga va piyodalarga ko'krak yoki orqasini o'girib, qo'llarini yon tomonga uzatib yoki pastga tushirib turganda hamma transport vositalari va piyodalarning yurishi taqiqlanadi.

Harakatni tartibga soluvchi qo'lini yuqoriga ko'targanda, transport vositalari va piyodalarning yurishi taqiqlanadi. Shunday signal berilgan paytda ushbu qoidalarining talablarini hisobga olib, chorraha oldida yoki piyodalarning o'tish joylari oldida to'xtay olmagan haydovchilarning harakatni davom ettirishiga ruxsat beriladi. Signal berilganda yo'lining qatnov qismida bo'lgan piyodalar o'tib bo'lishlari yoki «Xavfsizlik orolchasi»da to'xtab turishlari, bunday «orolcha» bo'lmaganda esa qatnov qismining o'rtasida to'xtashlari lozim.

Harakatni tartibga soluvchi qizil chiroq yoki yorug'lik qaytargich o'rnatilgan to'garak diskni, tayoqchasini yoki qo'lini silkitganda bu signal qaysi haydovchilar tomonga qaratilgan bo'lsa, o'sha tomondagi haydovchilar to'xtashlari shart. Harakatni tartibga soluvchi haydovchilarga va piyodalarga tushunarli boshqa signallarni (harakat yo'nalishini o'zgartirish, o'ng tomondagi eng chetki polosani egallash, tezlikni kamaytirish yoki oshirish, to'xtash va shunga o'xshashlarni buyuradigan signallarni) ham berishi mumkin.

Harakatni tartibga soluvchining signali svetofor signallariga, yo‘l belgilariga va tortilgan chiziqlarga hatto zid kelgan taqdirda ham haydovchilar va piyodalar harakatni tartibga soluvchi signaliga amal qilishlari lozim. Signallarni qo‘l bilan berganda haydovchi:

a) qayta tizilish yoki chapga burilishdan oldin chap qo‘lini yonga uzatishi yoki o‘ng qo‘lini tirsakdan bukib yuqori ko‘tarishi shart;

b) qayta tizilish yoki o‘ngga burilishdan oldin o‘ng qo‘lini yonga uzatishi yoki chap qo‘lini tirsakdan bukib yuqori ko‘tarishi shart;

d) tormoz berishdan oldin qo‘lini yuqori ko‘tarishi shart.

Aholi yashaydigan joylarda tovushli signallar berish taqiqlanadi. Yo‘lda transport hodisasining oldini olish uchun tovushli signal berishga istisno tariqasida ruxsat etiladi.

### **Transportdagi favqulodda vaziyatlar**

Shahrimiz ko‘chalariga bir nazar tashlasangiz, turli tezlikda harakatlanib borayotgan xilma-xil transport vositalariga ko‘zingiz tushadi. Zamonamiz farovonlashib borishi bilan avtomobillarning turlari ham ko‘payib bormoqda.

Shu bilan birga, transport vositalari inson hayoti va faoliyatiga chuqurroq kirib borgani sari uning insoniyatga keltirayotgan zarari ham oshib borayotir. Transport vositalari tomonidan yuzaga kelayotgan noxush vaziyatlarning sabablaridan biri, yo‘llardagi harakat vaqtida haydovchilar tomonidan tezlikning oshirilishi, ularning yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmasliklari, avtomobillarning texnik nosozligi bo‘lsa, ikkinchi sababi, yo‘lovchilarning, ayniqsa, bolalarning yo‘l harakati qoidalariga borasidagi bilimlarining pastligi va yo‘llarda xavfsiz harakat qilish malakasiga yetarlicha ega emasliklaridir. Yo‘l harakati hodisalaridan jabrlanish xavfi shahar sharoitida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan xavf hisoblanadi.

Yo‘lovchilarning, ayniqsa, bolalarning xavfsiz harakatlarini ta‘minlash davlat ahamiyatiga molik masalalardan biridir.

Shahrimiz ko‘chalarida harakatlanayotgan transport vositalaridan ayrimlarini ko‘rib chiqaylik.

**Tramvay** — transportning eng xavfsiz turlaridan biri, chunki u bitta izda (reklar yordamida) kichik tezlik bilan harakat qiladi. Biroq bu yerda tok urish xavfi mavjud. Bu xavf ehtimoli havo nam bo‘lganda, ayniqsa, kuchayadi. Bundan tashqari, elektr manbayiga ulangan vositalari (shtangilar) chiqib ketishi va atrofdagi

insonlarga zarar yetkazishi mumkin. Tramvayda eng xavfsiz joy — bu o'tirish joylari — o'rindiqlardir.

**Avtobus** transport vositalari orasida erkin harakat qila oladi, shu sababli haydovchi ayrim hollarda avtomobilni to'satdan keskin to'xtatishi yoki birdan burib yuborishi mumkin. Diqqatingizni boshqa narsalarga jalb qilmay sharoitni kuzatib boring.

**Yengil avtomobil** — transportning tez harakatlanuvchi va qulay turidir. Biroq yengil avtomobil transportning boshqa turlariga qaraganda avariya hodisalariga ko'proq uchraydi.

Avariya vaqtida eng xavfli joy — bu haydovchining yonidagi joydir. Shu sababli ham 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga u yerda o'tirish «Yo'l harakati qoidalarida»da man etilgan.

Avariya, odatda, to'satdan, kutilmaganda sodir bo'ladi. Lekin ba'zan bir necha soniya avariya sodir bo'lishini anglab yetish uchun yetarli bo'ladi. Bunday hollarda agar siz orqa o'rindiqlarda bo'lsangiz, boshingizni qo'llaringiz bilan berkiting va yonboshlab oling. To'qnashuv sodir bo'lganda esa tezlikda avtomobil ichidan tashqariga chiqishga harakat qilish kerak, chunki avtomobil yonib ketishi mumkin. Agar eshikni ochishning iloji bo'lmasa, oynani sindirish lozim.

**Metro.** Transportning bu turidan foydalanuvchi aholi undan foydalanish qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlari lozim.

Ayniqsa, eskalator (o'ziyurar zina) da yurish qoidalarini buzish xavflidir. Agar siz tutqichni ushlab ketayotgan bo'lsangiz-u, eskalator to'xtab qolsa, siz birdaniga oldinga otilib ketishingiz mumkin. Siz ushlab turmagan va tutqich ustiga qo'ygan sumkangiz yo'lovchi va chiroqlarni turtib, pastga qarab harakatlana boshlashi mumkin. Zinalarda o'tirish ham mumkin emas, ko'ylagingizning etagi zinalar orasiga tiqilib qolishi mumkin.

Agar biror buyumingizni qo'ldan tushirib yuborsangiz, odamlar orasidan yugurib uni olishga harakat qilmang. Bu yaxshilikka olib kelmaydi. Navbatchi mashinani to'xtatgandan so'nggina xotirjam o'z buyumlaringizni yig'ib olishingiz mumkin.

Ota-onalar e'tiboridan chetda qolgan kichik bolalar, ayniqsa, ko'proq jabrlanadilar. Bola tutqichni pastdan ushlasa, barmoqlari tutqich rezinasi orasiga kirib qolishi mumkin.

Xavf bolalarni eskalatordan tushish joyida ham kutib turishi mumkin — ularning kichik oyoq kiyimlari eskalatordan tushish joyida eskalator taroqlari orasiga tiqilib qolishi mumkin.

Platforma (poyezdlarni kutish joyi) ning chetiga juda ham yaqinlashmang, kimdir shoshib chopib keta turib sizni itarib yuborishi, o'zingiz qoqilib yiqilib tushishingiz, yaqinlashib kelayotgan poyezd sizni oynasi bilan turtib yuborishi mumkin. Vagonga chiqish va tushish vaqtida ham relslar orasiga tushib ketish ehtimoli bor, ya'ni shoshilayotgan odamlar sizni vagonlar orasiga itarib yuborishi mumkin.

Agar:

— biror-bir buyumingizni relslar orasiga tushirib yuborsangiz, u yerga sakrab yurmang. Yaxshisi, stansiya navbatchisiga murojaat qiling, navbatchi maxsus asboblarni yordamida buyumingizni olib beradi;

— biror odamning vagonlar orasiga tushib ketganini ko'rib qolsangiz, darhol mashinistga xabar bering — u poyezdni yurgizishdan avval oynaga qarab turadi. Qo'llar bilan qilingan aylana harakat «To'xta!» belgisini bildiradi;

— avariya sodir bo'lganda yoki texnik nosozlik tufayli poyezd tunnelda to'xtab qolsa, metropoliten xodimlarining barcha ko'rsatmalariga rioya qilish kerak, relslardan qo'rqmay o'ng tomondan yurib borish kerak, relsning chap tomonida yuqori kuchlanish ostidagi kabellar o'tgan;

— metro vagonida yong'in chiqib qolgudek bo'lsa, tutun hidini sezishingiz bilan bu haqda mashinistni xabardor qilishingiz va uning ko'rsatmalariga binoan ish tutishingiz lozim. Vahimaga tushmay harakat qilish va dastro'mol orqali nafas olish kerak.

Katta tezlikda yopiq muhitda ketayotgan odamlar to'plami doimo kuchli xavf manbai bo'lgan vaziyatni bildiradi. Bu avtobus yoki trolleybusni ko'rib qo'rquvga tushish kerak, degani emas, albatta. Shaharda yashash tajribasi bir qancha qoidalar to'plamining ishlab chiqilishiga olib keladiki, ular insonga transport vositalaridan xavfsiz foydalanish imkonini beradi.

Maxsus adabiyotlarda «mas'ul yo'lovchi» degan tushuncha bor. Bu avtomobil rusumi yoki patta bahosini biluvchi odam emas, balki favqulodda vaziyatlarda o'z hayotini saqlab qolish uchun bor imkoniyatlarini ishlata oluvchi yo'lovchidir.

Yo'l-transport hodisasidan muhofazalanishning eng yaxshi usuli — yo'l harakati qoidalariga rioya qilishdir. Yo'l-transport hodisalari, asosan, ko'chani avtomobillar qatnovi davom etayotgan qismida sodir bo'lishi sababli yo'lovchilarning diqqat-e'tiborlari

ko'chani kesib o'tish va bu yerda ularni kutishi mumkin bo'lgan xavfga qaratilishi lozim.

### **Amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha METODIK TAVSIYALAR**


O'qituvchi «Yo'l harakati qoidalari»dan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga ko'chada harakatlanish qoidalari, yo'l belgilariga rioya etish tartibi, yo'lning qatnov qismidagi belgilar, chiziqlar, yozuvlar, yo'ldagi inshootlarga chizilib, yo'lda harakatlanish tartibini anglatuvchi, yo'ldagi inshootlar gabaritini yoki yo'lning yo'nalishini ko'rsatuvchi boshqa belgilar bilan tanishtiradi. Savol-javob orqali o'quvchilarning bilimlarini tekshiradi.

**Kerakli jihozlar va uskunalar:** yo'l belgilari tasvirlangan plakatlardan, tarqatma materiallar, elektron doska, LCD-monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka), mikrofon, kolonkalar, kompyuter, proyektor, DVD-diskovod va h.k.

Shaxsiy xavfsizlik tizimida, odatda, shunday hollar bo'ladiki, eng oddiy vositalar eng ishonchli vosita bo'lib chiqadi.


Bolalar favqulodda hodisa yuz berishining oldini oladigan va yo'lovchilar hayotini saqlab qolishning quyidagi qoidalarini bilishlari va bular o'ta zaruriyligini anglab, ularga qat'iy rioya qilishlari lozimdir:

— avtomobil kelyaptimi yoki yo'qmi, ko'chani svetoorning qizil chirog'i yonib turganda kesib o'tmaslik;



**20-rasm. Piyodalarning ko'chani kesib o'tish qoidalari**

— ko'chani faqat svetoorning yashil chirog'i yonganda kesib o'tish, bunda avval chap tomonga, yo'lning o'rtasiga borgandan so'ng esa o'ng tomonga qarash;



**21-rasm. Ko‘chani kesib o‘tayotgan transport vositasini aylanib o‘tish qoidasi**

— ko‘chani kesib o‘tayotganda avtobusni, orqa tomonidan, tramvayni oldidan aylanib o‘tish, yerosti o‘tish yo‘llaridan foydalanish;

— ota-onangizsiz, yolg‘iz o‘zingiz ketayotgan bo‘lsangiz, ko‘chani yaxshisi ko‘pchilik bilan birga kesib o‘ting;



**22-rasm. To‘xtab turgan transport vositasining atrofidan aylanib o‘tish**

— to‘xtab turgan avtomobil katta tezlikda kelayotgan boshqa avtomobilni to‘shib qolishi mumkinligini doimo esda saqlang (eng oddiy hol — avtobus oldidan aylanib o‘tayotganingizda, u harakatdagi boshqa avtomobillarni to‘shib qo‘yadi);

— ko‘chada ketayotganda faqat yo‘lkadan yurish kerak. Yo‘lka bo‘lmasa, avtomobil harakatiga qarama-qarshi yo‘nalishda ko‘chani chetidan yurish lozim, shunda faqat haydovchi sizni emas, siz ham haydovchini ko‘rasiz;



**23-rasm. Piyodalar uchun mo‘ljallangan yo‘lkadan yurish qoidalari**

— bolalarning yo‘lkada yoki yo‘lning avtomobil qatnovi davom etayotgan qismida turli o‘yinlar o‘ynashlari mumkin emas. Bunday o‘yinlar, ko‘pincha, yo‘l-transport hodisalariga sabab bo‘ladi.

Shahar transporti bekatlarida ko‘plab yo‘lovchilar to‘planadilar. Avtobus yoki tramvay kelib to‘xtagandan so‘ng odamlar qanday qilib bo‘lsa ham transportga chiqib olishga harakat qiladilar. Kimdir o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib ko‘chaning avtomobillar qatnovi davom etayotgan qismiga chiqib qoladi, kimnidir turtib chiqarib yuborishlari mumkin va natijada sabrsiz yo‘lovchining transport g‘ildiraklari ostida qolish ehtimoli paydo bo‘ladi. Avtomobil birdaniga to‘xtay olmasligini doimo esda tutish lozim.

Avtobus, tramvay yoki metroda ketayotganda o‘zingizni quyidagi talablarga rioya qilishga o‘rgating:

— o‘tirishga bo‘sh joy bo‘lmasa, salonning o‘rtasiga borib turing. Harakat vaqtida tutqichni ushlab oling, keskin to‘xtashga to‘g‘ri kelib qolsa, muvozanatni yo‘qotib, yiqilib tushishingiz yoki biror yeringizni urib olishingiz mumkin;

— buyumlaringizni esdan chiqarmang;

— tushish joyini to‘sib qo‘ymaslikka harakat qiling, tiqilinch vaqtida eshik yaxshi yopilmay qolgan bo‘lsa, sizni itarib tushirib yuborishlari ehtimoli ham yo‘q emas;

— eshiklarga suyanib turish, zinada ketish mumkin emas;

— harakat vaqtida uxlab qolmang, bekatingizdan o‘tib ketish xavfidan tashqari, transport keskin to‘xtashiga to‘g‘ri kelib qolsa, jarohat olish xavfi ham mavjud.

Avtobus yoki tramvayda yong‘in chiqib qolsa, quyidagilarga amal qilish kerak:

— yong‘in to‘g‘risida haydovchini tezlikda ogoh qilish lozim, bunda haydovchining butun diqqat-e‘tibori yo‘lda ekanligini unutmang;

— og‘iz va burningizni ro‘mol, sharf, yengingiz bilan berkiting, yong‘in vaqtida avtomobilning rezina qismlaridan chiqadigan zaharli gazlar eng xavfli hisoblanadi. Ba‘zi hollarda bir necha bor nafas olishning o‘zi hushdan ketish uchun yetarli bo‘lishini esdan chiqarmang;

— favqulodda hodisa sodir bo‘lganda ehtiyot ochish joyi orqali eshiklarni ochishga harakat qiling, buning iloji bo‘lmasa, yon



oynalarni sindiring yoki maxsus shnurni tortib, avariya yo‘li sifatida oynani oching, har qanday vaziyatda ham transport vositasi to‘xtamaguncha o‘z joyingizni tark etmang;

— yonayotgan transport vositasidan chiqib olganingizdan so‘ng atrofdagilarga yordam berishga shoshiling, bunda tramvayning metall qismlariga tegib ketishdan ehtiyot bo‘ling, chunki avtomobilning izolatsiya qismlari yonib ketganligi sababli yuqori kuchlanish ostidagi elektr simlari ochilib qolib, tok urishi mumkin;

— har qanday holda ham vahimaga tushmaslikka harakat qiling.

Yo‘l-transport hodisasiga guvoh bo‘lgan kishilar yoki uning qatnashchilari uchun bir nechta majburiy qoidalar bor. Ular bilan tanishib qo‘ysangiz zarar qilmaydi:

1. Jabrlangan odamni yordamsiz qoldirmang (bunday hol jinoyat hisoblanadi).

2. Tezlikda sodir bo‘lgan hodisa haqida Yo‘l patrul xizmati (YPX) xodimlariga xabar qilish kerak.

3. Avtomobil bosib olishi yoki yo‘l-transport hodisasi guvohi bo‘lib qolsangiz-u, haydovchi qochib ketsa, avtomobilning raqami, rusumi, rangini va haydovchini eslab qolishga harakat qilish lozim bo‘ladi.

### ***Nazorat savollari***

1. Shahar ko‘chalarida qatnovchi qanday transport turlarini bilasiz?
2. Transportda insonni qanday xavf-xatar kutishi mumkin?
3. Transportda yong‘in chiqqanda xavfsizlik qoidalari qanday bo‘lishi kerakligini tushuntirib bering.
4. Yo‘l belgilarining ahamiyati nimadan iborat?
5. Taqiqlovchi va buyuruvchi yo‘l belgilarining vazifasi nimadan iborat?
6. Axborot ishora belgisining vazifasi.
7. Ogohlantiruvchi belgilarning tuzilishi va vazifasi.
8. Yo‘l belgilarining tashqi ko‘rinishlaridagi farq.
9. Imtiyoz belgilarining vazifasi nimadan iborat?
10. Qo‘shimcha axborot belgilarining vazifasi nimadan iborat?

## **10-BOB. SINIF XONALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR (KOMPYUTER, FIZIKA, KIMYO)**

### **10.1. Sinf xonalariga qo'yiladigan umumiy sanitariya, gigiyenik va xavfsizlik talablari**

Maktab binosiga pedagogik vazifalardan kelib chiqqan holda har tomonlama gigiyenik talablar qo'yiladi. Bu talablarga rioya qilish o'quvchilarning kayfiyati va o'quv ishlaridagi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab binosi gigiyenasi juda ko'p masalalarni o'z ichiga oladi:

a) tashqi muhitdagi tabiiy omillarning o'quvchi organizmiga ta'siri;

b) maktabning yer uchastkasi;

d) maktab binosining xonalari, ularning katta-kichikligi, ulardan foydalanishdagi pedagogik va gigiyenik talablar.

Maktab yer uchastkasi ancha katta bo'lishi (bir o'quvchiga kamida 20 m<sup>2</sup> to'g'ri kelishi) kerak. Bunday uchastkada biologiya, fizika, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish, dam olish mumkin bo'ladi.

Yer uchastkasiga maktab binosi joylashtiriladi, u yerda jismoniy tarbiya darslari uchun maydonlar, biologiya mashg'ulotlari uchun tajriba maydonchasi, meteorologik maydoncha, maysazorlar, gulzorlar va yo'lchalar bo'ladi. Bulardan tashqari, mevasabzavot uchun paykal ajratilishi, geografiya maydonchalari bo'lishi mumkin.

A.Y.Gutkin maktab uchastkasining hududlarini umumiy maydonga nisbatan quyidagicha foiz hisobidagi kattalikda, shuningdek, uchastkaning ayrim elementlar maydonining har bir o'quvchiga quyidagicha kvadrat metrlarda bo'lishini tavsiya qilgan (2-jadval).

Maktab uchastkasiga yer ajratilayotganda, mazkur maydonda maktab binosini maqsadga muvofiq joylashtirish: maktabning atrofi (xiyobonlar, sanoat korxonalari, transport qatnovi va boshqalar), xizmat qilish doirasi, to'g'ri rejalashtirishning mumkinligi, maktab binosini joylashtirish hamda o'quv mashg'ulotlari va o'quvchilarning faol dam olishi uchun zarur bo'lgan zonalarini yaratish mumkinligi e'tiborga olinadi. Yer uchastkasi atrofi to'sib olinadi.

Harakatli o'yinlar, o'yin-kulgilar uchun ajratiladigan maydonlar, sport va gimnastika maydonchalari kichik va katta yoshdagi o'quvchilar uchun alohida-alohida rejalashtiriladi.

**Maktab qoshidagi yer uchastkasi zonalarining  
kattaligi, m<sup>2</sup>**

| Uchastka zonasining nomi                                                           | Umumiy oʻrtataʼlim maktablari | Internat-maktablar |
|------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|--------------------|
| Qurilish maydoni (maktab binosi va boshqa qurilish obyektlari)                     | 10 — 12                       | 15 — 18            |
| Daraxt ekish, yoʻlchalar, oʻtish joylari, xoʻjalik zonalariga ajratiladigan maydon | 13 — 14                       | 12 — 15            |
| Gimnastika va oʻyin zonalarining maydoni                                           | 32 — 33                       | 31                 |
| Koʻkalamzor zonasi maydoni                                                         | 42 — 45                       | 34                 |
| Bir oʻquvchiga toʻgʻri keladigan gimnastika va oʻyin zonalarining maydoni          | 3,6                           | 5,5                |
| Bir oʻquvchiga toʻgʻri keladigan koʻkalamzor zonasi maydoni                        | 5,0                           | 6,0                |

Boshlangʻich maktab oʻquvchilari uchun ajratiladigan oʻyin maydonchasi 20x40 m boʻlishi kerak. Oʻrta va katta yoshdagi oʻquvchilar uchun 40x95 m kattalikda boʻlgan oʻyin maydoni ajratiladi. Oʻyin maydonchalarida quyidagilar boʻlishi nazarda tutiladi: kattaligi 24x15 m li basketbol maydonchasi va har biri 9 x 18 m boʻlgan ikkita voleybol maydonchasi. Gimnastika maydonchasi (20x30 m) halqa, arqon (tirmashib chiqish uchun), ogʻma narvon, langarchoʻp, turnik, muvozanat saqlash uchun yakka-choʻp (parallel bruslar va gimnastika devorchasi boʻlishi maqsadga muvofiq) bilan taʼminlanadi.

Maktab uchastkasida qishki vaqtlarda qor tepaligi qurish, yaxmalak qilish, changʻi uchadigan yoʻl solish maqsadga muvofiq. Chana uchadigan tepalik yogʻochdan va qordan qilinishi mumkin. Yogʻoch tepalikning asosi — 2—4 m, nishabining uzunligi — 15—20 m, nishabining kengligi — 1 m, ogʻish burchagi 10—20° boʻladi.

Maktab binolari moslashtirilgan loyihalar asosida har bir sinfda 40 oʻquvchi hisobida, 4, 9, 12, 16 va 23 sinf xonalariga moʻljallab quriladi. 3-jadvalda yangi tipdagi maktablarda qanday xonalar nechtdan boʻlishi koʻrsatilgan.

Maktabdagi barcha xonalar asosiy (sinf va laboratoriya xonalari) va qoʻshimcha (hojatxona, yechinish joyi, oshxona va bosh-

**Umumiy ta'lim maktablari binosi xonalari va ularning maydoni**

| Xonalarning nomi                                       | Quyidagi miqdordagi o'quvchilar uchun xona maydoni, m <sup>2</sup> |     |     |     |     |
|--------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-----|-----|-----|-----|
|                                                        | 920                                                                | 520 | 260 | 160 | 80  |
| 1                                                      | 2                                                                  | 3   | 4   | 5   | 6   |
| Sinf xonalari                                          | 50                                                                 | 50  | 50  | 50  | 500 |
| Fizika, kimyo, biologiya, chizmachilik xonalari        | 70                                                                 | 70  | 70  | —   | —   |
| Laborantlar xonasi                                     | 15-18                                                              | 15  | 15  | —   | —   |
| Duradgorlik va chilangarlik ustaxonalari               | 70                                                                 | 70  | —   | —   | —   |
| Ustaxona qoshidagi omborxona                           | 15                                                                 | 15  | —   | —   | —   |
| Qo'l mehnati xonasi                                    | 60                                                                 | 60  | 60  | 60  | —   |
| Jismoniy tarbiya zali                                  | 162                                                                | 162 | 168 | —   | —   |
| Majlislar zali                                         | 250                                                                | 250 | 250 | 250 | 250 |
| Sport inventarlari saqlanadigan xona                   | 15                                                                 | 15  | 15  | 12  | 12  |
| Dam olish joylari — koridorlar                         | 500                                                                | 325 | 170 | 130 | 64  |
| Kutubxona va kitoblar saqlanadigan xona                | 70                                                                 | 30  | 20  | —   | —   |
| Jamoat tashkilotlari xonasi                            | 15                                                                 | 15  | 12  | —   | —   |
| Direktor xonasi                                        | 15                                                                 | 15  | 12  | 12  | 12  |
| O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari xonasi     | 15                                                                 | 15  | —   | —   | —   |
| O'qituvchilar xonasi                                   | 30                                                                 | 20  | 15  | 15  | 15  |
| Shifokor xonasi                                        | 12                                                                 | 12  | 12  | —   | —   |
| Yechinish joyi va vestibul                             | 220                                                                | 100 | 70  | 40  | 20  |
| Oshxona                                                | 80                                                                 | 80  | 30  | —   | —   |
| Yuvinish anjomlari o'rnatilgan o'quvchilar hojatxonasi | 120                                                                | 60  | 40  | 25  | 15  |
| Idora                                                  | 15                                                                 | 15  | 15  | 12  | —   |
| Xodimlar uchun hojatxona                               | 4                                                                  | 2   | 2   | 2   | —   |
| Direktor xonadoni (kvartirasi)                         | 50                                                                 | 45  | 45  | 40  | 30  |
| Quyi ishlardagi xodimlar xonadoni (kvartirasi)         | 24                                                                 | 16  | 16  | 15  | 15  |

qalar) xonalarga bo‘linadi, internat-maktablarda esa qo‘shimcha ravishda yotoqxona, faollar zali va boshqa xonalar bo‘ladi.

Maktab binosi bilan tanishayotgan vaqtda asosiy va qo‘shimcha xonalarining bir-biriga yaqin joylashishi, koridorlarning kengligi, zinapoyalar, qo‘shimcha chiqish yo‘llarining borligi, o‘quvchilarni zarur bo‘lib qolganda tez evakuatsiya qilish imkoniyatlari e‘tiborga olinadi.

Maktabning har bir qavati alohida-alohida o‘rganiladi. O‘quvchilar maktabning yer uchastkasi, unga qarash, undan o‘quvchilarning dam olishi uchun foydalanish imkoniyatlari bilan qiziqadilar, tanaffus vaqtlarida, darslar tamom bo‘lganidan so‘ng va dam olish kunlarida maktab uchastkasidan foydalangan holda tanishadilar.

### **Sinf xonasi**

Maktab binosini o‘rganishda sinf xonasiga alohida e‘tibor beriladi. Belgilangan miqdordagi o‘quvchilar uchun sinf xonasining katta yoki kichikligini aniqlash maqsadida xonaning bo‘yi, eni va balandligini o‘lchash, so‘ngra uning kattaligi hajmini hisoblab chiqish kerak. Hosil bo‘lgan miqdor sinfdagi o‘quvchilar soniga bo‘linadi. Bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan joy xonaning balandligiga ko‘paytiriladi. Natijada bir o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan kubatura hosil bo‘ladi. Bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan me‘yor: pol maydoni —  $1,25 \text{ m}^2$ , havoning hajmi —  $4,5 - 5 \text{ m}^3$ .

*Misol.* Sinfning uzunligi —  $8,0 \text{ m}$ , eni —  $6,5 \text{ m}$ , balandligi —  $3,2 \text{ m}$ . Sinf 38 o‘quvchiga mo‘ljallangan.

Sinfning maydoni:  $8,0 \times 6,5 = 52,0 \text{ m}^2$ .

Bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan maydon:  $52,0 : 38 \approx 1,4 \text{ m}^2$ .

Bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan kubatura:  $1,4 \times 3,2 = 4,5 \text{ m}^3$ . Olingan miqdorlar bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan maydon va kubatura mazkur holda gigiyena me‘yorlariga muvofiq ekanligidan dalolat beradi.

Sinfdagi harorat va havoning namligi o‘quvchilarning kayfiyatiga ta’sir etadi. Bu haroratni va namlik rejimini aniqlash uchun sinf doskasi yonidagi (o‘quvchining bo‘yi balandligidagi) havoning harorati va nisbiy namligi o‘lchanadi. Sinfdagi harorat xona termometri yoki Avgust psixrometrining quruq termometri bilan o‘lchanadi. Sinfdagi harorat  $18^\circ \text{ C}$  bo‘lishi kerak. Havoning nisbiy nam-

ligi Avgust psixrometri bilan o'lchanadi. Bu asbob ikkita – quruq va nam – simob termometridan iboratdir. Nisbiy namlikning miqdori maxsus psixrometrik jadvaldan (4-jadval) aniqlanadi: vertikal bo'yicha – quruq, gorizontal bo'yicha – nam termometr ko'rsatkichlari, pastda esa nisbiy namlik miqdori topiladi. Sinfidagi nisbiy namlik miqdori 40 – 60% ga teng bo'lishi kerak.

*Misol.* Sinf xonasida katta tanaffusdan keyin quruq termometr  $20^{\circ}\text{C}$  ni, nam termometr esa  $16,6^{\circ}\text{C}$  haroratni ko'rsatdi. Jadvaldan nisbiy namlik aniqlanadi – u 65% ekan. Bu esa gigiyenik me'yordan birmuncha ortiq.

Havoning nisbiy namligi maxsus asbob – gigrometr bilan aniqlanishi mumkin. U nisbiy namlik miqdorini darhol (hisoblab chiqmasdan) ko'rsatadi (24-rasm).

Sinf xonasidagi harorat va havoning nisbiy namligi o'qish boshlangunicha va tugaganidan keyin o'lchanadi.


Maktab binolarining to'g'ri yoritilishi o'qitish gigiyenasi uchun katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning ish joylarini yaxshi yoritish ko'z o'tkirligining saqlanishida, ishlash qobiliyatining, faollikning, darslarda diqqat-e'tiborning ortishida katta rol o'ynaydi. Afsuski, bizda ko'z o'tkirligi ancha zaif bo'lgan o'quvchilar uchrab turadi.

Uzoqni ko'rolmaydigan bolalar sonining ortib borishi maktabda ta'lim olishning uzoq davom etishi natijasida sodir bo'lar ekan. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, 7–11 yoshdagi o'quvchilarning 6,6%, 12 – 14 yoshdagilarning 15,6% va 15–18 yoshdagilarning 13,6% uzoqni ko'rolmaslik kasalligiga duchor bo'lgan.

O'quvchilarning uzoqni ko'rolmasligi sabablaridan biri sinflarning yaxshi yoritilmagani hamda behad ko'p va zo'r berib ishlashidir.

Topshirgan vazifalarni ish joyi 50 lk yoritilganda o'quvchilarning 37%, 100 lk da 47,5%, 400 lk da 71,4% xatosiz bajargan.

Maktab binolarini yoritishning eng yaxshi turi tabiiy yorug'likdir. U organizmning hayotiy funksiyalariga samarali ta'sir etadi.



**24-rasm. Gigrometr**

**Avgust psixrometrining ko'rsatishi bo'yicha havoning nisbiy namligini hisoblash jadvali  
(bunda havoning harakat tezligi 0,2 m/soniya)**

| 1   | Quruq termometr<br>(Selsiy graduslari) |      |      |      |      |      |      |      |      |      | Nam termometr |      |      |      |      |      |      |      |      |      | (Selsiy graduslari) |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|-----|----------------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|---------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|---------------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| 1.  | 12.....                                | 5,3  | 5,7  | 6,0  | 6,4  | 6,8  | 7,2  | 7,6  | 8,0  | 8,4  | 8,7           | 9,1  | 9,5  | 9,9  | 10,3 | 10,7 | 11,0 | 11,3 | 11,7 | 12,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 2.  | 13.....                                | 5,9  | 6,4  | 6,8  | 7,2  | 7,6  | 8,0  | 8,4  | 8,8  | 9,2  | 9,6           | 10,0 | 10,4 | 10,8 | 11,1 | 11,5 | 11,8 | 12,2 | 12,6 | 13,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 3.  | 14.....                                | 6,6  | 7,1  | 7,5  | 8,0  | 8,4  | 8,8  | 9,2  | 9,7  | 10,1 | 10,5          | 10,9 | 11,3 | 11,7 | 12,1 | 12,5 | 12,8 | 13,2 | 13,6 | 14,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 4.  | 15.....                                | 7,3  | 7,8  | 8,2  | 8,7  | 9,2  | 9,6  | 10,0 | 10,5 | 10,9 | 11,4          | 11,8 | 12,2 | 12,6 | 13,0 | 13,4 | 13,8 | 14,2 | 14,6 | 15,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 5.  | 16.....                                | 8,0  | 8,5  | 9,0  | 9,4  | 9,9  | 10,3 | 10,8 | 11,3 | 11,8 | 12,6          | 12,6 | 13,1 | 13,5 | 14,0 | 14,4 | 14,8 | 15,2 | 15,6 | 16,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 6.  | 17.....                                | 8,6  | 9,1  | 9,7  | 10,2 | 10,6 | 11,2 | 11,6 | 12,1 | 12,6 | 13,0          | 13,5 | 13,9 | 14,4 | 14,9 | 15,3 | 15,8 | 16,2 | 16,6 | 17,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 7.  | 18.....                                | 9,3  | 9,9  | 10,4 | 10,9 | 11,4 | 11,9 | 12,4 | 12,9 | 13,4 | 13,9          | 14,4 | 14,8 | 15,3 | 15,7 | 16,2 | 16,6 | 17,1 | 17,5 | 18,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 8.  | 19.....                                | 10,0 | 10,6 | 11,1 | 11,7 | 12,2 | 12,7 | 13,2 | 13,8 | 14,3 | 14,8          | 15,3 | 15,7 | 16,2 | 16,7 | 17,2 | 17,6 | 18,1 | 18,5 | 19,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 9.  | 20.....                                | 10,6 | 11,2 | 11,8 | 12,4 | 12,9 | 13,4 | 14,0 | 14,5 | 15,1 | 15,6          | 16,1 | 16,6 | 17,1 | 17,6 | 18,1 | 18,5 | 19,0 | 19,5 | 20,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 10. | 21.....                                | 11,2 | 11,9 | 12,6 | 13,1 | 13,6 | 14,2 | 14,8 | 15,3 | 15,9 | 16,5          | 17,1 | 17,5 | 18,0 | 18,6 | 19,1 | 19,5 | 20,0 | 20,5 | 21,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 11. | 22.....                                | 11,8 | 12,5 | 13,2 | 13,8 | 14,4 | 15,0 | 15,6 | 16,2 | 16,7 | 17,3          | 17,9 | 18,4 | 18,9 | 19,5 | 20,0 | 20,5 | 21,0 | 21,5 | 22,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 12. | 23.....                                | 12,5 | 13,1 | 13,8 | 14,4 | 15,1 | 15,7 | 16,4 | 17,0 | 17,6 | 18,2          | 18,8 | 19,3 | 19,8 | 20,4 | 20,9 | 21,5 | 22,0 | 22,5 | 23,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 13. | 24.....                                | 13,1 | 13,8 | 14,5 | 15,2 | 15,9 | 16,5 | 17,1 | 17,8 | 18,4 | 19,0          | 19,6 | 20,1 | 20,7 | 21,3 | 21,9 | 22,4 | 23,0 | 23,6 | 24,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 14. | 25.....                                | 13,7 | 14,5 | 15,2 | 15,9 | 16,6 | 17,2 | 17,9 | 18,5 | 19,2 | 19,8          | 20,5 | 21,2 | 21,7 | 22,2 | 22,8 | 23,3 | 23,9 | 24,4 | 25,0 |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|     | Nisbiy namlik<br>(foizlarda)           | 10   | 15   | 20   | 25   | 30   | 35   | 40   | 45   | 50   | 55            | 60   | 65   | 70   | 75   | 80   | 85   | 90   | 95   | 100  |                     |  |  |  |  |  |  |  |  |  |

Zamonaviy maktablar uchun tabiiy yorug'lik tushishini gigiyenik jihatdan me'yorlashtirish maxsus ravishda ishlab chiqilgan. Bunga binoan asosiy binolarning derazalarini janubi-sharq yoki janub tomonga qaratib qurish nazarda tutiladi. Yorug'lik chap tomondan tushishi zarur. Xonaning deraza o'rnatiladigan devorlariga uchta deraza o'rnatilishi kerak. Bunda ikki deraza oralig'i kamida 50—75 sm bo'lishi lozim. Derazalarni gullar, deraza pardalari bilan to'sib qo'ymaslik kerak. Ifloslangan oynalar yorug'likni 10—15 %ga kamaytiradi. Xonaning devorlari va shipi yorug' bo'yoqlarga (shipi oq, ichki devorlarning pastki qismi och ko'k) bo'yalishi kerak. Quyosh nurlaridan himoyalaniş uchun yorug'likni tarqatuvchi moslamalardan foydalaniladi. Sinf xonalarining chuqurligi 6,5 m bo'lganda, oyna solinadigan maydon pol maydonining kamida 20 %ni tashkil etishi kerak. Oyna solinadigan maydonning pol maydoniga nisbati yorug'lik koeffitsiyenti deb ataladi. Yorug'lik koeffitsiyenti sinflarda 1:5, jismoniy tarbiya zallari va dam olish xonalarida 1:6 ga teng bo'lishi kerak.

Yorug'lik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi: avval pol, so'ngra oynalar maydoni o'lchanadi. Derazalarning oyna solingan maydonini aniqlash uchun devordagi deraza o'rni miqdoridan 10 %ni ayirib tashlash kerak (bu deraza panjaralariga to'g'ri keladi). Derazalarning oyna solingan qismi pol maydoni bilan solishtiriladi.

*Misol.* Devordagi deraza o'rni  $11,0 \text{ m}^2$  ga teng. Bundan deraza romlariga 10 foiz chiqarib tashlanadi. Unda oyna solingan qismi  $11,0 \text{ m}^2 - 1,0 \text{ m}^2 = 10,0 \text{ m}^2$  ga teng bo'ladi. Xona polining maydoni  $50 \text{ m}^2$ . Yorug'lik koeffitsiyenti  $10:50=1:5$ , ya'ni me'yorga muvofiqdir.

Tabiiy yoritilganlik yorug'lik koeffitsiyenti bilangina emas, balki o'quvchining ish joyiga tushadigan yorug'lik burchagi bilan ham baholanadi. Yorug'lik tushish burchagi kamida  $27^\circ$  bo'lishi kerak.

Yorug'lik tushish burchagi quyidagicha aniqlanadi. Derazaning balandligi hamda derazaning pastki va yuqorigi chetlaridan o'quvchining ish joyigacha bo'lgan masofa o'lchanadi. Bir varaq qog'ozga derazaning ham yuqorigi, ham pastki olingan nuqtalari belgilanadi hamda shu nuqtalardan chiziq o'tkaziladi, ularning kesishish burchagi topiladi va yorug'lik nurlarining tushish burchagi aniqlanadi.



*Misol.* Derazaning yuqorigi chetidan o‘quvchining ish joyigacha bo‘lgan masofa — 7 m, pastki chetidan esa — 5 m, derazaning balandligi — 1,8 m. Masshtab 1 m = 1 sm bo‘lganda qog‘ozda uchburchak hosil bo‘ladi. Transportir bilan uning burchagi aniqlanadi (25-rasm).


Tabiiy yoritish tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti bilan ham aniqlanadi va foizlarda ifodalanadi. Sinflar uchun tabiiy yoritilganlik poldan 80 sm masofada 1,5% dan kam bo‘lmasligi kerak.

Hozirgi zamon maktab binolarida tabiiy yorug‘lik, odatda, qabul qilingan gigiyena me‘yorlariga muvofiqdir. Maktablarda, ko‘pincha, sun‘iy yorug‘likdan foydalaniladi (kuz-qish davrlarida), birinchi smenada birinchi darslarda, ikkinchi smenada esa soat ikkidan so‘ng, ikkinchi va uchinchi darslardan keyin.

Tabiiy va sun‘iy yorug‘likdan ustalik bilan foydalanish kerak. Aralash yorug‘lik bir-biridan tamomila farq qiladigan ikkita yorug‘lik oqimi (manbayi) deb qaralmasligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish lozim. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun tuzilgan yoritish kalendaridan foydalanish zarur. Bunda sun‘iy yorug‘lik qaysi vaqtlarda qo‘llanishi kerakligi ko‘rsatilgan (5-jadval).

Cho‘g‘lanma lampa va 300 lk yorug‘lik beradigan luminescent lampalari bilan yoritiladigan sinf xonalaridagi parta hamda sinf doskalarining yoritilish darajasi 150 lk bo‘lishi kerak.

«Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va maktab-internatlarning o‘quv xonalarini saqlashning sanitariya qoidolari»da shu narsa



**25-rasm. Yorug‘lik tushish burchagi:**

$AB$  — derazaning pastki qirg‘og‘idan ish joyigacha bo‘lgan masofa;  
 $AD$  — deraza balandligi;  $BD$  — ish joyidan derazaning tepa qirg‘og‘igacha bo‘lgan oralik

**Sun'iy yorug'likdan foydalanish vaqtlari**

| №  | Oy      | Kun     | Sun'iy yorug'likdan foydalana boshlash vaqti |
|----|---------|---------|----------------------------------------------|
| 1  | 2       | 3       | 4                                            |
| 1. | Yanvar  | 1 — 10  | 14 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 14 <sup>15</sup>                             |
|    |         | 21 — 31 | 14 <sup>30</sup>                             |
| 2. | Fevral  | 1 — 10  | 15 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 15 <sup>15</sup>                             |
|    |         | 21 — 29 | 15 <sup>30</sup>                             |
| 3. | Mart    | 1 — 10  | 15 <sup>45</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 16 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 21 — 31 | 16 <sup>30</sup>                             |
| 4. | Aprel   | 1 — 10  | 17 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 17 <sup>15</sup>                             |
|    |         | 21 — 30 | 17 <sup>30</sup>                             |
| 5. | May     | 1 — 10  | 18 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 18 <sup>30</sup>                             |
|    |         | 21 — 31 | 19 <sup>00</sup>                             |
| 6. | Iyun    | 1 — 10  | 19 <sup>45</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 19 <sup>45</sup>                             |
|    |         | 21 — 30 | 19 <sup>45</sup>                             |
| 7. | Iyul    | 1 — 10  | 19 <sup>45</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 19 <sup>45</sup>                             |
|    |         | 21 — 31 | 19 <sup>00</sup>                             |
| 8. | Avgust  | 1 — 10  | 18 <sup>30</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 18 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 21 — 31 | 17 <sup>30</sup>                             |
| 9. | Sentabr | 1 — 10  | 17 <sup>00</sup>                             |
|    |         | 11 — 20 | 16 <sup>30</sup>                             |
|    |         | 21 — 30 | 16 <sup>00</sup>                             |

| 1   | 2      | 3       | 4                |
|-----|--------|---------|------------------|
| 10. | Oktabr | 1 — 10  | 15 <sup>50</sup> |
|     |        | 11 — 20 | 15 <sup>00</sup> |
|     |        | 21 — 31 | 14 <sup>00</sup> |
| 11. | Noyabr | 1 — 10  | 14 <sup>15</sup> |
|     |        | 11 — 20 | 14 <sup>00</sup> |
|     |        | 21 — 30 | 13 <sup>45</sup> |
| 12. | Dekabr | 1 — 10  | 13 <sup>45</sup> |
|     |        | 11 — 20 | 13 <sup>45</sup> |
|     |        | 21 — 31 | 13 <sup>30</sup> |

ko'rsatilganki, 50 m<sup>2</sup> maydondagi o'quv xonalarini cho'g'lanish lampalari bilan yoritishda umumiy quvvati 2100 – 2400 W bo'lgan 7 yoki 8 ta yorug'lik nuqtalari bo'lishi kerak. Maktablarda nurlarni tarqatib beradigan osma yoritgichlardan (ular ish joyidan 1,9 m balandlikda o'rnatiladi), halqali yoritgich – CK-300, cho'g'lanish lampalarining quvvati 300 W bo'lgan metall halqali KMO-300 va nurlarni tarqatib beradigan polietilen halqali APK yoritgichlardan foydalaniladi. Yoritgichlar ichki devordan 1,5 m va tashqi devordan 1,3 m masofada ikki qator qilib joylashtiriladi. Qatorlardagi yoritgichlar orasidagi masofa 2,65 m, sinf doskasidan 1,2 m, sinf doskasiga qarama-qarshi devordan esa 1,6 m bo'lishi kerak.

Maktab binolarining yoritish me'yorlarini oshirish yoritgichlarning konstruksiyalarini takomillashtirish bilan jiddiy shug'ullanishni talab qiladi.

Hozirgi zamon yoritish asbob-anjomlari odatdagi yoritish me'yorlariga (lampalarning ko'zni qamashtirish xususiyatlaridan ko'zni saqlash, xonaning bir tekisda yoritilishiga erishish va sinf mikroiqlimini yomonlashtirmaslik, ya'ni xonada haroratning ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik) muvofiq bo'lishi kerak. Aks etgan shu'la tarqatadigan metall halqali yoritgichlar, xira (so'niq rang) shishadan ishlangan kosachali yoritgichlar eng qulay hisoblanadi. Sinf doskasini yoritish uchun sofit tipidagi yoritgichlardan foydalaniladi.

Keyingi yillarda olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar luminescent yo'li bilan yoritishning o'quvchilar va katta yoshdagi kishilarning ko'rish funksiyalari va ish qobiliyatiga ijobiy ta'sir etishini tasdiqladi.

Sinflardagi va boshqa o'quv xonalaridagi mebellarning yuzalarini yorug' ranglarga bo'yash va bu mebellarni quyosh nurlaridan himoya qilish yo'li bilangina yetarli va bir tekis yoritilishga erishish mumkin. Sinf bir tekisda yoritilmasa, doska, devor, shipga qarayotganda o'quvchining adaptatsiyasi buzilishi mumkin.

Maktabdagi gigiyenik sharoit bu masalada alohida ahamiyatga ega emas — o'quvchining uy sharoitlariga ham jiddiy e'tibor berish darkor.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida havoning sifati yomonlashadi. Bir darsdan so'ng sinfdagi havoning harorati 1,5 — 2 % ga, nisbiy namlik esa 7 — 10 % ga ko'payadi, SO<sub>2</sub> ning miqdori uch marta ortadi va oxirgi gigiyenik me'yor 0,1 % ga yetadi, og'ir ionlarning soni ortadi, havo bakteriyalar bilan to'yingan bo'ladi. Havoning bakteriyalar bilan zaharlanganligi kasallanishning (ayniqsa, yuqori nafas olish yo'llarining kasallanishi) ko'payishiga olib keladi.

O'quvchilarning keyingi darslarda ishlash qobiliyatlarini pasaytirmaslik uchun xonani har tanaffusda shamollatib turish kerak. Sinfdagi har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan toza havo miqdori (shamollatilganda kirishi lozim bo'lgan havo) quyidati formuladan aniqlaniladi:

$$S = \frac{k}{s - d},$$

bu yerda:  $S$  — bir o'quvchiga zarur bo'lgan toza havo miqdori, m<sup>3</sup>;  $k$  — bir o'quvchi bir soat mobaynida chiqaradigan karbonat anhidrid miqdori, m<sup>3</sup>;  $s$  — bir kub metr havodagi karbonat anhidrid miqdori, qabul qilingan gigiyenik me'yor (0,1 %) chegarasida;  $d$  — shamollatish vaqtida sinfga kiradigan bir kub metr toza havodagi karbonat anhidrid miqdori.

Tegishli hisoblashlardan so'ng sinfdagi bir o'quvchiga bir soatda 160 m<sup>3</sup> havo bo'lishi zarurligi aniqlandi. Bunday kuba-turadagi maktablarni qurish mumkin emas, chunki ular foydalanishga yaramaydi. Sinfdagi bir o'quvchiga o'rtacha 5,0 m<sup>3</sup> havo to'g'ri kelishi munosabati bilan har soatda uch marta havo almashtirish kerak. Bunga fortotchka, tortuvchi ventilatsiya yordamida erishish mumkin. Fortotchkaning maydoni polning 1/50 qismini tashkil etishi lozim.

Ventilatsiya rejimiga binoan barcha o'quv xonalari har tanaffusda, smenalar oralig'idagi dam olish vaqtida va o'quv kunining

oxirida shamollatib turilishi kerak. Bir yoqdan kirib, ikkinchi yoqdan chiqib ketadigan qilib shamollatish eng samaralidir, bunda sinfning eshik va derazalari hamda koridor derazalari ochib qo'yiladi. Lekin buni bolalar yo'q vaqtda qilish kerak.

Fizika xonasi havosining toza bo'lishiga alohida ahamiyat berish kerak. Chunki xonada ortiqcha simob bug'lari bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda fizika xonasini simob bug'laridan darhol tozalash kerak bo'ladi: ko'rinib turgan simob tomchilari mexanik yo'l bilan yo'qotiladi, juda maydalari kimyoviy yo'l bilan zararsizlantiriladi.

Buning uchun 0,1 % li kaliy permanganatga xlorid kislota (1 l eritmaga 5 ml kislota qo'shiladi) qo'shish yo'li bilan tayyorlangan eritmadan foydalaniladi. Hosil qilingan xlorli suv bilan pol va simob tomchilari tushishi mumkin bo'lgan buyumlar artib chiqiladi. Eritma bilan ishlov berilgandan so'ng ikki soat o'tgach, simob zararsizlantirilgan hisoblanadi. So'ngra xona odatdagi vositalar bilan tozalanadi.

## **10.2. Kompyuter, fizika va kimyo xonalariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari**

### **Kompyuter va ORG texnikalarda ishlovchilar uchun mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma**

#### **1. XAVFSIZLIKNING UMUMIY TALABLARI**

1. Kompyuter va ORG texnikalarda doimiy ish olib borish uchun yoshi 18 dan kam bo'lmagan, ishni xavfsiz olib borish usullari bo'yicha o'quv dasturini o'tagan, mehnat muhofazasi bo'yicha va ishni boshlash oldidan yo'riqnoma olgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan shaxslar jalb etiladi.

2. Kompyuter va ORG texnikalarida vaqtincha ish olib boradigan shaxslarga ham mehnat muhofazasi yo'riqnomalari beriladi.

3. Kompyuter va ORG texnikalari bilan doimiy ishlashga jalb etilgan shaxslar ishga kirish oldidan va keyinchalik 1 yilda 1 marta davriy tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari shart.

4. Kompyuter va ORG texnikalar bilan ish olib borish va har bir kishiga talab qilinadigan xona maydoni 6,0 m<sup>2</sup> dan, kub hisobidan esa 20 m<sup>3</sup> dan kam bo'lmashligi talab etiladi.

5. Kompyuter va ORG texnikalarda ishlash uchun ruxsat etilgan shaxslarning ish joylarida chekishlari, shuningdek, ish boshlash oldidan va ish vaqtida spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlari man etiladi.

6. Kompyuter va ORG texnikalarda ishlashga begona shaxslarga ruxsat etilmaydi.

7. Uskuna ishlashida sezilgan barcha nosozliklar haqida darhol uning xavfsiz ishlatilishi uchun javobgar bo'lgan shaxslarga xabar beriladi.

O'zini yomon his qilgan shaxslarning uskuna bilan ishlashiga ruxsat etilmaydi.

8. Yorug'lik manbayi yetarsiz bo'lganda ishlashga ruxsat etilmaydi.

9. Kompyuter va ORG texnikalari «Yerga qisqa tutashuvi» ishonchli, ya'ni «Yerga qisqa tutashuv» vositasining eng uzoq nuqtasidagi qarshiligi 2 OM dan ko'p bo'lmasligi kerak.

10. Monitor, protsessor va printerlarning orqa devorlariga va kabellar ulanish joylariga qo'l bilan tegish man etiladi.

11. Kompyuter va ORG texnikalarda ishlovchi shaxslarning sun'iy bo'lmagan matolardan tikilgan kiyimlarda ishlashlari talab etiladi.

12. Yong'in sodir bo'lganda kompyuter va ORG texnikalarda o't o'chiruvchi suyuqlik bilan yong'inni o'chirish man etiladi.

13. Kompyuter va ORG texnikalar tokka qo'shilgan holda nazoratsiz qoldirilmasin!

14. Printerlardan foydalanishda tokdan ajratilgan holda printerni kompyuter va protsessorga to'g'ri ulangandan keyin elektr tokiga ulansin.

## **2. ISH BOSHLASH OLDDAN XAVFSIZLIK TALABLARI**

1. Ish boshlashdan oldin yumshoq quruq latta bilan kompyuter va ORG texnikalarni tozalash kerak.

2. Ish joyini yig'ishtirish, xalaqit beradigan buyumlardan xoli qilish kerak.

3. Elektr uskunasi «Yerga qisqa tutashuv»ining ishonchliligini tekshirib ko'rish kerak.

4. Elektr uskunasi (kompyuter va ORG texnikalarda) ni elektr manbayiga ulash kerak. Ulash tartibi quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi: protsessor, monitor, printer.

### **3. ISH VAQTIDA XAVFSIZLIK TALABLARI**

1. Kompyuterda ishlaganda ko‘z ko‘ruvchi analizatorining toliqmasligi uchun ko‘zdan kompyutergacha bo‘lgan masofa 60 — 70 sm ni tashkil etishi lozim.

2. Nam qo‘llar bilan ishlash man etiladi.

3. Ish jarayonida diqqatni bir joyga jamlash, chalg‘imaslik va boshqalarni ham chalg‘itmaslik lozim.

8 soat ish kunida operatorning uzluksiz ish vaqti har 45 — 50 daqiqadan keyin 10 — 15 daqiqalik tanaffuslar bilan davom etishi lozim.

4. Kompyuter va ORG texnikalar bilan ishlaganda ish va dam olish vaqtlari davomiyligi bajarilayotgan ishning uzluksizligi va xarakteriga asoslanadi.

5. Uzluksiz ravishda ma‘lumotlar kiritish, dasturlar tuzish, ekranda ma‘lumotlarni o‘qish, videomonitor bilan ishlash jarayoni kunlik ish davomida 4 soatdan oshmasligi kerak. Ish kunining qolgan vaqti boshqa ishlar bilan shug‘ullanish uchun sarf etiladi. Kunlik ish davomida stereotip ish harakatlari soni 40000 dan oshmasligi lozim.

6. Operatorlar ishini yengillatish maqsadida ularning ish yuklanishlarini bir xilda taqsimlash va har xil sohalar bilan ish olib boruvchi ratsional tarzda davom ettirish talab etiladi.

Operator o‘zini yomon his qilgan holda darhol ishni to‘xtatishi, ish joyini xavfsiz holatga keltirishi, ish boshqaruvchini bu haqda ogohlantirishi, lozim bo‘lgan tibbiyot xodimiga murojaat etishi kerak.

### **4. AVARIYA HOLATIDA XAVFSIZLIK TALABLARI**

1. Kompyuter va ORG texnikalar ishlayotganda begona tovush, buzilish sezilganda yoki ish bajarayotib, avariya holati yuzaga kelganda quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- ishni darhol to‘xtatish;
- ishlovchilarni xavf haqida ogohlantirish;
- ish beruvchiga xabar berish;
- zudlik bilan bartaraf etish talab etiladigan nosozliklarni bartaraf etish.

2. Insonlar bilan baxtsiz hodisa sodir bo'lganda, ularga ilk tibbiy yordamni ko'rsatish, ish beruvchiga xabar berish, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan holatni qanday bo'lsa, shu holda saqlab turish lozim.

## **5. ISHNI TUGATISHDA XAVFSIZLIK TALABLARI**

1. Kompyuter va ORG texnikalar elektr manbayidan ajratiladi (printer, protsessor, monitor).

2. Ish joyi tartibga keltiriladi (chang va kirdan tozalanadi).

Ish kuni davomida aniqlangan barcha nosozliklar haqida ish beruvchiga xabar bildirish kerak.

### **Fizika laboratoriyasi ishi uchun texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomasi**

Laboratoriya ishini bajarishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida elektr tokining hayot uchun xavfli ekanligini yodingizda tuting va ehtiyot bo'ling.

2. Tok manbayi va ulash simlarida tokning mavjudligini indikator, voltmeter yoki sinash lampalari yordamida tekshiring.

3. Zanjir yig'ishda foydalanayotgan simning izolatsiyasiga ishonchingiz komil bo'lishi kerak.

4. Ishning to'la zanjirini yig'ib bo'lgandan keyin u faqat laboratoriya darsini olib boruvchi o'qituvchining ruxsati bilangina manbaga ulanadi va ulash ishlari bajariladi.

5. O'lchayotganingizda biror elektr asbobining buzilgani yoki noto'g'ri ishlayotgani ko'rsatayotganini sezsangiz, darhol zanjirli manbadan ajratib laboratoriya mashg'uloti olib borayotgan rahbaringizga ayting.

6. Har qanday laboratoriya ishini bajarib bo'lganingizdan keyin zanjirning manbadan ajratilganligiga ishonch hosil qiling va so'ngra zanjirni qismlarga ajratishga kirishing.

7. Laboratoriya ishi davomida sinishi mumkin bo'lgan idishlardan ehtiyot bo'lib foydalaning.

8. Isitish asboblari va qaynagan suvdan ehtiyotkorlik bilan foydalaning.

9. Xavfli asboblardan o'qituvchi nazorati ostida foydalanishni esingizdan chiqarmang.



10. Intensiv ultrabinafsha nurlanish inson ko‘ziga zararli ta’sir qilishini unutmang.

11. Simobli lampalardan foydalanish vaqtida qat’iy qoidalarga rioya qiling.

12. Bu laboratoriya ishlarini bajarishda qora ko‘zoynak taqish shart.

13. Agar biror sababga ko‘ra simob lampasi sinib qolsa, u holda darrov o‘qituvchi yoki laborantga murojaat qiling.

14. Radioaktiv modda bilan ishlayotganda ham xavfsizlik qoidalari rioya qiling.

15. Ba’zi tajribalarni o‘zingiz bajarishga harakat qiling.

16. Inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan vositalar bilan ishlashda albatta o‘qituvchi yoki laborant nazorat qilib turishi kerakligini yodingizda saqlang.

17. Laboratoriya ishlarini maxsus jihozlangan xonalarda bajaring.

18. Laboratoriya xonasida birinchi yordam ko‘rsatish imkonini beruvchi tibbiyot aptechkasi bo‘lishi lozim.

### **O‘quvchilarning vazifalari**

1. Texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilinishi shart, qoidalarining sistematik ravishda buzilishi ro‘y bergan vaqtda o‘quvchilar o‘quv ustaxonalarida ishlash huquqidan mahrum etiladilar.

2. Faqat o‘qituvchi tomonidan topshirilgan ish bajarilishi va bu texnologik karta asosida yoki ko‘rsatilgan usullar bilan olib borilishi kerak.

3. Maxsus ish kiyimida (xalat va fartukda) ishlash, kiyim bejirim bo‘lishi, yeng shimarilgan, tugmalar qadalgan bo‘lishi, galstuk yoki sharflar osilib qolmasligi, qizlarning sochi ishdan oldin turmaklanib ro‘mol ostiga olinishi lozim.

4. Ishdan so‘ng ish joyini yig‘ishtirib, tozalab tartibga solish kerak.

### **Kimyo laboratoriyasi ishi uchun texnika xavfsizligi qoidalari bo‘yicha yo‘riqnama**

Qoidalar o‘quvchilarga o‘qib beriladi, har bir qoidaning mohiyati tushuntiriladi va ular kimyo laboratoriyasining ko‘rinadigan joyiga o‘rnatiladi.

Laboratoriya ishini bajarishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Ish jarayonida faqat toza, quruq va butun, ishga yaroqli asboblardan foydalanish lozim.

2. Uchuvchan moddalarni ehtiyotlik bilan hidlash.

3. Ko'zni saqlash (chunki zararli moddalarning eng mayda tomchisi va bug'lari ham ko'z pardasiga tushib, ko'rish qobiliyatini yo'qotishga olib keladi).

4. Qizdirilayotgan suyuqligi bor probirkaning ochiq tomonini o'zingizdan va o'rtoqlaringizdan chetga qaratish (chunki o'ta qizdirilib yuborilgan suyuqlik qaynab chiqib, qo'lga va yuzga sachrashi mumkin).

5. Probirkalarda moddaning eritmalarini qizdirish uchun ularni probirkaning 1/3 qismigacha quyish kerak.

6. Qattiq moddalarni faqat quruq probirkalarda va chinni kosachada qizdirish kerak.

7. Moddalar shisha idishlarda qizdirilganda ularni quruq yonilg'i alangasiga tekkizmaslik (idish darz ketib, sinishi mumkin).

8. Qattiq yonilg'ini ishlatib bo'lgach, uni maxsus qopqoq bilan berkitib o'chirish kerak.

9. Reaksiyani kuzatayotganda probirkani yuzga yaqin olib kelmang.

10. Himoya ko'zoynaklaridan foydalanishni odat qilib oling.

### **Taqiqlanadi:**

1. Moddaning ta'mini tatib ko'rish, yaqin masofada turib hidlash, kimyoviy idishlarda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash.

2. Laboratoriyadan biron-bir kimyoviy moddani boshqalarga berish.

3. Laboratoriyadan kimyoviy moddalarni yoki ortiqcha buyumni olib ketish.

4. Bironta kimyoviy modda qaynayotgan idish ustidan engashib qarash (chunki suyuqlikning mayda tomchilari ko'zga sachrashi mumkin).

5. Kimyoviy reaksiya jarayonida (bug'lanayotgan, qaynab turgan) idishni qo'lga olish.

6. Qalin devorli shisha idish, o'lchov idishi va hovonchalarni alangada qizdirish.

7. Ichida suyuqligi bor bo'lgan probirkani chayqatishda uni barmoq bilan berkitish.

## Birinchi yordam ko'rsatish choralari

1. Agar teriga (qo'l, yuz va boshqa joylarga) konsentrlangan kislota sachrasa, darhol tananing jarohatlangan qismi kuchli toza suv oqimi bilan 3 — 4 daqiqa davomida yuviladi, so'ngra shikastlangan joyga kaliy permanganatning 3% li eritmasi shimdirilgan

6-jadval

### Ayrim kimyoviy moddalarning inson organizmiga zararli ta'siri

| №                            | Nomi                              | Modda turi va formulasi                                             | Salbiy ta'siri                                                                       |
|------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| 1                            | 2                                 | 3                                                                   | 4                                                                                    |
| <b>K i s l o t a l a r</b>   |                                   |                                                                     |                                                                                      |
| 1.                           | Nitrat kislota                    | $\text{HNO}_3$ , konsentrlangan                                     | Ajralib chiqayotgan $\text{HNO}_3$ nafas yo'llarini yallig'laydi                     |
| 2.                           | Sulfat kislota                    | $\text{H}_2\text{SO}_4$                                             | Teriga tegsa kuchli kuydiradi                                                        |
| 3.                           | Xlorid kislota                    | $\text{HCl}$                                                        | Bug'lar nafas yo'llarini va ko'zni yallig'lantiradi                                  |
| 4.                           | Fosfat kislota                    | $\text{H}_3\text{PO}_4$                                             | Terini qattiq kuydiradi                                                              |
| 5.                           | Sirka kislotasi                   | $\text{CH}_3\text{COOH}$                                            | Kuchli zahar bug'lari shilliq pardalarni shikastlaydi                                |
| <b>I s h q o r l a r</b>     |                                   |                                                                     |                                                                                      |
| 1.                           | O'yuvchi kaliy va o'yuvchi natriy | $\text{OHNaOH}$                                                     | Teriga, nafas yo'llari shilliq pardasiga va ko'zga salbiy ta'sir etadi               |
| 2.                           | Mis sulfati va xloridi            | $\text{CuSO}_4$ , $\text{CuCl}_2$ va boshqalar                      | Changidan nafas olinsa va ovqat hazm qilish organlariga tushsa, zararli ta'sir etadi |
| 3.                           | Nikel, qo'rg'oshin tuzlari        | $\text{NiCl}_2$ , $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$ va boshqalar | Zaharli moddalar turkumiga kiradi                                                    |
| <b>P e r o k s i d l a r</b> |                                   |                                                                     |                                                                                      |
| 1.                           | Vodorod peroksidi                 | $\text{H}_2\text{O}_2$                                              | Terini yallig'lashi va kuydirishi mumkin                                             |
| <b>M e t a l l a r</b>       |                                   |                                                                     |                                                                                      |
| 1.                           | Kalsiy                            | $\text{Ca}$                                                         | Suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi                                             |

| 1                             | 2                            | 3                                    | 4                                                                   |
|-------------------------------|------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| M e t a l l m a s l a r       |                              |                                      |                                                                     |
| 1.                            | Brom                         | $\text{Br}_2$ — suyuq modda          | Bug'lari nafas yo'llarini yallig'laydi, suyuq brom terini kuydiradi |
| 2.                            | Yod                          | $\text{I}_2$ — kristall modda        | Zaharli, terini kuchli kuydiradi                                    |
| 3.                            | Oltinugurt                   | S — kukun holida                     |                                                                     |
| G a z l a r                   |                              |                                      |                                                                     |
| 1.                            | Ammiak                       | $\text{NH}_3$                        | Havodagi konsentratsiyasi 0,5% bo'lsa zaharlaydi                    |
| 2.                            | Vodorod sulfid               | $\text{H}_2\text{S}$                 | Kuchli zahar                                                        |
| 3.                            | Sulfat angidrid              | $\text{SO}_2$                        | Kuchli zahar                                                        |
| 4.                            | Xlor                         | $\text{Cl}_2$                        | Kuchli zahar                                                        |
| 5.                            | Etilen                       | $\text{C}_2\text{H}_4$               | Ruhiy ta'sir etadi                                                  |
| O r g a n i k m o d d a l a r |                              |                                      |                                                                     |
| 1.                            | Aseton                       | $(\text{CH}_3)_2\text{CO}$           | Bug'i zaharlaydi                                                    |
| 2.                            | Sirka kislota                | $\text{CH}_3\text{COOH}$             | Nafas yo'li, shilliq pardalarini yallig'laydi, kuchli kuydiradi     |
| 3.                            | Fenol                        | $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$      | Bug'lari nafas yo'llarini yallig'laydi va teri uchun zararli        |
| 4.                            | Benzol                       | $\text{C}_6\text{H}_6$               | Markaziy asab tizimini zaharlaydi                                   |
| 5.                            | Sirka kislotaning etil efiri | $\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$ | Narkotik ta'sir ko'rsatadi                                          |

paxta qo'yiladi. Agar shikastlanish darajasi kuchli bo'lsa, tezda shifokorga murojaat qilish lozim.

2. Agar teriga ishqor to'kilgan bo'lsa, o'sha joy avval suv bilan teridagi silliqqligi yo'qolguncha yuvilishi kerak. So'ngra zararlangan joyga kaliy permanganatning 3% li eritmasidan shimdirilgan paxta qo'yib bog'lanishi lozim.

3. Agar ko'zga kislota yoki ishqor sachrasa, ko'zni yaxshilab suv bilan yuvib, tezda shifokorga murojaat qilish kerak.

4. Agar terini issiq narsalar (masalan, issiq shisha yoki issiq metall) tegib kuydirsa, shu joy kaliy permanganatning 3% li eritmasi bilan yuvilib, unga maxsus surtma moy (archilgan kartoshka yoki zig'ir yog'i) surtish kerak.

### **Amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha METODIK TAVSIYALAR**

O'quvchilar amaliyot darslarida maktab xonalarining harorat-namlik rejimini, yoritish xarakteri va rejimini, shuningdek, sinf xonalari, kabinetlar, ustaxonalarining havosini tozalashni o'rganib oladilar; yorug'lik koeffitsiyentini, yorug'lik nurlarining tushish burchagini aniqlaydilar, soya tushiradigan omillarning bor yoki yo'qligini qayd qiladilar.

Talaba meditsina punktida biror sinfda o'quvchilar ko'zining o'tkirligi qandayligi bilan tanishadi.

Talaba o'quvchilarning o'z-o'ziga qanday xizmat ko'rsatayotganligini kuzatadi, kamchiliklarni qayd etib, ularni bartaraf qilishga yordam beradi.

Talabalar parta raqamlarining o'quvchilar bo'yiga muvofiq-ligini aniqlaydilar, sinfning jihozlanishini gigiyena nuqtayi nazaridan baholaydilar, o'quvchilarning joy-joylariga to'g'ri o'tirgizilganini kuzatadilar va sinfda sanitariya qoidalari buzilgan bo'lsa, uni bartaraf qilish tadbirlarini belgilaydilar. O'quvchilarning partaga to'g'ri o'tirgizilganligini hisobga olgan holda ular ko'zining o'tkirligi va qaddi-qomatining qandayligini (maktab shifokorining ma'lumotlari bo'yicha) tahlil qilish o'rinli bo'ladi.

Kabinetlar (kompyuter, fizika, kimyo, biologiya, chizmachilik va boshqa kabinetlar) ning qanday jihozlanganligini o'rganishda, stollarning balandligi, kengligi va ularning joylashtirilishiga e'tibor berish kerak. Biologiya kabinetida parrandalar, mayda hayvonlar saqlanadigan joyning sanitariya holati, kimyo kabinetida havoni tortib oluvchi shkaf, yuvish xonasi va mahalliy yoritish nuqtasining mavjudligi hisobga olinadi.

### ***Nazorat savollari***

1. Maktabdagi sinf xonalari va boshqa o'quv xonalari o'lchamlarining gigiyenik me'yorlari.
2. Darsda va o'quv kuni mobaynida sinfdagi havo tarkibining o'zgarishi.
3. Maktabdagi xonalarning ventilatsiya rejimi.
4. Maktab xonalarini yoritish turlari va me'yorlari.
5. Parta va maktab jihozlarining boshqa turlariga qo'yiladigan fiziologik va gigiyenik talablar.

## **11-BOB. MEHNAT VA TASVIRIY SAN'AT XONALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

### **11.1. Mehnat xonalarida ish jarayonida ko'rgazma qurollaridan foydalanish**

O'quvchilar mehnat ta'limi asoslarini tizimli o'rganishlari uchun eng qulay sharoit yaratish maqsadida maktablarda o'quv ustaxonalari tashkil etiladi. O'quv ustaxonalari muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, butun faoliyati o'quv-tarbiya vazifalarini hal qilishga qaratiladi. Maktab o'quv ustaxonalari qanday o'quv-tarbiyaviy vazifalarni bajarishi kerak? Maktab o'quv ustaxonalari texnik mehnat ta'limining xilma-xil tashkiliy shakllaridan foydalanish; hozirgi zamon texnikasiga doir bilimlar tizimini bayon qilish; tekshirish xarakteridagi ishlarni olib borish; mustahkam mehnat ko'nikmalari va malakalarni tarkib toptirish; o'quvchilarga mustaqil ishlash, chizmalar asosida yoki texnologik kartalar bilan ishlashni o'rgatish; konstruktorlik-texnologik xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni hal etish malakalarini tarkib toptirish; texnik-estetik did va mehnat madaniyatining to'g'ri malakalarini hosil qilish; mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; yuqori darajadagi mehnat intizomi va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish uchun yaxshi sharoit yaratishi lozim.

Maktablardagi o'quv ustaxonalarida mehnat ta'limi o'qituvchilarining rahbarligida o'quvchilar mashg'ulotlar o'tkazadilar. Ustaxonalarda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar sanoat ishlab chiqarishining asosiy turlari (duradgorlik, chilangarlik, tokarlik va elektrotexnikaga oid ishlar), shuningdek, ishlab chiqarish qurollarining tuzilishi, ishlash prinsiplari, xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishadilar. Ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan asbob-uskuna, elektrlashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan stanoklardan foydalanish ishlarini amalga oshiradilar. O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan buyumlar yasashga ishlatiladigan materiallarni va elektr energiyani to'g'ri va tejab sarflashni o'rganadilar.

O'quv ustaxonalarida o'quvchilar yog'och va metallga qo'l asboblari bilan ishlov berishda tegishli malaka va ko'nikmalar orttiradilar, bu materiallarga stanoklarda mexanik ishlov berish prinsiplari bilan tanishadilar.

Maktab o'quv ustaxonalari texnik ta'limni amalga oshirishga qaratilgan va hozirgi zamon texnikasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Shuningdek, maktab o'quv ustaxonalarida amalga oshiriladigan har qanday ish maktabning o'quv rejasi, texnik mehnat ta'limi dasturiga asoslangan bo'lishi lozim. O'quv ustaxonalarida texnik mehnat ta'lim darslaridan tashqari, texnik to'garaklarning mashg'ulotlari ham o'tkaziladi.

### **Maktab o'quv ustaxonalarining binolari va ularga qo'yiladigan talablar**

Maktablarda mehnat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'quvchilarda mehnat malakalari hosil qilish, ularda mehnat madaniyatini shakllantirish, turli xil kasblarga havas uyg'otish, amaliy mashg'ulotlarning samarali o'tishi o'quv ustaxonalarining barcha talablarga javob berarli darajada jihozlanishiga ko'p jihatdan bog'liq. O'quv ustaxonalarini estetik jihatdan o'quvchilarning diqqatini jalb etadigan, kasbga havas uyg'otadigan, xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan qilib jihozlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun barcha turdagi ish o'rinlarini tashkil qilishga, qo'shimcha jihozlarini, ko'rgazmali o'quv buyumlarini did bilan, saranjom-sarishtali o'rnatishga alohida e'tibor berish zarur.

Maktab o'quv ustaxonalari o'ziga qo'yilgan vazifalarga asoslanib, quyidagi asosiy sanitariya-gigiyena va tashkiliy-metodik talablarga javob berishi lozim:


a) maktab o'quv ustaxonalari uchun qurilgan bino o'quv-pedagogik, sanitariya-gigiyena va ishlab chiqarish-texnika talablariga javob berishi;

b) o'quv ustaxonalarining jihozlanishi zamonaviy texnika darajasiga, yuqori mehnat madaniyatiga mos bo'lishi, ularda texnik mehnat ta'limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun sharoit yaratilgan bo'lishi;

d) o'qituvchining o'quvchilari bilan ham jamoa o'quv-ishlab chiqarish, ham guruhlariga ajratish usulida ish olib borishi uchun sharoit yaratilgan bo'lishi;

e) o'quv ustaxonalarida o'quvchilar uchun eng qulay va xavfsiz mehnat sharoiti ta'minlangan bo'lishi;





**26-rasm. Maktab o‘quv ustaxonasining namuna sxemasi:**

1 — duradgorlik ustaxonasi; 2 — asboblari xonasi; 3 — chilangarlik ustaxonasi

f) o‘quv ustaxonasida har bir o‘quvchiga mustaqil ish o‘rni ajratilgan bo‘lib, u zarur uskuna, asboblari va qo‘shimcha moslamalar, shuningdek, texnik vositalari bilan ta‘minlanishi;

g) texnik mehnat ta‘limi o‘qituvchisi uchun tegishli jihozlari, asboblari, moslamalar bilan jihozlangan hamda poldan 260 mm balandlikda joylashtirilgan namunali ish o‘rni tashkil etilishi lozim.


Yordamchi xizmat binosi (tayyorlangan buyumlar, asboblari binosi) o‘quv ustaxonasiga yaqin joylashtirilgan bo‘lishi zarur.

O‘quv ustaxonalari doimo ozoda bo‘lishi, buning uchun qulay joyda supurgi, cho‘tki, xokandoz, belkurak, chelak va boshqa inventarlar turishi kerak.

Metall ishlash ustaxonalariga metall qirindilari va chiqindilari uchun maxsus yashik qo‘yish, keyin bu chiqindilarni qayta eritishga topshirish kerak.

Ustaxonalar o‘quvchilar diqqatini ishdan chalg‘itadigan hamda mehnat jarayoniga xalal yetkazmaydigan shovqin va tashqi ta’sirlardan xoli bo‘lishi lozim. Hozirgi mavjud loyihalar bo‘yicha qurilayotgan o‘quv ustaxonalari maydoni 90 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Ustaxonalar maktabning asosiy binosidan, sinf va o‘quv xonalaridan, ortiqcha ishlab chiqarish tovushlaridan xoli bo‘lishi uchun uzoqroqda, bir qavatli binolarga joylashtiriladi.

Ustaxona devorlari pishiq g‘ishtdan quriladi. Namunali o‘quv ustaxonalari materiallar, chala fabrikatlar, tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob va uskunalarini saqlash uchun zarur qo‘shimcha binolarga ega bo‘ladi. O‘quv ustaxonalari quruq, yog‘och polli, tabiiy va sun‘iy shamollatish yaxshi bo‘lishi; ustaxonani yoritish me‘yori 150 lk, qishki havo harorati 15–18°C, yoz davrida esa 20–22°C gacha bo‘lishi lozim. Yoritgichlar sifatida kunduzgi nur lampalaridan foydalanilgani ma‘qul.




**27-rasm. Maktab ustaxonasining namuna loyihasi:**

1 – chilangarlik ustaxonasi; 2, 11 – asbobxona; 3 – tayyor buyumlar saqlash xonasi; 4, 9 – omborxona; 5, 6 – garderob; 7 – mashinasozlik xonasi; 8 – garaj; 10 – yelim tayyorlash xonasi; 12 – duradgorlik o'quv ustaxonasi; 13 – ayvon

O'quv ustaxonalarining devorlari silliq, ochiq (yorqin) rang bilan bo'yalgan, shipi esa oq rangda bo'lishi lozim.

Ustaxonadagi asbob-moslamalar ham nurlarga uyg'un ravishda jihozlangan bo'lishi kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan



**28-rasm. Maktab duradgorlik o'quv ustaxonalarining jihozlanishi:**

1 – kunda; 2 – dastgohlar; 3 – universal arralash va randalash stanogi; 4 – parmalash stanogi; 5 – yog'och ishlash tokarlik stanogi; 6 – charx; 7 – o'qituvchining ish o'rni; 8 – qo'l yuvgich; 9 – aptechka; 10 – asbob-uskuna va materiallar o'rni; 11 – devor soati

bo'yoqlar ishlov beriladigan obyektlar va ustaxonaning umumiy foni, jihozlarning turli qismlari o'rtasida to'g'ri kontrast hosil qiladi.

Duradgorlik, chilangarlik va boshqa o'quv ustaxonalarida 25 kishilik o'rin bo'lishi kerak. O'quv ustaxonalari uskunalarining asosiy qismini tashkil qiladigan duradgorlik va chilangarlik dastgohlaridan tashqari stanokli uskunalarining boshqa turlariga ham ega bo'lishi kerak. Chunonchi, chilangarlik-mexanika ustaxonalarida uchun uchtagacha tokarlik-vint qirqish (TB-4, TBIII-3,4), ikkita vertikal-parmalash stanogi, bitta charxlash stanogi, bitta jilvirlash stanogi, mufel pechi, kichik gabaritli elektr payvandlash apparati va shunga o'xshashlar bo'lishi lozim.

O'quv ustaxonalarida asbob va uskunalarini joylashtirishda yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasining quyidagi talablariga rioya qilinishi shart:

1) o'quv ustaxonalarini ortiqcha inventar va uskunalar bilan to'ldirib yubormaslik;

2) dastgohlar, stanoklar hamda dastgoh qatorlari o'rtasidagi o'tish joylari belgilangan me'yor chegarasida bo'lishi;

3) dastgohlar, stanoklar chekka qatori bilan devorning o'rtasi 0,5 m dan kam bo'lmasligi;

4) uskunalarining parmalash stanoklari, jilvirli charx kabi turlari o'qituvchining ish joyiga yaqin joylashtirilishi;

5) tokarlik, frezalash stanoklari va jilvirli charx himoya ekrani va elektr blokirovka bilan ta'minlangan bo'lishi;

6) ish vaqtida o'quvchilarga xavf tug'diradigan stanoklarning barcha qismlari ishonchli himoya qurilmasi bilan to'sib qo'yilishi;

7) chilangarlik dastgohlari himoya to'ri, individual o'rindiq, asboblarni majmuasiga ega planshet bilan ta'minlangan bo'lishi;

8) ustaxonalarda elektrotexnik ishlarni bajarish uchun 220 V li elektr manbayi bo'lishi;

9) o'quv ustaxonalarida har bir mehnat darsidan so'ng o'quvchilarning qo'llarini yuvib ketishlari uchun umivalnik, ish kiyimlari uchun maxsus joy ajratilgan bo'lishi lozim.

Maktab o'quv ustaxonasi binolaridan unumli foydalanish, tozalik, devor va uskunalarni to'g'ri bo'yash, namunali tartib va estetik talablarga rioya qilish — bularning hammasi o'quvchilarda mehnat intizomini tarbiyalaydi.

O'quv ustaxonalarini jihozlashda ularning quyidagi talablarga javob berishi e'tiborga olinadi:

**1. Har qaysi kasb uchun ajratilgan o'quv ustaxonasi maydonining yetarliligi.** O'quv ustaxonasining maydoni guruhdagi o'quvchilarning soniga qarab yetarli darajada ish o'rinlarini joylashtirish imkonini beradigan bo'lishi kerak. Guruhdagi o'quvchilarning soni 25 tadan kam bo'lmasligini e'tiborga olish, individual ish o'rinlarining o'quvchilarning sonidan kam bo'lmasligiga erishmoq zarur. Ish o'rinlari yetishmasa, ba'zi o'quvchilarning ishsiz qoladilar, buning oqibatida ular yetarli darajada mehnat malakalari hosil qila olmaydilar, kasblarini puxta o'rgana olmaydilar. Ikkinchi tomondan, ish o'rinlari yetarli bo'lmagan hollarda o'quvchilarning o'zlariga topshirilgan ishlarni bajarish uchun joy axtarishadi, bo'sh qolgan ish o'rnidan, asbob-uskunalardan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu esa dastgohlarning, asbob-uskunalarining ishdan chiqishiga olib keladi, o'quvchilarning mas'uliyatini susaytiradi. Shuning uchun, duradgorlik o'quv ustaxonalarida dastgohlar yetarli bo'lmagan taqdirda, ayrim

o'quvchilarga yog'och ishlanadigan stanokda bajariladigan ishlarni topshirish mumkin. Bunda guruhdagi o'quvchilarning soniga qarab ularning yil davomida yog'och ishlanadigan tokarlik stanogida amaliy mashg'ulot o'tkazib yetarli malaka hosil qilishlarini ta'minlash maqsadida mashg'ulotlar jadval asosida tashkil etiladi. Jadval tuzishda har bir stanokda ikkitadan o'quvchining ishlashini hisobga olib, ularning qaysi stanokda, nechta mashg'ulot davomida ishlashlari qayd qilinadi.

Shuningdek, duradgorlik dastgohlari yetarli bo'lmagan hollarda guruhdagi o'quvchilarning bir qismi bilan alohida tashkil etilgan ish o'rinlarida lobzik bilan arralashni mashq qildirish mumkin.

Ana shunday yo'llar bilan guruhdagi barcha o'quvchilar amaliy mashg'ulotda ish bilan ta'minlanadilar.

O'quv ustaxonalarida individual ish o'rinlaridan tashqari, umum foydalaniladigan ish o'rinlari, qo'shimcha jihozlar ham joylashtiriladi. Duradgorlik o'quv ustaxonasidan umum foydalaniladigan ish o'rinlarida turli tipdagi yog'och ishlash stanoklari, charx, kunda, bo'yoqchilik stoli va boshqalar; qo'shimcha jihozlardan asbob-uskunalar, ko'rgazmali o'quv buyumlari, materiallar, tayyorlangan va chala ishlar saqlanadigan shkaf hamda javonlar joylashtiriladi. O'quv ustaxonasi devorlariga osiladigan, yopishtiriladigan ko'rgazmali o'quv buyumlari uchun maydon bo'lishi talab etilmaydi.

Duradgorlik o'quv ustaxonalarida chilangarlik ishlari ham bajarilishini hisobga olib, bitta yoki ikkita chilangarlik ish o'rni tashkil qilinsa, yanada yaxshi bo'ladi.

Duradgorlik o'quv ustaxonasida xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalari talablariga amal qilgan holda ish o'rinlari ikki xonaga joylashtirilgani ma'qul. Bunda individual ish o'rinlari (duradgorlik dastgohlari) bir xonaga, umum foydalaniladigan ish o'rinlari (yog'och ishlash stanoklari) esa ikkinchi xonaga joylashtiriladi. Ayrim ish o'rinlari va qo'shimcha jihozlar foydalanishga qarab turli xonalarga joylashtiriladi.

Duradgorlik dastgohlari o'rnatiladigan xona maydoni kichik bo'lsa, dastgohlarni ikki o'rinli dastgoh ko'rinishida qarama-qarshi joylashtirish mumkin. Biroq bir o'rinli dastgohlarni ikki o'rinli dastgoh ko'rinishida joylashtirishda ular bir-biriga jipslab o'rnatilmasdan, balki oralari ochiq qoldiriladi, ularni bir-biriga kashaklab

qotirishga aslo yo‘l qo‘yilmaydi. Aks holda ular ikki o‘rinli dastgohlardan farqsiz bo‘lib qoladi. Ikki o‘rinli dastgohlardan foydalanish o‘quvchilarning bir-biriga xalal berishiga, ish sifatining, xavfsizlik texnikasi qoidalarining buzilishiga olib keladi. Bunda arralash va randalash stanoklari yordamida uzun o‘lchamli yog‘och materiallariga ishlov berilishi hisobga olinadi.

**2. O‘quv ustaxonasining yetarli darajada yoritilishi.** Ustaxona joylashishiga qarab tabiiy yoki sun‘iy yo‘l bilan yoritiladi. Ustaxona tabiiy yo‘l bilan yoritilganda yorug‘lik binoga sharq, janub, g‘arb yoki janubi-sharqiy, janubi-g‘arbiy tomonlaridan tushgani ma‘qul. Shuningdek, ustaxonaning tabiiy yorug‘lik bilan yoritilishini ta‘minlash maqsadida deraza romlarining katta va yetarli bo‘lishi talab etiladi. Deraza romlarining umumiy yuzasi pol yuzasining 1/4 qismini tashkil etsa, yetarli hisoblanadi, bundan kam bo‘lgan hollarda bino qo‘shimcha ravishda sun‘iy yorug‘lik bilan yoritiladi. Xonalarni sun‘iy yo‘l bilan yoritishda har bir ish o‘rniga tushadigan yorug‘likning 100 — 150 lk bo‘lishi kifoya qiladi. Ish o‘rinlarining tabiiy yoki sun‘iy yo‘l bilan yoritilishidan qat‘i nazar, ish o‘rinlarini joylashtirishda yorug‘likning old yoki chap tomondan yo tik tushadigan bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

**3. Ustaxonaning isitilishi.** O‘quv ustaxonasida olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning maxsus kiyimda ishlashlarini hisobga olib, yil faslining turli davrlarida xona haroratining 16 — 20 °C atrofida bo‘lishi ta‘minlanadi. Bu harorat o‘quvchilar organizmi uchun eng ma‘qul hisoblanadi.

**4. Ustaxona polining taxtadan va havosi namligining normal bo‘lishi.** Ustaxona zax bo‘lmasligi kerak. Zax bino o‘quvchilarning salomatligiga zarar yetkazish bilan bir qatorda dastgohlarning, yog‘och asbob-uskunalarining, shkaflarning nam tortib bo‘kishiga, shakl va o‘lchamlarining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv ustaxonalari polining taxtadan va havosi namligining normal bo‘lishi talab etiladi.

**5. Ustaxonaning shamollatiladigan bo‘lishi.** O‘quv ustaxonasida yog‘och ishlanadigan tokarlik stanogi, arralash va randalash stanoklari bilan ishlanganda, mashg‘ulotdan so‘ng ish o‘rinlari va ustaxonani yig‘ishtirishda chang ko‘tariladi. Ustaxonada ko‘tariladigan changni yo‘qotish maqsadida bino maxsus shamollatgich

yordamida yoki deraza romlarini ochish yoʻli bilan changdan tozalanadi — shamollatiladi. Bu ishni mashgʻulotdan soʻng navbatchi oʻquvchilar bajaradilar. Chang koʻtarilmasligi uchun polga suv sepish tavsiya etiladi.

**6. Ustaxonada qoʻl yuvish uchun suv, sovun, sochiq boʻlishi va hammasi joy-joyida turishi talab etiladi.**

**7. Ustaxonaning elektr energiyasi bilan taʼminlanishi.** Ustaxonani yoritish, stanoklarni elektr energiyasi bilan taʼminlash maqsadida binoga uch fazali elektr liniya oʻtkaziladi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga toʻla amal qilgan holda elektr liniya umumiy taqsimlagich shchitga tortilib, undan xonalarga, yoritish tarmogʻi va stanoklarga taqsimlanadi.

Xavfsizlikni taʼminlash maqsadida har bir xonaga yoritish tarmogʻi uchun alohida, stanoklar uchun alohida umumiy saqlagichli rubilnik, shuningdek, har bir stanokka alohida-alohida saqlagichli rubilnik oʻrnatilgani maʼqul. Bu narsa bir stanokni ishga sozlash yoki tuzatish vaqtida boshqalarini toʻxtatib yoki yoritish tarmogʻining uzilib qolmasligini taʼminlaydi, ayrim xavfli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

**8. Ustaxonada aptechka boʻlishi.** Oʻquv ustaxonasida amaliy mashgʻulot oʻtayotganda oʻquvchilar jarohatlanishi, tobi qochib qolishi mumkun. Bunday hollarda birinchi yordam tariqasida turli xil dorilar ichiladi, jarohatlangan joylariga dori surilib bogʻlab qoʻyiladi. Shuning uchun ustaxonada aptechka oʻrnatiladi.

Oʻquv ustaxonalarini jihozlash mehnat oʻqituvchisi yoki ishlab chiqarish taʼlimi ustasining zimmasiga tushadi. Shuning uchun pedagogika oʻquv yurtlarining oʻquv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashgʻulotlar davomida, mehnat darslarini oʻqitish metodikasi boʻyicha oʻtkaziladigan laboratoriya-amaliy mashgʻulotlarida talabalarga oʻquv ustaxonalarini jihozlash xususida keng tushunchalar berib, ayrim tayanch maktablarining oʻquv ustaxonalari bilan tanishtirish zarur.

Mehnat oʻqituvchisi oʻquv ustaxonasini jihozlash bilan bir qatorda, undagi buzilgan dastgohlarni, asbob-uskunalarni, stanoklarni tuzata bilishi, ishga sozlay olishi, ustaxonani yangi asbob-uskunalar bilan toʻldirib turishi kerak.

Shuning uchun pedagogika oʻquv yurtlari oʻquv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashgʻulotlarda boʻlgʻusi mehnat

o'qituvchilariga asbob-uskuna, dastgoh va stanoklarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va tuzatish ishlari o'rgatib boriladi.

### **Maktab o'quv ustaxonalarida o'qituvchining ish o'rnini tashkil qilishga qo'yiladigan talablar**

Mehnat ta'limi darslarini pedagogik jihatdan to'g'ri o'tkazishda maktab o'quv ustaxonalarida o'qituvchining ish o'rnini tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ustaxonada o'qituvchining ish o'rnini tashkil qilishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. O'qituvchining ish o'rnini hamma o'quvchilarga yaqqol ko'rinib turishi, undagi asbob va zagotovkalarni saqlash tartibi hamda ish o'rnining tashkil qilinishi o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak.

2. O'qituvchining ish o'rnini doskaga yaqinroq joyga, poldan 40 sm yuqori ko'tarib tashkil qilinadi.

3. O'qituvchining ish o'rniga taalluqli bo'lgan barcha asbob-uskunalar, o'quvchilarga ko'rsatilayotgan ko'rgazmali qurollar yaxshiroq ko'rinib turishi uchun balandroq joyga qo'yilishi zarur.

4. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan mehnat usulini yaxshiroq idrok etishlari uchun namoyish qilinadigan dastgoh o'quvchilarga yon tomonidan ko'rinadigan qilib o'rnatilishi lozim.

5. Ko'rgazmali qurollar uchun qutilarda plakatlar, sxemalar, jadvallar, texnologik kartalar, chizmalar, asboblari, buyumlar va hajmli qurollar ma'lum tizimda joylashtirilishi kerak.

6. Chala fabrikatlar va tugallanmagan buyumlarni saqlash qutilarida o'quvchilar ularni yo'qotib qo'ymasligi yoki zagotovka bilan almashtirib qo'ymasligi uchun sharoit yaratilgan bo'lishi lozim.

7. O'qituvchi ish stolining o'ng tomoniga shkaf qo'yilib, unda o'qituvchi uchun zarur asbob-uskunalar saqlanishi kerak.

8. Ustaxonada o'qituvchining ish o'rnida sinf doskasi bo'lishi va uning tepasiga turli plakatlar, chizmalar, texnologik kartalar, texnik hujjatlar osib qo'yilishi, doskaning tagida chizmalar chizish uchun kerakli qurollar bo'lishi lozim.

9. O'qituvchining ish o'rnida aptechka qutichasi bo'lishi shart.

### **Mehnat ta'limida ko'rgazmalilik prinsipi**

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda va mehnat ta'limi berishda ko'rgazmalilik prinsipi o'quv materialini o'tishda o'quvchilar



o'rganilayotgan hodisa va buyumni jonli idrok etish asosida tasavvur etishlarini ko'zda tutadi. O'qitishning bu prinsipi o'qituvchidan shunday o'qitishni talab qiladiki, natijada o'quvchilarda ma'lum tasavvur va tushunchalar hosil bo'lsin.

K. D. Ushinskiy ko'rgazmali ta'limni ifodalab, bu ta'lim tasavvur va so'zlarga emas, balki o'quvchilar bevosita idrok etadigan konkret obrazlarga asoslangan ta'limdir, deb aytgan edi.

O'quvchilar tomonidan bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan ko'rgazmalilik prinsipi didaktikada allaqachon ishlab chiqilgan va u Yan Amos Komenskiydan to hozirgi kungacha hamma taniqli pedagoglar tomonidan ta'kidlab kelingan.

Mehnat darslari ko'rgazmali bo'lishi uchun ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar o'tkazish, o'qitishning texnik vositalaridan, plakatlari, sxemalar, diagrammalar, jadvallar, namuna buyumlari, asboblari, kompyuter texnikasi, slaydlar, stanoklar, mashina detallari, turli xil mexanizmlar va shularga o'xshashlardan keng foydalanish lozim.

Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi faqatgina ko'z bilan ko'rish emas, balki eshitish, sezish va idrok etishning boshqa turlarini o'z ichiga oladi. Xalqimizda shunday hikmat bor: «Ming marotaba eshitgandan ko'ra bir marotaba ko'rgan ma'qul». O'quv jarayonida ko'rgazmalilik o'quvchilarning o'rganilayotgan o'quv materialiga qiziqishini orttiradi, shu ko'rgazmaga kuzatuvchining e'tiborini jalb qiladi. Masalan, o'quvchilarga ichki yonuv dvigatelining tuzilishini o'tish mavzusida ichki yonuv dvigatelining turlarini aytish bilan birga avtomashina dvigatelining silindrlar golovkasini, krivoship-shatun mexanizmini, yonish kamerasini, gazlarni qabul qilish va chiqarish klapanlarini birma-bir ko'rsatib, ularning ishlashi kuzatilsa, o'quvchi xotirasida uzoq vaqt qoladi.

Ko'rgazmalilik, o'z navbatida, o'quvchilar uchun tomoshaga aylanmasligi zarur. Ko'rgazmalilikning metodik talablariga rioya qilish lozim. Bu metodik talablar quyidagilar:

a) ko'rgazmalilik o'quv mavzusiga mos va konkret bo'lishi kerak;

b) bir darsning o'zida hamma ko'rgazmalarni osib qo'yish yaxshi emas, balki har qaysi didaktik o'quv qurolini uni tushuntirishdagina ko'rsatish lozim;

ishida bemalol foydalansa bo‘ladi. Bunday birikma bilan yelimplangan mato bir marta tekis qilib qoplansa kifoya.

Agar ikkinchi marta gruntlash zarur bo‘lsa, eritmaga bo‘r kukuni bilan barobar miqdorda oq bo‘yoq kukuni qo‘shish lozim bo‘ladi.

Moybo‘yoqlar bilan ishlaganda ularning ba’zi birlari matoga yaxshi, ba’zilari esa yomon surkaladi. Ularning bu xususiyatidan bilib, unumli foydalanish kerak.

Ma’lumki, rangtasvir asarlarining mustahkamligi va uzoq saqlanishi gruntlarning sifatiga bog‘liq. Sifatsiz qoplama (grunt) asar sathining tez orada yorilib ketishiga, uning bo‘yoqlari ko‘chib ketishiga sabab bo‘ladi. O‘zlari qoplama tayyorlab matoga ishlov beruvchi rassomlar yoki o‘quvchilar ularni tayyorlash qoidalariga katta e’tibor berishlari kerak.

**Palitra.** Moybo‘yoq bilan rangtasvir ishlash uchun palitra va boshqa asbob-uskunalar zarur bo‘ladi.

Palitra qattiq va yengil daraxt turlaridan tayyorlanadi. Ularning eng yaxshisi yong‘oq, o‘rik, tut daraxtlaridir.

Palitralar oval va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lishi mumkin.

Katta hajmdagi surat ishlash uchun kattaroq palitra ishlatish maqsadga muvofiq.

Tubikdan siqib tushirilgan bo‘yoqlarning moyini shimib ketmasligi uchun palitraga qaynatilgan kanop moyini surkab shimdirish lozim, 2 — 3 kun turgandan so‘ng palitradagi moy shimilib quriydi, keyin unga tubikdan bo‘yoqlarni quyidagi tartibda joylashtirish mumkin. Oq, sariq, zarg‘aldoq, qizil, oxra, jigarrang, yashil, havorang va hokazo. Ular to‘q-ochligi yoki iliq yoki sovuq ranglar bo‘yicha ajratib chiqarilishi ham mumkin. Palitrani ishlatib bo‘lgandan so‘ng, albatta, masxitin bilan tozalab, latta bilan artib qo‘yishga odatlanish lozim.

Bo‘yoqlarni quyidagi tartibda qo‘yilsa ishlash uchun qulay bo‘ladi:

Yuqori qatorda o‘ng tomondan issiq bo‘yoqlar — oq, sariq, zarg‘aldoq, qizil, jigarrang, palitraning chap tomonidan sovuq rangdagi bo‘yoqlar barikaram, ko‘k, zangori, qora joylashtiriladi, bunda biz iliq va sovuq ranglarni yaqqol ajrata olamiz. Palitraning o‘rta qismida esa bo‘yoqlarni qorishtirish va aralashtirish mumkin.

Rangtasvir bilan shug‘ullanganimizda, albatta, palitrani chap qo‘limiz bilan ushlab, o‘ng qo‘l bilan bo‘yoqlarni qorishtirib, rangni

topamiz. Nima uchun biz palitrani chap qo'l bilan ushlab, qo'limizga yaqinroq olib kelib rang topamiz? Bunga bir misol keltiraylik. Yevropa qoidasiga muvofiq skripka chalganda chap yelkasiga skripkaning tag tomonini qo'yib chalsa, chaluvchining qulog'iga tovush ohanglarining nozik tomonlari yaxshi eshitiladi. Rangtasvirda esa rassom palitrada bo'yoqlarni aralashtirayotganda ko'zga yaqin olib kelsa, qorishtirilayotgan bo'yoqlarning nozik ranglarini osonlik bilan topa oladi.

**Masxitin** moybo'yoqlarda ishlatiladigan ish quroli. Bunda ranglarni bir-biriga aralashtirish va qalin qatlam yuzasiga ranglarni berishda foydalaniladi.

Masxitin yordamida keskin va uzib-uzib ishlash, ularga mazok berish usulida keng foydalanish mumkin.

**Etudnik** — etud ishlashga moslashtirilgan ko'chma dastgoh. Bunda rangtasvir mashg'ulotlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Etudnikning qulayligi shundaki, moy bo'yoq mashg'ulotlarida ishlatiladigan barcha ish qurollarini joylashtirish mumkin.

Etudnikning yana bir qulayligi shundaki, u duch kelgan joyda, ya'ni har xil sharoitda etud ishlash uchun kerakli ko'chma dastgohdir.

### **Bo'yoqlarni ishlatish texnologiyasi**

Bo'yoqlar ikki turga bo'linadi: suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar va moy bilan ishlatiladigan bo'yoqlar. Suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar sirasiga akvarel, tempera, guash bo'yoqlari va tush kabilar kiradi. O'quvchilar suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlardan foydalanishning o'ziga xos mahoratlarini egallab olganlaridan so'nggina moybo'yoqda rangtasvir ishlashga o'tadilar. Moybo'yoqda rangtasvir ishlashning o'ziga xos tartib-qoidalari hamda tayyorgarlik bosqichlari mavjud. Zero, mazkur xususiyatlarni bilmasdan turib, kerakli maqsadga erishish qiyin, albatta. Tasviriy san'at ta'limi jarayonining barcha bosqichlarida ranglar vositasida, bo'yoqlar bilan ishlash muhim o'rin tutadi. Bu boradagi bilimlar nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Shuning uchun har bir rasm chizishni puxta o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kishi maxsus o'quv adabiyotlaridan foydalanib mahoratini oshirib borishi lozim. Bu borada rang-

shunoslik fanining har bir qismi sinchkovlik bilan o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Akvarel** bo'yoqlar yelim bo'yoqlar qatoriga kiradi. Akvarel lotincha so'z bo'lib, «akva» — suv demakdir. Bu bo'yoq suvda tez eriydi. Akvarel bo'yoqning bog'lovchisi o'simlikdan olinadigan rangsiz yelim — gummiarabik va dekstrindir. Bular suvda oson eriydi. Akvarel bo'yoqqa yana glitserin va qand ham qo'shiladi, shuning uchun bo'yoq mayin va yumshoq bo'ladi. Glitserin esa bo'yoqning tez qurib qolishiga yo'l qo'ymaydi, u namni saqlab turadi.

Akvarel bo'yoq boshqa bo'yoqlarga nisbatan yorqin, toza va jozibalidir. Shuning uchun u bilan ishlangan tasvirlar chiroyli, nafasatli ko'rinishi sababli kishi e'tiborini jalb qiladi. Akvarel bo'yog'ida o'quv-mashq vazifalarni, shuningdek, badiiy asarlarni yaratish mumkin. Bundan, albatta, bo'yoqning va rang tanlashning xususiyatlarini yaxshi bilish lozim.

Akvarel bo'yoq bilan rangtasvirni uzoqroq ishlash uchun bo'yoqni qog'ozga juda yupqa qilib surkash zarur, shunda bo'yoq qog'ozga mahkam yopishadi va rangning tiniq chiqishiga imkon beradi. Bo'yoqni yupqa ishlatish havo masofani ko'rsatish, quyuq soyalarni topish va temir, oyna, chinni asboblarning manzarasini o'z xususiyatlari bilan ko'rsatishga yordam beradi.

**Moybo'yoq.** Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moyli bo'yoqning sekin qurishi yaxshi vosita bo'lib, undan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lok ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (palitra) ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratilib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirishi mumkin. Oq bo'yoq, odatda, o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Guash** bo'yog'i o'tgan asrlardan buyon keng qo'llanib kelinayotgan tasviriy san'at ashyolaridan biridir. Bu material

rangtasvir, grafika, plakat hamda bezakchilik san'atida keng ko'lamda ishlatiladi. Suv bilan qo'shib tezkorlik bilan katta-katta sathlarga ishlov berish, tasvirni rangdor qilib namoyon etishga qulay bo'lgan bo'yoq hozirgi paytda sanoat miqyosida ko'plab ishlab chiqariladi. Guash bilan deyarli barcha janrlardagi asarlarni, shuningdek, o'quv-mashq vazifalarini yaratish mumkin. Ayniqsa, moybo'yoq texnikasini o'rganishda avvalgi bosqichda guashda o'quv-topshiriq ishlaridan natyurmortlarni ishlash yaxshi samara berishi mumkin.

### **Amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha METODIK TAVSIYALAR**

Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitish metodlari hammasi uchun bir xil bo'la olmaydi. Texnik mehnat ta'limi va mehnat amaliy mashg'ulotlari o'quv dasturlarida o'qitishning 75% amaliy ishini tashkil qilishi ko'rsatilgan.

O'quv ustaxonalaridan to'g'ri va unumli foydalanish ularda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning duradgorlik, chilangarlik va boshqa o'quv ustaxonalarida o'qituvchi rahbarligida bajaradigan mustaqil mehnat faoliyatidir.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'quvchilarni ustaxonalarga shunday taqsimlashi kerakki, ular bimalol ishlay olsinlar. Har bir amaliy mashg'ulotda o'quvchi o'zi uchun belgilangan ish o'rnida amaliy ish bajaradi. Amaliy mashg'ulotda o'quvchilar soni 11 — 24 tagacha bo'lishi mumkin. O'quvchilar soni 25 dan oshsa, amaliy mashg'ulot ularni ikki guruhga 12 yoki 13 tadan bo'lib o'tkaziladi.

Odatda, amaliy mashg'ulotlar quyidagi umumiy struktura bo'yicha olib boriladi:

1. Texnik mehnat ta'limi o'qituvchisi tomonidan mashg'ulotning mazmuni, ish shakli haqida tushuncha beriladi.

2. Dastlabki ish namunalari ko'rsatiladi.

3. O'quvchilarning dastlabki tajriba mashqlari bajariladi.

4. Mashg'ulot topshiriqlarini bajarishga kirishiladi.

5. O'qituvchining umumiy kuzatish va nazorati olib boriladi.

6. Mashg'ulotga yakun yasaladi.

Yuqoridagi amaliy mashg'ulotlar strukturasi hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. Darsning mazmuniga qarab o'quvchilar uchun amaliy mashg'ulot tashkil etilsa, ancha to'g'ri bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot metodi o'quvchilarni ishga odatlantiradi, kelajak ishlab chiqarish mehnatiga o'rgatadi, ularni kasb tanlashga yo'naltiradi.

Amaliy mashg'ulot oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bajargan ishlarini yakunlaydi, mashg'ulot olib borishdagi yutuq-kamchiliklar haqida, shuningdek, kelgusida yana ham yaxshiroq ishlash uchun nimalar qilish kerakligini aytib o'tadi. O'quvchilarning ishlari yig'ib olinadi va har qaysi o'quvchining ishi alohida baholanadi.

O'quvchilarning o'quv ustaxonalarida yasagan buyumlarining yaxshilari namuna tariqasida ko'rgazmaga qo'yiladi.

### **Amaliy mashg'ulotlarda muammoli o'qitish metodi**

Ta'lim tizimida, shuningdek, texnik mehnat mashg'ulotlarini o'tkazishda o'quvchilarga texnik bilim, mehnat ko'nikmasi va malakasi berishda boshqa ta'lim metodlariga qaraganda muammoli o'qitish metodi asosiy hisoblanadi.

Muammoli o'qitish metodida dars jarayonida o'quvchilarga bilimlar tayyor holda ma'lum qilinmaydi, balki ular oldiga mustaqil hal etish uchun bitta yoki bir nechta muammolar qo'yiladi. Bu qo'yilgan muammolarning o'quvchilar tomonidan to'g'ri hal etilishi hosil qilingan ilmiy-texnik bilimlarning yetarli darajada mustahkam bo'lishiga bog'liq.

Muammoli ta'lim metodi, o'z navbatida, quyidagi didaktik talablarga javob bera oladigan bo'lishi lozim:

1. O'qituvchi har bir o'quv mashg'ulotining mazmunini atroflicha puxta o'ylagani holda o'quvchilar hal qila olishi mumkin bo'lgan muammoni qo'yishi zarur.

2. Maktab o'quvchilarining yoshini, psixologiyasini, bilim darajasini hisobga olgan holda dars jarayonida muammoni qo'yish mumkin.

Qo'yiladigan o'quv muammosi, albatta, umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat ta'limi dasturiga oid masalalarni o'z ichiga olishi kerak.

## **Tasviriy san'at darslarini o'tkazish bo'yicha METODIK TAVSIYALAR**

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar birlikda amalga oshirilgan taqdirdagina kerakli samarani beradi. San'at asarlarini tahlil qilish esa bolalarda badiiy idrok etish malakalarini rivojlantirish, san'at tarixidan faktik materiallarni o'rganish, maxsus termin va tushunchalarni o'zlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Amaliy ishlarning mazmuni, turi va qo'llaniladigan texnikasiga qarab turli-tuman bo'lishi yaxshi natijalar beradi. Masalan, darslarda loy bilan ishlash, amaliy san'at bilan shug'ullanish, tabiiy materiallarni qo'llash, akvarel, guash, tush, plastilin, flomaster, marker kabi bo'yoqlar va materiallardan foydalanish, qog'oz, gazmol, yog'och va boshqa materiallarni kesish, yopishtirish, montaj qilish kabilar.

Tasviriy san'at darslarini tarix, geografiya, chizmachilik, fizika, musiqa, jismoniy tarbiya, kimyo kabi o'quv fanlari bilan bog'lab o'tkazishni ham yaxshi yo'lga qo'ymoq lozim.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tematik rejalashtirishda uni yil fasllari, qizil kalendar kunlari, maktablarda o'tkaziladigan turli tadbirlar bilan bog'lash yaxshi natijalar beradi.

Xalq ta'limi faoliyati rivojlangan hozirgi paytda har bir darsni yuqori saviyada o'tkazish uchun «Tasviriy san'at xonasi» tizimida, texnik vositalar va ko'rgazmalilik asosida dars olib borish talab etiladi. Ayniqsa, tabiat manzaralari aks etgan tasviriy san'at asarlari, perspektiva, rangshunoslik qonunlarini, buyuk rassomlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishni «Tasviriy san'at xonasi» siz, texnik vositalarsiz va ko'rgazmali qurollarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bular esa o'qituvchi vaqtini tejaydi, o'rganiladigan obyekt va narsalar haqida batafsil tushuncha beradi, sinfda emotsional-estetik vaziyat hosil qiladi, san'at asarlarini idrok etishni osonlashtiradi va o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at fani mashg'ulotlarida quyidagi hollarga rioya qilish kerak bo'ladi:

— tasviriy san'at mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni uzviy bog'liq ravishda amalga oshirish.

Bunda asosiy kuchni g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga qaratish;

— hozirgi zamon pedagogikasining didaktik prinsiplariga qat’iy rioya qilish;

— ayniqsa, ta’limning tarbiyaviy prinsipiga, uning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishda bo‘lishiga, ilmiylik va ko‘rgazmalilik prinsipiga, ta’limning faollik va onglilik, tizimlilik va ketma-ketlik prinsipiga, o‘quvchilarning saviyasiga mos bo‘lish prinsipiga alohida e’tibor berish;

— hamma darslarni «Tasviriy san’at xonasi» tizimida o‘tkazishga erishish;

— o‘quvchilarni tasviriy san’atni hurmat qilish va qadriga yetish ruhida tarbiyalash;

— o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini muntazam ravishda oshira borish;

— tasviriy san’atni maktabda o‘qitiladigan deyarli hamma fanlar bilan o‘zaro aloqada o‘tkazishga erishish;

— tasviriy san’at darslarini darsdan va maktabdan tashqari ishlar bilan bog‘lab olib borishga erishish.

O‘qituvchi mashg‘ulotlarni shunday tashkil etishi lozimki, u har bir o‘quvchining mustaqil fikr yuritishiga, vazifalarni mustaqil hal qilishiga, mustaqil bilim olishiga yordam bersin.

«O‘quv jarayoniga, darsga bo‘lgan muhim talablar — hamma o‘quvchilarda ijodiy mehnatning zaruriy sharti hisoblangan mustaqil ijodiy fikrlashni o‘stirishdir. Buning uchun shablon, tayyor retsept asosida emas, o‘ziga xos original, mustaqil, ijodiy ravishda o‘ylash, bajarish yuzasidan qilingan eng oddiy harakatlarni ham qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘ladi» — deb yozadi M.N. Skatkin. Bu fikr tasviriy san’at faniga bevosita aloqador bo‘lgan va uning oldiga qo‘yilgan eng muhim va zarur talablardan, deb hisoblasak, yangilishmagan bo‘lamiz.

### ***Nazorat savollari***

1. Rassomchilikda foydalaniladigan qog‘ozning turlarini aytib bering.
2. Ko‘mir tayogchalarini nima uchun ishlatiladi?
3. Planshetdan foydalanish qoidalarini aytib bering.
4. Bo‘yoqlar bilan ishlashga oid xil qurollariga nimalar kiradi?



---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I. A.* O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. —T.: O‘zbekiston, 1999.
2. *Karimov I. A.* Barkamol avlod orzusi. — T.: Sharq, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T.: O‘zbekiston, 2011.
4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. —T.: Adolat, 2011.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5–6-son. 2002-y., 1-son, 20-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son.
7. *Kudratov O., G‘aniyev T.* Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi. —T.: Yangi asr avlodi, 2005.
8. *Parmonov A.E., Igamberdiyev A.* Hayot faoliyati xavfsizligi. — T.: Iqtisod-moliya, 2008.
9. *Rahimova X., A‘zamov A., Tursunov T.* Mehnatni muhofaza qilish. —T.: O‘zbekiston, 2003.
10. *Yo‘ldoshev U., Usmonov U., Qudratov O.* Mehnatni muhofaza qilish. —T.: Mehnat, 2001.
11. *Xudoyev A.D.* Yong‘in xavfsizligi —T.: Poligrafiya, 1999.
12. *F. Ilyosova.* Hayot xavfsizligi asoslari. Uslubiy qo‘llanma. — T.: Moliya, 2001.

# MUNDARIJA

|                    |          |
|--------------------|----------|
| <b>Kirish.....</b> | <b>3</b> |
|--------------------|----------|

## **1-bob. TA'LIMGA VA MEHNAT MUHOFAZASIGA OID QONUNLARNI O'RGANISH**

|                                                                                                                        |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1.1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimidagi islohtlar.....                                                       | 5  |
| 1.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mehnatga, ta'limga,<br>sog'liqqa tegishli moddalarini o'rganish..... | 15 |
| 1.3. «Mehnat muhofazasi» fanining insonlar hayotida tutgan o'rni.....                                                  | 17 |

## **2-bob. MEHNAT QONUNIYATLARI ASOSLARI**

|                                                                                                                                                                                            |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 2.1. Mehnat muhofazasiga oid asosiy qonunchilik aktlari.....                                                                                                                               | 20 |
| 2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ishchi va<br>xizmatchilarning huquqlari, dam olish, o'qish, ijtimoiy<br>ta'minot huquqlari, ishga olish, ishdan bo'shatish tartiblari..... | 37 |

## **3-bob. ISHLAB CHIQARISH SANITARIYASI ASOSLARI**

|                                                                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 3.1. Ta'lim tizimiga qarashli tashkilot va muassasalarda mehnat<br>muhofazasiga oid umumiy masalalar va xavfsiz mehnat<br>sharoitlarini ta'minlash bo'yicha vazifalar..... | 47 |
| 3.2. Inson organizmining tashqi muhitga moslashuvi.....                                                                                                                    | 66 |
| 3.3. Korxonalardagi xonalarning meteosharoiti.....                                                                                                                         | 71 |
| 3.4. Mehnat muhofazasi talablariga rioya qilishda direktor<br>va direktor o'rinbosarining roli.....                                                                        | 75 |
| 3.5. Dars, ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etish, ekskursiya<br>vaqtida xavfsizlikni ta'minlashda o'qituvchining roli.....                                               | 79 |

## **4-bob. BAXTSIZ HODISANI HISOBGA OLISH VA TAHLIL QILISH**

|                                                                                                           |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 4.1. Baxtsiz hodisalarni aniqlash, hisobga olish va uning kelib<br>chiqish sabablarini tahlil qilish..... | 82 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

## **5-bob. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA ULARNING OLDINI OLISH**

|                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 5.1. Ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va o'qituvchi nazoratida<br>ishlash..... | 106 |
|------------------------------------------------------------------------------------|-----|

**6-bob. O'QUV USTAXONASIDA SODIR BO'LISHI MUMKIN  
BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA ULARNING  
OLDINI OLISH**

- 6.1. O'quv ustaxonasi ish qurollaridan to'g'ri foydalanish,  
o'quvchilarga yo'riqnoma berish va o'qituvchi rahbarligida  
ishlash.....116
- 6.2. Ish jarayonida ish va o'quv qurollaridan foydalanish qoidalarini.....125

**7-bob. SINFDAN TASHQARI MAKTAB ATROFIDA  
SODIR BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ  
HODISALAR VA ULARNING OLDINI OLISH**

- 7.1. Maktab ichki tartib-qoidalarini hamda o'quvchilarning burch va  
vazifalari .....131
- 7.2. Baxtsiz hodisa ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish chora-  
tadbirlari.....154

**8-bob. YONG'IN VA ELEKTR XAVFSIZLIGI  
QOIDALARI**

- 8.1. Yong'in va elektr xavfsizligi qoidalarini bilan tanishtirish,  
ular sodir bo'lganda bartaraf etish choralarini ko'rish.....167

**9-bob. YO'L HARAKATI QOIDALARI BILAN  
TANISHTIRISH**

- 9.1. Ko'cha harakati qoidalarini va yo'l belgilari .....184

**10-bob. SINFXONALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR  
(KOMPYUTER, FIZIKA, KIMYO)**

- 10.1. Sinfxonalariga qo'yiladigan umumiy sanitariya, gigiyenik va  
xavfsizlik talablari.....200
- 10.2. Kompyuter, fizika va kimyo xonalariga qo'yiladigan xavfsizlik  
talablari .....211

**11-bob. MEHNAT VA TASVIRIY SAN'AT XONALARIGA  
QO'YILADIGAN TALABLAR**

- 11.1. Mehnat xonalarida ish jarayonida ko'rgazma qurollaridan  
foydalanish.....221
- 11.2. Tasviriy san'at xonalarida ko'rgazma qurollaridan foydalanish.....232
- Foydalanilgan adabiyotlar.....245

P-25 **Parmanov A.E. Mehnat muhofazasi.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma (2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. — 248 b.

UO'K: 331.105.44

KBK 74.200.52ya722

ISBN 978-9943-16-104-7

ALIBOY ERGASHEVICH PARMANOV  
SHAVKAT SAFAROVICH SHARIPOV  
G'ANI TOSHXODJAYEVICH DADAYEV

## **MEHNAT MUHOFAZASI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *B. Xudoyorova*  
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*  
Musahhih *T. Mirzayev*  
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Yo'ldosheva*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 19-sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 15,5.  
Nashr tabog'i 14,0. 1429 nusxa. Buyurtma № 54

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 27 — 2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.